39. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., & Juraevna, A. S. (2021). The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
40. Mannopov, S., Karimov, A., Ataboeva, S., Ergashev, A., & Usmanova, S. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 53-56.
41. Karimov, A., Mamaziyaev, K., Kholikova, G., Ergashev, A., & Kirgizov, I. (2021). Symbol Of Instruments In State Performance Served In Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
42. Abduvali o'g'li, A. A. (2023). XX ASR MUSIQA SAN'ATI RIVOJINING VA'ZI XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 729-734.
43. Абдусатторов, А. А. Ў. (2023). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 521-526.
44. Abdusattorov, A. (2023). MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 8-12.
45. Abdusattorov, A. (2023). TORLI KVARTET UCHUN ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI. *Наука и инновация*, 1(9), 4-7.
46. Абдусатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.
47. Nasritdinova, M., Nigora, M., & Murodova, D. (2022, February). UZBEK FOLK ART AND ITS PLACE IN PUBLIC LIFE. In *Archive of Conferences* (pp. 44-48).
48. Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna MUSIQIY TA'LIM ESTETIK TARBIYA TAYANCHI *Uzbek Scholar Journal* 2022/9/23 Volume8 (95-97)
49. Мансурова НАЦИОНАЛЬНОЕ МУЗЫКАЛЬНОЕ НАСЛЕДИЕ, НАПРАВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ЕГО СОХРАНЕНИЯ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал Issue 11 258-265

50. N Mansurova NATIONAL MUSICAL HERITAGE, DIRECTIONS OF THE PEDAGOGICAL PROCESS FOR ITS PRESERVATION AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS «Science and innovation» 2023 Volume 2 Issue C5 85-91



Research Science and
Innovation House



Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish

Shermetova Nargiza- UrDU Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kefedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish masalasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, ona tili darslari, mustaqil ish, o‘quv topshiriqlari, o‘quv material, grammatik topshiriqli diktant, dars samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос эффективной организации самостоятельной работы учащихся на уроках родного языка в начальных классах.

Ключевые слова: начальное образование, уроки родного языка, самостоятельная работа, учебные задачи, учебный материал, диктант с грамматическими заданиями, эффективность урока.

Abstract. This article discusses the issue of effective organization of students' independent work in primary-grade native language classes.

Key words: primary education, native language lessons, independent work, educational tasks, educational material, dictation with grammar tasks, lesson efficiency.

Barkamol shaxsni tarbiyalash barcha davrlarda muhim ijtimoiy talablardan biri bo‘lib kelgan, bugungi globalshuv davrida bu masalaning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Binobarin, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta‘lim oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Axborotlar jadallik bilan integratsiyalashib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy ta‘limning asosiy vazifalardan biri atrof-olam voqea-hodisalarini ta‘lim jarayoni orqali mustaqil tahlil qila oladigan shaxsni kamol toptirishda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan borar ekan, bunda yosh avlodning erkin, ijodiy va mustaqil fikrli bo‘lishi

juda muhimdir. Bu maqsadga, albatta, o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirib borish orqali erishish mumkin. Mustaqil ishlarsiz esa hech qanday faollik bo‘lmaydi. Darslarda o‘tkaziladigan mustaqil ishlar o‘quvchilarning faolligini oshirishning asosiy vositalaridan biridir. Shuningdek, darslarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar o‘quvchilarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirishning yetakchi omilidir.

Boshlang‘ich ta’lim predmetlaridan biri sanalgan “Ona tili” o‘quvchilarda mustaqillikni taraqqiy ettirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Ona tili materiallari ustida tashkil qilinadigan topshiriqlar o‘quvchilarni til hodisalarini kuzatish, tahlil qilish va qayta qo‘shish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish kabi malakalarini o‘stiradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanish darsning samaradorligini oshirishda asosiy omil sanaladi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlarni samarali tashkil qilish masalasi muhim metodik masalalardan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta’lim belgilangan o‘quv topshiriqlarni mustaqil va ijodiy bajarishga mo‘ljallangan o‘quv faoliyatidir. Mustaqil ta’lim negizini mustaqil ishlar tashkil etadi. Mustaqil ish o‘quvchilarni o‘zaro fikr olishuvida, bog‘lanishli nutqda, tanqidiy fikrlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Mustaqil ishlar o‘quvchilar amaliy faolligini oshirishda katta yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili kursini o‘rganishning yetakchi lisoniy tamoyili tilning barcha tomonlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishdir.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlar dars turiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o‘quv materialining mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tilidan o‘rganiladigan har bir mavzu xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyushtirishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, 1-2-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda ko‘proq fonetik-grafik malakalar hosil qilinadi. Bunday ona tili darslarida tashkil qilinadigan mustaqil ishlar o‘quvchilarning avval olingan bilimlarini amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi lozim bo‘ladi. Shunday mustaqil ishlarga tarqatma kartochkalar asosida beriladigan quyidagi mustaqil ishlarni namuna sifatida keltiramiz:

1. So‘zlarni bo‘ginlarga ajratib yozing

Mustaqil Ozbekistonning baxtiyor farzandlarimiz.

2. Fonetik topshiriqlar

So‘zlardagi unli (yoki undosh) tovushlarning ostiga chizing: istiqlol, sog‘lom bola, yuksalish

3. So‘zlarni bo‘gin ko‘chirish qoidasiga ko‘ra ajratib yozing

Singlim yangi she‘rni yod oldi.

Ona tili darslarida o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda grammatik topshiriqli diktantlar ham alohida o‘rin tutadi. Buning uchun kichik hajmdagi diktantlar yozdiriladi va o‘quvchilarga grammatik topsiriqlar ham beriladi. Bu topshiriqlar bevosita yangi o‘rganilgan mavzular bilan bog‘liq holda o‘quvchilarning grammatik tushunchlarni o‘zlashtirishiga yordam berishi lozim bo‘ladi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning so‘z turkumlari haqidagi tushunchalarini shakllantirishda va nutq jarayonida ulardan unumli foydalanish ko‘nikmalari hosil qilishda quyidagi mustaqil ishlarni qo‘llash yaxshi samara beradi:

Nuqtalar o‘rniga kerakli sifatlarni qo‘ying

Paxta ochildi. (oppoq, qiyg‘os, kech)

... atirgullar ko‘zni quvontiradi. (oppoq, ko‘m-ko‘k, chiroyli)

Nuqtalar o‘rniga kerakli fe‘llarni qoying

Feruza bu kitobni qiziqib (gapirdi, o‘qidi, ko‘rdi)

Akmal ko‘chatlarga suv (soldi, quydi, chopdi)

Bunday mustaqil ishlar o‘quvchilardan so‘zning ma‘no xususiyatlarini ham bilishni hamda ulardan nutqda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni ham talab etadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlarni integratsiyalashgan ta‘lim asosida tashkil qilish ham samarador bo‘ladi. Xususan, 4-sinfda so‘z turkumlari bo‘yicha umumlashtirish darslarida o‘quvchilarga muayyan bir predmet rasmi beriladi va ulardan shu predmet nomini aytish, uning belgilarini ko‘rsatish, shu predmetni qatnashtirib gaplar tuzish, shu predmet haqida boshqa fanlar asosida, jumladan, o‘qish, matematika, atrofimizdagi olam, musiqa, tasviriy san‘at kabilarda olgan bilimlarini umumlashtirish topshiriladi. Masalan, “kitob” rasmi berilganda oquvchilar u haqda o‘quv quroli, bilimlar manbai, o‘quvchining o‘rto‘gi, ma‘rifat xazinasini kabi fikrlarni bildiradilar. Uni kerakli, qiziqarli, foydali, yangi, eski, tushunarsiz, ilmiy, badiiy kabi belgilar bilan sifatlaydilar. O‘qish darslarida kitob

haqida o‘rgangan she’rlarini aytadilar. Shuningdek, u haqdagi maqollarni ham keltiradilar: “Kitobdan yaxshi do‘sty o‘q”, “Kitob – bilim manbai” kabi.

O‘quvchilar bunda kitob haqidagi hikoya yoki ertaklarni ham aytadilar. Ular musiqa darslarida o‘rgangan shu mazmundagi qo‘shiqlarni ham aytishlari mumkin.

Ona tili darslarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilganda ham mustaqil ishlardan foydalanish samarador bo‘ladi. Ayniqsa, kichik guruhlar bilan ishlashda har bir guruhga mustaqil ish topshiriqlarini berish va shu asosda o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Ko‘rinadiki, darslikdan tashqari bo‘lgan namuna asosidagi mustaqil ishlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqil ishlar ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashda, o‘qitishning muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi va kamchiliklarini tugatadi, sababini izohlaydi, uni bartaraf etish usullarini topadi.

Demak, barkamol, bilimli, yetuk shaxsni tarbiyalashda uning mustaqil fikr yurita olish salohiyatiga ega ekanligi diqqatga sazovordir. Chunki har qanday bilim zamirida mulohaza va tafakkur yotadi. Til ta’limi yosh avlodni- o‘quvchilarni fikr bayon etish faoliyatiga tayyorlar ekan uni amalga oshirishda ta’limning yangi shakllari va ta’lim texnologiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi, - Toshkent, 2017.
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, “Nosir”, 2009.

Research Science and Innovation House

Ta’limiy o‘yinlar vositasida boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning fonetik-grammatik tushunchalarini shakllantirish

**Baxtiyorova Mahliyo- UrDU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrası
o‘qituvchisi**

Аннотация. В этой статье изучены пути использования обучающих игр на уроках родного языка в процессе формирования фонетико-грамматических понятий у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: начальное образование, фонетико-грамматическое понятие, обучающая игра, развитие речи, состав слова, эффективность образования.

Annotation. In this article authors research the ways of using learning games for enriching phonetic and grammar knowledge of elementary school pupils.

Key words: elementary education, phonetic and grammar knowledge, learning game, word composition, development of speech, effectiveness of education.

Ona tili maktabda o‘quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o‘shishida, bilim va mehnatga havasini uyg‘otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg‘ulotlar tizimi shunday qurilishi kerakki, bu tizim o‘quvchilarda ona tiliga muhabbat, o‘z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o‘stirishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi, yuqorida ta’kidlanganiday, bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o‘z g‘alalar fikrini anglash, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini

rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta’limiga o‘quv fani sifatida emas, balki butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta’kidlash joizdir.

Boshlang‘ich ta’lim davlat qonunini hayotga tatbiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili o‘qitish asosiy o‘rin egallaydi. “Boshlang‘ich ta’limning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barcha pedagogik -psixologik vositalarni qo‘llagan holda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda yaxlit tarzda o‘quv faoliyatini shakllantira olishi kerak”. (1.14)

Ona tili fani shunchaki fonetik-grafik va grammatik tushunchalarni bir yoqlama shakllantirish vazifasini bajarmaydi, balki o‘quvchilarni badiiy til vositalari bilan ta’minlashi, ularda go‘zal nutq madaniyatini tarbiyalashi. Og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishi, fikr -mulohazalarini ifodali bayon etishga o‘rgatib borishi zarur. O‘quvchilar har bir ilmiy -nazariy tushunchani amalda qo‘llay olishlari uchun ona tili mashg‘ulotlarida samarali mashqlar tizimi qo‘llanib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ona tili o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo‘llaniladigan usullar, mashqlar variantlari ko‘p. Fonetik-grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida ta’limiy o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. (2. 42)

Ta’limiy o‘yin mashqlari ma’lum talab asosida berilib, mavzu yuzasidan o‘quvchini amaliy faoliyatga yo‘naltira oladigan ta’limiy materialdir. Ular har bir mavzu doirasida shu mavzuni ongli o‘zlashtirish, mavzu yuzasidan o‘qituvchining

olgan bilimni mustahkamlash va sistemaga solish, ogʻzaki va yozma nutq malakalarini oʻstirish maqsadida beriladi.

Taʼlimiy oʻyinlarning boshqa mashq turlari (koʻchirib yozuv, tahlil, diktant, bayon, insho) dan farqi shuki, bunda, bir tomondan, oʻquvchilarning zerikishi, charchogʻiga barham berilsa, ikkinchi tomondan, bolalarning fikrlash jrayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi.

Boshlangʻich sinflar ona tili dasturidagi har bir mavzu boʻyicha muayyan shakldagi taʼlimiy oʻyinni tashkil qilish mumkin. Oʻqituvchi, avvalo, taʼlimiy oʻyinning taʼlimiy-tarbiyaviy maqsadini belgilab, oʻyinga kerakli materialni tayyorlab, oʻquvchilarga taʼlimiy oʻyinni oʻtkazish tartibini aniq tushuntirib berishi, taʼlimiy oʻyinni oʻzi boshqarib borishi, oʻquvchilarning xatolarini yoʻl-yoʻlakay tuzatib borishi kerak. Oʻyin oxirida tegishli xulosalar chiqarib, qoʻyilgan ballar eʼlon qilinadi.

Taʼlimiy oʻyinning asosiy mohiyati shundaki, kattalar tomonidan bolalarga oʻyin shaklida aqliy vazifani bajarishni hal etish vazifasi topshiriladi. Buning asosiy maqsadi bolalarning bilishga boʻlgan qiziqishini shakllantirishni faollashtirishidir. Bilim berishda taʼlimiy oʻyinlardan bilimlarni mustahkamlashdagina emas, balki taʼlim shakli sifatida ham keng foydalaniladi.

Boshlangʻich sinflarda fonetikaga doir unli, undosh tovushlar va harflar mavzusini oʻrganishda quyidagi taʼlimiy oʻyinlardan foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi:

1-oʻyin – “Soʻz oʻyini“. Qaysi tovush yoki harf soʻzlarning maʼnosini oʻzgartirishga xizmat qilyapti?

1-variant – ogʻzaki ravishda. Bunda oʻqituvchi navbat bilan soʻzlarni ogʻzaki ayta boshlaydi: oʻquvchilar qoʻl koʻtarib soʻzlarning maʼnosini oʻzgartirayotgan

tovushni aytishadi va ma’nosi o’zgarayotgan so’zlar ishtirokida og’zaki gaplar tuzadilar.

2-variant – yozma ravishda. Bunda 2 guruhdan iborat o’quvchilar musobaqa tarzida doskada yozilgan so’zlarning ma’nosini o’zgartirayotgan harfning tagiga chizib borishadi.

Til, tin, tir, tiz, tim, tish, to’l, to’r, to’n, to’p, to’y, to’k, to’s, tom, ton, tol, tosh, tob, tog’, tor, toj, toy, tok, top, tot, tut.

2-o’yin. “Harflarni o’zgartirib, so’z tuzing!”

1-variant – og’zaki ravishda. Bunda o’qituvchi so’zni og’zaki ayta boshlaydi: o’quvchilar bir so’z tarkibidagi unli yoki undosh tovushni o’zgartirib yangi so’z topishib, bu so’zlar ishtirokida og’zaki gaplar tuzadilar.

2-variant – yozma ravishda. Bunda doskaga so’zlar qator qilib yozib qo’yilgan bo’ladi. 2 guruhdagi o’quvchilar unli yoki undosh harflarni o’zgartirib, yangi so’zlar tuzib yozadilar. O’yin musobaqa shaklida o’tkaziladi.

Unlilarni o’zgartirish.

Kun: ko’n, kon.

Ko’z: kuz, kar, kor, ker.

Dil: do’l, dol.

Pichoq: pachoq, po’choq, puchuq.

Undoshlarni o’zgartirish.

Moy, toy, loy, boy, voy, joy, poy, soy, choy.

Til, dil, bil, jil, zil, yil, fil, shil, qil.

Bir harfni olib so’z tuzish.

Qo’y (o’y) Kalla (alla)

Toy (oy) Karra (arra)

So‘zlarga harf qo‘shib yangi ma‘noli so‘zlar toping vva ular ishtirokida gaplar tuzing:

Alla (salla) ayiq (qayiq)

Ayron (hayron) asal (kasal)

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe‘l) bilan umumiy tanishtirilgandan so‘ng bar bir leksik-grammatik guruh alohida o‘rganiladi. Bu so‘z turkumlarini o‘rganishning boshlang‘ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Dasturga ko‘ra, boshlang‘ich sinfda so‘zlar dastlab javob bo‘ladigan morfologik so‘roqlariga qarab guruhlanadi, “so‘z turkumi” tushunchasi shakllantiriladi.

Grammatik tushunchalar bo‘yicha o‘quvchilar 1-sinfdan boshlab nazariy ma‘lumotlarga ega bo‘la boshlaydilar. Ya‘ni shaxs va narsa nomlari, narsalarning belgisi, narsalarning harakati kabi ma‘lumotlarni o‘rganish jarayonida ularda grammatik tushunchalar shakllantirishga asos solinadi.

Boshlang‘ich sinflarda grammatik tushunchalarga oid quyida ta‘limiy o‘yinlardan samarali foydalanish mumkin.

Mavzu: Narsa va shaxs nomini bildirgan so‘zlar

1-o‘yin. “Bir so‘z bilan javob top” o‘yini

Beshik tebratib aytiladigan qo‘shiq ... – alla.

Daraxtni bo‘laklarga ajratadigan asbob ...- arra.

Ko‘paytirish jadvali ... – karra.

Bolalar qog‘ozdan yasab uchiradigan narsa ...- varrak.

Kuch so‘zining sherigi ... – quvvat.

Rasm chizuvchi kasb egasi ... – rassom.

Don hosili ... – g‘alla.

Chollar tayanadigan tayoq ... – hassa.

2-o‘yin. “So‘zlarni guruhlarga ajratish” o‘yini.

1-variant. (og‘zaki ravishda)

O‘qituvchi so‘zlarni navbat bilan aytib turadi, o‘quvchilar nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni eshitganda sariq varaqani, kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni eshitganda ko‘k varaqani ko‘taradilar.

2-variant. (yozma ravishda)

So‘zlar yozilgan varaqalar alohida stolga aralashtirilgan holda ochiq qilib qo‘yiladi. O‘quvchilardan tuzilgan ikki guruhning biri nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni, ikkinchisi kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni “Kim oldin yozish” sharti bilan doskaga yozib boradilar.

Mavzu: Narsa va shaxs harakatini bildirgan so‘zlar

“**Teskari so‘zni top!**” o‘yini.

1-variant. (og‘zaki ravishda)

O‘yin uchun so‘zlar:

Suv: oqadi – to‘xtaydi.

Kun: isiydi – soviydi.

Qush: uchadi – qo‘nadi.

Daraxt: ko‘karadi – quriydi.

Bola: uxlaydi – uyg‘onadi.

Oy: ko‘rinadi – bekinadi.

Mavzu: Narsa va shaxs belgisini bildirgan so‘zlar

“**Noto‘g‘ri belgini top!**” o‘yini.

Qizil taom (shirin)

Oq qarg‘a (qora)

Shirin gul (qizil)

Mavzu: Ot – so‘z turkumi.



“So‘z zanjiri” o‘yini.

O‘yin tartibi: 5 – 6 ta o‘quvchi doska oldiga tiziladi. Boshlovchi o‘yin shartini tushuntiradi va narsa nomini bildirgan so‘zni aytadi, navbatdagi o‘quvchi bu so‘zing oxirgi tovushi bilan boshlanadigan otni aytadi. To‘xtalib qolgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Namuna: Ayiq – qarg‘a – asal – lola – ariq – qalam – maktab – bola – alla – arra – alam – mashina – adolat – tandir – ruchka – ayoz....

“So‘z tarkibi” ga oid mavzularni mustahkamlashda ham ta‘limiy o‘yinlar samarador bo‘ladi. Xususan, “O‘zak va o‘zakdosh so‘zlar” mavzusini o‘rganishda **“O‘zakni top”** o‘yini qo‘llanilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

O‘yin tartibi: Doskaga ikki ustunda o‘zakdosh so‘zlar yozilgan bo‘lib, ikki guruhda tizilgan o‘quvchilar musobaqa tarzida birin-ketin o‘zaklarni belgilaydilar. Shartni oldin bajargan guruh rag‘batlantiriladi.

O‘yin uchun so‘zlar:

Gulchi	ishchi
Ishla	guldon

“Tartibga sol” o‘yini.

O‘yin tartibi: Doskaga o‘zak va o‘zakdosh so‘zlar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar shu so‘zlarning ichidan o‘zak va o‘zakdosh so‘zlarni topib o‘zakni bir ustunga, o‘zakdosh so‘zlarni ikkinchi ustunga tartib bilan yozib chiqadilar. Shartni to‘g‘ri bajargan guruh rag‘batlantiriladi.

O‘yin uchun so‘zlar: sinf, bosh, gul, do‘st, ...

Namuna: o‘zak o‘zakdosh so‘zlar

sinf	sinf dosh
------	-----------

“So‘z yasovchi qo‘shimchalar” mavzusi o‘rganilganda esa quyidagi ta‘limiy o‘yinlardan foydalanish mumkin.

“So‘z yasa” o‘yini

O‘yin tartibi: O‘yinda boshlovchi va 3-4 nafar o‘quvchi ishtirok etadi.

1-variant. Boshlovchi o‘zakni aytgach, o‘quvchilar navbati bilan so‘z yasaydilar.

2-variant. Boshlovchi har bir o‘quvchiga yasovchi qo‘shimchalardan birini aytadi, o‘quvchi mustaqil holda bu qo‘shimchaga mos o‘zakni qo‘shib so‘z yasaydi. So‘zlarni yasay olmagan o‘quvchi o‘rnini boshqa o‘quvchi egallaydi.

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ta‘limiy o‘yinlardan fo‘y dalanish o‘rganilayotgan tushunchaning oson o‘zlashtirilishiga yordam beradi. O‘quvchilarda olgan bilimlarini amalda tezkorlik bilan qo‘llay olish salohiyatlarini shakllantiradi.

Ta‘limiy o‘yinlarni tanlashda o‘yinning ta‘lim jarayoni bilan uyg‘unlashishiga, ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning faolligi va tashabbuskorligi hamda ijodiy qobiliyatini o‘stirishga alohida ahamiyat beriladi.

Ta‘limiy o‘yinlar nafaqat o‘quvchilarning bilimini tekshirishda, balki ularni darsga qiziqtirish uchun ham qo‘llanadi. Ta‘limiy o‘yinlarni o‘tkazishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. O‘yinlar mavzuga mos bo‘lishi va o‘quvchilarni zeriktirib qo‘ymasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi// “Boshlang‘ich ta‘lim, 1998 -yil, 6 –son.
2. Yoqubov Sh.Mustafoqulov.R Grammatik o‘yinlar orqali o‘quvchilarni faollashtirish// Yigirma birinchi asrda o‘zbek tili ta‘limi masalalari.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2007.



ТРАНСПОРТДАН ЙЎЛ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА ЖАРОҲАТЛАНИШ ВА ЎЛИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Жуманиёзов К.Й., Олимова М.М, Самандарова Б.С, Бахтиерова А.М.

Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали

Ўзбекистон Республикасининг иқтисодий салоҳияти ўсиб бориши билан автомобиль транспорти ва коммуникациялари ҳам ривожланиб бормоқда. Бундай ўзгаришлар аҳолининг ижтимоий ривожланиши даражаси билан боғлиқдир. Тармоқнинг ривожланиши ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида маълум муаммоларни келтириб чиқармоқда: йўл-транспорт ҳодисаларининг содир бўлиб туриши, унинг оқибатида инсонларнинг ҳаётдан кўз юмуши ёки турли даражада тан жароҳатларини олиши, автомобиль йўлларида ва шаҳар кўчаларида тирбандликларнинг юзага келиши, атроф муҳитнинг ифлосланишидир. Муаммонинг энг аянчлиси инсонларнинг жисмоний талофат олишларидир. Бу эса жамиятимизнинг ижтимоий муаммосидир [1].

Сўнги ўн йилликларда йўл ҳаракати хавфсизлиги масалалари халқаро ҳамжамиятни ташвишга солмоқда. Бу кўп жиҳатдан йўлларда ўлим даражасининг юқорилиги билан боғлиқ. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг 2017 йилдаги "Ҳаётни сақлаб қолиш: йўл ҳаракати хавфсизлиги технологиялари тўплами" ҳисоботида келтирилган маълумотлар ташвишга тушди: "ҳозирда ҳар йили йўл-транспорт ҳодисалари натижасида 1,25 миллионга яқин одам ҳалок бўлади ва миллионлаб одамлар жароҳатланади" [2,7].

Йўл транспортдан жароҳатланиш нафақат айрим мамлакат, балки дунёнинг кўплаб мамлакатлари учун ҳам ечимини кутаётган энг муҳим тиббий-ижтимоий муаммоларидан бири ҳисобланади. Ҳар йили сайёрамизда йўл транспорт ҳодисалари натижасида 1,2 миллиондан ортиқ одам ҳалок бўлади ва 20 миллиондан 50 миллионгача одам турли хил жароҳатлар олади. Уларнинг аксариятини 15 ёшдан 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этади [3].

Ҳозирги кунда бутун жаҳон автопаркларида миллиарддан ортиқ автомобиллар мавжуд [1]. Ер қуррасида XX аср давомида аҳоли сони 4 баробарга ошган бўлса, автомобиллар сони 10 минг мартаба ошган, бу ҳолат

XXI асрда ҳам давом этмоқда. Автомобиллар замонавий иқтисодиётнинг турли тармоқларида фойдаланилмоқда, аммо унинг каттагина қисми хусусий тармоқда ҳам фаолият юритади. Австралия, Канада, Франция, Германия, Италия, Япония, Жанубий Корея, Туркия, Буюк Британия, АҚШ и ЖАР каби иқтисодиёти ривожланган йирик 20 лик давлатларга кирувчи мамлакатларда, рўйхатга олинган автомобилларнинг умумий сонига нисбатан янги автомашиналарни рўйхатга олишнинг ўртача суръатида ўсиш тенденциясини кўриш мумкин [4, 5].

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) статистик маълумотларига кўра, транспорт ҳодисаларидан ўлим сабаблари, эрта ўлимнинг энг кўп учрайдиган ўнталиги қаторига киради. 2015 йилнинг статистик маълумотларга кўра бутун дунё бўйича транспорт ҳодисалари туфайли 1,3 миллиондан ортиқ киши эрта ҳаётдан кўз юмишига сабаб бўлган [6,7].

А.В.Сахаровнинг (2011) илмий хулосасига кўра, Россияда ҳар 100 000 аҳолига 131 та автоҳалокат тўғри келади. Автоҳалокатлар орасида энг кўп учрайдигани бу автомашиналарнинг тўқнашишлари (43,3%) ва 28%и пиёдаларни уриб кетишлар бўлиб, асосан автоҳалокатлар йўл транспорт қоидаларига риоя қилмаслик (86,5%) натижасида содир бўлади. Ўлим даражаси ҳар 100 000 аҳолига 26га тенг бўлиб, уларнинг 76,3%ини 20ёшдан 40 ёшгача бўлган эркаклар ташкил этган. Ногиронлик ҳар 100 000 аҳолига 2008 йилда 4,5 га тенг бўлиб, катталарда бир мунча камайиши кузатилса, болалар орасида деярли икки баробарга ошган ва ҳар 100 000 болага 2,1ни ташкил қилган. Ногиронликларнинг кўпчилигини асосан иккинчи ва учинчи гуруҳ ногиронлар ташкил қилган. Жароҳатланганларнинг асосий кўпчилиги травматология бўлимига (56,2%), неврология бўлимига (32,8%) ётқизилган. Беморларнинг 55,4%ини эркаклар ва уларнинг 56,5%ини 20-40 ёшдагилар ташкил этган [8,10,18,19]. Россияда автоҳалокатлар сабабли ҳар куни 60-80 одам ҳаётдан кўз юмади[4].

Ўзбекистонда 2011 йилда 10611 та автоҳалокат ҳолати қайд этилган ва 2161 та ўлим ва 112228 та жароҳатланишлар рўйхатга олинган. Эътиборлиси шундаки, Ўзбекистонда йўлларда 3 896 000та қонун бузарликлар ва шундан 1588000 таси ўта кўпол тарзда қонунбузарликлар содир этилгани рўйхатга олинган [11,16,17]. Йўл транспорт ҳодисаларининг содир бўлишида энг хавфли кунлар ҳафтанинг бешинчи ва олтинчи кунлари эканлиги, шунингдек

якшанба ва душанба кунларига ҳам алоҳида эътибор қаратилиши қайд этилади. Маллифнинг таъкидлашича, 2016 йилнинг 10 ойида 58885та автотранспортлар тўқнашиши рўйхатга олинган ва 6932 одам вафот этган, 90314 киши жароҳатланган. Кейинги ўринда пиёдаларнинг устига ҳайдаш бўлиб, ўтган даврда жами 41370та ҳолат содир бўлган, 4667 та одам вафотэтган ва 38981 киши жароҳат олган [3,10,13,14,15]. Йилига Россия йўлларида 30 000 дан ортиқ киши оламдан ўтади, 200 000 та киши жароҳат оладилар. Статистик маълумотларга қараганда ҳар ўн та ҳолатдан биттаси болаларга тўғри келади ва 1,5 мингдан ортиқ бола вафот этади, шунингдек 20 000 та вояга етмаган болалар жароҳат оладилар ва кўпчилиги бир умрга ногирон бўлиб қоладилар [4,8,9,11,12].

Тадқиқотнинг мақсади Хоразм вилоятида 2016-2020 йиллар давомида йўл транспорт ҳодисалари (ЙТХ) ва улар сабабли жароҳатланиш ҳамда ўлимнинг табиби ва унинг динамикасини ўрганиш ва баҳолашдан иборат.

Материаллар ва усуллар. Хоразм вилояти йўл патрул хизматининг 2016-2020 йиллар бўйича автоҳалокатлар тўғрисидаги ҳисобатларида қайд этилган жами 1279 та автоҳалокат ҳолати ўрганилди. Вилоятнинг автомобил йўлларида 2016 йилда -270 та, 2017 йилда -263 та, 2018 йилда -259 та, 2019 йилда -245 та, 2020 йилда 242 та автоҳалокатлар қайд этилган. Олинган маълумотларни статистик таҳлил қилишда ижтимоий-гигиеник ва санитария статистик усуллардан кенг фойдаланилди.

Натижа ва муҳокама. Мамлакатимизда 2019 йилда 4116 та, 2020 йилда -3596 та йўл транспорт ҳодисаси қайд этилган ва динамикада унинг 12,% га камайиши кузатилган, 2019 йилда -1196 та ва 2020 йилда -991та ўлим ҳолатлари кузатилган. 2019 йилда 2929 одам ва 2020 йилда -2605 одам тан жароҳати олганлар. Қайд этилган ҳодисаларнинг 22,9%и -халқора йўлларда, 48,9%и -давлат аҳамиятидаги йўлларда ва 28,2%и маҳаллий йўлларда содир бўлганлигининг ўзи ҳам муаммо мамлакатда жиддий тиббий-ижтимоий, ташкилий ва иқтисодий масалалардан бири эканлигини англатади [5]. Хоразм вилоятида ўрганилган беш йил давомида жами қайд этилган 1279 та автоҳалокатнинг 4,15%и -халқора, 55,75%и -давлат, 24,1%и -маҳаллий, 2,2%и -ички йўлларда, 13,8%и -шаҳар йўлларида содир бўлганлиги аниқланди. Ушбу автоҳалокатлар натижасида жами 1444 киши азият чеккан ва уларнинг 69,8%и ҳар хил даражадаги жароҳатлар олган ва 30,1%и вафот этган.

Жадвал 1.

2016-2020 йилларда Хоразм вилоятида қайд қилинган автохалокатларнинг
йўл турлари бўйича тақсимланиши (%) ($P \pm m$)

Йўл турлари	ЙТХ ларининг йўл турлари бўйича тақсимланиши	Вафот этганлар сонининг йўл турлари бўйича тақсимланиши	Жароҳатланганлар сонининг йўл турлари бўйича тақсимланиши
Халқаро	4,1%±0,55	9,4±1,39	4,06±0,62
Давлат	55,7±1,38	64,1±3,03	53,8±1,56
Маҳаллий	24,1±1,2	15,6±1,73	25,5±1,37
Ички йўллар	2,2±0,04	2,1±0,68	2,3±0,47
Шаҳар кўчалари	13,8±0,96	8,7±1,34	14,2±1,09
Жами	1279	436	1009

Кўриниб турибдики, ЙТХ ларидан жароҳатланиш ва ўлим даражаси нисбатан давлат аҳамиятига эга бўлган йўлларда юқорилиги (53,8±1,56) ва жароҳатланганлар халқоро аҳамиятга эга бўлган йўллардаги даражадан 13 маротабага, маҳаллий йўллардаги даражадан 2 маротабага, шаҳар йўлларига нисбатан 3,8 маротабага ва ички йўлларга нисбатан эса 23,4 маротабага юқорилиги, ЙТХ ларининг содир бўлишида йўллар ва уларнинг турларининг ҳам аҳамият катта эканлигини алоҳида эътироф қилиш мумкин. Йўллардаги серкатновлик, машиналарнинг тезлик даражаси, йўлларнинг ҳолати, машиналарнинг сони, кейинги йилларда юзага келаётган тирбандликлар каби омилларнинг таъсир даражаси, яъни нисбий риск кўрсаткичи 23,4 % га тенглиги, ЙТХ ларининг содир бўлишида қайд этилган омилларнинг аҳамиятининг катталигидан далолат беради. (Жадвал 1) Агар юқоридаги йўл турлари бўйича ЙТХлари сабабли юзага келаётган ўлим ҳолатини кўрадиган бўлсак, давлат аҳамиятига эга бўлган йўллардаги даража анъанавий равшда юқори (64,1±3,03) ва мос равшда 6,8, 4,1, 7,4 ва 30,5 маротабани ташкил

етиши аниқланди. Бу дегани вилоятда ЙТХ лари сабабли кунига 2,8 одам жароҳат олса, 1,2 одам бевақт оламдан ўтади.

Вилоят йўлларида кунига 3,5 та ЙТХ си содир бўлади ва унинг асосий сабаблари таҳлил қилинганда, унинг энг юқори даражаси кузатилган давлат аҳамиятига эга бўлган йўллар, ҳамма вақт ҳам йўлларга қўйиладиган талабларга жавоб бера олмаслиги, қолаверса машиналар сонининг кўплиги ва тезликнинг нисбатан юқорилиги билан тушунтирилса, халқоро аҳамиятга эга йўлларда унинг камлигини, йўлларнинг нисбатан стандарт талабларига жавоб бериши, аҳоли яшайдиган жойларда унинг тунда ёритилиши билан аниқлик кириш мумкин. Маҳаллий аҳамиятга эга бўлган йўлларда ЙТХ ларининг тарқалишининг иккинчи ўринни эгаллаши, мазкур йўлларда машиналарнинг кўплиги, назоратнинг камлиги, нисбатан тезликнинг юқорилиги ва йўлларнинг талаб даражасида эмаслиги билан, шаҳар кўчаларида эса машиналарнинг кейинги йилларда ҳаддан ташқари кўпайиб бориши, йўлларнинг талаб даражасида эмаслиги, кўчаларда одамларнинг гавжумлиги, ҳайдовчиларнинг нисбатан тартибсиз машина бошқаришлари, светафорларнинг доимий равшда мутадил ишламаслиги, тирбандликлар билан тушунтирилса, ва ниҳоят ички йўлларда ЙТХ ларининг нисбатан камлигини, машиналар сонининг камлиги, йўлларда машиналарни тез ҳайдашнинг имкони йўқлиги, асвалт йўлларнинг йўқлиги ва мавжудларининг ҳам абгор ҳолатга келганлиги, кўчаларда одамларнинг нисбатан камлиги каби сабаблар билан тушунтириш мумкин.

Хоразм вилоятида 2019-2020 йилларда ЙТХ лари, жароҳатланиш ва ўлимнинг динамикасини таҳлил қилишда ҳам қатор ўзига хос-хусусиятлар кузатилди.

Жадвал 2

2016-2020 йилларда Хоразм вилоятида қайд қилинган автоҳалокатларнинг йўл турлари бўйича тақсимланиши ва динамикаси (%) ($P \pm m$)

Йўл турлари	2016	2017	2018	2019	2020	Жами
Халқоро	3,7 ±1,14	4,2±1,23	5,4±1,40	4,08±1,26	3,3±1,14	4,1%±0,5 5

Давлат	68,0±2,8 3	51,1±3,0 8	57,3±3,0 7	55,5±3,17	57,0±3,1 6	55,7±1,38
Маҳаллий	14,8±2,1 6	29,7±2,8 2	19,7±2,4 7	22,4±2,66	34,7±3,0 4	24,1±1,2
Ички йўллар	4,0±1,19	4,6±1,29	3,58±1,1 5	1,22±0,70	0,82±0,5 7	2,2±0,04
Шаҳар йўллари	19,5±2,4 1	10,3±1,8 7	17,4±2,3 6	16,73±2,3 8	4,13±1,3 0	13,8±0,96
Жами	270	262	258	245	244	1279

Жадвалда келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, ЙТХлари ўрганилган йиллар давомида Халқоро йўлларда, ички йўлларда ва шаҳар йўлларида бир мунча камайиш хусусияти кузатилса, маҳаллий йилларда унинг 2,3 баробарга ошиши кузатилди. Давлат аҳамиятига эга бўлган йўлларда унинг 19,2%га, халқоро йўлларда 10,8 %га, ички йўлларда 79,5%га ва шаҳар йўлларида 21,1%га камайганлигини кўриш мумкин. (Жадвал 2)

(Жадвал 3)

2016-2020 йилларда Хоразм вилоятида қайд қилинган автоҳалокатлардан жароҳатланишнинг йўл турлари бўйича тақсимланиши ва динамикаси (%)
(P±m)

Йўл турлари	2016	2017	2018	2019	2020	Жами
Халқоро	3,7±1,29	5,2±1,53	4,6±1,49	3,52±1,31	3,1±1,25	4,06±0,62
Давлат	55,8±3,39	49,3±3,44	54,8±3,54	53,5±3,56	55,7±3,58	53,8±1,56
Маҳаллий	16,7±2,54	28,7±3,12	21,3±2,91	22,0±2,95	35,9±3,46	25,5±1,37
Ички йўллар	6,1±1,63	3,34±1,23	2,91±1,19	1,53±0,87	1,0±0,71	2,3±0,47
Шаҳар кўчалари	18,6±2,65	10,5±2,11	19,3±2,81	18,3±2,76	4,2±1,44	14,2±1,09
Жами	214	210	197	196	192	1009

Ўрганилган худудда ўтган беш йил давомида қайд этилган автоҳалокатларнинг даражасига мос равшда тан жароҳати олганларнинг даражасининг энг юқори даражаси давлат аҳамиятига эга бўлган авто-йўлларда сақланиб қолиб, унинг даражаси диарли бир хил ҳолатда сақланиб қолган (ўртача 53,82%). Аммо маҳаллий аҳамиятга эга бўлган йўлларда унинг даражаси 2016 йилга нисбатан 2020 йилда 2,1 маротабага ошганлиги аниқланди. Халқора йўлларда жароҳатланиш даражаси диарли ўзгармасдан бир хил даражада сақланиб қолган. Эътиборли жиҳати шундаки, ички йўлларда машиналарнинг камлиги, йўллар ҳолатининг талаб даражасида бўлмаганлиги биос катта тезликда машина ҳайдаб бўлмаслиги, нисбатан кўчаларда одамларнинг камлиги ва шаҳар йўлларида кейинги пайтларда транспортлар ҳаракатини бошқариш ишларида киритилаётган янгиликлар, шаҳар йилларининг нисбатан яхшилиги ва бошқа қатор омиллар таъсирида жароҳат олишлар 2020 йилда 2016 йилга нисбатан ички йўлларда -6,1 маротабага ва шаҳар йўлларида -4,4 маротабага камайиши кузатилган. Демак, аҳоли орасида ЙТХларидан жароҳатланиш ва ўлим даражасига йўлларнинг турлари асосий омил сифатида таъсир кўрсатиши энг долзарб масалалардан бири эканлигини алоҳида қайд қилиш мумкин. (Жадвал 3)

Автоҳалокатлар сабабли юзага келаётган яна бир ачинарли ҳолатлардан бири бу ўлим саналади. Вилоят йўлларида автоҳалокатлар сабабли ўрганилган ўтган беш йил давомида жами 435 киши вафод этган. Гарчи вилоятда ушбу сабабли ўлганлар 2016 йилга нисбатан 2020 йилда 1,2 баробарга камайган бўлсада, бу ҳолат юқориликча сақланиб қолмоқда. Жароҳат олганлардан фарқли ўлароқ автоҳалокатлардан ўлим 2020 йилда 2016 йилга нисбатан халқоро, маҳаллий ва ички йўлларда ўсиш хусусиятига эга эканлиги аниқланиб, унинг даражаси халқоро йўлларда -1,6, маҳаллий йўлларда -1,9 ва 1,2 маротабага ошган. (Жадвал 4)

(Жадвал 4)

2016-2020 йилларда Хоразм вилоятида қайд қилинган автоҳалокатлардан ўлимнинг йўл турлари бўйича тақсимланиши ва динамикаси (%) (P±m)

Йўл турлари	2016	2017	2018	2019	2020	Жами

Халқоро	4,1±2,0	11,7±3,31	15,0±3,8 2	10,1±3,3 7	6,4±2,75	9,4±1,39
Давлат	68,04±4,7 3	58,5±5,0	65,3±5,0	68,3±5,2 0	61,5±5,1 0	64,1±3,0 3
Маҳаллий	12,3±3,34	17,02±3,8 7	12,6±3,5 5	13,9±3,8 9	23,0±4,7 3	15,6±1,7 3
Ички йўллар	2,06±1,44	5,3±2,31	6,50±2,6 4	3,60±2,0 9	2,56±1,7 7	2,1±0,68
Шаҳар кўчалари	13,4±3,45	7,44±2,70	8,0±2,90	7,6±2,98	6,41±2,7 5	8,7±1,34
Жами	97	94	87	79	79	436

Эътиборли жиҳати шундаки, автохалокатлардан ўлим ўрганилган барча йилларда давлат аҳамиятига эга бўлган йўлларда, бошқа турдаги йўллардан бир-неча марта юқорилиги қайд этилди. Ўлим бўйича иккинчи ўринни маҳаллий аҳамиятга молик йўллар ва учунчи ўринни эса шаҳар кўчаларда содир бўлган ўлимлар эгаллади. Таҳлил жараёнида яна бир эътиборимизни ўзига тортган ҳолат шу бўлдики, жами беш йил давомида қайд этилган ЙТХ ларининг 240 таси ҳайдовчиларнинг малакасизлиги ва ички ишлар ходимларининг ўзларининг иштироқида содир бўлганлиги аниқланди. Ушбу ЙТХ ларининг 62,0%и -ҳайдовчилик гувоҳномасиз техника воситасини бошқариш жараёнида содир этилиб, ҳодиса жараёнида 59,5% иштироқчилар ҳар хил кўринишдаги жароҳатларни олсалар, 27,%и вафот этган. Автохалокатларнинг 30,%и -1 йилгача ҳайдовчилик малакасига (тажига) эга бўлган ҳайдовчилар томонидан содир этилган, жараён натижасида 32,5% киши жароҳат олган ва 30,1 % одам вафот этган ва ниҳоят автохалокатларнинг 7,9% айнан ички ишлар ходимларининг ўзларининг иштироқида содир этилган ва натижада 8% одам жароҳат олиган ва 33,3 % одам вафот этганлиги, автохалокатларнинг юзага келиш сабабларида айнан ҳайдовчиларнинг омиллари ҳам муҳим аҳамият касб этиши қайд этилди. Ушбу жараёнда эътиборли томони шу бўлдики, ўрганилган беш йил давомида юқоридаги сабабларга кўра ЙТХларининг сони 10%га камайган бўлсада, жароҳатларнишлар сони 26,7%га ошган ва ўлим даражаси 1,6 баробарга

камайган. Айниқса жароҳатланишлар сони ҳайдовчилик гувоҳномасиз ва бир йилгача ҳайдовчилик стажлари борлар ўртасида юқорилигича сақланиб қолаётганлиги маълум бўлди.

Хулосалар:

1. Дунёнинг кўплам давлатларида, жумладан Ўзбекистон Республикасида ҳам, айниқса даромади ўрта ва паст давлатларда ЙТХларининг даражаси юқорилигича сақланиб қолмоқда. Айниқса болалар орасида унинг нисбатан ошиб бориши ҳар қайси давлатда соғлини сақлаш тизимининг олдида жуда улкан тиббий-ижтимоий, ташкилий ва иқтисодий мауммоларни юзага келтирмоқда;

2. ЙТХларининг содир бўлишида йўллар ва уларнинг турларининг ҳам аҳамият катта эканлигини алоҳида эътироф қилиш мумкин. Йўллардаги серкатновлик, машиналарнинг тезлик даражаси юқорилиги, йўлларнинг яроқлилиқ даражаси, машиналар сонининг йил сайин ортиб бориши ва тирбандликлар каби омилларнинг таъсир даражаси, яъни нисбий риск кўрсаткичи -23,4% га тенглиги, ушбу омилларнинг ЙТХларининг содир бўлишидаги аҳамиятининг катталигидан далolat беради;

3. Хоразм вилоятида ўрганилган беш йил давомидаги ЙТХлари айниқса маҳаллий аҳамиятга эга бўлган йўлларда кўпайиши кузатилди. (2,3 баробар) Энг юқори даражадаги ЙТХлари давлат аҳамиятга эга бўлган йўлларда кузатилди (55,7%). Иккинчи ўринни маҳаллий (24,1%) ва учунчи ўринни шаҳар кўчаларидаги (13,8%) автоҳалокатлар эгаллади. Унинг энг паст даражаси халқоро ва ички йўлларда кузатилди ва мос равишда 4,1% ва 2,2%ларга тенг бўлди;

4. Вилоятда қайд этилган ЙТХи натижасида содир бўлган жароҳатланишлар ва ўлим даражалари ҳам ЙТХга мос равишда асосан давлат, маҳаллий ва шаҳар йўлларлида нисбатан юқорилиги сақланиб қолди. Айниқса жароҳат олишлар маҳаллий аҳамиятига эга бўлган йўлларда ошиши кузатилса, давлат йўлларида бу кўрсаткичлар диарли ўзгаришсиз қолганини кўриш мумкин;

5. Хоразм вилоятида 20%га яқин автоҳалокатлар йўлларда айнан ҳайдовчиларнинг малакасизлиги, аниқроғи 62,0%и -ҳайдовчилик гувоҳномасиз техника воситасини бошқариши, 30,%и -1 йил ҳайдовчилик стажига эга бўлмаган ҳайдовчилар томонидан ва 7,9% айнан ички ишлар ходимларининг ўзлари томонидан содир этилиб, автоҳалокатларнинг юзага

келиш сабабларида айнан ҳайдовчилар омилларининг ҳам муҳим аҳамият касб этиши қайд этилди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11 июль 2017 йил 3127-сонли “Йўл ҳаракати ҳавфсизлигини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори .
2. Усманова М.Н. Йирик шаҳарларда йўл ҳаракатини ташкил этиш йўналишлари. *Viznes-Эксперт*. №8,2019 йил. 42-44 бет.
3. Нуралиев Б., Юнусов М.Ю., Зиёев Б.А., Хусейнов Х.Б., Бодурбеков Ф. Состояние детского дорожнотранспортного травматизма в Таджикистане // *Транспортные и транспортно-технологические системы: материалы Междунар. науч.-техн. конф. (Тюмень, 16 апреля 2015 г.)* Тюмень: Изд-во Тюменского индустриального университета, 2015. С. 245– 248.
4. OECD data: charts, maps, tables and related publications ... [Электронный ресурс]// Organisation for Economic Co-operation and Development [сайт]. Режим доступа: <https://data.oecd.org/transport/road-accidents.htm> (дата обращения 30.09.2017).
5. Численность населения стран мира с 1980 по 2017 год [Электронный ресурс] // Справочные таблицы infotables.ru [сайт]. Режим доступа: <http://infotables.ru/strany-i-goroda/17-tablitsa-chislennostnaseleniya-stran-mira> (дата обращения 30.09.2017).
6. Methods and data sources for country-level causes of death 2000–2015. *Global Health Estimates Technical Paper* Department of Information, Evidence and Research, World Health Organization. Geneva, 2017. P. 85.
7. Jumaniyazov K.Y., Bakhtiyarova A.M., Ismoilova B.P.//*European Chemical Bulletin* 2023, 12(Issue 8), 2055-2062.
8. Jumaniyazov K.Y., Bakhtiyarova A.M., Kurbanova N.N. Peculiarities of distribution of traffic accidents in Khorezm region by population and age// *International Scientific-Practical Conference.Chexiya*. P.13-15.
9. Jumaniyazov K.Y., Bakhtiyarova A.M., Kurbanova N.N. deaths and injuries as a result of road accidents and the role of cardiovascular diseases in them//*International Scientific and Practical Conference.Polcha*. P.34-37.
10. Jumaniyazov K.Y., Bakhtiyarova A.M., Kurbanova N.N. Peculiarities of Distribution of Traffic Accidents in Khorezm Region by Population and Age

- American Journal of Medicine and Medical Sciences 2023, 13(7): 1020-1025
DOI: 10.5923/j.ajmms.20231307.37 .
11. Khurbanova, N., Omonova, G., Alimova, M., & Komiljanova, S. (2017). The state of antioxidant system of mitochondrial fraction of the hepatocyte in early terms of ischemic stroke in white rats. *Интернаука*, (12-2), 51-53.
 12. Kurbanova N. N. others. Effect of new herbal preparations on some indicators of apoptosis in rats with acute toxic hepatitis //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 08. – С. 6999-7005.
 13. Kurbanova N.N. et al. The effect of new plant hepatoprotectors on the level of proinflammatory cytokines in acute toxic liver damage. //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – Vol. 24, Issue 08, 2020. – Page. 8910-8920.
 14. Navruzovna K. N. et al. Biochemical changes in hepatocyte subcellular fractions in experimental ischemic stroke //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 7-2 (61). – С. 57-59. ООО «Олимп».
 15. Navruzovna K. N. et al. Generation of reactive oxygen species in the mitochondrial fraction of hepatocytes in the early stages of experimental ischemic stroke //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 7-2 (61). – С. 60-62. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/generation-of-reactive-oxygen-species-in-the-mitochondrial-fraction-of-hepatocytes>.
 16. Каримова, МА; Курбанова, НН; Нарушение нормальной микрофлоры толстой кишки влияния генно-модифицированной сои в эксперименте, "Журнал" Медицина и инновации",3,162-166,2022.
 17. Курбанова Н. Н. и др. Ряд особенностей распространения заболеваний органов пищеварительной системы среди студентов Ургенчского филиала ташкентской медицинской академии //Инновационное развитие современной науки: проблемы, закономерности, перспективы. – 2019. – С. 147-149.
 18. Курбанова Н. ПЕРВИЧНЫЕ И ВТОРИЧНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ ПОРАЖЕНИЯ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ РТА //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 142-146.
 19. Самандарова Б. С. и др. ПРИЧИНЫ РАЗВИТИЯ СИНДРОМА ПОЛИКИСТОЗНЫХ ЯИЧНИКОВ И РАК МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ У ЖЕНЩИН //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 5-3. – С. 130-136.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYODA JADIDCHILIK HARAKATI VA IJTIMOY-FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTINING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

Qosnazarova Palzada Quanshbaevna

Nukus Davlat pedagogika instituti doktoranti

ANNOTATSIYA

Maqolada XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizaciyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo'lgani masalalari muhokama qilinadi. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolarning turmush tarzi o'ta past, madaniy-ma'naviy hayotida islom dini peshvolarining ta'siri tafsiflanadi. Insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an'analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgan bir vaziyatda, unga qarshi kuchlar bilan tafovutlar kelib chiqishi alohida o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: jadidlar harakati, yangi usul, ma'naviy hayot, madaniy turmush, falsafiy tafakkur, maktab.

KIRISH

XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizaciyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo'ldi. Bu davrda chuqur islohotlar, birinchi va ikkinchi jahon urushi bo'lib, ilm-fan taraqqiyotida tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bir jamiyatning butunlay yod jamiyat ta'sirida qolishi nafaqat hayotda balki kishilarning falsafasida ham inqilob yasadi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osiyoda ham boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi o'zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillari shakllanib bordi. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolarning turmush tarzi o'ta past, madaniy-ma'naviy hayotida islom dini peshvolarining ta'siri kuchli edi. Insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an'analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgan bir vaziyatda, unga qarshi kuchlar bilan tafovutlar kelib chiqdi¹.

Materiallar:

¹ <https://www.bukhari.uz/?p=23165&lang=oz>



“XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so‘nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri bo‘lib, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma‘naviy-g‘oyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo‘lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo‘nalishga ega bo‘lgan ma‘rifiy ta‘limotlar va nazariyalar mavjud edi”².

Jamiyatni qisqa fursat ichida o‘zligini toptirish yo‘lida qilingan harakat o‘z aksini topadi: “Tarixdan shu narsa ma‘lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o‘taydi. Bu kungi mag‘lubiyat ertangi g‘alabaning amalga oshuvida ozmi-ko‘pmi rol o‘ynaydi. Busiz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin jadidlik Turkistonda XIX asrning oxirida maydonga kelgan, XX asrning boshida shakllanib, qisqa muddatda o‘zining cho‘qqisiga ko‘tarilgan”³.

Jadidlik 1917-yilgi bolsheviklar to‘ntarishidan keyin ham socialistik diktatura o‘rnatilgunga qadar o‘z mavqe va yo‘nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. Ba‘zi manbalarda jadidlik oqim deb atalsa, ba‘zisida harakat deb aytiladi ⁴.

Usullari:

Jadidlik oqim emas, harakat -deb ta‘kidlaydi B.Qosimov ⁵. Oqim bilan harakat o‘rtasidagi tafovut anchagina bo‘lsada, maqsad jadidchilik doirasini qoralash orqali kamaytirish edi. Jadidshunos olim B.Qosimov jadidlik harakatining xarakter va muddaosini 3-turga bo‘lib izohlaydi:

-Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi.

-Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.

-Ma‘orif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Endi jadidlarning bu harakatlari qanday boshlaganlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

² Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003.

³ Tulak. XX asr adabiyoti. –Andijon, 1993.

⁴ <https://www.bukhari.uz/?p=23165&lang=oz>

⁵ Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma‘rifat, fidoiylilik. –T., Ma‘naviyat, 2002

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi.

Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921—1929- yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi.

Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi.

Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi.

O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „Xitobnoma“si (1898) da yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari - hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish - siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar.

Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va zirotchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar.

—ko‘nikmalarni mustahkamlash bilimlarni tekshirish va hisobga olish saboqlari-ekspeditsiya darslari (sayohat)

—integral darslar-ijodiy seminarlar, amaliy ishlar rol o‘ynash o‘yinlari: KVN. “Nima? Qayerda? Qachon?”, “Mo‘jizalar maydoni”, “baxtli tasodif” integratsiyalangan teatrlashtirilgan darslar

—darslar-musobaqalar: test sinovlari, tanlovlar


Bolalar dars-muloqot, dars-konsert, dars-sahna, dars-ekskursiya, dars-sayohat, dars-o‘yin kabi darslarni juda yaxshi ko‘radilar.

Integratsiyalashgan dars. Integratsiya, bir tomondan, talabalarga “butun dunyo” ni ko‘rsatish imkonini beradi, boshqa tomondan, ayniqsa, o‘rta maktabda o‘qitishda Profil farqlashni amalga oshirish uchun ajratilgan o‘quv vaqtidan foydalanish imkonini beradi. Ta‘limga integratsiyalashgan yondashuvning uslubiy asoslari atrof-muhit va uning butun qonunlari haqidagi bilimlarni shakllantirish, shuningdek, fan asoslarini o‘zlashtirishda fan va predmetlararo aloqalarni o‘rnatishdir. O‘quv jarayonining samaradorligi asosan o‘qituvchining darsni to‘g‘ri tashkil etish va darsning muayyan shaklini to‘g‘ri tanlash qobiliyatiga bog‘liq. Darslarni o‘tkazishning noan‘anaviy shakllari nafaqat o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishini oshirish, balki ularning ijodiy mustaqilligini rivojlantirish, turli bilim manbalari bilan ishlashni o‘rgatish imkonini beradi.



Adabiyotlar

1. Babkina N. V. O‘quv jarayonida rivojlanayotgan o‘yinlar va mashqlardan foydalanish // Boshlang‘ich maktab-1998 — № 4.
2. Barinova E. A., Bojenkova L. F., Lebedev V. I. Rus tili metodologiyasi. — M., 1974.
3. Bondarenko S. M. Maktabda rus tilini o‘qitish metodikasi. — M., 1979.
4. Vlasenkov A. I. Rus tilini o‘qitishni rivojlantirish. — M., 1983.
5. Granik G. G. Maktabda rus tili. — M., 1972.
6. Granik G. G., Bondarenko S. M., Kontsevaya L. A. Rus tili bo‘yicha seminar. — M., 1988.
7. Gubanova O. V. Levkina I. S. Sinfda o‘yin texnikasidan foydalanish // Boshlang‘ich maktab, 1997. — № 6.



Research Science and Innovation House



KASBIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI

T.f.d dotsent. Z.L.Botirov

Assistent. X.IIhomov

Annotasiya. Umumta'lim o'qituvchilari o'rganiladigan nazariy ma'lumotlarni aniqlashtirib, o'quvchilarni bo'lajak kasbiy faoliyatida fanlararo aloqadorlikni qo'llanilish imkoniyatlaridan unumli foydalanishlarini ta'minlaydilar. Misol tariqasida fizika kursini ko'rib chiqamiz. Qishloq kasb-hunar kollejida elektr maydonini o'rganish vaqti, xususan bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan elektr maydoni tushuntirilganda, urug'ni turlarga ajratishda va yuzasini bo'yashda bir jinsli bo'lmagan maydon qo'llanilishini ko'rib chiqish mumkun.

Kalit so'zlar: umumta'lim, kasbiy, mahorat, mutaxassis, elektr, energiyani, yo'nalish, fanlararo.

Yangi tipdagi o'quv turi hisoblangan o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limiga yuksak kasbiy mahorat egasi bo'lgan kichik mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo'yilgan.

Kasbiy mahorat asosini mehnat malakalari tashkil etadi. Mehnat malakalarini shakllantirish, takomillashtirish yo'llaridan biri bo'lib, fanlararo aloqadorlikni ta'minlaydi. Kasb-hunar kollejida umumta'lim, umumtexnik, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida malakani shakllanishi bilimni samarali qo'llash bilan bog'lik. Fanlararo aloqadorlik ko'p qirrali va ko'p funksiyali hodisadir. Kasbiy tayyorgarlikda fanlararo aloqadorlikni quyidagi xususiy turlari mavjud:

- umum ta'lim fanlarini o'qitishda kasbiy yo'naltirishni oshirish;
- fanlararo kompleks vazifalarni qo'llash;
- fan to'garaklarida kasbiy yo'naltirishni ta'minlash.

Umumta'lim fanlarini kasbiy yo'naltirishda ushbu fanlarni ilmiy darajasi pasayishiga yo'l qo'yilmaydi hamda uning ichki tuzilishi va mantiqini buzmasdan amalga oshiriladi. Umumta'lim o'qituvchilari o'rganiladigan nazariy ma'lumotlarni aniqlashtirib, o'quvchilarni bo'lajak kasbiy faoliyatida fanlararo aloqadorlikni qo'llanilish imkoniyatlaridan unumli foydalanishlarini ta'minlaydilar. Misol tariqasida fizika kursini ko'rib chiqamiz. Qishloq kasb-hunar kollejida elektr maydonini o'rganish vaqti, xususan bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan elektr maydoni

tushuntirilganda, urug‘ni turlarga ajratishda va yuzasini bo‘yashda bir jinsli bo‘lmagan maydon qo‘llanilishini ko‘rib chiqish mumkin. «Kondensatorlar» mavzusini o‘rganish darsida o‘quvchilar sig‘imli nam o‘lchagich tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganib, uning ish jarayoni urug‘ni dielektirik o‘tkazuvchanligi va namligiga bog‘liq ekanligi bilan tanishadilar. Keltirilgan ikki misoldan ko‘rinib turibdiki, kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv materialini tushuntirishga bir necha daqiqa sarflanadi, ammo uning mehnat malakasini shakllantirishda nazariy bilimlarni qo‘llash imkonini salmoqli darajada oshiradi.

Fan to‘garaklarida kasbiy ahamiyatga ega nazariya, tushuncha, hodisalar chuqurroq o‘rganilishi mumkin. Dasturda belgilangan umumta’lim, maxsus fanlarni amaliy mazmundagi o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Masalan, elektr yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejni kimyo to‘garagida izolatsiya materiallar, o‘tkazgichlar, sim va kabellar, optik tolali materiallar kimyoviy tarkibi, hossalari, ularni olish, hosil qilish va ishlab chiqarishda qo‘llash masalalari o‘rganiladi. Imkoniyat mavjud bo‘lgan sharoitda noorganik materiallarga taalluqli elektr materiallari bilan amaliy-laboratoriya ishlari o‘tkazadilar, elektromexanikani kimyo bilan bog‘liq ishlab chiqarish xarakteridagi masalalar yechiladi.

O‘quvchilarda kasbiy faoliyatga oid bilimlar shakllantirishning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib, fanlararo kompleks vazifalardan hisoblanadi.

Fanlararo kompleks vazifalar ishlab chiqishda umumta’lim, maxsus fanlar o‘qituvchilari, ishlab chiqarish ta’limini usta-muhandislari bevosita ishtirok etadi. Fanlararo kompleks vazifa individual xarakterga ega va ikkita o‘zaro bog‘liq qisimdan iborat: hisoblash qismi – bunda o‘quvchi nazariy xarakterli mustaqil ishda egallagan bilimlarini kompleks qo‘llaydilar; amaliy qisim – o‘quvchi hisoblagan, tuzgan chizma, ish bajarish texnologiyasi asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun o‘quvchi, turli fanlardan ma’lum bilimga ega bo‘lishi, texnik adabiyot, ma’lumotnoma bilan ishlay olishi lozim. Misol tariqasida «Yoritish tarmoqlarini elektromanteyori» mutaxassislikka oid fanlararo kompleks vazifani keltiramiz.

1. Elektr yoritkichiga parallel ravishda qo‘shimcha yoritgich ulanganda tokning qiymati o‘zgaradimi ?

2. Elektr hisoblagich bo‘lmaganda elektr energiyaning sarflanishini qanday o‘lchash mumkin ?

3. Metallarni solishtirma o‘tkazuvchanligi qanday tavsiflanadi? Solishtirma o‘tkazuvchanlik qanday omillarga bog‘liq ?

4. Elektr energiyaning sarflanishi o‘tkazgichning turi va uning ko‘ndalang kesim yuzasiga bog‘liqmi ?

5. Elektr mashinalarda quvvat isrofini qanday kamaytirish mumkin ?

Kompleks vazifalar ayniqsa mutaxassislik fanlar majmuasi bilan ishlab chiqarish ta’limini uzviy aloqadorligini ta’minlaydi.

Fanlararo aloqadorlik kasbni nazariy asoslarini qiziqarli va maqsadli bo‘lishini ta’minlab, o‘zlashtirilgan bilimni amaliy faoliyatda sifatli qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogy and Practice; Teaching and Learning in Secondary Schools.

2. Michael Uljens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.

3. John Dewey, How we think (1910). Martin, Jay. The Education of John Dewey. (2003) Columbia University Press. Gutek Gerald L. (2009) New Perspectives on Philosophy and education . Pearson Education Inc.

4. R.A.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.M.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik T.: 0 ‘qituvchi 2008-yil.

5. Ismadiyarov, Y., & Nabiulina, L. (2019, November). Informational ensuring innovative management of higher education system. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.

6. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil

7. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: 0 ‘qituvchi 2010-yil.

8. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T.: Noshir 2009-yil.

9. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mullahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.

10. Ergashevna, S. N. (2023). NARRATIVE REPERTOIRE AND ITS INFLUENCE ON THE EPIC TRADITION. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 12(3), 33-43.



Research Science and
Innovation House



Komil Xorazmiy g‘azallarida ishq vasfi

Bo‘tayeva Nigora Abdumannonovna,

JDPU o‘qituvchisi

+998901823132

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining yorqin vakillaridan Komil Xorazmiy g‘azallarining mavzuiy ko‘lami, ma‘shuqa obrazining badiiy talqini xususida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada keltirilgan g‘azallarning badiiy tahliliga, mazmuni va shoir badiiy mahoratiga ham e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Aruz she‘r tizimi, Komil Xorazmiy ijodi, obraz masalasi, badiiy talqin, shakl va mazmun.

Аннотация: В данной статье говорится о тематическом охвате газелей Камиля Хорезми, одного из ярких представителей хорезмийской литературной среды, и художественной интерпретации образа хозяйки. Также внимание уделяется художественному анализу представленных в статье газелей, их содержанию и художественному мастерству поэта.

Ключевые слова: Система поэзии Аруз, творчество Камиля Хорезми, проблема образа, художественная интерпретация, форма и содержание.

Annotation: This article talks about the thematic scope of the ghazals of Kamil Khorezmi, one of the prominent representatives of the Khorezm literary environment, and the artistic interpretation of the image of the mistress. Also, attention is paid to the artistic analysis of the ghazals presented in the article, their content and artistic skill of the poet.

Key words: Aruz poetry system, Kamil Khorezmi's work, image issue, artistic interpretation, form and content.

KIRISH

Mumtoz she‘riyat namunalari aksariyat hollarda ishqiy mavzuda bo‘ladi. Ishq esa ikki mazmuni: “ishqi ilohiy”, “ishqi majoziy”ni anglatadi. Birinchisi Olloh ishq, Xudoni sevish, ikkinchisi yerdagi go‘zalga oshiqlik edi. Har ikkisining ifoda vositalari, obraz timsollarida o‘xshashlik bor. Qolaversa, tasavvuf ta‘limoti bo‘yicha, borliq, inson yoki go‘zal yor ham Haq jamolining jilvasi.

Komil Xorazmiy serqirra ijodkor, uning ijodini jumladan, she'riyatini tamoman go'zal insoniy tuyg'ular, ishqiy kechinmalar tasviri qamrab olgan. Komil Xorazmiy asarlarida ishq-muhabbat, may-u mahbub, ma'rifatparvarlik, do'stlik, ijtimoiy hayot, o'zaro ahillik, birdamlik g'oyalarini ilgari sursa-da, g'azallarining asosiy qismini ishqiy lirika tashkil qiladi.[1] Ijodkor lirik asarni yaratishda o'z oldiga qo'ygan maqsad va rejalarining yuzaga chiqishiga ta'sir etgan bir qator omillar quyidagicha tasniflangan: 1) ijodkorning diniy-ma'rifiy qarashlari aks etgan she'rlar; 2) an'anaviy ishqiy mavzudagi she'rlar; 3) sayohat natijasida yuzaga kelgan she'rlar; 4) ijtimoiy adolatsizlikdan norozilik mazmunidagi she'rlar; 5) zamondoshlari obrazi aks etgan she'rlar.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Komil Xorazmiyning adabiy merosi bizgacha bir necha qo'lyozma va toshbosma variantlardan iborat bitta devoni yetib kelgan. Bu variantlar bir biridan farq qiladi. M. Yunusov o'zining Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotida “Devoni Komil”ning tuzilishi va toshbosma variantlarini o'rganar ekan: “Komil devonlarining variantlari ichida shoirning hamma asarlarini o'z ichiga olgani, mukammal deb hisoblash mumkin bo'lgani, O'zSSR FA. Sharqshunoslik institutida 1025 va 1949 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan devonlardir... Bizning taxminiy hisobga ko'ra mazkur nusxadagi she'rlar 3680 baytni tashkil qiladi deyish, haqiqatga to'g'ri keladi.”[3] Shoirning bizga qoldirgan adabiy merosining asosiy qismi g'azallar, muxammas, musaddas, musabba', murabba', muammo, ruboiy, qasida va masnaviylardan iborat bo'lib, bular orasida asosiy o'rinni g'azallar tashkil qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Komil ijodi mavzulari rang-barang. Ijodkorning diniy-ma'rifiy qarashlari aks etgan she'rlar, asosan, Allohga hamd, munojot, Muhammad alayhissalomga hamd, to'rt xalifa ta'rifu tavsifi o'rin olgan g'azallarni o'z ichiga olgan. Shoir devonining ham ayni shu mazmundagi she'rlar bilan boshlanishi, avvalo, har bir ishni islom ta'limoti qoidalariga ko'ra Alloh taolo ismi bilan boshlash lozimligi, qolaversa, muallifning e'tiqodi bilan bog'liq.

“Devoni Komil” ushbu an'anaga muvofiq

Zihi, husnung gulig'a yo'q bahoru ibtido paydo,

Ham ermas bu bahoringg‘a xazonu intiho paydo

– matla‘li g‘azal bilan boshlanadi . Komil devonida o‘nga yaqin na‘t g‘azal mavjud bo‘lib, ularda Muhammad alayhissalom bashariyatning eng mukammal va ibratli kishisi sifatida ulug‘lanadi, yuksak insoniy fazilatlarini ta‘riflanadi. Ushbu turkumdagi she‘rlarda oyat va hadislardan ko‘plab iqtiboslar keltiriladiki, bu shoirning Qur‘oni karim va hadisi shariflarni chuqur egallagan, din ahkomlariga e‘tiqodi nihoyatda baland inson bo‘lganini dalillaydi. Shuningdek, Komil Xorazmiy ijodida ham islom arkonlari tasavvufiy g‘oyalar vobastaligida qalamga olinadi. Ijodkor g‘azallarida bot-bot ilohsevar oshiq obrazini beradi va buni “junun”, “jonon”, “yor”, “may”, “ma‘shuq”, “parvona” kabi majoziy tushuncha va timsollar orqali ifodalaydi. Jumladan, ushbu g‘azalda

Muqavvas qoshing hasrati jon aro,

Erur o‘ylakim qavsi qurbon aro,

Hijob olma yuzingdingki o‘rtanmasun,

Jahon o‘t tushib, ins ila jon aro.[4]

Ya‘niki, oshiq mahbubasidan yuzidagi pardani olmaslikni iltijo qilmoqda. Negaki,uning ilohiy husnidan yer-u osmonga o‘t tushishidan xavotirda.O‘zi esa Yaratganning beqiyos husnini hech bir yaralmishga tenglay olmaydi.

Malakdurmusen hur yoxud pari,

Ki ma‘dum monanding inson aro.

Deydilarki, bori ins-u jins zikrida, o‘t-o‘lanlar shivirida,yellarning g‘ovurida muttasil Ollohga hamd-u sano aytiladi. Uning borlig-u birligiga shohidlik beradi. Masalan,

Yuzung ko‘rmasa bog‘ aro gul nedin –

Buyolmish yuzin yirtibon qon aro

Yoki,

Raqib o‘ldi vasling mayi birla mast,

Mani xasta maxmur hijron aro

Bu yerda shoir raqib deganda, chin raqibni emas, Oллоh vasli ilinjida bo‘lgan oshiqnlarni nazarda tutsa, ularning orasida o‘zini hanuz ishqda sarkashligidan afsusda.

Janobingda vasling tilarman mudom,

Gadodekki dargohi sulton aro.

Bundan ko‘rinadiki, badiiy ijodda, insoniy muhabbatdan ilohiy muhabbatga qarab borish - ruhiy poklanish sifatida baholanadi. Mazkur g‘azal yuzaki qaraganda, oshiqning majoziy vasl va hajr tuyg‘ulari izhori sifatida taassurot qoldiradi. Ammo, sharq mumtoz she‘riyati uslubidan kelib chiqib, chuqurroq yondashsak, asar ilohiy ishq va tajalli falsafasini o‘zida mujassamlashtirgan murakkab ramziy ma‘nodagi asar ekanligini tushunish mumkin.

Komil adabiy merosining ham salmoqli qismini so‘z san‘atidagi ko‘hna mavzu – ishqiy lirika tashkil etadi. Shoir lirikasida ma‘shuqa tasviri yuqori ohanglarda namoyon bo‘ladi:

Yuzing sipehri malohat uzra quyoshdin ahzan, qamardin anvar,

So‘zing buxori, balog‘at ichra guhardin ashraf, durardin aqdar.

Chamanda qumri qaddinga oshiq, Xo‘tanda ohu ko‘zingga Vomiq,

Yamanda yoqut labingg‘a chokar, so‘zingga banda Adanda gavhar.

Oshiq ma‘shuqasining husnini dunyoning eng go‘zal ne‘matlaridan ustun quyumoqda. Bunda yorning yuzi quyoshdan a‘lo, oydanda nurli, so‘zi duru gavhardan azizroqligi aytilmoqda. Keyingi baytda, chamandagi qushlar yorining qaddi vasfi

bilan ovora bo'lsa, ma'shuqa ko'ziga hatto Xo'tanda oshiq, labining rangi oldida Yaman yoquti ojiz, so'zi Adan gavharidan a'lo ekanligi juda chiroyli dalillanmoqda. Dalillash asnosida shoir talmeh san'atidan ham juda unumli foydalangan. Komil g'azallarida oshiqning qalb to'lqinlari juda sodda, hayajonli tasvirlanadi...Bu jarayonda u yangi-yangi o'xshatishlar, so'z o'yinlari bilan traditsion tasvirdan yuqori turadigan original misralar yaratgan.[5]

Boshqa bir g'azalda,

Ko'zim giryonliqig'a ul labi xandon erur bois,

Ko'ngul mahzunliqig'a kulfati hijron erur bois.

Oshiq o'zidagi barcha holatlarning sababi ishq ekanligidan xabar bermoqda. Shoir ijodida bunday ruhdagi g'azallar birmuncha va ularning barchasi komilona mahorat ifodasidir. Asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, shakl va mazmun bir-birini mutanosib tarzda to'ldirib borishiga guvoh bo'lamiz.

Shoir hijron qiynoqlari, ma'shuqa vasfi, u bilan bog'liq kechinmalarni o'ziga hos tarzda mahorat bilan tasvirlaydiki, o'quvchi ko'z oldida chin muhabbat manzarasi paydo bo'ladi. Shoir bir ishqiy manzumasida:

Ul quyosh meni vahkim, asru zor etib ketti,

Zarradek dilu jonim beqaror etib ketti.

deya quyoshga mengzagan, quyosh deb atagan sevgilisini vasliga zor, uning hajrida dilu jonu beqaror ekanligidan kuyunsa, yana bir ishqiy she'rida yorning tavsifini, uning baland sarv qomati-yu, o'ynoqi fusunkor ko'zlarini erkalabgina jozibalik misralarda ifodalaydiki, ko'z oldiningizda malaksiymo bir pari suratlanadi:

Qomatim ham aylagan ul sarvi sarafrozlar,

Ko'zlarim nam aylagan ul chashmi afsunsozlar.

Lirik qahramonimizga mahbubaning yoqimli harakatlari-yu nozu karashmalarigacha yoqadi va shuning izhorini ishqqa to'la iliq sartlarda beradi:

Bani shaydo edon ul mahvashi tannoqlardurlar,

Niyozim qilmayin manzuri masti nozlardurlar.

Oshiq mutlaqo asir bo'lgach, Laylini sevgan Majnun kabi ishq tuzog'iga tushadi, sahrolar kezib sargardon, ma'shuqa ishq o'tida otashparast bo'ladi:



Domi muhabbatingga to poybast bo`ldum,
Layli yo`lida go`yo Majnun mast bo`ldum,
Tun-kun urub toku po`, sahnishast bo`ldum,
Bu dasht aro quyundek bepou dast bo`ldum,
Komil Xorazmiy o`z g`azallarining qofiyasiga va radiflariga ham talabchanlik bilan yondashadi. Chuqur ijtimoiy mazmunini yuksak badiiy formada, chiroyli qofiyalar bilan bezalgan jozibador so`zlarda berishga harakat qiladi. O`zbek klassik shoirlarida bo`lganidek, Komilda ham qo`llaniladigan bu priyom baytlarning yanada musiqiyroq chiqishiga yordam beradi va o`quvchilarning e`tiborini o`ziga tortadi. [6] Shoir ijodi bilan yaqinroq tanishib borgan sari bu fikrlar naqadar rost ekanligiga amin bo`laveramiz.

XULOSA

Komil Xorazmiy aruz vaznining barcha janrlarida ijod qildi. G`azal dunyosiga boqiy muhabbat tuyg`ulari tarovatini olib kirdi, avlodlarni doimo komil inson bo`lib yetishishga, ma`rifatga, ezgulikka chorladi. Binobarin, Komil Xorazmiy siyмосi, uning ma`naviy merosi ham qaytadan yangicha nigoh bilan haqqoniy yoritilib, qayta baholanishi lozim.

REFERENCES

1. M.B.Alimqulova. Komil Xorazmiy g`azalnavisligining adabiy-estetik omillari. Academic research in educational sciences (787-791b)
2. Sh.Nuriddinov. Komil Xorazmiy devoni manbalari genealogiyasi va matn tanqidi muammosi. Avtoreferat. Qarshi-2022
3. K.Xorazmiy. «Devon». –T.: 1975
4. A.Hayitmetov. «Devon». –T.: 1975 (14-b)
5. M.Yunusov. Komil Xorazmiy.: Toshkent-1969 (91-b)
6. M.Yunusov. Asrlar nidosi [Majmua], T., 1982 (56-b)

Jadidchilik harakatining asoschilari va ularning tarixiy tafakkuri

Guliston davlat universiteti.

Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti.

Tarix yoʻnalishi talabasi

Yusupova Laylo Umidbek qizi

Annotasiyaga: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining asoschilari hamda ularning gʻoyalari haqida soʻz boradi. Bilamizki, harakat asoschilari ilmi, maʼrifatli, oʻz fikriga ega yetuk shaxslar hisoblanadi. Ularni yagona maqsad xalqni ilmi qilish birlashtirib turganligi hech kimga sir emas. Tadqiqotchi maqolada bu harakatning koʻzga koʻringan vakillari Ismoil Gasprinskiy, Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Choʻlpon, Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjavev va boshqalarning milliy istiqlol, erk va ozodlik gʻoyalari ilgari, haqiqat va adolat uchun kurashganliklari bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: , Turkiston, Jadidlar tafakkuri, Jadidchilik renesansi, Behbudiy, Gaspirinskiy, Jan Jak Russo, Laziz Azizzoda.

Maʼlumki, Yevropa XVIII-XIX asrlarda oʻz boshidan texnika taraqqiyotini kechirib, XX asr madaniyati va turmushi uchun mustahkam poydevor yaratilgan edi. Osiyo, jumladan, Turkiston esa bu sohada orqada qolib ketgandi. Uchta oʻzbek xonliklari (Buxoro amirligi, Xiva, Qoʻqon) ning oʻzaro birodarkushlik urush va nizolari, Rossiyaning bu davlatlarga bostirib kirishi, mintaqaning mustamlaka holatiga tushib qolishi, mustamlakachilik milliy zulmning oʻrnatilishi va uning kuchayib ketishi oʻsha qoloqlikni yanada chuqurlashtirib yuborgan edi. Qoloqlik va jaholatni, oʻlka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketgani, islom va shariat oyoq osti qilingani va bunday ogʻir fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida oʻz zamonasining ilgʻor, ziyoli qatlamlarida fikr-mulohazalar paydo boʻla boshladi. Ijtimoiy uyqudan uygʻonish, milliy uygʻonish zaruriyat boʻlib qoldi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlanishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob tariqasida obektiv ravishda maydonga keldi.



Ta'kidlash joizki, Turkistonda jadidchilik harakatining katta ijtimoiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida barcha shart-sharoit va omillar yetilgan edi. Ayniqsa, o'lkada millatning dard alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali, og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongli hayotini erk ozodlik taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllangan edi. Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli Turk imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g'oya va harakatlarning ham ta'siri kuchli bo'ldi.

Jadidchilik harakatining asoschilari o'z davri uchun yangicha tafakkur yarata olishdi. Bunda ochilgan yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar o'tish bilan bir qatorda yosh avlod ongiga milliy g'oya tuyg'usini singdirishdi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini va ilm borasida yosh avlodni o'ylagan holda jamiyatni tubdan isloh qilish zaruriyatini tushundilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Keyinchalik Turkiston hududiga keng yoyilishi orqali ko'plab jadidchilarimiz yetishib chiqdi. Jumladan, jadidchilik otasi deya ta'riflangan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ishoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'javev va boshqalar. Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy (1871-1919)dir. U tarixda “Turkiston jadidlarining otasi” deb nom olgan. Mahmudxo'ja Behbudiy istiqlol uchun kurashning oldingi saflarida borgan yalovbardorlardan edi. Fayzulla Xo'jaev Behbudiy haqida bunday degandi: «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak» [3:36]. Marhum sharqshunos olim Laziz Azizzoda «Behbudiyning sobiq Turkiston o'lkasining ijtimoiy, madaniy va adabiy rivojidagi o'rni, roli va ahamiyatiga juda katta baho berib, uni hatto fransuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo, rus inqilobchi demokratlari N.G.Chernishevskiy, Dobrolyubovlar, tatar va ozarbayjon ma'rifatparvarlari Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriy, Mirza Fatxali Oxundov, Naxafbek Vazirovlar bilan qiyoslagan. O'zbekistonda Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk zotlar bilan birga Behbudiya ham haykal o'rnatish kerak»

[3:36], - deb, yozgan edi. Jadidlar tafakkuri xalqni ma’rifatli qilish, madaniyatni yuksaltirishning o’zi yetarli emasligini, xalqni o’z kuchiga, imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi zarurligini yaxshi tushunishardi. Ularning ma’rifatparvarlik faoliyati sof ma’rifat doirasida chiqib, zulmga va inson qadr-qimmatini kamsitishga qarshi faol kurash olib bordilar. Ular demokratik o’zgarishlar uchun kurashda boshladi va mamlakatda liberal-demokratik harakat asoschilariga aylandilar. Jadidlar mafkurasi milliy g’oya xalqni birlashtiruvchi asosiy kuchdir. U milliy g’ayrat-shijoatni va o’z mamlakatiga muhabbatni alanga oldiradigan uchqundur. Milliy birlik g’oyasi xalq ongida qaror topdi, hamda umummilliy manfaatlarga bo’ysundirish va ularni ro’yobga chiqarish uchun kurashish zarurligi to’g’risidagi tushunchani uyg’otdi. Jadidlarimizning tarixiy tafakkuri ozodlik, tenglik adolat, ilmga bo’lgan chanqoqlik yotardi. Jadidlar o’zbek xalqi uchun o’z ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy asoslariga ega bo’lgan yangi o’zbek davlatini barpo etishda yo’l ochib beruvchi milliy g’oyani shakllantirdilar. Jadidlar o’zbek xalqi ijtimoiy tafakkurida qaror topgan ko’p asrlik insonparvarlik, erksevarlik va adolat g’oyalarning ulug’ davomchilari edi. Har jamiyatning ustuni avvalo ilm hisoblanadi. Bu borada jadidlar maktabi va g’oyalari katta ahamiyatga egadir. Jadidlar har taraflama o’zlarining ongi va tafakkurini ishga solgan holda Turkiston yoshlarini ilmi qilish orqali ularga o’zligini qaytarish yurtni ozod ko’rishni orzu qilgan holda dadil qadam tashlashgan. O’rta Osiyo taraqqiyparvarlarining turkiy xalqlar birlashuviga oid g’oyasi yangi bo’lmay u o’lka chegaralaridan tashqariga ham yoyilgan edi. Bizningcha, bunda Rossiya, jumladan tatar jadidchiligining ta’siri chunki aynan jadidchilik ildizlari shu yerdan chiqqaligi uchun kuchli edi. O’z navbatida, Turkistondagi milliy harakatga Sharqda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar - Erondagi konstitutsiyaviy harakat (1905-1911), Hindistondagi mustamlakachilikka qarshi chiqishlar (1905-1908), Turkiya inqilobi kabi voqealar muayyan ta’sir ko’rsatgan. Lekin turkistonlik jadidlar bu g’oyalarni mexanik ravishda qabul qilmagan. Balki milliy turmush tarzimizga muvofiq ayrim ijobiy tomonlarinigina o’zlashtirgan. O’z navbatida, aytish kerakki, ular hech qachon umumturkiy yoki umumislomiy davlat qurishni o’z oldilariga maqsad qilib qo’ymagan. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan birlashish shiori ma’naviy-axloqiy xarakterga ega bo’lib, chor mustabid hokimiyatiga qarshi yo’naltirilgan va mustamlakachilikka qarshi kurash mazmunida bo’lgan. Turkistondagi Milliy Uyg’onish – jadidlar Renessansini xorijdagi olimlar ham tan olib, o’z asarlarida bunga amal qilmoqdalar. Shu o’rinda yapon olimi Xisa Komatsu o’zining

«Chig‘atoy gurunchi»da «Turk dunyosini uyg‘otish yo‘lida jon tikkan adiblar» iborasini ishlatilishi va nemis olimasi Ingobarg ham Turkiston uyg‘onishi haqidagi yozganini eslash kifoyadir. Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov jadidlar Uyg‘onish davriga asos solganligini e‘tirof etgan holda shunday deydi: «XX asr boshida, mustamlakachilik zulmiga qaramay, xalqimiz yangi ufqlarga – milliy va erkinlik sari intilib yashashgan bir davrda buyuk ajdodlarimiz – jadidlar tomonidan amalga oshirilgan bu ulkan ish, bu harakatni o‘ziga xos ma’naviy jasorat na‘munasi, deb atash mumkin». Haqiqatan ham jadidlar yuqorida ko‘rsatib o‘tilganligi va musulmon mutaassibliki kuchli bo‘lishiga qaramay jamiyatda tub madaniy – taraqqiy burilishi yasashga muvaffaq bo‘ldilar. Turkistonda milliy tafakkur o‘zgardi, millat ijtimoiy g‘aflat uyqusidan uyg‘onib siyosiy va ma’riflashdi. Millat adabiyoti yangilandi, milliy teatr maorif va maktab, matbuot, madaniy-ma’rifiy uyushma (jamiyat) va siyosiy partiyalar paydo bo‘ldi. Bularning samarasi ila butunlay yangi, ya’ni jadid madaniyati rivoj topdi. Bu madaniyat hozirgi zamonaviy madaniyatimizning poydevor toshi bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda birinchidan, Jadidchilik asoschilari ilgari surgan g‘oyalar xalqni ma’rifatli qilishda dasturi amal bo‘lib xizmat qildi va qanchadan-qancha yoshlar savod chiqardi;

Ikkinchidan, Jadidchilik harakati siyosiy ma’rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko‘tarila oldi va chin ma’noda ilm fan bo‘yicha yetarli natijalarga erishishdir;

Uchinchidan, Jadidlarimiz har bir ilgari surgan islohatlarida yoshlar ilmi turganligi va ularning ong-u tafakkurini yetuk qilib tarbiyalashda dunyoviy bilimlarni o‘rgatishdagi harakatlari zoye ketmadi, ammo Chor Rossiya buni to‘xtab qo‘yganli bizning yuksalishimizni orqaga surdi. Shuni alohida ta’kidlash joizki jadidchilik harakati va tarixiy tafakkuri xalqimiz ongiga singib ketdi va hozirgi davrda ham ularning asarlari orqali ko‘plab ilm o‘rganishmoqda.


Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov Begali. Milliy uyg‘onish – T: Ma’naviyat. 2002.
2. Rajabov Q. Jadidlar – istiqloqchilik harakatining g‘oyaviy rahnamolari.
3. Алиев А. Махмудхўжа Бехбудий. –Т.: Ёзувчи, 1994.
4. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000
5. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mulaahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and

Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.

6. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Т.: 1999.

7. Нурумбетова, С. А. (2022). ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИИ КРИМИНАЛИСТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ В БОРЬБЕ С ЭКСТРЕМИЗМОМ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ. SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI, 1(1), 43-48.



Research Science and
Innovation House



**Фарғона водийсида учровчи ўргимчакларнинг айрим доминант турлари
хаётий цикли ва динамикаси**

**Жизненный цикл и динамика некоторых доминирующих видов пауков,
обитающих в Ферганской долине**

**Life cycle and dynamics of some dominant species of spiders found in the
Fergana Valley**

Бахромова Барно

Фарғона давлат университети катта ўқитувчиси

Бахромова Барно

Старший преподаватель Ферганского государственного университета

Barno Bakhromova

Senior lecturer of Fergana State University

Аннотация. Мақола Фарғона водийси биоценозларида тарқалган ўргимчаклар орасидаги доминант турлар ҳақида сўз боради. Тадқиқот нажижаларига кўра Фарғона водийси биоценозларида учровчи 3 доминант тур ҳаёт цикли мақолада давомида ёритилган.

Калит сўзлар. Ўргимчаклар, доминант, биогеография, экотизим

Абстрактный. В статье речь идет о доминирующем виде среди пауков, распространенных в биоценозах Ферганской долины. По результатам исследований в статье освещен жизненный цикл 3-х доминирующих видов, встречающихся в биоценозах Ферганской долины.

Ключевые слова. Пауки, доминанта, биогеография, экосистема

Abstract. The article is about the dominant species among spiders distributed in the biocenoses of the Fergana Valley. According to the results of the research, the life cycle of 3 dominant species found in the biocenoses of the Fergana Valley is covered in the article.

Keywords. Spiders, dominant, biogeography, ecosystem

Кириш. Умуртқасиз ҳайвон турларининг куруқлик минтақалари бўйлаб турли микдорда ва кўрсаткичда тарқалиши ҳудуд биогеографиясининг ўзига

хос энг муҳим кўрсаткичларидан бири бўлиб [4], бундан ўргимчаклар ҳам мустасно эмас [2]. Ҳар бир зоогеографик ҳудуднинг таркибий қисми ҳисобланган ҳайвонларнинг тур таркиби, улар орасидаги доминант турларнинг аҳамияти юқори бўлиб, ушбу турлар минтақа экотизмининг қандай шаклланиши, турлар популяциялари орасидаги ўзаро муносабат ва турларнинг ўзаро трофик ва бошқа муҳим биологик кўрсаткичларга кўра барқарор муносабатга киришганини тушуниш учун ёрдам беради [3, 5].

Материал ва методика. Фарғона водийси арашнофаунасида ушбу тадқиқот давомида 44 турдаги ўргимчак учраши аниқланган бўлса, уларнинг барчаси ҳам бирдек кенг тарқалмаган. Табиий экосистемалар ва агроэкосистемалардаги турлар бир-биридан етарлича фарқ қилади. Қуйида водий арашнофаунасидаги кенг тарқалган айрим доминант турларнинг ҳаёт цикли ва биологияси хусусида маълумотлар келтирилган.


Ари ўргимчак *Argiope bruennichi* бу тур Фарғона водийсидаги тоғ олди ҳудудлардаги адирликларнинг паст бўйли 50 см дан баланд бўлмаган ўтлоқларида доминант ҳолда учровчи тур ҳисобланади. Тадқиқот давомида водийнинг жанубий ёнбағри намлиги юқори бўлган табиий ўтлоқларида бу тур кўп учратилди. Бу ўргимчак тури атрофи очик биотопларда учраши билан характерлидир. Улар кенг орбитани эгаллаган 30 см диаметрли тутқич тўрини эрта тонгда ўсимликлар орасининг пастроқ қисмига қуради.

Урғочилари тўр марказида 1- ва 2- жуфт оёқларини бир-бирига ёпиштириб юқорига, 3- ва 4- оёқларини жуда яқин ҳолатда пастга қилиб худди “Х” кўринишида ўлжасини кутади. Эркаги эса тўр атрофига яқин жойга яшириниб ўлжасини кутади. Унинг асосий озиқ-овқат манбаси уй пашшалари, асаларилар ва ўтлоқларда яшовчи чигирткалардир. Улар учун хос бўлган хусусиятларидан бири у ўлжасини ўлдиришдан олдин уларни ўргимчак иплари билан ўраб чирмаб кўйишидир. Урғочилари ҳамма ўргимчаклар қатори эркакларига нисбатан йирик бўлиб, уларнинг катталиги 11–15 мм. келади. Эркаклари эса 4,0–4,5 мм катталиққа етиб боради. Бундан ташқари, урғочиларида эркакларидан фарқли равишда қорин қисмида сариқ-қора йўллик чизиклар мавжуд. Шу чизиклар сабаб баъзан уларни ари-ўргимчаклар деб ҳам аталади.

Уларнинг жуфтлашиш мавсуми ёз ойларига тўғри келади. Июнь ойининг иккинчи декадасида эркак ўргимчаклар урғочи ўргимчаклар билан

жуфтлашади. Мана шу вақтда ўргимчаклар сони ўзининг энг чўққисига кўтарилади, бизнинг кузатувимида улар июль ойининг ярмида ҳар 10 м² да ўртача 18 тадан учради (1-расм).

Уларда каннибализм мавжуд бўлиб, эркак ўргимчаклар жуфтлашишдан кейин вазифаси ниҳоясига етиши билан, урғочиларига ем бўлиб ҳаёти ҳам тугайди. Шу боис ҳам бу вақтда ўргимчакларнинг сони камаяди (10 м² да ўртача 8 та).



1-расм. *Argiophe bruennichi* турининг йил давомидаги мавсумий миқдор кўпайиш динамикаси

Сўнгра бир ой ўтгач, урғочи ўргимчаклар ичи умумий 300–400 та тухум билан тўлган кўзача шаклидаги пиллаларни ўтларни юқори қисмига тўқилган тўрга илинган ҳолда қўйиб чиқади. Пиллалар ташқи томондан бўйламасига жигарранг йўлчалари мавжуд бўлган, қаттиқ қобиқ ҳосил қилувчи ўргимчак ипларидан иборат бўлади. Ички томони эса юмшоқ ва бўшроқ тўқилган ўргимчак ипларидан ташкил топади. Пилланинг бундай тузилиши тухумларни ташқи томондан ҳар хил таъсирлардан ҳимоя қилади. Урғочилари пиллаларни бир неча кун кўриқлаб туради. Урғочилари эса қишда нобуд бўлади. Пилла

ичидаги тухумлар бир ой ўтиб яъни август охири сентябрь бошида очиб чиқади. Тухумдан чиққан иккала жинс вакиллари дастлабки вақтларда ғуж бўлиб бирга яшайди, кейинроқ эса улар бир-биридан ажралиб тарқоқ ҳолда эркин яшай бошлашади. Улар кейинги йил ёз ойлари ўртасида тўлиқ вояга етади ва улар ҳам кўпая бошлайди.


Philaeus chrysops ўргимчагини Фарғона водийсида асосан ёз ойларида учратиш мумкин. Бу тур қуруқ ва иссиқ бўлган ҳудудларда кундуз вақтда актив яшайди. Водийда уни қовжираган ўтлар орасида ёки тошли адирларда кўп учратилди. Улар тутқич тўри тўқимайдиган ўргимчаклар қаторига киради. Ипларидан фақатгина яшаш учун инлари атрофига фойдаланади.

Бу ўргимчаклар сакраш хусусиятига эга бўлиб, ўлжасига яқин келиб сакраб устига чиқадида, тирноқларини ботириб заҳар суюқлигини солиб ўлдиради. Эркак ва урғочиси ўлчами бир хил бўлган катталиқка эга бўлиб, уларга 5 ммдан 10 ммгача узунликдаги гавда хос. Лекин ташқи ранглар томонидан улар кескин фарқ қилиб, эркаклари ёрқин қизил рангга эга. Уларнинг асосий озуқаси иккиқанотли туркумига кирувчи ҳашаротлар, чивин ва уй пашшалари ҳисобланади.

Philaeus chrysops тури ўргимчаги май ойларида август ойларигача актив яшайдиган бир йиллик ўргимчаклар ҳисобланади (2-расм). Уларнинг жинсий вояга етиш даври май ойлари учинчи декадасига тўғри келади. Шу даврда улар жуфтлашади. Жуфтлашиш вақтида эркаги олдинги бир жуфт ёқларини ҳавода силқийди, ўша ёқлари билан ерни дўмбирадек уради. Бу билан у урғочиси эътиборини тортади. Сўнгра июнь ойлари бошларида урғочилари тухумларини пилла ичига қўяди.

Research Science and
Innovation House





2-расм. *Philaeus chrysops* турининг йил давомидаги мавсумий миқдор кўпайиш динамикаси

Пиллаларни эса ер ости ёриқларига, тошлар тагига ўзи тўқиган ўргимчак ипига илиб чиқади. Баъзан бу тур ўргимчаклар битта девор ёки ер ёриғига бир неча она ўргамчак бир бўлиб пиллаларни жойлаб чиқишади.

Август ойлари охиригача она ўргимчак пиллаларини ҳимоя қилиб кўриқлайди.

Ёш ўргимчакчалар тухумдан чиқиб иккита ёшини пилла ичида ўтказди. Пиллани улар учинчи ёшига етганларида тарк этади. Бу вақт эса кейинги йил баҳори келган бўлади. Эркак ўргимчаклар июль ойигача урғочилари сентябрь ойигача яшайди.

Steatoda paykulliana илк бор 1805 йилда француз арахнологги Шарл Валкнер томонидан аниқланиб, унинг номи швед энтомолиги ва шоири Густав Пайкулля номига қўйилган. Бу ўргимчак тури Фарғона водийсининг куруқ ва қуёш кўп тушадиган жойларидаги тошлар тагида яшайди. Баъзан парклар, боғларда ҳам яшаши мумкин. Биз уни Фарғона водийси худудидаги уй




ичларида, лимон ўстириладиган иссиқхонада, мева сақланувчи ертўлаларда учратдик.

Унинг мустақкам ишлардан иборат тутқич тўрини тошлар ораси ёки паст бўйли ўсимликлар орасида, айвонларда, эски уйлар устунларида кўп кузатилди. Бу тутқич тўрига одатда ҳашаротлардан уй пашшалари, тенгқанотлилар, қаттиққанотлилар, сувараклар ўлжа бўлиб тушгани маълум бўлди.

Steatoda paykulliana сохта қорақурт номи билан машхур бўлиб, у ташқи томондан захари хавфли ҳисобланган қорақуртга жуда ҳам ўхшайди [1]. Қолаверса, сохта қорақуртнинг захри ҳақиқий қорақуртникидан анча кучсиз бўлиб, у одамни чаққанида ари чаққандек оғриқ беради, холос. Унинг нейротроп захри ҳашаротлар учунгина хавфли ҳисобланади. Фақатгина урғочисини захари майда сутэмизувчилар қаторига кирувчи каламуш ва сичқонлар қонига 0,3 мг дан ошиқ тушсагина улар учун ҳалокатли тугаши мумкин (zooclub.org.ua). Бошқа организмлар учун хавфли эмас.

Бу ўргимчак май ойларининг биринчи декадасида Кува тумани адирликларининг ер юзасига чиқиб озикланади. Шу ойнинг учинчи декадасида улар жуфт ахтара бошлайди. Эркалари урғочисини эътиборини тортиш учун стридулитр аппарати ёрдамида шириқлаган товуш чиқара бошлайди. Бу товуш билан у ҳам урғочисини ўзига қаратади, ҳам “рақиб”ларини кўрқитади. Товушни сезган урғочи ўргимчаклар эркак ўргимчаклар кетидан боради ва жуфтлашади. Жуфтлашишдан сўнг урғочилари эркаларини еб қўяди. Шу сабабдан май ойида ҳар 10 м² да 22 тадан учраган ўргимчаклар июнь ойига келиб сезиларли даражада камаяди (3-расм). Кузатишларимиз натижасида урғочи ўргимчак 20 кун ўтганидан сўнг худди юмалоқланган пахта кўринишидаги пиллалар ичига 13 тадан 300 тагача тухум қўяди. У пиллаларни ўзи тўқиган тўр четига мустақкамлаб илиб қўяди. Пиллалар девори юпқа бўлиб баъзан ундаги тухумлар ёки ривожланаётган ўргимчаклар ҳам кўриниб туради. Бир ойдан ўтиб, яъни июль ойининг учинчи декадаси - август ойининг биринчи декадасида бу тухумлардан майда ўргимчакчалар очиб чиқади. Янги чиққан ўргимчакчалар дастлабки 20 кун онаси билан яшайди, сўнгра атрофга тарқалиб кетиб, эркин яшай бошлайди.



3-расм. Сохта қоракурт *Steatoda paykulliana* турининг йил давомидаги мавсумий миқдор кўпайиш динамикаси

Кузнинг дастлабки совуғи тушгунича улар ер остига мустақил ҳолда ин қуриб қишга тайёргарлик кўришади. Октябрнинг иккинчи декадасида улар ер остига кириб кетиб диапауза ҳолатига ўтади ва баҳорда уйғонади. Йил давомида улар 8 мартаба пўст ташлаб 9 ёшга қиради ва 5 ёшидан бошлаб уларда ташқи томондан эркаклик ва урғочилик фарқлари намоён бўла бошлайди. Жинсий етилиш даври кўпроқ 7 ёшига, баъзан 8 ёшига тўғри келади. Эркаклари урғочиларидан 20 кун эртароқ содир бўлади. Водийда учровчи бу ўргимчакларнинг вояга етган урғочиси 7,0–10,5 мм; эркаги: 6–8 мм га етади. Умумий тана тўқ жигарранг, баъзан деярли қора рангда бўлади. Қорнининг шакли овал ёки тухумсимон шаклда бўлиб, 2 ёшгача уларнинг ранги оқ рангда бўлади. Уларда иккинчи ёшининг охирида ранг ўзгариши кузатилиб, танасига қора ранг қиради ва қорнининг орқа қисмидаги оқ чизиқлар пайдо бўла бошлайди. Урғочи турларининг қорин орқа қисмидаги бу чизиқлар ранги ўзгарувчан бўлиб, вақт ўтиши билан у оқдан сариққа, сўнгра ёрқин қизилгача

ўзгариб боради. Баъзан бу чизиқли ранглар йўқолиб қорин қисмда қора рангни ўзи кўришиб қолиб, худди ҳақиқий қорақуртга ўхшаб қолади. Шу сабабли бу турга сохта қорақурт номи берилган. Сохта қорақуртни ҳақиқий қорақуртдан ажратиш олиш жуда ҳам осон. Ҳақиқий қорақуртнинг қорнининг юқори қисмидаги 13 та қизил доғи йўқолиб кетса ҳам, қорнининг остки томонидаги қизил доғчаси сақланиб қолади. Сохта қорақуртда бундай доғ мавжуд бўлмайди. *Steatoda paykulliana* эркаги 1–1,5 йил урғочиси эса 5–6 йил яшайди.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Бахромова Б. Ўзбекистонда учровчи қорақурт (*Latrodectus tredecimguttatus*) ва сохта қорақурт (*Steatoda paykullina*) нинг морфобиологик солиштирма таҳлили. // Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 9, (2020) 30-32.
2. Knapp M., Řezáč M. Even the Smallest Non-Crop Habitat Islands Could Be Beneficial: Distribution of Carabid Beetles and Spiders in Agricultural Landscape. // PLOS ONE, 10 (4), (2015), e0123052.
3. Meng K., Li S., Murphy R.W. Biogeographical patterns of Chinese spiders (Arachnida: Araneae) based on a parsimony analysis of endemism. // Journal of Biogeography, 35 (7), (2008), 1241-1249.
4. Utz R.M., Hilderbrand R.H., Boward D.M. Identifying regional differences in threshold responses of aquatic invertebrates to land cover gradients. // Ecological Indicators, 9 (3), (2009), 556-567.
5. Zhang J.X., Maddison W.P. Molecular phylogeny, divergence times and biogeography of spiders of the subfamily Euophryinae (Araneae: Salticidae). // Molecular Phylogenetics and Evolution, 68 (1), (2013), 81-92.

Research Science and
Innovation House



TABIY BIRIKMALARNING KUMUSH METALI IONIGA BIOSORBENT SIFATIDA QO'LLANILISHI

Mirsiddiqov Umidjon Baxodir o'g'li
Egamberdiyev Xayrulla Komiljonovich
Abduraxmanova Ugilay Koxxorovna
Boboqulova Muxlisa Baxrom qizi
Guliston davlat universiteti

Аннотация

Ushbu tadqiqot ishida nodir metall ionlarini sanoat oqavalari va chiqindilar tarkibidan aniqlash hamda sorbtsion ajratishda o'simlik moddalaridan biri gossipol va uning hosilalari biosorbent sifatida qo'llanildi. Kumush metali ionini sorbtsiyadan oldingi va keyingi miqdori spektrofotometrik usulda tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: nodir metall ionlari, sorbentlar, kumush ion, gossipol sirka kislotasi, biosorbtsiya, kontsentrlash.

ПРИМЕНЕНИЕ ПРИРОДНЫХ СОЕДИНЕНИЙ КАК БИОСОРБЕНТА ДЛЯ ИОНОВ МЕТАЛЛА СЕРЕБРА

У.Б.Мирсиддиқов, М.Б.Бобоқулова, Х.К.Эгамбердиев, У.К.Абдурахманова
Гулистанский государственный университет

Аннотация

В данном исследовании одно из растительных веществ госсипол и его производные были использованы в качестве биосорбентов для определения и сорбционного разделения ионов редких металлов из состава промышленных стоков и отходов. Количество ионов металлического серебра до и после сорбции изучали спектрофотометрическим методом.

Ключевые слова: noble metal ions, сорбенты, ион серебра, госсиполуксусная кислота, биосорбция, концентрирование.

APPLICATION OF NATURAL COMPOUNDS AS BIOSORBENT FOR SILVER METAL IONS

U.B.Mirsiddikov, M.B.Bobokulova, X.K.Egamberdiev, U.K.Abdurakhmanova
Gulistan State University

Abstract

In this study, one of the plant substances gossypol and its derivatives were used as biosorbents for the determination and sorption separation of rare metal ions

from the composition of industrial effluents and wastes. The amount of silver metal ion before and after sorption was studied by spectrophotometric method.

Key words: rare metal ions, sorbents, silver ion, gossypol acetic acid, biosorption, concentration.

Sorbtsion va ekstraksion ajratish va komponentlarni kontsentrlash jarayonlarini o‘z ichiga olgan kombinatsiyalangan taxlil usullari, istiqbolli usullardan bo‘lib, murakkab tarkibli ob‘ektlar tarkibini ham analiz qilishda ishonchli natijalar olishni ta‘minlaydi.

Noyob, kamyob va zaxarli metallar, shuningdek nodir metall ionlari va ularni kontsentrlash hamda ajratib olishda mikroorganizmlar biomassasidan ham foydalanish asosida muhim natijalarga erishilganligi adabiyotlarda qayd etilgan [1-2]. Bunda, eng avvalo, mikroorganizmlar hujayyasi membranasi tuzilishi e‘tiborga olinadi.

Hozirgi vaqtda metallurgiya sanoati sohasida rangli va nodir metallarni tabiiy manbalarda aniqlash va ajratib olish hamda ularni bir-biridan ajratish asosiy muammo hisoblanadi. Tekshirilayotgan manbada nodir metallarning miqdori kamligi va notekis taqsimlanganligi nodir metallarni aniqlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuning uchun ham kumush va nodir metallar analizida samarali analiz usullari va selektivligi yuqori bo‘lgan reaktivlardan foydalanish taqozo etiladi.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi ishlab chiqarish korxonalarida chiqindilarni tarkibidan nodir metallardan biri bo‘lgan kumush metall ionini aniqlash va biosorbtsion ajratib olish jarayoniga gossypol sirkas kislotasining qo‘llanilishi tavsiyasiga doir tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi.

Bu yo‘nalishda biosorbentlar tabiiy birikmalar bo‘lib, ularni tabiiy manbalardan ajratib olish ko‘p vaqt va mablag‘ talab qilmasligi bilan ahamiyatli. Chunki gossypol sirkas kislota paxta chigitining moyi ajratib olingandan keyingi chiqindisi tarkibidan ajratib olinadigan modda. U kam miqdorda g‘o‘za o‘simligi ildizi va poyasida ham to‘planadi. Shuni hisobga olib, ushbu tadqiqotda kumush metall ionlari uchun biosorbent sifatida gossypol hosilasining sorbent sifatida qo‘llanilishi iqtisodiy jihatdan ahamiyatlidir.

Uning turli metallar bilan hosil qilgan tuzlarining suvdagi eritmaları xarakterli rangga ega bo‘ladi. Gossypolning bu xossalardan analitik kimyoda metall ionlarini sifat va miqdoriy aniqlashda foydalanish imkonini beradi [1].


r

r

r

[

]



Gossipol – amorf, kristallsimon, limonsimon-sariq rangli, turli xil organik epituvchilapda epish xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy modda. Gossipol molekulasida tupli xil qutbli guruhlar bo‘lishi bilan bip qatorda, naftalin qoldig‘da ikkita izopropil guruhi bo‘lganligi tufayli uning suvda erimasligini keltirib chiqaradi. Gossipol moddasi metil, etil, izopropil va butil spirtlarida ham juda yaxshi, shuningdek, dietilenglikol, dioksan, atseton, dietil efiri, etilatsetat, xloroform, uglepod tetraxlorid, dixlorektan, fenol, piridin va qizdirilgan naftalin, qizdirilgan paxta yog‘ida [2] juda yaxshi eriydi (1-jadvalga qarang).

1-jadval


Gossipolning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari

Kimyoviy formulasi	Brutto formulasi	M_r	Rangi	T_{suyuk}^{0S}	R_f	Eruvchanlik (n.sh)da
$(C_{14}H_{14}CHO)_2$	$S_{30}N_{30}O_8$	518	och sarik	181-182	0.52* 0.7*	Atseton, spirt, DMFA, DMSO

Gossipol rangli va og‘ir metall ionlari bilan ma‘lum sharoitlarda rangli kompleks birikmalar hosil qiladi. Kompleks birikmalarining hosil bo‘lishi asosan, molekulaning 1,1`- holatdagi uglerod atomlariga bog‘langan gidroksil guruhlari va 8, 8`-holatlarda joylashgan aldegid guruhlariidagi umumlashmagan elektron juftlari hisobiga amalga oshadi.

Bu o‘rinda gossipolning metallap bilan hosil qilgan komplekslari haqida so‘z bopadi.

Gossipol sirka kislotasi (GSK) o‘zgaruvchan birikma bo‘lib, suvli eritmada isitilganda gidropolizga uchpaydi. GSK ning tuzilishi quyidagicha[3-5]:



Gossipol sirka kislotasi – och sariq amorf kukun modda. Yorumlik nupi ta’sirida panggi o‘zgaradi. Suvda deyarli erimaydi. Spirtida, atsetonda, xlorofopmda eriydi. Suyuqlanish harorati 177° dan 180° S gacha (parchalanish bilan). Uning xloroformdagi 0,002% eritmasining 310 - 430 nm oraliqdagi UB-spektri 366 nm da yutilish maksimumiga ega [2].

Kumush qimmatbaho metall bo‘lib, u qadimdan ma’lum. Er po‘stlog‘ining $6 \cdot 10^{-6}$ % ini tashqil qiladi. Tabiatda kumush juda kam tug‘ma holda uchraydi. Ko‘p birikmalar mishyak yoki surma bilan birga minerallar holda uchraydi. Kumush dunyoning ko‘plab mamlakatlarida asosan rudalar tarkibidan ajratib olinadi. Kumush shuningdek, oltin bilan tabiiy qotishma shaklida hamda mis, qo‘rg‘oshin va rux rudalarida uchraydi. Er qobig‘idagi kumushning nisbati milliondan biriga teng deb taxmin qilinadi. Sof kumushning eng yirik konlari Afina va Neva joylashgan. Shimoliy va Janubiy Amerikaning g‘arbiy qismlaridagi qo‘riqxonada dunyodagi kumush zaxirasining 60 foizini tashkil etadi, Meksika jahon kumushining 35 foizini, Peru 12 foizini va Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSh) 11 foizini ishlab chiqaradi. Taxminan 40 foiz ishlab chiqarish boshqa mamlakatlar o‘rtasida taqsimlangan.

Sog‘liqni saqlash tizimida qo‘llaniladigan kumush “kolloid kumush” bo‘lib, bu kumushning turli oqsillar bilan birikmasi kuchli antiseptik xususiyatga ega. Kumush issiqlik va elektrni boshqa metallarga qaraganda yaxshi o‘tkazadi, yorumlikni yaxshi qaytaruvchi, nurlanishdan himoya qiluvchi xossaga ega. Kumush

ionlari kuchli bakteritsid xususiyatga ega bo‘lib, 450 xil bakteriyalarni yo‘qotadi, virus va zamburug‘lar o‘shining oldini olib, ularni o‘ldiradi hamda ko‘plab teri kasalliklariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi .

Juda samarali antibiotik xususiyatiga ega kumush, shuningdek, inson tanasiga salbiy ta‘sir ta‘siri ham bor, kumushdan zaharlanish holatlari inson tanasida kumush to‘planishi natijasida yuzaga keladi. Davolash juda qiyin bo‘lgan kumushli zaharlanishida oshqozon og‘rig‘i va nafas qisishi kabi shikoyatlar bo‘ladi.

Shularni hisobga olib, ilmiy tadqiqotlarimizda turli xil ishlab chiqarish korxonalarini va metallurgiya sanoati oqavalari tarkibidagi kumush metalli ionini tabiiy birikmalar yordamida spektrofotometrik aniqlashning optimal sharoitini aniqlash bilan birga, eritmada hosil bo‘ladigan kumush kompleksining tarkibiy mollar nisbati, kompleksning barqarorligi, aniqlash usuliga begona ionlar ta‘sirini o‘rganib, tabiiy ekologik namunalardan kumushni aniqlash usuli ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахманова У.К., М.Р.Аскарлова Аналитические свойства госсиполуксусной кислоты // Журнал Universum: химия и биология. – 2020. -№12 (78). –С.30-35.
Asosiy qism. Abu Rayhon Beruniy o‘rta asrning buyuk qomusiy olimi – ensiklopedisti bo‘lgan. “U astronom, astrolog, matematik, o‘simlikshunos, ma’danshunos, tarixchi, manbashunos, dinshunos, adabiyotshunos, faylasuf, sotsiolog, mantiqshunos, ilohiyotchi olim va shoir bo‘lgan”.³ Bundan ko‘rinib turibdiki, Beruniy o‘ta zakovatli va tirishqoq inson bo‘lgan. Chunki bir vaqtning o‘zida ham matematik, ham tatixchi, ham shoir bo‘lish uncha-munch odamning qo‘lidan kelavermaydi. Hozirgi kunda odamlarda shularni kuzatish mumkinki, aniq fanlarga qiziqadigan, o‘rganadigan talabalarning ko‘pchilik qismi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘zlashtirishda qiynaladi. Masalan, matematiklarning ayrimlari tarix, tilshunoslik kabi sohalarini o‘rganishda qiynaladi. Ijtimoiy fanlarni yaxshi biladiganlarning ayrimlari esa aniq fanlar, ya’ni matematikani o‘rganishda qiyinchilikka duch keladi. Beruniy esa o‘z davrida ilm-fanning deyarli barcha sohalarida katta yutuqlarga erishgan. U 973-yil 9-sentabrda (hijriy 362-zulhijja oyining 3-kunida) Xorazmning qadimiy poytaxti hisobangan Kat shahrida tug‘ilgan. Ayrim manbalarda Beruniy Kat shahrining tashqarisida tug‘ilgan, shu

¹ Islom Karimov. “O‘rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan.

² Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017

³ Baxtiyor To‘rayev. Abu Rayhon Beruniy. – Toshkent: “Tafakkur”, 2015.

sababli u “Beruniy”, ya’ni “tashqarilik” degan taxallus bilan atalgan deyishadi. Uning kunyasi⁴ “Abu Rayhon” (“rayhonning otasi” yoki “rayhonli kishi”) haqida aniq bir fikr aytish qiyin. “I. Y. Krachovskiy bu atoqli ot ma’nosini anglatishi ehtimoldan uzoq, ammo “rayhonli kishi” ma’nosida laqab bo’lib kelgan bo’lsa kerak, deydi. Beruniy bolalik chog’idayoq botanikaga qiziqqani uchun shunday laqab berilgan bo’lishi ham mumkin”⁵.

Beruniyning bolaligidanoq ilm-fanga qiziqishi, qobiliyati kuchli bo’lgan. Lekin uning boshlang’ich ta’limni kimdan va qayerda olgani to’g’risda aniq ma’lumotga ega emasmiz. O’sha paytlarda Xorazmda ilm-fanning turli tarmoqlarida yutuqlarga erishgan, ilm-fanni puxta egallagan olimlar yashagan. Beruniy, shubasiz, o’sha olimlardan ta’lim olgan. U o’zining ona tili bo’lmish xorazm tilidan tashqari, yana bir nechta tillarni: sug’diy, fors, yunon va qadimgi yahudiy tillarini o’rgangan. Bundan ko’rinib turibdiki, u turli tillardagi asarlarni mutolaa qilish, ko’plab sohalar bo’yicha bilimlar olish imkoniga ega bo’lgan.

Beruniyning bizga qoldirgan merosiga to’xtaladigan bo’lsak, “1035 – 1036-yillari Beruniy o’zi yozgan asarlari ro’yxatini tuzgan va mazkur ro’yxatda 113 ta asarning nomini keltiradi. Bu asarlardan 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 3 tasi mineralogiyaga, 4 tasi kartografiyaga oiddir. Agar olimning shundan keyin yashagan 13 yil ichida yozgan 50 dan ziyod asarlarini ham qo’shadigan bo’lsak, ularning umumiy soni 160 dan oshadi”⁶. Yana ayrim manbalarda Beruniy asarlarining soni 200 dan oshishi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Beruniyning yozgan har bir asari uning yangi bir qirrasini kashf etadi va bu asarlarni o’rganish jarayonida Abu Rayhon Beruniyning buyuk serqirra olim ekanligiga amin bo’lamiz. Uning dastlabki asarlaridan biri bo’lmish “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya”) asari 27 yoshida yozib tugallangan. Ushbu asarda qadimgi Xorazmda o’tgan xalqlarning, millatlarning, qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va musulmonlarning urf-odatlarini, an’analarini, bayramlarini, taqvimlarini, dinlarini, payg’ambarlarini, muqaddas kitoblari haqidagi barcha ma’lumotlar jamlagan. Bu asar yevropada “Xronologiya” nomi bilan mashhur bo’lib, Qobus ibn Vashmgirga bag’ishlangan. Abu Rayhon

⁴Kunya – shajarani bildiradigan laqab.

⁵Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan. 1968

⁶Baxtiyor To’rayev. Abu Rayhon Beruniy. – Toshkent: “Tafakkur”, 2015.



Beruniy 160 dan ortiq asrlar yaratagan bo'lsa ham, hozirda bizga uning faqat 30 dan ortiq asari ma'lum. Qolgan asrlari yo bizgacha yetib kelmagan yoki ularning ayrimlari jahon kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularni dunyo kutubxonalari hamda shaxsiy kutubxonalardan izlashni davom ettirish zarur. Chunki Beruniyning har bir asari biz uchun qimmatbaho va tengi yo'q meros sanaladi.

Beruniyning o'zi “Mening hamma istaklarim, butun vujudim ilm tarqatishga qaratilgandir va men buni o'zim uchun eng ulug' baxt deb bilaman”, - deya ta'kidlaydi va bu so'zlari tom ma'noda biz uchun ham chorlov bo'ladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. U haqda Krachovskiy shunday deydi: “Beruniy... qiziqqan sohalarini sanab chiqishdan ko'ra, qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroq”.

Olimning bizgacha yetib kelgan asarlari orasida “Mineralogiya” asari alohida o'rin tutadi. Ushbu asar 30 dan ziyod qimmatbaho toshlar va minerallarning nomlari, ulardagi fizik va kimyoviy xossalarni aniqlash, eritib sinab ko'rish, konlarda mavjud bo'lgan deyarli hamma qimmatbaho toshlar va turli xil ma'danlar va ularning qotishmalari haqidagi ilmiy ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Ushbu asardan bugungi kunda konchilik uchun ma'lumotlar manbasi sifatida samarali foydalanish mumkin. Mazkur asarda nafaqat mineral moddalar va ularning xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan, balki butun tabiat, insoniyat, sezgilar, insonlarning ehtiyojlari, Ollohning buyuk va sharafliigi to'g'risida ham mulohazalar keltirilib o'tilgan. Ushbu asrda oltin va kumushni olim shunday ta'riflaydiki, Olloh oltinni yaratib, uni keraksiz moddalardan tozlashni ham insonlarga o'rgatgan, qizdirib, tozalangan sof oltinning narxi qanchalik yuqori bo'lsa, qalbi pok, nohaqliklardan yiroq insonning ham qadri xalq o'rtasida shunday bo'lishi haqida aytadi. Yana insonlarni hayvonlardan ajratib turuvchi yagona narsa bu – aql ekanligi ta'kidlab o'tilgan. “Inson ega bo'lgan sari unga yanada ko'proq ega bo'lishga intiladigan narsa chin lazzat bag'ishlaydi. Ilgari bilmaganini bilganida, inson jonining holati shunday bo'ladi”⁷. Beruniy o'z asarlarida borliqdagi jonsiz narsalar bilan insonlarni, ulardagi his-tuyg'ularni shu qadar uyg'unlashtirganki, uning mahoratiga til ojiz, bu bilan Beruniyning yana bir yangi qirradi kashf etildi.

Beruniyning shunday o'ziga xos jihati aniqlandiki, agar u o'z asarlarida boshqa olimlarning asarlaridagi ma'lumotlardan foydalanadigan bo'lsa, bu

⁷Abu Rayhon Beruniy. Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.



ma'lumotlarning manbasini aniq va ravshan holda asarlarida keltirib o'tgan. Shuningdek, Beruniyning “Hindiston”, “Saydana”, “Mineralogiya” nomli asarlari o'z yo'nalishlari bo'yicha eng qimmatbaho asarlar sanaladi.

MUHOKAMA. Bugungi kunda Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ilmiy asrlarini targ'ib etish uchun uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar, tanlovlar va chellenjlar o'tkazish lozim, deb o'ylayman. Masalan, men “Abu Rayhon Beruniy ni bilamizmi?” nomli chellenjni o'tkazgan bo'lardim. Chellenjning o'tkazilish tartibi va shartlari shundan iboratki, jamoat joylarida yoki universitet hududida ixtiyoriy talaba intervyu shaklida savol-javob qilinadi. Bunda Beruniyning hayoti va ijodiga doir 10 ta savol tuziladi. Eng ahamiyatli joyi shundaki, ushbu chellenj ijtimoiy tarmoqlar, jumladan, telegram, youtube, instagram va facebook sahifalarida doimiy ravishda yoritib boriladi va bir hafta davom etadi. 10 ta savoning hammasiga to'liq javob berganlar Abu Rayhon Beruniyning “Tanlangan asarlar”i bilan, savollardan 8, 9 tasiga javob berganlar esa Beruniyning 100 ta hikmati jamlangan kitoblar bilan, 6, 7 ta savolga to'g'ri javob berganlar esa esdalik sovg'alari, masalan, daftarlar bilan taqdirlanadi.

Ushbu loyihaning ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilishi hamda savollarga yaxshi javob bergan ishtirokchilarning taqdirlanishi ko'pchilik odamlarning chellenjda ishtirok etish istagi paydo bo'lishiga olib keladi. So'ngra talabalarning o'zlari Beruniy haqida o'qib-o'rganishni boshlaydilar. Chunki ixtiyoriy talaba loyiha ishtirokchisi bo'lishi mumkin va qimmatbaho kitoblarga ega bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari yana ko'plab loyihalarni o'tkazish mumkin. Masalan, universitetda fakultetlararo “Beruniy va biz” nomli ko'rik tanlov o'tkazish mumkin. Ushbu tanlovning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1. Talabalar 10 kishidan oshmagan jamoa ko'rinishida tanlovda ishtirok etishadi. Har bir fakultetdan istagancha jamoa qatnashishi mumkin.
2. Beruniyning o'zining qalamiga mansub asarlar va u haqida yozilgan asarlardan foydalangan holda Abu Rayhon Beruniyning hayoti va imiy faoliyatiga bag'ishlangan sahna ko'rinishini tashkil qilish.
3. Beruniyning olib borgan izlanishlarining natijalarini bugungi kundagi texnologiyalar natijalari bilan solishtirib, buni bayon qilish.

XULOSA. Abu Rayhon Beruniyning olib borgan ilmiy tadqiqotlari tahsinga sazovordir. Uning hayoti va ilmiy asarlarini talabalar o'rtasida va keng jamoatchilik



orasida targ‘ib qilish uchun yuqorida sanab o‘tilgani kabi ishlar olib borilsa, bu yaxshi samara beradi. Chunki yuqoridagi tanlov va loyihalar jarayonida talabalarning o‘zi mustaqil ravishda buyuk bobokalonimiz Beruniyning hayoti hamda ilmiy asarlarini, Beruniy haqidagi asarlarni o‘rganib chiqadi. Ushbu olimning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish esa har bir o‘rganuvchining dunyoqarashini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baxtiyor To‘rayev. Abu Rayhon Beruniy. – Toshkent: “Tafakkur”, 2015.
2. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan. 1968.
4. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mas’udiy, - T.: Fan, 1973.
5. Abu Rayhon Beruniy. Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.

Research Science and Innovation House

ASTRAGALUS DASYANTHUS L O‘SIMLIGINING TARKIBI VA XALQ TABOBATIDA QO‘LLANILISHI

Muxtorova Shaxzodaxon Madaminjon qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti

Xo‘jayev Vaxobjon Umarovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti professori, kimyo fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada Astragalus dasyanthus L-kiyikpanja o‘simligining morfologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda inson organizmi uchun foydali xususiyatlari haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Astragalus dasyanthus L, kiyikpanja, kimyoviy tarkib, vitamin, makro- va mikroelementlar.

COMPOSITION OF ASTRAGALUS DASYANTHUS AND ITS USE IN MEDICINE

Muxtorova Shaxzodaxon Madaminjon qizi

Doktoral student of Kokand State Pedagogical Institute

Xo‘jayev Vaxobjon Umarovich

Professor of Kokand State Pedagogical Institute, Doctor of chemical sciences

Abstract. This article provides information on the morphological characteristics, chemical composition and beneficial properties of Astragalus dasyanthus L.

Keywords. Astragalus dasyanthus l, chemical composition, vitamins, macro- and microelements.

Yurtimizda dorivorlik xususiyatiga ega hamda qadimdan xalq tabobatida qo‘llanib kelinadigan o‘simliklar talaygina. Bunday o‘simliklar sirasiga Dukkakdoshlar-Fabaceae oilasiga mansub Astragalus dasyanthus l-kiyikpanja misol bo‘ladi. Fabaceae oilasi 500 turkumga oid 12000 dan ortiq turni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda 57 turkumga mansub 500 ga yaqin tur o‘sadi. Oila vakillariga bir, ikki va ko‘p yillik o‘tlar, yarim buta, buta, daraxtlar kiradi. Gul formulasi

quyidagicha $Gk_{(5)}Gt_{1+2+(2)}Ch_{(9)+1}U_1$ tuzilishga ega bo‘lib, gulqo‘rg‘oni murakkab, kosachasi bir-biri bilan yarmigacha qo‘shilgan 5 ta kosachabargdan tashkil topgan. Gultojbargi 5 ta 3 xil shakldagi tojibargdan iborat kapalak shaklida bo‘ladi. Changchilari 10 dona bo‘lib, 9 tasining iplari bir-biri bilan qo‘shilib ketgan, urug‘chilarining soni 1 ta.

Astragalus turkumi oilaning eng yirik turkumi bo‘lib 3300 ga yaqin turni o‘z ichiga oladi. O‘rta Osiyoda 500 dan ortiq hamda O‘zbekistonda 250 turi o‘sadi [1,2,3]. O‘zbekiston, Armaniston, Ozarbayjonning janubidagi tog‘li hududlarda uchraydi [4]. Asosan, qir va tepaliklarda, dalalarda, yong‘oqzorlar chekkasida o‘sadi. Farg‘ona viloyatida *Astragalus rubellus*, *Astragalus auratus*, *Astragalus borissianus*, *Astragalus dianthoides*, *Astragalus austroferganicus* kabi turlari mavjud [5].

Kiyikpanjaning bo‘yi 14-40 sm, shoxlari mallarang paxmoq, 12-14 juft nashtarsimon murakkab bargga ega hamda ular poya va shoxlarda ketma-ket joylashadi. Uning to‘pgullari sariq rangli, mevasi tuxumsimon, pishganda ochilmaydigan dukkak. Uning yer ustki qismi, ildizi ishlatiladi. Gullari may-iyun oylarida gullaydi, gullash davrida o‘rib olinadi. Uzunligi 15-20 mm bo‘lib, zigomorf. Ildizining uzunligi 40 sm, u bakteriyalar yordamida atmosferadagi azotni o‘zlashtiradi [6].

Kiyikpanja tarkibida temir, natriy, kalsiy, magniy, fosfor, kremniy, marganes, selen kabi makro va mikroelementlar, A, B, C, E vitaminlari, organik kislotalar, flavanoidlar, steroidlar, efir moylari mavjud. Poyasi va shoxlaridan tragakant (anzirat, anzarut) nomli yelim ajralib chiqib tarkibida 60 % bassorin, 8-10 % arabin, uglevodlar saqlaydi [7]. Moddalar almashinuvida, qandli diabetda, revmatizmni davolashda foydalaniladi.

Qadimda Ibn Sino kiyikpanjadan ko‘z kasalliklarida, nafas yo‘llari, o‘pka xastaliklarida foydalangan. Ukraina va Xitoy xalq tabobatida siydik haydovchi vosita sifatida, qandli diabetda, teridagi mayda yara va toshmalarni davolashda, asab kasalliklarida, bo‘g‘im og‘riqlarida, ildizidan me‘da-ichak xastaliklarida foydalanib kelingan. Bundan tashqari zamonaviy tibbiyotda tinchlantiruvchi, qon tomirlarini kengaytiruvchi sifatida, yurak ishemik kasalliklarida, tish va milk kasalliklarida, gipertoniyada qon bosimini normallashtirishda, aterosklerozda ishlatiladi. Yelimidan moddalar almashinuvida, qandli diabetda, revmatizmni davolashda foydalaniladi [6,8].

Xulosa qilib aytganda, kiyikpanja o‘zining noyob kimyoviy tarkibi hamda foydali xususiyatlari bilan muhim amaliy ahamiyatga ega. Ammo O‘zbekiston hududida o‘svuchi kiyikpanjaning kimyoviy tarkibi to‘liq o‘rganilmagan. Shuning uchun uning kimyoviy tarkibini o‘rganish va shu asosida biologik faol qo‘shimchalar tayyorlab xalq tabobatida keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish inson salomatligiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.A.Matkarimova, T.X.Mahkamov, M.M.Maxmudova, X.Ya.Azizov, G.B.Vaisova. Botanika (O‘quv qo‘llanma). T.2018, 248-bet.
2. M.M.Abdulxayeva, M.S.Yusupova, D.S.Abdulxayeva. Biologiya. Toshkent-2012, 76-bet.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Astragal>
4. K.T.Berdiyev, M.X.Hakimova, G.B.Maxmudova O‘rmon dorivor o‘simliklari. Toshkent-2016. 113-114-b.
5. E.Yu.Ro‘zimatov, Sh. Foziljonov, X.E.Yuldashev “Farg‘ona vodiysi kamyob o‘simlik turlari” atlas lug‘ati. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2021, 10-11-betlar.
6. Asqarov I. Tabobat qomusi. Toshkent.2019, 517-518 b.
7. <https://altaivita.ru/blog/astragal/>
8. Kodirova M. S. АСТРАГАЛ ШЕРСТИСТОЦВЕТКОВЫЙ (ASTRAGALUS DASYANTHUS PALL.) "Экономика и социум" №3(82) ч.2 2021. 72-с.

Research Science and
Innovation House



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BANDLIKNI TA'MINLASH

Shirnova Shaxnoza Abdinabiyevna

**Buxoro Innovatsiyalar Universiteti, Iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar
yo'nalishi 2-bosqich magistranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash borasidagi qilinayotgan ishlar va amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar haqida keltirilgan.

Annotation. This article provides the work that is being done and the tasks that need to be carried out to ensure the employment of the population through the development of small businesses and entrepreneurship in our country.

Kalit so'zlar: tadbirkor, xususiy, rivojlanish, malaka, bandlik, biznes

Aholi bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik respublikamizda yangi ish joylarini yaratishning asosiy yunalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston hukumati, jumladan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyat hokimiyatlari tomonidan amalga oshirilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan rag'batlantirilishi, mamlakatimiz qishloqlarida bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi ijtimoiy infrastrukturani vujudga keltirish dasturlari ishchi kuchining to'liq va samarali bandligini ta'minlashga qaratilgan.

Jahonda ro'y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.



Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga hos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, u muayyan iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni loyihalash, ishlab chiqarish hamda ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. “O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunda tadbirkorlikka quyidagicha ta’rif berilgan “tadbirkorlik – mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishdir”.

Tadbirkorlikning mohiyati quyidagilar orqali yanada oydinlashadi. Birinchidan, tadbirkorlikning subyekti kam bo‘lishi mumkin? O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va “O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq balog‘at yoshiga yetgan har bir fuqaro o‘z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o‘zi ixtiyor etgan, qonunga zid bo‘lmagan faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin.

Ikkinchidan, yuqoridagi tartibda tadbirkorlikning yana bir tomoni, mazmuni ifoda etilgan bo‘lib, u mazmunan boy, juda xilma-xil ko‘rinishga ega. Tadbirkorlikni tanlash uni tashkil etish va rivojlantirish mohiyati jihatdan faqatgina jamiyat va davlat hudud va mahalla ahamiyatiga molik ish bo‘lmasdan, oila va shaxs manfaatiga ham molik ishdir. Shuning uchun bu faoliyat erkin tanlanadigan, qonun doirasida mustaqil amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining uch turi va unga xos ravishda tadbirkorlikning uch guruhini alohida ko‘rsatish mumkin:

- yangi tovar yoki xizmatni loyihalashni tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari – innovasiya tadbirkorlari shug‘ullanadi, ular yangi tovar va xizmatlarni loyihalash, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, ularni ishlab chiqarishga joriy etish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadbirkordir;

- tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar;
- tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar. Uchinchidan, tadbirkorlikning ta’rifida uning ma’lum maqsadga bo‘ysinishi qayd etilgan.

Maqsad jihatdan tadbirkorlikning ikki turini:

a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maqsad qilgan;



b) sosial samaraga (masalan, tabiat muhofazasi, shu avlod tarbiyasi, sog'liqni saqlash va hokazo) erishishni maqsad qilgan turlarini ajratish mumkin.

Tadbirkor mehnatining mazmuni qanday, u nima bilan shug'ullanadi? Bu xususida quyidagilarni alohida qayd etish mumkin.

1. Tadbirkorlar mehnat tijorat tavakkalchiligi bilan bog'langan, yangicha tijorat g'oyalarini o'ylab topish va ularni joriy etish usullarini isbotlashga qaratilgan ijodiy mehnatdir. Tavakkalchilik tadbirkorlikning asosiy xususiyatlaridan biridir.

2. Tadbirkorlar mehnat resurslari – moliyaviy mablag'lar, xom-ashyo va jixozlar, kadrlar va ma'lumotlar uzluksiz ravishda qidirish, faoliyatga jalb etish choralarini qurishga qaratilgan mehnatdir.

3. Tadbirkorlik mehnat resurslaridan tejamkorlik asosida oqilona foydalanib ishlab chiqarish vazimat ko'rsatishni tashkil etishga qaratilgan tashkilotchilik mehnatdir.

Tadbirkorlikka shaxs ihtiyorlari va qobiliyatlarining o'ziga xos hayotiy ifodasi sifatida qarashi mumkin. U insondan tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan sifatlarni, kishi tabiatining alohida ko'rinishlarini, xususiyatlarini talab etadi. Odatda tadbirkorlar uchun eng zarur sifatlarga quyidagilarni kiritishadi:

1. Shug'ullanayotgan sohasi bo'yicha ilmiy bo'limlarga egaligi ularni doimo chuqurlashtirishga harakat qilish;

2. Tavakkalchilikka asoslangan murakkab qarorni sharoit va pirovard ma'lumotlarga ega bo'lmay turib qabul qilish bo'yicha tashabbuskorlik qobiliyati;

3. Iqtisodiy jarayonlarni chuqur fikray olish, iqtisodiy voqyealarni va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni obyektiv baholash, asosiy masalani ikkinchi darajali masalalardan farqlash, jarayonlarning kelajagini chamalay olish va turli variantdagi qarorlarni solishtira olish qobiliyati;

4. Qonunlarga itoatkorligi. Hukumat tomonidan chiqarilgan qonun va tartiblarga qat'iy bo'ysinish, uning kundalik faoliyatida ularga rioya qilishning yuqori namunasini ko'rsatish, bu muhim ishda boshqalarga ibrat bo'lish;

5. Innovasiyachilikning faolligi, ya'ni mahsulotni, texnologiyani, ishlab chiqarishni yangilash va boshqalarni takomillashtirish, qiyinchiliklarni yengish qobiliyati;

6. Maqsad sari intiluvchanlik, mashaqqatli mehnatga yutqazishga, boy berishga, u yoki bu masalalardan cheklanishga tayyor turish, o'z tanlagan yo'lida qattiq turish qobiliyati;



7. Tashkilotchilik, ular quyidagilardan iborat:

- Kishilarni o‘z ortidan ergashtira olish va ko‘zlagan maqsadga jalb etish, tanlangan yo‘lning to‘g‘riligiga ularni ishontira bilish, hamkorlar bilan murakkab sharoitlarda o‘zaro manfaatli fikrga, yondashuvga erisha olish qobiliyati;

- Hamkorlar hamda qo‘l ostida kishilarning shaxsiy sifatlariga qarab ishni to‘g‘ri taqsimlay olish qobiliyati;

- O‘zining ish faoliyatini oqilona rejalay olish faoliyati;

- Ma’suliyatligi, majburiyatini xis etib, uni bajara olish;

- Iqtisodiy sohalar bilan birga madaniy-maishiy sohalarni ham oqilona boshqara olish.

8. Tejamkor bo‘lish, barcha resurslardan tejab tergab foydalanishga boshqosh bo‘la olish;

9. O‘z so‘zning ustidan chiqish, jamoasi, hamkorlari va jamiyat oldidagi ma’suliyatni xis eta olish;

10. Ruhiy poklik va halolligi. Halol yo‘l bilan maqsadga erishish, xarom pullardan xazar qilish, rostgo‘ylik asosida ish yuritish;

11. Ruhiy bardamlik, o‘z jamoasi uchun kurashuvchanlik o‘ta og‘ir vazifalarda o‘zini qo‘lga ola bilish.

Xulosa, ilg‘or tadbirkorga xos xususiyatlar ana shundan iborat. Bu xususiyatlarga faqatgina o‘qib erishish mumkin emas. Ular kishida yoshligidanoq shakllanishi, tarbiyalanishi, takomillashuvchi tajribalar bilan boyitib borilishi kerak. Yosh tadbirkor muvaffaqiyat nazariyasiga (kim, nima uchun, qanday qilib muvaffaqiyatga erishadi) e’tibor qilish, mantiqan to‘g‘ri fikrlash va o‘z fikrini, g‘oyalarini mantiqan to‘g‘ri ifodalab berish, tijorat jarayonlarini takomillashtirish hamda tadbirkorlikning boshqa sir-asrorlarini o‘rganish ustida muttasil ishlash lozim.

Research Science and
Innovation House



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X., Mehnat iqtisodiyoti. -T.: “Mehnat” - 2009. -511 b.
2. Abduraxmonov Q.X., Murtazoyev B.Ch. Mehnat bozori (o‘quv qo‘llanma). Toshkent: 1999.
3. Abulqosimov X.P., Minavarova G.T., Karimova D.A. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yo‘llari. -T.: Iqtisodiyot-moliya, 2007.
4. Vahobov A.V. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichidagi ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. -T.: “Moliya”, 2002. -335 b.
5. Volgin N.A. Ekonomika truda: gыpосгтыуе і ѕοѕіаlnbіуе аѕректi. Uchebno-metodicheskiy kompleks dlya podgotovki magistrov. -M.:Izd-vo RAGS,2010.368 s.
6. Genkin V. M. «Ekonomika i sosiologiya truda»; M.: Norma, 2007. - 448s.



Research Science and Innovation House

UO‘K 66.045.12

SHAMOLLASH TIZIMLARDA ENERGIYA TEJOVCHI USKUNALAR

Avezova Nafisa Feruz qizi

Urganch Davlat Universiteti

Qurilish materiallari buyumlari va konstruksiyalarini ishlab
chiqarish yo‘nalishi magist talabasi

Annotatsiya: Shamollatish tizimidagi energiyani tejevchi uskunalar, ifloslangan ichki havoni filtrlar yordamida tozalash va issiqlikni saqlash uchun uskunalar.

Kalit so‘zlar: Rekuperator, rotorli rekuperator, plastina qatlamli rekuperator

Rekuperatsiya - energiyani tejash va issiqlikni 70% gacha saqlashga qaratilgan innovatsion jarayon. Bu energiya keyinchalik xuddi shu jarayonda qayta ishlatiladi. Misol uchun, yozda issiqlik rekuperatori xonaga issiq havo kirishiga yo‘l qo‘ymaydi. Va qishda va mavsumdan tashqari u issiqlikni saqlaydi. Ammo havo rekuperatori isitish tizimini yoki, masalan, isitgichni almashtira olmaydi, chunki u issiqlik bilan ta'minlashdan ko‘ra ventilyatsiyani ta'minlashga qaratilgan. Issiqlik rekuperatorining o‘zi siz allaqachon to‘lagan issiqlikni qayta ishlatishga imkon beradi, bu esa sezilarli darajada pul va energiyani tejash imkonini beradi.

Konstruktiv ko‘rsatkichlar, issiqlik moslamasining optimal dizaynini tanlash - bu berilgan shartlarga nisbatan yoki optimallashtirish mezoniga asoslanib, bir nechta standart o‘lchamdagi qurilmalarni texnik va iqtisodiy taqqoslash orqali hal qilinishi mumkin bo‘lgan vazifa.

Rekuperatorlar turli materiallardan tayyorlangan, u metall, plastmassa, keramika bo‘lishi mumkin. Ishlab chiqaruvchilar ularni yuqori issiqlik o‘tkazuvchanligi tufayli tanlaydilar. Va bu uning ishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda juda muhimdir. Rekuperatorlar o‘z shakllari bilan ham farqlanadi. Ular qatlamli, membrana, quvurli bolishi mumkin. Qurilmalarning eng



mashhur turlari qatlamli va rotorli. Keling, ularning har birini batafsil ko‘rib chiqaylik.¹

Rotorli recuperator. Ushbu texnikaning ishlash printsipti juda oddiy. Baraban aylanganda, chiqindi havo oqimi rekuperatordan o‘tadi, keyin esa - ta‘minot havosi oqimi. Aylanadigan issiqlik almashtirgichning ishlash printsipti nozik metall (odatda alyuminiy) qatlamlar to‘plamidan iborat bo‘lgan aylanadigan silindr (rotor) orqali issiqlikni issiq gazdan sovuq gazga o‘tkazishga asoslangan. Va eng boshida qatlamlar isitiladi va keyin sovutiladi. Bu jarayonlar o‘z navbatida sodir bo‘ladi.

Aylanadigan blokning muhim afzalligi uning yuqori samaradorligi hisoblanadi. Ammo rekuperator juda katta hajmga ega. Bundan tashqari, rekuperatorni to‘g‘ri o‘rnatish uchun keng shamollatish kamerasi kerak.

Qatlamli rekuperatori. Ushbu turdagi rekuperator qatlamlar bilan ajratilgan alohida kanallarga ega bo‘lgan kasseta shaklida taqdim etiladi. Va shu bilan birga, issiqlik energiyasi almashtiriladi, lekin havo oqimlari aralashmaydi. Bu ikkala tomonning qatlamlarini parallel isitish va sovutish tufayli yuzaga keladi.

Issiq gaz rotor qatlamlari o‘rtasida oqadi va shu bilan ularni isitadi. Rotor aylanadi va isitiladigan qatlamlar sovuq gaz oqimiga o‘tadi va shu bilan uni isitadi. Odatda rotor tezligi 1 rpm ga yaqin. Aylanadigan issiqlik almashtirgichda gaz yuqori bosimli oqim tomonidan pastroq bosimli oqimga (umumiy oqimning 2-3%) mumkin, bu aylanadigan issiqlik almashinuvi orasidagi zarur bo‘shliqning mavjudligi bilan bog‘liq. rotor va korpus elementlari. Rotorning chetida joylashgan cho‘tka muhr yordamida bu qochqinlarni qisman kamaytirish mumkin. Aylanadigan issiqlik almashtirgichlar issiqlikni qayta tiklash darajasini tartibga solish uchun o‘zgaruvchan aylanish tezligiga ega elektro motor bilan jihozlangan. Ushbu model yanada foydali, chunki u yanada ixcham shaklga ega. Ammo qatlamli rekuperatorlarining mahsuldorligi aylanuvchilarga qaraganda ancha past.

Rekuperatorli havoni boshqarish moslamasi. Havoni boshqarish moslamalari ko‘pincha qatlamli issiqlik almashinuvchisi bilan jihozlangan. Va ushbu kompozitsiya bilan ishlab chiquvchilar rekuperatorni yaxshilashga va uning kamchiliklarining ko‘pini bartaraf etishga muvaffaq bo‘lishdi.

¹ Богословский В.Н. Строительная теплофизика, В.65



Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. Гусев В.М. Теплотехника, вентиляция, отопление и кондиционирование воздуха. 1981
2. Богословский В.Н. Строительная теплофизика. 1982



Research Science and Innovation House



SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARI YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI INNOVATSION HAMDA INTEGRATSION TASHKIL QILISH METODLARI

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
3-bosqish talabasi Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etish orqali boshlang‘ich sinflarda darsni innovatsion hamda integratsion tashkil qilish metodlari yoritiladi. Bugungi kun talablariga javob bera olish uchun darslarning innovatsion hamda integratsion tashkil etish muhim ekanligini hisobga olgan holda, mazkur mavzuda bir qancha adaniyotlar tahlili hamda olimlarimizning fikrlari ham maqoladan joy olgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion va integratsion metodlar, dars to‘garaklar, intensiv ta‘lim, metod,

KIRISH. Barchamizga ma‘lumki, biz jadal rivojlanayotgan zamonda yashamoqdamiz va bu davrning talablariga javob bera olish uchun, birinchi navbatda, ta‘limning innovatsion hamda integratsion tashkil etilishiga muhim e‘tibor qaratishimiz lozimdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim pedagoglari bu sohada juda ilg‘or tajribalarga ega bo‘lishi lozimdir. Mustaqil yurtda, sog‘lom aqlga muvofiq yangi ijtimoiy tuzumda yashaydigan barkamol avlodning ma‘naviyatini shakllantirishday, ta‘lim-tarbiyasini yuksak darajaga ko‘tarishday zalvarli yumush borki, u bilan pedagogika tarixi fani shug‘ullanadi. Shuning uchun ham pedagogika tarixi fani va amaliyotining bugunga kelib, maqsadi tamomila o‘zgardi. U mafkura iskanjasidan xalos bo‘lib, o‘ziga xos sof ilmiy qonuniyatlar asosida rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lganligi tufayli bilim berish, mutaxassis tayyorlashni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan pedagogika tarixidan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayonga aylanib borayotganligi ko‘rinib turibdi.

Milliy pedagogika tarixi islom falsafasi - kalom xulosalariga, shaxs ma‘naviyatini takomillashtirish bo‘yicha eng ta‘sirchan va eskirmas qarashlar bergan tasavvuf ta‘limotiga tayanib rivojlanmoqda. Milliy pedagogika tarixi uchun o‘quvchi-talaba shaxsi, birinchi navbatda, komil inson sifatida shakllantirilishi muhimdir. Uning barkamollik darajasi nasl-nasabi, boyligi bilan emas, balki unga beriladigan bilimlar, aqliy imkoniyatlari-yu, ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amallari

bilan belgilanadi. Bu pedagogika tarixi uchun talaba shaxsida hosil qilingan bilim emas, balki uning komil insonlik darajasi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.[1]

Shaxs ma‘naviy fazilatlarining qaysidir bir miqdori tug‘ma bo‘lsa-da, asosan, ta‘lim va tarbiya vositasida shakllantiriladi. Shunday ekan, pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyotida, xalqimizning, shu jumladan, yoshlarimizning mentaliteti va ma‘naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM. Shuni aytish joizki, ta‘limning aynan bir ko‘rinishida, ya‘ni darslarda o‘quvchilarning yuqori sifatli bilim olishlarini ta‘minlash orqali ularning barkamol hamda yetuk shaxs sifatida kamolga yetishlarini ta‘minlash mumkindir.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta‘lim va tarbiyaga birinchi marta shunday ta‘rif bergan edi: “Ta‘lim, - degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta‘lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya‘ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishni, o‘rganishidir”. [2]

Ayni holatda, urg‘u bermoqchi bo‘lgan mavzumiz boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qishni tashkil qilish metodlaridir. Ma‘lumki, sinfdan tashqari o‘qishni tashkil qilish orqali o‘quvchilarning bilim samaradorligini bir necha barobar oshirishimiz lozimdir.

Maktab o‘quvchini o‘qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o‘qiy oladigan, uni tushunadigan, ma‘lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o‘qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o‘qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko‘p narsani bilishga havasni orttiradi. STO‘ning maqsadi o‘qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o‘qiydigan, o‘qilgan kitobni to‘g‘ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO‘ darslari tashkil etilgan. STO‘ darslari 1-2 -sin fd a haftada 1 marta, 3—4-sinfda 2 haftada 1 marta o‘tkaziladi. Savod o‘rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17 -20 daqiqasi ajratiladi.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga

oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish talab etiladi. O‘quvchilarda kitobga havas uyg‘otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zaair. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Bunda o‘qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o‘qib

borilsagina, o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish tanish bo‘lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag‘i, kirish so‘zi, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga o‘rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchida badiiy kitoblarni o‘qishga havas uyg‘otish, o‘qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o‘rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi. Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, ularning

bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o‘qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

METODOLOGIYA. STO‘ darslarining muhim vazifalaridan biri mustaqil o‘qish malakalarini tarbiyalash hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq ttnrlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to‘plangan ma‘lumotlarni o‘qitish, „Tezaytish“, „Topishmoqlar topish“, „Ifodali o‘qish“, „Maqollar aytish musobaqasi“, „Ertak to‘qish“, „Bilimdonlar anjumani“ kabi ko‘rik-tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo‘yicha savol-javoblar uyushtirish, o‘yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O‘qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o‘tkazish, „Kitob haftoligi“ tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi.

STO‘ sinfdan o‘qish bilan uzviy bog‘liq ravishda uyushtiriladi. Sinfdan o‘qish STO‘ uchun zarur bo‘lgan o‘qish malakalarini shakllantiradi, o‘quvchilarning o‘qigan asarini tushunishga o‘rgatadi, lug‘atini boyitadi. STO‘ qiziqarli va o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfdan o‘qish — hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o‘qish

esa hayotning o‘zidir. Hozirgi paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari o‘qishga mo‘ljallangan „Kitobim - oftobim“ (1—3-sinflar uchun) nomli qo‘llanmalar ham chop etilgan.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, STO‘ga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o‘qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO‘ darslarida o‘quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonlikka xos ko‘nikma va malakalar shakllanadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarining xususiyatlari, birinchidan, STO‘ tizimining bosqichlari bilan, ikkinchidan, o‘quv vazifalari va dastur bilan, uchinchidan, oldinga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to‘rtinchidan, o‘quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Atayeva, F. Rasulova, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika. – T: “Fan va texnologiya”, 2012.
2. Abu Nasr Forobiy. Baxt – saodatga erishuv haqida. Risolalar. – T: “Fan”, 1975.
3. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T: “Nosir”, 2009.

Research Science and Innovation House

ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Майор

Шарифов Акмал Мамадаминович

Риксибаев Хусниддин Сидикжанович

Ўзбекистон Республикаси Жамоат Хавфсизлиги Университети
магистратура тингловчиси подполковник

Тел: +99899-041-55-41

Аннотация. Мазкур мақола бугунги кундаги глобал даражадаги иқтисодий муаммолардан саналган озиқ-овқат-хавфсизлиги ва унинг мамлакатимиздаги ўзига хос хусусиятларига бағишланган. Шунингдек, мақолада Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш бўйича амалга оширилган ишлар кўлами амалий таҳлиллар асосида очиб берилган ҳамда тегишли хулоса ва тавсиялар ёритилган.

Калит сўзлар: озиқ-овқат маҳсулотлари, озиқ-овқат хавфсизлиги, озиқ-овқат саноати, кишлок хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, чорвачилик маҳсулотлари, агросаноат комплекси, рационал истеъмол меъёрлари.

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Риксибаев Хусниддин Сидикжанович

Магистрант Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

подполковник

Тел: +99899-041-55-41

Аннотация. Данная статья посвящена современным проблемам продовольственной безопасности в мире и ее особенностям в стране. А также в статье освещены спектр проделанных работ по осуществлению продовольственной безопасности в Узбекистане на основе проведенного

практического анализа и представлены соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: продовольственные товары, продовольственная безопасность, продовольственная промышленность, сельскохозяйственные товары, продукция животноводства, агропромышленный комплекс, нормы рационального потребления.

ISSUES OF ENSURING FOOD SECURITY IN UZBEKISTAN

Riksibayev Khusniddin Sidikzhanovich
Master's student of the University of Public
Security of the Republic of Uzbekistan
Lieutenant Colonel

Tel: +99899-041-55-41

Annotation This article is devoted to modern problems of food security in the world and its features in the country. The article also highlights the scope of work on food security in Uzbekistan based on practical analysis and presents relevant conclusions and recommendations.

Key words: food, food security, food industry, agricultural products, livestock products, agro-industrial complex, norms of rational consumption.

Кириш

Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш Ўзбекистоннинг мустақиллигини, мамлакатда ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий барқарорликни таъминлашнинг гарови ҳисобланади. Ер юзида иқлим ўзгаришининг натижасида юз бераётган табиий офатлар, ерларни суғориш учун сув танқислиги, қурғоқчилик каби вазиятлар озиқ-овқат маҳсулотлари етиштиришни қийинлаштирмоқда. Оқибатда дунё озиқ-овқат бозорларида нарх-наво кўтарилиб бормоқда. Жаҳоннинг

54 мамлакатида оилалар моддий аҳволи даражасининг пасайиши

кузатилгани,

20 дан зиёд давлат аҳолисининг асосий қисми очликдан қийналаётгани, 12 та мамлакатда аҳолининг ўртача умр кўриши қисқаргани, сўнги йилларда дунё аҳолисининг 840 миллиондан ортиғи очликдан азият чекаётганлиги бунинг яққол далилидир[1]. Шунинг учун ҳам бутун дунёда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш масалаларига жуда катта аҳамият берилади.

Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда қишлоқ хўжалиги муҳим ўрин тутди. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисида қилган нутқида “Қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш ва озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш масалалари, ҳеч шубҳасиз, биз учун энг муҳим вазифалардан бири бўлиб қолади. Энг аввало, агросаноат комплекси ва унинг локомотиви, яъни ҳаракатга келтирувчи кучи бўлган кўп тармоқли фермер хўжалиklarини изчил ривожлантиришга катта эътибор қаратилади”[2],- деб таъкидлаган.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб озиқ-овқат хавфсизлиги масалалари Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий сиёсатида марказий ўринлардан бирида туради. Эндиликда аҳоли турмуш фаровонлигини ва сифатини янада ошириш, аҳолини озиқ-овқат билан тўлақонли таъминлаш масалалари озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш муаммоси билан чамбарчас боғлиқдир. Шу боисдан, Ўзбекистонда озиқ-овқат дастурини амалга ошириш асосида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий асосларин ва устувор йўналишларини илмий-назарий ва амалий жиҳатдан тадқиқ этиш зарурати мазкур тадқиқот мавзусининг долзарблигини белгилаб берди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Иқтисодий хавфсизликнинг таркибий қисми сифатида озиқ-овқат хавфсизлигининг назарий ва амалий масалаларини ҳал қилиш ҳамда унинг жамият тараққиётидаги, инсониятнинг турмуш фаровонликдаги ролини асослашга турли МДХ иқтисодчи олимларидан Д.В.Зеракалов томонидан “Озиқ-овқат хавфсизлиги” монографиясида озиқ-овқат хавфсизлиги масалалари жаҳон тарихий жараёнларида кўплаб амалий таҳлиллар келтирилади.

Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш сув ресурсларининг XXI асрга



бориб танқислиги юзага келиши ҳамда бу глобал иқтисодий муаммо айланиши ҳақида кўплаб расмий статистик материаллар тахлили олиб борилади[3]. Яна бир иқтисодчи олим Л.Ревенко ўзининг “Озиқ-овқат хавфсизлиги: ечимини топиш имкони мавжуд” расмий мақоласида жаҳон саҳнасида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш бўйича асосан ташқи оқимлар яъни мамлакатлар ишлаб чиқариш салоҳияти ва имкониятига боғлиқ ҳолда тақсимлаш масаласини кўтариб чиқади[4].

Ўзбекистонда тадқиқ қилинаётган муаммонинг айрим томонлари умумий тарзда Ҳ.П.Абулқосимовнинг “Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги” ўқув қўлланмасида озиқ-овқат хавфсизлиги муаммоси умумий тарзда ўрганилган бўлса яна бир иқтисодчи олимларимиздан Н.Х.Эргашев Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда суғуртанинг аҳамиятини кўрсатиб беради[5].

Шунингдек, мамлакатимиз иқтисодчи олимларидан Ш.Шодмонов, А.Ўлмасов, Т.Жўраев, Д.Тожибоевалар томонидан озиқ-овқат хавф-сизлиги масаласи уларнинг ўқув қўлланма ва дасрликларида айрим қирралари ўрганилган.

Таъкидлаш лозимки, хорижлик олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотларда кўп йиллик расмий нашлардан фойдаланган бўлсада, лекин миллий иқтисодиёт доирасида баратараф этиш бўйича амалий тавсия ва таклифлар берилмаган. Ўрганилган тадқиқотларда асосан озиқ-овқат хавфсизлиги масаласи глобал иқтисодий хавфсизликни келтириб чиқарувчи омил сифатида қараб чиқилган.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш масалаларининг назарий ва амалий жиҳатларини такомиллаштириш мақсадида олиб борилган бўлиб, аниқ устувор вазифалар белгилаб олинган. Мақолани ёзишда таҳлил ва мантқийлик каби усулларидан фойдаланиб, муаммони очиб беришга ҳаракат қилинган ҳамда Ўзбекистон озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда етакчи тармоқлардан саналган қишлоқ хўжалиги экин майдонлари ва ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар амалий тахлили ёритилган. Тадқиқот учун зарур ахборотлар асосан хорижий адабиётлар, статистик ва меъёрий-ҳуқуқий маълумотлар базасидан олинган.



Таҳлил ва натижалар

Мамлакат аҳолисининг кўпайиб бораётгани, урбанизация жараёнларининг кучайиб бориши шароитида қишлоқ хўжалиги экини майдонларининг қисқариб бориши озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва аҳолининг эҳтиёжларини қондириш имкониятларини кенгайтириш масаласини йилдан-йилга кескин қилиб қўймоқда. АҚШнинг изланишлар маркази ўтказган тадқиқотга кўра, Ўзбекистон озиқ-овқат хавфсизлиги рейтингида дунёда 64-ўринни эгаллади[6]. Мамлакатимизда қишлоқ хўжалигида фойда-ланиладиган ер майдонлари 1990 йилдаги 28080,4 минг гектардан 2015 йилда 25621,6 минг гектарга, яъни -2458,8 минг гектарга, шунга мос равишда ҳайдаладиган ер майдонлари 4176,5 минг гектардан 4043,6 минг гектарга, яъни -132,9 минг гектарга, суғориладиган ерлар 3407,3 минг гектардан 3288,2 минг гектарга, яъни -119,1 минг гектарга, қишлоқ хўжалиги экин майдонлари эса 4200,1 минг гектардан 3694,2 минг гектарга, яъни -505,9 минг гектарга қисқарди[6]. Бу эса озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб аҳамиятга молик эканлигидан далолат беради.

Айтиш лозимки, Собиқ Иттифоқ таназулга учраган ўша даврда, яъни 1989 йилда ўтказилган статистик тадқиқотлар маълумотларига кўра, истеъмол бозорида аҳоли учун зарур бўлган барча маҳсулотларнинг қарийб 95 фоизи бўйича узилишлар бўлиб турган ва бу собиқ Иттифоқ ҳудудида кундалик асосий озиқ-овқат маҳсулотларини аҳолига қарточкалар орқали сотиш тизимини жорий этишга сабаб бўлган эди. 1989 йилда республика статистика органлари томонидан юртимиз аҳолиси ўртасида ўтказилган расмий сўровларда қатнашганларнинг 89,3 фоизи гўшт маҳсулотларини етарли даражада истеъмол қилмаётганини айтган. Бу кўрсаткичлар сут маҳсулотлари бўйича 56,5 фоизни, шакар бўйича 55,3 фоизни, қандолат маҳсулотлари бўйича 49,5 фоизни, қартошка бўйича эса 17,5 фоизни ташкил этди[7].

Ушбу рақамлар мустақиллик остонасида республикамизда озиқ-овқат хавфсизлигига кучли таҳдидлар мавжуд бўлганлигини, республика озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашга ўзи қодир бўлмай қолганлигини кўрсатади. Шунинг учун ҳам мустақиллик қўлга киритилганидан сўнг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ҳаёт-мамот масаласига айланди.

Республикамиз мустақилликка эришган дастлабки йиллардан бошлаб, мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш мақсадидатуб аграр

ислохотлар асосида қишлоқ хўжалиги экинлари структурасини қайта кўриб чиқиш ва такомиллаштиришга йўналтирилган стратегия амалга оширилди. Шу жумладан, мамлакатимизда дон мустақиллигини қўлга киритишга қаратилган Дастурининг амалга оширилиши катта ижтимоий- иқтисодий ва сиёсий аҳамият касб этди. Агар 1990 йилда экин майдонларининг ярмидан кўпроғини техника экинлари, шу жумладан, пахта майдонлари ташкил этган бўлса, 2016 йилга келиб, уларнинг майдонлари 35,1% га қисқартирилди. Шу билан бир вақтда дон экинлари майдонларининг улуши умумий экин майдонларининг 24% дан 45,2% га оширилди (қarang: 1-жадвал).


1-жадвал маълумотлари кўрсатмоқдаки 2016 йилда 1990 йилга нисбатан картошка экин майдонларининг улуши 2,3 баробарга, сабзавот 3,2 % дан 5,3% га, ўсган. Шу билан бирга озуқа экин майдонлари улуши 14,8% дан 8,9% га камайган.

1-жадвал

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги экин майдонлари таркибининг ўзгариши динамикаси (1990–2016 йй., (% да) [8]

	1990й.	1995й	2000	2010	2016
	.	й.	й	й	
Экин майдонлари, жами минг га / %	4200,1 1	3628, 3	3778, 4	3708, ,7	3706
	100	100	100	100	100
Шу жумладан					
Дон маҳсулотлари	24,0	44,8	42,0	45,2	45,2
Техника экинлари	55,3	37,9	41,3	38,2	37,0
Шундан пахта	53,3	36,1	38,2	36,2	35,1
Картошка	0,9	2,1	1,3	1,9	2,2
Сабзавот	3,2	5,0	3,3	4,6	5,3
Полиз озиқбop маҳсулотлари	1,8	1,5	0,9	1,4	1,4
Озуқа экинлари	14,8	8,7	11,2	8,7	8,9

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалигини босқичма-босқич ислоҳ этиш ва диверсификация қилиш натижасида мустақиллик йилларида дон мустақиллиги қўлга киритилди, озуқабоп қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш кескин ўсди. 2017 йилда 1991 йилга нисбатан дон маҳсулотлари етиштириш эса 4,2 баробардан зиёдга, картошка етиштириш 847,5% га, мевалар 595,5% га, узум 363,9%га, сабзавот маҳсулотлари 343,9%га, полиз экинлари 226,2%га кўпайди. Шу билан бирга пахта хом-ашёси ишлаб чиқариш ҳажми 37,6%га камайди. Унинг қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг умумий ҳажмидаги улуши 47,7%дан 11%га қисқарди (қаранг: 1-расм).



1-расм. Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиши динамикаси (минг тонна)[9]

Таъкидлаш лозимки, ҳукуратимиз томонидан мамлакатимизда кўп тармоқли фермер хўжаликларини ва деҳқон хўжаликларини ривожлантириш борасида амалга ошириган чора-тадбирлари деҳқончилик соҳасида қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотлари ҳажми ва уларнинг улушлари ўсишига эришилди.

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришни интенсивлаштириш, диверсификациялаш, замонавий агротехнологияларни жорий этиш,

уруғчиликни яхшилаш борасида амалга оширилган чора-тадбирлар натижасида қишлоқ хўжалиги экинларининг ҳосилдорлиги оширилди. Дон экинларининг ўртача ҳосилдорлиги гектарига 1991 йилдаги 17,3 центнердан 2016 йилда 45 центнерга, шунга мувофиқ

равишда буғдой ҳосилдорлиги 11,8 центнердан 47,9 центнерга, картошка 87 центнердан 225,1 центнерга, сабзавот 188 центнердан 271,1 центнерга, полиз маҳсулотлари ҳосилдорлиги 106 центнердан 209,4 центнерга. мева ва резаворлар 36,7 центнердан 134,5 центнерга, узум 50,9 центнердан 142,3 центнерга ўсди [10].

Мамлакатимизда чорвачилик соҳасида ҳам таркибий ўзгаришлар содир бўлмоқда. Мустақиллик йилларида йирик шохли қорамоллар сони 2,4 баробардан зиёдга, сигирлар сони 2 баробардан ортиққа ўсди. Шунингдек, қўй ва эчкилар ҳамда паррандалар сони шу даврда мос равишда 2 баробардан зиёдга ошди (қarang:

2- жадвал).

2-жадвал

Ўзбекистон Республикасида чорва моллари сонининг ўсиши динамикаси (йил бошида, минг бош) [11]

Чорва моллари турлари	1991й.					2018й.	2018йилда 1991йилга нисбатан %да
	1991й.	2000й.	2010й.	2016й.	2018й.		
Йирик шохли қорамоллар	5	5	9	11641,3	12414,7		242,8
Шу жумладан, сигирлар	2	2	3	4173,5	4418,3		208,3
Қўй ва эчкилар	10	8					204,5
Паррандалар	109,5	932,5	15340,9	19118,8	20680,5		202,6
	200,4	14510,0	37733,3	61359,2	71343,4		

Чорва моллари сонининг ўсиши натижасида чорвачилик маҳсулотларининг қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари умумий ҳажмидаги улуши 1990 йилдаги 36,6% дан 2016 йилга келиб 41% га ўсди. Бунга асосан деҳқон хўжаликларида чорва моллари сонининг ўсиши ҳисобига эришилди. 2017 йилда йирик шохли қорамолларнинг 94%, қўй ва эчкиларнинг 84,8%, паррандаларнинг 61,9% деҳқон ва томорқа хўжаликлари улушига тўғри келган[12]. Натижада 1990-2017 йилларда гўшт (тирик вазнда) ишлаб чиқаришсалкам 2,9 баробарга, сут 3,3 баробарга, тухум 5,3 баробардан зиёдга ўсди (3-жадвал).

3-жадвал


**Асосий турдаги чорвачилик маҳсулотларини ишлаб
чиқариш ҳажмларининг ўсиши динамикаси (минг тонна)[13]**

	1990й.	2000й.	2010й.	2015й.	2017й.	2017 йил йилга нисбатан %да	1991
Гўшт (тирик вазнда)	789 ,1	84 1,8	14 61,4	20 33,4	,1	2281	289,1
Сут	303 4,2	36 32,5	61 69,0	90 27,8	3,2	1008	332,3
Тухум, млн.дона	123 1,8	12 54,4	30 61,2	55 35,4	,5	6605	536,2

Қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотлари ҳажмининг ва уни қайта ишлаш ҳажмининг ўсиши натижасида аҳоли жон бошига ишлаб чиқариш ҳажми ҳам ўсиш тенденциясига эга бўлди (қаранг: 1-расм).

Research Science and
Innovation House





2-расм. 2000-2016 йилларда аҳоли жон бошига ишлаб чиқарилган асосий қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари(кг, тухум-дона)[14]

Расм маълумотларидан кўришиб турибдики, 2016 йилда 2000 йилга нисбатан аҳоли жон бошига ишлаб чиқарилган жами дон маҳсулотлари 159 кг.дан 259 кг.га, картошка 3 баробардан зиёдга, сабзавотлар 3,4 баробарга, полиз маҳсулотлари 3,5 баробардан зиёдга, мевалар ҳам 3 баробарга, узум 2,2 баробарга, гўшт 2 баробарга, сут 2 баробардан зиёдга ва 3,8 баробарга яқин ўсган.

Аҳоли жон бошига асосий турдаги озиқ-овқат маҳсулотларининг ўсиши уларнинг Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти ва Ўзбекистон республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан белгиланган рационал истеъмол меъёрларига нисбатан бирмунча яқинлашишига, нон ва нон маҳсулотлари, сабзавотлар ҳамда ўсимлик ёғи бўйича эса ошиб кетишига олиб келди. Жумладан, аҳоли жон бошига нон ва нон маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми истеъмолнинг ЖССТ рационал меъёрларига нисбатан 206,3%ни, ЎзР ССВ меъёрларига нисбатан 192,7%ни, полиз ва сабзавотлар ишлаб чиқариш истеъмолнинг мос равишда 249,6% ва 261%ни ташкил этди (қarang: 4-жадвал).

4-жадвал

**Ўзбекистон Республикасида аҳоли жон бошига асосий
турдаги озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва
унинг рационал истеъмол меъёрларига нисбати (2016 йил,
кг,%) [15]**

Маҳсулот турлари			Аҳоли жон бошига ишлаб чиқариш, кг	ЖССТ меъёрлар ига нисбатан, %	Ўзбекистон Республикаси ССВ меъёрларига нисбатан, %
Нон	ва	нон	248,6	206,3	192,7
маҳсулотлари					
Картошка			92,3	95,4	95,1
Полиз	ва	сабзавот	350	249,6	261
маҳсулотлари					
Мева ва резаворлар			94,2	85,2	90,4
Гўшт	ва	гўшт	69,8	99,6	120,6
маҳсулотлари					
Сут	ва	сут	308,8	76,4	74,8
маҳсулотлари					
Тухум, дона			202,3	83,2	73,8
Шакар			14,5	39,7	35,8
Ўсимлик ёғи			29,1	222,1	319,8

Ушбу жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, картошка, сут ва сут маҳсулотлари, тухум, мева ва резаворларни аҳоли жон бошига ишлаб чиқариш уларнинг рационал истеъмоли меъёлари даражасидан бирмунча камдир. Аммо шуни айтиш лозимки, мустақиллик йилларида, яъни 2016 йилда 1990 йилга нисбатан аҳоли жон бошига истеъмол қилиш гўшт ва гўшт маҳсулотлари 38,7% га, сут маҳсулотлари 45,6 % га, тухум 2,4 мартага яқин, сабзавот ва полиз маҳсулотларисалкам 2,7 мартага, картошка салкам 2 мартага, мева ва узум 6,3 мартага ўсди (қаранг: 5-жадвал).

5-жадвал

Ўзбекистон Республикасида асосий турдаги озиқ-овқат
маҳсулотларини истеъмоли (аҳоли жон бошига, кг)[16]¹.

	1990й.	2000й.	2010й.	2014й.	2016й.
Нон ва нон маҳсулотлари	170	167	160	173	170
Гўшт ва гўшт маҳсулотлари	31	34	38	42	42,5
Сут маҳсулотлари	183	162	239	248	266,4
тухум (дона	97	47	138	215	230,4
Сабзавот ва полиз маҳсулотлари	107	128	238	281	285
Картошка	29	36	45	55	57
Ўсимлик ёғи	12	12	13	22	22
Шакар	12	16	17	28	28
Мевалар, узум	23	42	83	142	145

Хулоса ва таклифлар

Ўзбекистон Республикасида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш механизми учта муҳим жабҳани, яъни агросаноат мажмуасида озиқ-овқат ишлаб чиқаришни тартибга солиш ва рағбатлантириш, аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига эришишини ва истеъмолини таъминлаш ва бу борадаги имкониятларини ошириш ҳамда озиқ-овқат хавфсизлигини бошқаришни ташкил этиш тизимини такомиллаштириб бориш бўйича дастак ва чоратадбирларни ўз ичига олади. Бизнингча, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш механизми агросаноат мажмуасида озиқ-овқат ишлаб чиқаришни тартибга солиш ва рағбатлантириш соҳасида қуйидаги дастак ва чоратадбирларни ўз ичига олади:

- озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг қонуний, ҳуқуқий-меъёрий асосини вужудга келтириш ва такомиллаштириб бориш;
- бюджет-солиқ воситалари орқали озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ривожлантиришни рағбатлантириш. Бунда солиқ имтиёзлари, дотация ва субвенциялар бериш назарда тутилади;
- пул-кредит сиёсати дастаклари воситасида озиқ-овқат ишлаб



чиқаришни рағбатлантириш. Бунда имтиёзли кредитлаш тизимининг жорий этилиши назарда тутилади;

- озиқ-овқат экспорти ва импортини божхона тарифлари ва тарифсиз тартиблаш. Бунда мамлакатда ишлаб чиқарилмайдиган ёки кам миқдорда ишлаб чиқариладиган озиқ-овқат маҳсулотларини импорт қилишни ҳамда маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг озиқ-овқат, шу жумладан, қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотларини экспорт и фаолиятини божхона тарифлари ёки тарифсиз тартибга солиш ва рағбатлантириш чора-тадбирлари амалга оширилади;

- Агросаноат мажмуаси (АСМ) тармоқларига инвестициялар киритишни рағбатлантириш. Бунда агросаноат мажмуаси тармоқларига, жумладан, қишлоқ ва балиқчилик хўжалиги, сув хўжалиги, озиқ-овқат саноати тармоқларига ички ва хорижий инвестицияларни киритишни, мамлакат минтақаларида, эркин аграр иқтисодий зоналар, қишлоқ хўжалиги кластерларини ташкил этишни рағбатлантириш, уларни ривожлантириш учун қулай ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш чора-тадбирлари амалга оширилади;

- озиқ-овқат товарлари ишлаб чиқарувчиларини қўллаб-қувватлаш. Бунда қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларини, корхоналарни, озиқ-овқат саноати корхоналарини қўллаб-қувватланади ва улар фаолиятини рағбатлантирилади.

Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмларини янада кўпайтириш ва ўсиш суръатларини жадаллаштириш, юксак ишлаб чиқариш самарадорлигига эришишда хорижий мамлакатларнинг амалий тажрибаларини жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Жонихонов М., Раҳмонов С. Озиқ-овқат дастури: мамлакат тараққиёти, иқтисодиёт барқарорлиги ва фаровонликнинг мустаҳкам асоси.//Халқ сўзи, 2014 йил 7июнь.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз: Ўзбекистон

Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. //Халқ сўзи, 2016 йил 15 декабрь.

3. Зеркалов Д.В. Продовольственная безопасность [Электронный ресурс]: Монография / Д. В. Зеркалов. – Электрон. данные. – К. : Основа, 2009.

4. Лилия Ревенко. Продовольственная безопасность: решение возможно. https://mgimo.ru/files/226753/2012-09_interaffairs_Revenko.pdf.

5. Абулқосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма.- Т.:Akademiya, 2012.-12-бет; Эргашев Х.Н. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда суғуртанинг аҳамияти. //“Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг озиқ-овқат захираларини оширишдаги ўрни ва роли: муаммо ва имкониятлар” мавзусидаги Олий таълим муассасалариаро илмий-амалий анжумани илмий мақола ва маърузалар тўплами. 2018 йил 19 май.-Т.,2018. - 257-бет.

6. <https://daryo.uz/k/2018/04/30/uzbekiston-oziq-ovqat-xavfsizligi-reytingida-dunyoda-64-orinni-egalladi> Ўзбекистон озиқ-овқат хавфсизлиги рейтингида дунёда 64- ўринни эгаллади

7. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. –Т.: Ўзбекистон, 2011. 85-86-бетлар.

8. Ўзбекистон республикаси йиллик статистик тўплам. — Тошкент: «Ўзбекистан» 2011. — 45-бет; Статистический ежегодник Республики Узбекистан. — Ташкент, 2013. — С.226, 246–248; Ўзбекистон кишлок хўжалиги. 2016 йил статистик тўплам. –Т., 2017.-23-бет маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган..

9. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами.-Т.,2013. 227-бет; Ўзбекистон худуд-ларининг йиллик статистик тўплами.-Т.,2014. 87-88-бетлар; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год.-Т., 2018.- С.51,54-55 маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

10. Альманах Узбекистана 2013год. – Т., 2013.-С.113; Ўзбекистон кишлок хўжалиги 2016 йил. Стат.тўплам. –Т.,2016. –Б. 27-28; Ўзбекистон худудларининг йиллик статистик тўплами. 2016йил.-Т.,2017.-107-108-бетлар.

11. Альманах Узбекистана 2013год. Т., 2013. –С.114; Ўзбекистон худудларининг йиллик статистик тўплами.- Т.,2014.-92-93-бетлар; Ўзбекистон кишлок хўжалиги 2016 йил. –Т., 2016.-35-бет;Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год.-Т., 2018.-С.51 маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

12. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год.- Т., 2018.-С.57.

13. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010гг.) и прогноз на 2011- 2015гг.: Стат.сб.-Т.: «Узбекистан», 2011. –С.46; Ўзбекистон кишлок хўжалиги. Стат. тўплам 2016 йил. – Т., 2016.-Б.37; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год.-Т., 2018.-С.54-55 маълумотлари асосида муаллиф томонидаг тузилган.

14. Ўзбекистон республикасида кишлок хўжалиги кўрсаткичлари//stat/uz

15. Қаранг: Соттиқулова Г.А. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг ҳозирги ҳолати ва уни мустаҳкамлаш йўналишлари//”Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг озиқ-овқат захираларини оширишдаги ўрни ва роли: муаммо ва имкониятлар” Олий таълим муассасалариаро илмий-амалий анжумани илмий мақолалар ва маърузалар тўплами (2018 йил 19 май)-Т.: “ИМПРЕСС МЕДИА””, 2018.-197-198-бетлар;sisupr.mrsu.ru/2010-4-ARK/PDF/Makushkin.pdf., <http://news.21>. By/other-news/2011/11/17/410324.html.,<http://www.gnicpm.ru/UserFiles/norma-2010-diet.pdf>., [journals/kantiana.ru/upload/iblock/43f/jpynldkqtzbyrnc.pdf](http://journals.kantiana.ru/upload/iblock/43f/jpynldkqtzbyrnc.pdf) асосида тузилган.

16. Соттиқулова Г.А. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг ҳозирги ҳолати ва уни мустаҳкамлаш йўналишлари//”Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг озиқ-овқат захираларини оширишдаги ўрни ва роли: муаммо ва имкониятлар” Олий таълим муассасалариаро илмий-амалий анжумани илмий мақолалар ва маърузалар тўплами (2018 йил 19 май)-Т.: “ИМПРЕСС МЕДИА””, 2018.- 198-198-бетлар; sisupr.mrsu.ru/2010-4-ARK/PDF/Makushkin.pdf., <http://news.21>. By/other-news/2011/11/17/410324.html. ,<http://www.gnicpm.ru/UserFiles/norma-2010-diet.pdf>., [journals/kantiana.ru/upload/iblock/43f/jpynldkqtzbyrnc.pdf](http://journals.kantiana.ru/upload/iblock/43f/jpynldkqtzbyrnc.pdf). маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Некоторые вопросы преодоления возможных ошибок студентов каракалпаков в обучении иностранного языка. Составления правильных предложении с немецким глаголом «hören»

Я. Курбанов КГУ им. Бердаха

Аннотация: В этой статье рассматривается о типичных ошибок студентов национальных аудитории, о контрольно - экспериментальных работах у студентов 3-4 курсов немецкого отделения с глаголом hören. Приведены мнения ученых-лингвистов, методистов по этой теме.

Ключевые слова: типичная ошибка, порядок слов, сказуемое, высказывание, употребление, нецелесообразный, анализ, рекомендация, семантика, синтаксический, валентность, преодоление, источник.

Прежде чем приступить к рассмотрению данного вопроса мы должны оговориться, что в связи с ограниченным объемом работы мы на анализе типичных ошибок каракалпаков «не можем подробно остановиться во-первых, во-вторых пятилетнее обучение составлению немецких различными глаголами и нами контрольно - экспериментальные работы у студентов 3-4 курсов немецкого отделения с глаголом hören конкретно представляют типичные ошибки студентов каракалпаков. Особенно проверка письменных контрольных работ показала, что ошибки студентов каракалпаков заключаются в основном.

А) в порядке слов немецкого предложения.

Так, студент-каракалпак исходя из чутья своего родного языка составляет такое неправильное немецкое предложение как. Er die Musik hört т.к. сказуемое в простом каракалпакском предложении стоит в конце высказывания.

Б) в общем употреблении глагола hören. Так, например, студент-каракалпак для выражения понятий есит слышат, тынла-слушать в немецком предложении употребляет лишь одну форму, т.е. hören, оставляя при этом значение глагола gehören, reagieren, т.е. hören, auf+akk

Ср. Er hört ihn, и возможен вариант. Er hört aut ihn

Проверка письменных работ показала еще многие ошибки студентов каракалпаков. Однако, часть этих ошибок связана с употреблением глагола

hören, а часть этих ошибок связана с употреблением глагола hören, а часть ошибок связана с общим недостаточным знанием лексики, грамматики немецкого языка. Поэтому мы считаем нецелесообразным дальнейший анализ этих ошибок. Мы далее даем некоторые рекомендации по преодолению указанных выше и возможных других ошибок студентов каракалпаков при составлении немецких предложений с глаголом.

При этом прежде всего для составления правильных предложений с глаголом hören мы предлагаем следующие варианты значений, употреблений и наконец, семантико - синтаксические модели валентностей глагола hören, которые соответствуют вскрытым нами валентным свойствам данного глагола.

- I. hören₂₍₃₎ (VI=Wahrnehmen, aufnehmen)
 - II. hören Sn, Sa./NS dass, ob, w,(I)
 - III. –Sn+anim. (Das Kind, die Katze hört den Fremden)
 1. +anim. (Er hört das Kind, den Hund)
 2. Abstr. (Er hört Musik)
 3. Act (Er hört das Brüllen) Act (Er hört, das er könn(t) (ob er kommt) wer kommt) Act (Er hört sie kommen)
 - I. hören₂ (V2=gehören, reagieren)
 - II. hören Sn, pS
 - III. Sn 1. +Anim (Das Kind der Hund hört ihn)
 4. Abstr. (als Hum) (Die Betriebsleitung hört auf seinen Rat).
- P=auf
P Sa
1. Hum (Die Schuler hören auf den Lehrer)
 2. Abstr. (Die Schuler hören auf seine Worte)

Мы надеемся, что студент-каракалпак, усвоив данные семантико-синтаксические модели глагола hören, сможет в дальнейшем составить правильные предложения при нем.

Для преодоления указанных ошибок нельзя ограничиться одними лишь поправками ошибок учащихся, а нужно дать объяснения, касающиеся особенностей материала в каракалпакском языке, и уже после этого указать им на отсутствие этих явлений в немецком языке и, что нужно, например составить или говорить предложение правильно [2, 76].

В методических источниках предлагается различные методы объяснения материала. Но нам необходимо выбрать из всех этих методов объяснения дедуктивный метод, т.к. валентность наших глаголов в двух языках не совпадает [3, 122]. По этому методу преподаватель сообщает правило студентам на родном каракалпакском языке, а студенты воспринимают и записывают в тетрадях и применяют данное на подобранном материале.

После объяснения правила преподаватель напишет на доске несколько примеров с глаголом hören.

Преподаватель подчеркивает объясненное правило в примерах переведет эти предложения на родной язык и указывает на отличие этих немецких компонентов и на соответствие их в каракалпакском языке

Дальше преподаватель продолжит работу над текстом при активном участии учащихся. Однако, одного объяснения явно недостаточно для приобретения практических умений.

Целесообразно дать специальные упражнения, учитывая специфику подного языка студентов. Эти упражнения могут состоять в предложениях. Можно применить в каракалпакской аудитории следующие упражнения;

1.Письменные упражнения;

а/ перевод с немецкого языка на каракалпакский язык;

б/перевод с каракалпакского языка на немецкий язык

в/составление ситуаций

г/заполнение пропусков в предложениях

Учитель пишет на доске несколько предложений, пропустив отдельные члены предложения.

Технику выполнения этого упражнения студенты знают. Она заключается в заполнении пропусков соответствующими словами, в понимании мысли на иностранном языке, при этом его произвольное внимание и мышление сосредоточены преимущественно на содержании высказывания, а не на материале для речи и отдельных операциях с ним, как при тренировке.

Кроме этого, для преодоления трудностей и ошибок учащихся каракалпаков при обучении немецким глаголам рекомендуются контроли и самоконтроли.

Крупный методист, автор многих методических работ И. Д. Салистра дает контролю такую характеристику. Главной задачей контроля, пишет он, является точное выяснение недоработки каждого учащегося и группы в целом в целом их устранения.

Он продолжает, что система контроля неразрывно связана с системой упражнений, является компонентом этой системы; следовательно объекты контроля полностью идентичны с объектами усвоения в каждый данный момент обучения. Это значит что на этом этапе усвоения когда происходит тренировочная работа контроль будет иметь своими главными объектами овладение определенными комбинациями этих трудностей а на этапе речевой практики объектами контроля будут сложные речевые умения.

В свою очередь, самоконтроль учащихся тоже играет огромную роль при преодолении трудностей и ошибок.

Самоконтроль является органическим компонентом всякого умения и навыка, так как реализация последних протекает нормально лишь в том случае, когда мозг контролирует их через соответствующие каналы [4,124-127].

Кроме этого и наконец, рекомендуется умелое применение технических средств при обучении иностранным языкам.

Research Science and Innovation House

Использованная литература

1. Бондцио В. Теория валентности «обучение языку. Иностранные языки в школе М. 1977 №5 с. 15
2. Курбанбаев А. К. Сопоставительная грамматика немецкого и карфкалпакского языков., Нөкис, 1989.
3. Салистра И. Д. «Основные средства и методы объяснения» Методика обучения немецкому языку М. 1958.
4. Салистра И. Д., «Самоконтроль в овладении иностранным языком» Очерки методов обучения иностранным языкам. М. 1966,с. 93
5. Степанова М. Д., Хельбит Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. М. Изд-во «Высшая школа», 1978, с.157
6. Степанова М. Д. Берков Л. Н. Понятие валентности в языке «Вестник» Ленградского госун-та. Серия истории языка и литературы. Л. 1981

Research Science and Innovation House

UDK: 638.145.5

ASALARINING HARAKATLANUVCHI A'ZOLARI

R.Jamolov-Farg'ona davlat universiteti-o'qituvchi
H. Raximov, A.Tojaliyev- Farg'ona davlat universiteti-talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada asalarilar qanoti parda qanotli hasharotlar orasida, ularni harakatlantiruvchi vosita bo'lib, ular asalari oyoqlariga hech qanday taaluqli bo'lmay, alohida holda vujudga kelganligi. Asalari qanotlarining tuzilishi to'g'risida har xil gipotezalar borki ularning ko'pchiligi hech qanday ahamiyatga ega emasligi. Asalari qanotlari g'umbaklik davridan boshlanib, uning tomirlanishi ko'zga tashlanib, tanadagi qon aylanish sistemasiga tutashgan haqidafi yo'riqnomalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tuxumlar, sut, lichinka, qurt, g'umbak, yigiruv bezi, pilla, asal qopchasi, o'rta ichak, ana, naycha, halqa, g'ovak, qon, kubital, qanotlar, muskullar, orqa qanot, old qanot.

МОБИЛЬНЫЕ ЧЛЕНЫ ПЧЕЛ

Р. Джамолов – преподаватель Ферганского государственного университета.

Х. Рахимов, А. Тоджалиев - студенты Ферганского государственного университета.

Абстракт: В этой статье крылья пчел относятся к числу крылатых насекомых, их средств передвижения, и они отделены от ног пчел. Существуют различные гипотезы о строении пчелиных крыльев, большинство из которых не имеют никакого значения. Начиная с периода крыльев пчелы, выделяется ее сосудистая сеть, а также указания о ее связи с системой кровообращения организма.

Ключевые слова: яйца, молоки, личинка, червь, грибок, фильера, кокон, соты, средняя кишка, матка, трубка, кольцо, пора, кровь, локтевая кость, крылья, мышцы, заднее крыло, переднее крыло.

MOBILE MEMBERS OF BEES

R. Jamolov-Fergana State University is a teacher

H. Rakhimov, A. Tojaliyev - student of Fergana State University

Abstract: In this article, the wings of bees are among winged insects, their means of locomotion, and they are separate from the legs of bees. There are various hypotheses about the structure of bee wings, most of which are of no importance. Starting from the period of the bee's wings, its vasculature is highlighted, and the instructions about its connection to the blood circulation system of the body are highlighted.

Keywords: eggs, milt, larva, worm, mushroom, spinneret, cocoon, honeycomb, midgut, queen, tube, ring, pore, blood, cubital, wings, muscles, hindwing, front wing.


Kirish: Asalari qanotining tuzilishi parda qanotli hasharotlar orasida, ularni harakatlantiruvchi vosita bo'lib, ular asalari oyoqlariga hech qanday taaluqli bo'lmay, alohida holda vujudga kelgan. Asalari qanotlari g'umbaklik davridan boshlanib, uning tomirlanishi ko'zga tashlanib, tanadagi qon aylanish sistemasiga tutashgan bo'ladi. Asalari qanoti ikki juft bo'lib, o'rta va orqa ko'krak bo'g'imning o'simtasi hisoblanib, uchburchak shakldagi, pardalardan iborat. Qanotlari ingichka tomoni bilan ko'krak bo'limiga birikib turadi. Qanot ko'krakka birikkan joyiga xitin plastinkalar-skleritlar joylashgan. Oldingi qanotining asosida to'rta sklerit mavjud.

Asalari qanoti ikki xil-to'g'ri va qiyshiq muskullar yordamida harakatlanadi. To'g'ri muskullar bevosita qanotning asosiga birikadi va ular yordamida uchish vaqtida oldinga, uchmagan vaqtida orqaga harakatlanadi. Qiyshiq muskullar juda yaxshi rivojlangan, ko'krakning asosiy qismini egallaydi. Ular qanotning asosiga birikmaydi. Qiyshiq muskullar ko'krakning yon tomoniga yaqin joylashgan orqa qorin muskullariga va ular o'rtasiga joylashgan ko'ndalang muskullarga bo'linadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Asalarning orqa qorin muskullari qisqarganda, ko'krakning orqa yarim halqasi pastga tushadi va qanotning asosi pastga tortilib, qanot pardalari yuqoriga ko'tariladi, ko'ndalang muskullar qisqarganda, orqa yarim halqa do'ngroq ko'tarilib, qanot tomiri va uning pardasi pastga tushadi. O'rta ko'krakdagi pastki yarim halqaning ustki chetidagi do'nglik yordamida, qanotning tashqi cheti yuqoridan pastga qarab, murakkab harakat qiladi. Orqa qanotlarining orqa-qorin va ko'ndalang muskullari bo'lmaydi.



Asalari qanoti har xil shaklda, asosan uchburchak shaklda tuzilgan bo‘lib, har qaysi qanot ikkita yaproqchadan iborat, bular o‘rtasidan ko‘pincha to‘rt tomoni berk qanotchalar hosil qiladigan tik va ko‘ndalang tomirlar o‘tadi. Qanot tomirlari pardalarini ko‘tarib turuvchi mexanik tirgaklar vazifasini bajaradi, biroq ichi g‘ovak, ba’zi tomirlar orqali oziq moddani keltiradigan qon harakat qiladi va traxeya (nafas olish naychasi) hamda nerv tolalari keladi. Qolgan tolalarni ichi g‘ovak bo‘lmaydi. Qanotlardagi uzunasiga ketgan tomirlar juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu tomirlar orqali oziq moddasi qanotga o‘tadi va qanotni tutib turadi. Asalarining qanot tomirlari qon serkulyasiyasi va nerv sistemasi borligi aniqlangan, bu modda almashinuvi jarayonda doimo ishtirok etadi. Shu sababli ona asalari qanotlarini kalta qilib qirqishda (manipulyasiya qilishda) juda ehtiyot bo‘lish talab etiladi.



Asalari qanotlarining tuzilishi.

A-old qanot, B-orqa qanot, V-qanotlarining bir biriga tutashadigan ilmoqchalari, G-qanotlarning kubital indeksini xisoblash sxemasi, a,b – uchinchi kubital chiziqlarining oralig‘i (3K); kubital indeks tenglamasi $a \times 100\%$; K-kostal, R-radial, MK-medial-kubital, a-anal naycha tomirlari, R-radial kataklari, 1K,2K,3K-birinchi,ikkinchi kubital kataklar, Ol. K,T,F-old qanotining tutashish xalqachasi, Or. K,T,I – orqa qanotining old qanot bilan tutashish ilmoqchalari, T-tutashgich.

Asalari qanotlaridagi tomirlarning ko‘ndalang va uzunasiga joylanishi katta ahamiyatga ega. Bu tomirlar asalarilar uchgan vaqtida, uning qanotlarini mustahkam tutib turadi. Ko‘ndalang va uzunasiga joylashgan tomirlar bir-biri bilan kesishganida katakchalar hosil qiladi. Ana shu katakchalar yordamida hasharotlarni qaysi turga mansubligini aniqlashda, zootexniyada seleksiya va naslchilik ishlarini olib borishda katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Asalari qanotidagi uzun tomirlar bir necha xillarga bo‘linadi: 1) Kostall tomir, qisqich “S” bilan belgilanadi bu tomir qanot to‘ridan chiqib, uning oldingi cheti bo‘ylab keladi; 2) Subkostal tomir “Ss”, birinchi tomirdan keyin qanot tubidan chiqib odatda qisqa vaqt qanotning oldingi chekkasiga borib taqaladi; 3) Radial tomir “R” bo‘lib subkostal tomirdan keyin qanot tubidan chiqadi. Bu tomir ko‘pincha 5 ta tarmoq beradi, buning ustiga radial tomir tarmoqlari qanotning oldingi va tashqi chekkasiga etib borishi mumkin; 4) Medial tomirlar “M”, radial tomirlardan keyin joylashgan bo‘lib, tarmoqlaydi, uning uchi qanotning tashqi chekkasiga borib taqaladi; 5) kubital tomir “Si”, medial tomirdan keyin keladi, qanot ildiz tubidan chiqadi ba‘zan uchlari qanotning tashqi yoki orqa, chekkasiga borib taqaladigan ikki tarmoqqa bo‘linadi; 6) Anal tomirlar “A”, qanot tubidan chiqadi, ammo tarmoqlanmaydi va har qaysisi qanotning orqa ba‘zan tashqi chekkasiga mustaqil ravishda borib taqaladi. Anal tomir ko‘pincha aksilyar tomir deb aytiladi.

Asalarining uchishi. Asalarining orqa qanotining chetki qismida mayda ilmoqchalar bo‘lib, ana shu ilmoqlar yordamida oldingi qanotlarining orqa qismidan tezlikda birikib oladi, uchish vaqtida oldingi va orqa qanotlar birikib, yaxlit umumiy bir maydon sathini hosil qiladi va asalari gavdasini havoda ko‘tarib yuradi. Iishchi va erkak asalari qanotlarida 17 tadan 25 tagacha, o‘rtacha 21 ta ilmoqchalardan tashkil torgan bo‘lib, bu ko‘rsatgich janubiy rayonlarda shimolga nisbatan ancha ko‘pdir. Ona asalari qanotlaridagi ilmoqlar esa, ularga nisbatan ancha kam bo‘lib 13 tadan 25 tagacha, o‘rtacha 19 tani tashkil etadi.

Asalarining uchish tezligi uchish vaqtida sekundiga 200-250, hamda yuk bilan uchganda 850-900 martagacha qanot qoqadi, uyasini shamollatadigan asalarilar esa sekundiga 85-235 marotaba qanot qoqadi. Uchish tezligi yuk bilan kelganda soatiga o‘rtacha 27,5 kilometrni va yuksiz kelganda esa 12,5-33.5 km ni tashkil etadi. Lekin qisqa masofalarda uchish tezligi soatiga 60-62 km gacha oshadi. Asalarilar suv ustiga juda sekin uchadi, chunki oynaday tiniq suv havzalarida, ular uchish nuqtasini yo‘qotadi va suvga tushib nobud bo‘ladi. Shamolga qarshi uchganda, shira manbalarini topganda ular uchish tezligini bir muncha oshiradi.

Asalari uchish vaqtida ko‘p energiya sarflaydi. Asalari gemolimfasi tarkibini 2% gachasini qand moddasi tashkil qiladi, agarda qand moddasi 1% ga tushib qolsa, asalari ucholmaydi yoki qandning miqdori 0,5 % ga tushib qolsa, asalari harakatlanishdan to‘xtab qoladi. Asalari uchish vaqtida 1 soatda 10 mg qand modddasini sarflaydi. Asal qopchpsi to‘lgan vaqtda 15 minut ucha oladi, bu davrda

ular 6-8 km masofani uchib o‘tadi. Asalari havoda uchish vaqtida o‘ziga xos uchish holatlarini namoyish etadi. Ular havoda oldinga qarab, orqaga qarab, yon tomonga qarab uchadilar, hamda havoda to‘xtagan joyida muallaq holda uchib turish xususiyatiga ega.

Xulosa: Asalari uchish vaqtida muskullarining modda almashinishi xususiyati juda ham kuchayadi. Asalari uchish vaqtida 1gr muskul hisobida 2400 kalloriya energiya ishlab chiqaradi, bu ko‘rsatgich inson yuragidagi muskullar kuchiga nisbatan 10 marotaba ko‘pdir. Asalari uchish vaqtida uchmaydigan vaqtga nisbatan 50 marotaba ko‘p kislarod sarflaydi. Shuningdek, asalari ochiq va tiniq quyoshli kunlarda havo haroratini $12+14^0$ darajaga ko‘tarilganda ish faoliyatini boshlab, harorat $38-40^0$ darajaga borganda uchish faoliyatini pasaytiradi.

Asalari daladan shira to‘plashga uchganda 1 soatu, 02 minutni va o‘z uyasiga qaytib kelishda esa 15 minut vaqtni sarflaydi shu davrda ular 10-15 marotaba o‘z uyasidan chiqib uchadi. Asalarilar gul shirasi to‘plashga 35-40 minutni va gulchang to‘plashda esa 12-16 minut vaqtni sarflaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.,zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yana rivojlantirish chora-tadbirlari to‘risida”gi PQ-3327-sonli qarori.
2. Gulov A.N., Borodachev A.V., Beryozin A.S. Vozrast trutney i kachestvo trutney. “Pchelovodstvo”, 2015, №4, str. 24-26.
3. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., & Xolmatova, M. A. (2022). Asalarilar oilasining yashash tarzi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 666-671.
4. R.Jamolov., O.To‘rayev, D.Xatamova. “Asalarichilik asoslari”, Farg‘ona “Classik”, 2022.
5. Jamolov R., Boboyev B., O.,Ktamjonov S. Farg‘ona vodiysida ona asalari yetishtirishning asalarichilikni rivojlantirishdagi va oila mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyati //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. d7. – c. 43-49.
6. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M.,Xolmatova, M. A. (2022). Asalarichilik va uning ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 644-649.

7. Р Жамолов, Г Абдуллаева, Н Ҳайдарова THE ROLE OF WATER AND SALT IN THE LIFE OF BEES: [https://Doi. Org/10.47100/Conferences.V1i1.1334](https://doi.org/10.47100/Conferences.V1i1.1334). In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06)*... - UIF-2022, 2021

8. Jamolov, R; To‘Raev, O; Abduvaliyev, B Maturation And Changes Of Sperm Depending On The Age Of Male Bees Raised In The Conditions Of Fergana Region Science And Innovation, 2022

9. Давронов, Қахрамонжон; Тешабоев, Нодирбек Микроэлементли Ўғитларни Ўсимликни Барги Орқали Қўллашнинг Ғўзани 1000 Дона Чигит Вазни Ҳамда Бир Қўсакдаги Пахта Вазни Нинг Ўзгаришига Таъсири Science And Innovation, 2023.

10. Рапикжон Қўшматович; Тешабоев, Нодирбек Икромжонович фарғона водийсида она асаларини сунъий усулда уруғлантириш учун эркак асалари етиштириш технологияси Academic Research In Educational Sciences, 2022



Research Science and
Innovation House

UDK: 638.145.5

**O‘zbekistonda asalari zaxri yetishtirish–bu usulni xalq xo‘jaligidagi
axamiyati va istiqbollari**

**Jamolov Rapiqjon Qo‘shmatovich-Farg‘ona davlat universiteti-o‘qituvchi.
Raximov Xikmatillo, Tojaliyev Abduhalim –talabalar**

Annotatsiya: Asalarichilik mahsulotlari ichida asalari zaxri–(apitoksin) eng qimmatlisi hisoblanadi. Asalari nish a‘zolari va uning zaxari to‘g‘risidagi malumotlarni birinchi bo‘lib Golland vrachi Jan Svammerdam yozib qoldirgan. Lekin u asalari tanasidagi kichik va katta zaxar bezi va ulardan oqib chiqadigan suyuqlik to‘g‘risida ma‘lumot keltirmagan. Asosan asalari nish azozi asosida ikki xil zaxar bezlari bo‘lib, ular katta va kichik zaxar bezlaridir. Ishchi asalari katta zaxar bezining uzunligi 9-20 mm, ona asalari yesa 30-49 mm bo‘ladi. Ushbu maqolada asalari zaxar qopida zaxar to‘planishi, uning qaysi asalari zotiga mansubligi, hamda qaysi yil fasillarida olinganligi, asalarilarning oziqasi tarkibiga bog‘liqligi do‘grisidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: asalari zaxari, apitoksin, asalari nishi, kichik zaxar bezi, kata zaxar bezi, asal, gulchang, prapolis, suv, protein zaxarli (zaxarli oksil), ortofosfat ksilota, chumoli kislotasi, ateraskleroz, asalari nishi, gistamin, fosfolipaza, kasseta, elektrofarez, ionofarez.

**Production of bee venom in Uzbekistan - the importance and prospects of
this method in the national economy**

Jamolov Rapiqjon Kushmatovich-Fergana State University- teacher.

The son of Rakhimov Khikmatillo, Tojaliyev Abduhalim – students

Abstract: Among beekeeping products, bee venom (apitoxin) is the most valuable. Dutch physician Jean Swammerdam was the first to write down the information about the members of the bee hive and its venom. But he did not provide information about the small and large poison glands in the body of bees and the liquid that flows from them. Basically, bees have two types of venom glands based on their niche, they are large and small venom glands. The length of

the large venom gland of worker bees is 9-20 mm, and that of queen bees is 30-49 mm. This article contains information on the accumulation of poison in the bee venom sac, which species of bee it belongs to, as well as the time of year it is collected, and the dependence on the composition of bee food.

Key words: bee venom, apitoxin, bee hive, small venom gland, cat venom gland, honey, pollen, propolis, water, protein poison (toxic oxy1), orthophosphate xylate, formic acid, atherosclerosis, bee hive, histamine, phospholipase, cassette, electrophoresis, iontophoresis.

Производство пчелиного яда в Узбекистане – значение и перспективы этого метода в народном хозяйстве

Джамолов Рапикжон Кушматович- учитель Ферганского
государственного университета.

Рахимова Хикматилло, Тоджалиев Абдухалим – студенты Ферганской
государственного университета

Аннотация: Среди продуктов пчеловодства наиболее ценным является пчелиный яд (апитоксин). Голландский врач Жан Сваммердам первым записал информацию о членах пчелиного улья и его яде. Но он не предоставил информации о малых и больших ядовитых железах в организме пчел и жидкости, вытекающей из них. По сути, у пчел есть два типа ядовитых желез в зависимости от их ниши: большие и малые ядовитые железы. Длина большой ядовитой железы рабочих пчел 9-20 мм, пчелиных маток 30-49 мм. В данной статье содержится информация о накоплении яда в пчелином яде, к какому виду пчел он принадлежит, а также о времени года его сбора и зависимости от состава пчелиного корма.

Ключевые слова: пчелиный яд, апитоксин, пчелиный улей, малая ядовитая железа, кошачья ядовитая железа, мед, вода, белковый яд (токсичный бэлок), ортофосфат ксилот, муравьиная кислота, атеросклероз, пчелиный улей, гистамин, фосфолипаза, кассета, электрофорез, ионофорез.

Kirish: Asalarichilik mahsulotlari orasida ari zahari (apitoksin) eng qimmatli hisoblanadi. Asalari bo‘shliqlarining anatomik tuzilishi haqidagi ma’lumotlar faqat



Dyufurning (1841) monografiyasida to‘liq tavsiflangan va u asalarilarning mayda zaharli bezlari haqida juda ko‘p qimmatli ma‘lumotlarni yozib qoldirgan.

Asalarilarning biologik va anatomik tuzilishiga qarab ikki xil zahar bezlari mavjud bo‘lib, ular katta zahar bezi va kichik zahar bezidan iborat. Ishchi asalarilarning zahar bezining uzunligi 9-20 mm, ona asalarilarniki esa 30-49 mm. Asalarilarning zaxar qopchasida zaharning to‘planishi uning zotiga, yil fasliga va istemol qilgan ozuqasiga bog‘liq bo‘lib, bir dona asalari chaqishida zahar miqdori 0,2-0,4 mg ni tashkil qiladi. Asalari zahari rangsiz, tiniq suyuqlik bo‘lib, xushbo‘y hid va achchiq nordon ta‘mga va kislotalik xususiyatga ega. Taqqoslama og‘irligi 1,1313 ga teng. Zahar havoda tez qotadi.

Tadqiqot materiallari va metodikasi: Zahar tarkibi suv, zaharli oqsil, xlorid ortofosfat kislotasi, chumoli kislotasi, efir moylari bo‘lib, bu moddalar asosan inson tanasini shikastlaydi va bezovta qiladi. Bundan tashqari, K, Ca, P, Fe, Mg, Cu, Ru, Li, Mn, Cl, I, S, gistamin va fosfolipaz-A kabi moddalar borligi qniqlangan. Asalari zahari uzoq yillar davomida quruq joyda saqlanishi mumkin. Hatto +2, -7, -15 C harorat ham zaharni saqlash uchun qulay muhit hisoblanadi. Asalari zahari organizmda yurak mushaklarining ishini kuchaytiradi va arterial qon bosimini pasaytirish imkonini beradi. Asalari zahari metabolizmga ayniqsa samarali ta‘sir ko‘rsatadi, bu qondagi xolesterin miqdorini kamaytirish zarur bo‘lganda, aterosklerozda ayniqsa muhim hisoblanadi. (Special Issue 6), 964-967 b.

Tadqiqot natijalari: Asalari chaqqanda, stilet, ya‘ni nayza qismi chaqishi bo‘ylab tashqariga chiqib, tanaga sanchiladi va nayzasidagi chaqishning harakatiga qarama-qarshi joylashgan asalarilarning ilgaklari nishni tortib olishga yo‘l qo‘ymaydi va asalarilar uchishga harakat qilganda, uning nayzasi uzilib qoladi. Bu vaqtda ari zaxar qopchasidan organizmga 0,2-0,3 mg zahar oqib chiqadi. Asalarilar chaqqandan so‘ng shikastlanganda 3-4 soatdan keyin nobud bo‘ladi. Asalari zahari ishchi asalarilarning kata va kichik zahar bezlari tomonidan ishlab chiqariladi, zahar qopchasida saqlanadi va ortiqcha zahar ari chaqqanda organizmga singib ketadi. Asalari zahari tarkibi 60 foizgacha suvni o‘z ichiga oladi va u havoda tez qotib qoladigan achchiq va kuydiruvchi ta‘mga ega sarg‘ish suyuqlikdir.

Quruq zahar tarkibida juda ko‘p oqsillar, aminokislotalar, yog‘lar, chumoli kislotasi va noorganik birikmalarga qaraganda ko‘proq magniy mavjud. Voyaga yetgan asalarilar 0,4-0,6 mg zahar ajratadi, asalarilarad zahar bezlar asalari

hayotining 12-14 kunida eng ko‘p zahar hosil qiladi. Sanoatda asalari zaharini yig‘ish uchun maxsus elektr moslama mavjud bo‘lib, u asalarilar uyasiidagi nasl romlari orasiga yoki ustidagi yelkalarga quyiladi. Bitta ari oilasida taxminan 0,1 mg quruq zahar olish mumkin. 10 000 ta asalaridan 1 grammga yaqin zahar olish mumkin. (Qahramonov B., Isamuhamedov A., Ballasov U. 2009. R. Jamolov., O. To‘rayev., “Asalarichilik asoslari”. 2022.)

Asalari zaxari olish moslamasi - stinger kassetasi oynaga o‘ralgan simga ega bo‘lib, simning uchi quvvat manbai va batareyaga ulangan. Derazaning o‘rtasi o‘yilgan. Yog‘ochning uzunligi 470 mm, pastki relsning uzunligi 435 mm, u 14 mm eman taxtasidan qilingan. Voyaga yetgan asalarilar 0,4-0,8 mg zahar chiqaradi, zahar bezlari eng ko‘p zaharli suyuqlikni ari hayotining 12-14-kunida ishlab chiqaradi, asalari zahari asosan sharbat yig‘ish vaqtigacha olinadi bu davrda juda ko‘p zahar ishlab chiqaradi. Zaharni ajratib olish moslamasi (kasetalar) chuvalchang romlaridan, asal romlaridan esa 2 santimetr uzoqlikda joylashgan. Bitta aridan taxminan 0,1 mg quruq zahar olish mumkin. 10 000 ta asalaridan 1 g zahar olish mumkin. Reylar ichki tomondan 8 mm yivga ega. Yivning kengligi 8 mm va chuqurligi 5 mm, temir yo‘lning yuqori qismida har 5 mm dan simni chizish uchun 1 mm yo‘li chiziq mavjud. Bitta zaharni qabul qiluvchi qurilma atrofiga 59-60 qator 0,2 mm sim o‘ralgan. Buning uchun taxminan 40 metr sim kerak bo‘ladi. Qurilmaga tortilgan sim oynaga 2 mm ga tegmasligi kerak. Elektr quvvati 12 volt bo‘lib, uning quvvati 9 voltdan oshmasligi kerak. Chiqish oqimining zarba ketma-ketligi $0,5-0,5 \pm 0,1$ Gs ni ta‘minlashi kerak, 12 voltli batareya 6-8 soat davom etishi mumkin. Qabul qilish moslamasi uyaga quyilganda, unga tortilgan sim qattiq ramkadan 20 mm masofada joylashgan bo‘lishi kerak. Ushbu zaharni ajratib olish moslamalari kunning yarmida uyaga joylashtiriladi va oqim 3 soat davomida ulanadi. Agar u 4 soatdan ko‘proq vaqt davomida ulansa asalarilar nobud bo‘ladi. Sovuq kunlarda zahar olish tavsiya etilmaydi, zaxar olingandan so‘ng, asalarilar tez-tez uchib ketishadi va sovuqda nobud bo‘lishi mumkin. Zahar olingandan so‘ng 10-15 minut o‘tgach qotib qoladi. Shundan so‘ng qurilmani o‘chirib tashlashingiz mumkin. Asalari oilalaridan har 12-15 kunda shu usulda zahar olinsa, asalarilar mahsuldorligiga katta ta‘sir qilmaydi. Erta bahorda, kuchsiz oiladan asal olingandan so‘ng, ular lichinkalarni boqish paytida va qishga ketishdan oldin zahar olish taqiqlanadi. (Special Issue 8), 630-634 b)



Xulosa: Asalari zahari bilan davolash 1959-yil 10-martda sobiq Ittifoq sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoʻriqnomalar asosida amalga oshirilgan. Tibbiyotda asalari zahari bilan davolash bir necha xil usullarda amalga oshiriladi. (Asqarov I.R. «Sirli tabobat» 2021. B.A. Temnov 1984 y.)

Jumladan:

- 1) Asalarilarga tabiiy chaqtrish yoʻli bilan.
- 2) Asalari zahari ampularida suyuq dori vositalarini teri ostiga yuborish orqali.
- 3) Asalari zaharidan tayyorlangan preparatlarni elektroforez, iontoforez va inhalatsiyalash.
- 4) Asalari zaharidan tayyorlangan turli xil suyultirilgan malhamlar yordamida.
- 5) Asalari zaharidan tayyorlangan turli tabletkalar bilan.

Respublikada asalarichilik tarmogʻi faqat tovar asal ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan boʻlib, bu soha rivojiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Masalan: Respublikamizdagi asalarichilik xoʻjaliklari yiliga 350-400 kg dan ortiq asalari zahari olish imkoniyatiga ega boʻlib, bu zaharning har bir grammi jahon bozorida 100 AQSH dollaridan yuqori turadi va shundan kelib chiqib yiliga 39-40 million dollar qoʻshimcha daromad olish mumkin. 10-25 dona asalari zahari kattalar uchun toʻliq (zaharli) dozadir. 500 yoki undan ortiq ari chaqishi odamni oʻldirish holatiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmogʻini yana rivojlantirish chora-tadbirlari toʻrisida”gi PQ-3327-sonli qarori.
2. Gulov A.N., Borodachev A.V., Beryozin A.S. Vozrast trutney i kachestvo trutney. “Pchelovodstvo”, 2015, №4, str. 24-26.
3. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., Xolmatova, M. A. (2022). Asalarilar oilasining yashash tarzi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 666-671.
4. R.Jamolov., O.Toʻrayev, D.Xatamova. “Asalarichilik asoslari”, Fargʻona “Classik”, 2022.
5. Jamolov R., Boboyev B., Oʻktamjonov S. Fargʻona vodiysida ona asalari yetishtirishning asalarichilikni rivojlantirishdagi va oila mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyati Science and innovation.–2022.–t. 1.–№. d7.–c. 43-49.



6. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., Xolmatova, M. A. (2022). Asalarichilik va uning ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 644-649.

7. R.Q.Jamolov, O.T.Avazxonova, M.D. Mirzobiddinova, A.N. Ergasheva. [Asalarizorda asal tortish texnologiyasi](#). Science and innovation 2 (Special Issue 6), 964-967 b.

8. R.Jamolov. [O‘zbekistonda asalari zotlarini tanlash va parvarishlanayotgan asalarilar irq lari tarkibi](#). (Science and innovation 2 (Special Issue 8), 630-634 b)

9. Jamolov, R; To‘Raev, O; Abduvaliyev, B Maturation And Changes Of Sperm Depending On The Age Of Male Bees Raised In The Conditions Of Fergana Region Science And Innovation, 2022

10. Давронов, Қахрамонжон; Тешабоев, Нодирбек Микроэлементли Ўғитларни Ўсимликни Барги Орқали Қўллашнинг Ғўзани 1000 Дона Чигит Вазни Ҳамда Бир Қўсакдаги Пахта Вазни Нинг Ўзгаришига Таъсири Science And Innovation, 2023.

11. Рапиқжон Қўшматович; Тешабоев, Нодирбек Икромжонович фарғона водийсида она асаларини сунъий усулда уруғлантириш учун эркак асалари етиштириш технологияси Academic Research In Educational Sciences, 2022

Research Science and Innovation House

UDK: 638.145.5

Asalarilarning g‘umbak oldi va g‘umbaklik davri

Jamolov Rapiqjon Qo‘shmatovich-Farg‘ona davlat universiteti
o‘qituvchi

Raximov Hikmatillo, Tojaliyev Abduxalim-Farg‘ona davlat universiteti
talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada asalarilarning g‘umbak oldi va g‘umbaklik rivojlanish metaforfaza bosqichi faqat to‘liq o‘zgaruvchi hasharotlarga xosligi, ularning qurtchalari rivojlanib bo‘lgach, so‘ng oziqlanmay, harakatsiz holatga kelib, oxirgi marta po‘st tashlashi va g‘umbakka aylanishi haqidafi yo‘riqnomalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tuxumlar, sut, lichinka, qurt, g‘umbak, yigiruv bezi, pilla, asal qopchasi, o‘rta ichak, ingichka ichak, malpigiy naychalari, yurak, qon, jinsiy bezlar, diploid, gaploid.

Предпузырный и улейный период пчел

Джамолов Рапикжон Кушматович – преподаватель Ферганский
государственный университета

Рахимов Хикматилло – студент Ферганского государственного
университета

Абстрактный: В данной статье метафазная стадия развития и метаморфоза медоносных пчел характерна только для полностью метаморфизованных насекомых, после развития личинок они не питаются и становятся малоподвижными, в последний раз сбрасывают кожу и попадают в улей. для обращения покрыты.

Ключевые слова: яйца, молоко, личинка, червь, губка, фильера, кокон, медовый мешок, средняя кишка, тонкая кишка, мальпигиевы каналцы, сердце, кровь, половые железы, диплоид, гаплоид.

Pre-bubble and beehive period of bees

**Jamolov Rapikjon Koshmatovich-Fergana State University is a teacher.
Rakhimov Hikmatillo. Tojaliyev Abdukhalim- is a student of Fergana
State University.**

Abstract: In this article, the metaphase stage of honey bee development and metamorphosis is characteristic only of fully metamorphosed insects, after the development of their larvae, they do not feed and become inactive, they shed their skin for the last time and enter the hive. Instructions for circulation are covered.

Key words: eggs, milk, larva, worm, sponge, spinneret, cocoon, honey sac, midgut, small intestine, Malpighian tubules, heart, blood, gonads, diploid, haploid.

Kirish: Asalarilarning g‘umbak oldi va g‘umbalik davri rivojlanish metaforfaza bosqichida, faqat to‘liq o‘zgaruvchi hasharotlarga xosdir. Ularning qurtchalari rivojlanib bo‘lgach, so‘ng oziqlanmaydi, harakatsiz holatga kelib, oxirgi marta po‘st tashlaydi va g‘umbakka aylanadi.

G‘umbalikga kirishdan oldin rostanib olgan qurtcha, yigiruv bezlari ishlab chiqaradigan suyuq moddalari yordamida, o‘ziga pilla yasashga kirishadi. Qurtcha suyuqlik moddasi bilan pilla devorlarini va tagini suvab chiqadi. Havo ta‘sirida bu suyuqlik tezda qotadi va pilla ichida yana bir qavat uyacha hosil qiladi. Qurtchalarning pilla yigirish xususiyati, uning tashqi muhit o‘zgarishlarga moslanish vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki qurtcha a‘zolarining o‘shish bosqichi eng ma‘suliyatli davr bo‘lib, bu davrda ular tabiatning salbiy ta‘siriga ko‘proq tushib qolishi mumkin. Qurtcha pillasining biologik ahamiyati-rivojlanayotgan asalari avlodlarini g‘umbalik bosqichida, tashqi ta‘ssurotlardan saqlab qolishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi: Asalari katakcha ichida pilla o‘rayotgan davrida bir necha bor bosh qismini pastga tushurib va aksincha, aylanib turadi. Ana shu aylanishlarda 15 minutdan 30 minutgacha vaqt sarflaydi, qurtchalar pillaga o‘ralish vaqtini ikki kunda tugatadi yoki tuxum qo‘yilgandan so‘ng 10-11-chi kunlarida boshlab tugallanadi. Asalari g‘umbagining ichki tuzilishida ham ko‘pgina o‘zgarishlar ro‘y beradi, oldingi qismida asal qopchasi, rivojlanadi. O‘rta ichak halqasimon ichakka kirib, qatlamli tuzilishda bo‘ladi, orqa ichak esa ikkiga, ya‘ni

ingichka va yo‘g‘on ichaklarga bo‘linadi. Oziq qoldiqlarini chiqarib tashlash vazifasini bajaruvchi malpigi naychalari soni ham to‘rtta o‘rniga, 100 tadan oshib ketadi, (katta asalarilarda esa 150 ta). Markaziy asab sistemasi va yurak ko‘pincha saqlanib qoladi. Qon aylanish garchi o‘zgarsada g‘umbaklik davri davom etadi. Jinsiy bezlarning boshlang‘ich qismlari batamom saqlanib qoladi va rivojlanib boradi. Har bir tuxumdonda 100 tadan ko‘p tuxum naychalari hosil bo‘ladi. Keyinchalik, ishchi asalari qurtchalari g‘umbakka aylanish bosqichida, tuxumdonlar yemirilib, ular o‘rniga tuxum naychalari kam, (1 tadan 20 tagacha), bo‘lgan, yangi tuxumdonlar hosil bo‘ladi. Shundan so‘ng qurtchalarning ichki a‘zolarida asosiy o‘zgarishlar bo‘lib, o‘tadigan g‘umbak oldi bosqichi faoliyati tugaydi, oxirida qurtchalar tullaydi va g‘umbaklik bosqichiga o‘tadi. G‘umbaklik davri tamom bo‘lgandan so‘ng, asalari o‘smaydi va uning tashqi ko‘rinishida hech qanday o‘zgarishlar yuz bermaydi. Asalar ustki jag‘i bilan katakcha qopqoqlarini kemirib tashqariga chiqadi. Keyinchalik ular kattalashmaydi, po‘st tashlamaydi, tashqi jihatdan hech qanday o‘zgarmaydi. (Special Issue 8), 630-634 b)

Tadqiqot natijalari: Umuman, ishchi asalarilar tuxum bosqichidan to yetuk asalari bo‘lib yetilguncha o‘rtacha-21 kun, ona asalarida-16 kun va erkak asalarida esa-24 kun o‘tadi.

Ona, ishchi va erkak asalarilarning rivojlanish bosqichlari

Rivojlanish bosqichlari	Ona asalari	Ishchi asalari	Erka k asalari
Tuxumlik davri	3	3	3
Qurtchalik davri	5	6	7
G‘umbak oldi davri	2	3	4
G‘umbaklik davri	6	9	10
Umumiy rivojlanish davri davri	16	21	24

Asalarining metamorfoza davrida modda almashinishi va oziqa moddalarini to‘plashi. Asalari qurtchasi va g‘umbaklarida juda kuchli modda almashinish jarayonlari bo‘ladi, natijada yetuk rivojlangan asalarilar hosil bo‘ladi.



Bir kunlik asalari qurtchasining vazni o‘rtacha 0,75 mg ga teng bo‘lib, uchinchi kunda uning vazni ancha ortadi va bir kunda 8 marotabaga ko‘payib, o‘rtacha 41,6 mg ni tashkil etadi. Eng yuqori ko‘rsatgich, qurtchalar rivojlanishining oltinchi kuniga, yani g‘umbaklik davriga o‘tish arafasida to‘g‘ri keladi va uning vazni 154,1 mg ni tashkil etadi. Shundan so‘ng pillaga o‘ralish davriga kirayotganda, uning vazni har kuni 12,6 mg gacha kamayadi, shu tariqa g‘umbaklar har kuni o‘rtacha 2,5 mg dan, o‘z vaznini 12-chi kunlik g‘umbaklik davrida o‘zining vazniga nisbatan 30% vaznini yo‘qotadi. (“Asalarichilik asoslari”, Farg‘ona “Classik”, 2022).

Asalari qurtchalari 3 kundan so‘ng oziqasi tarkibi uglevodlarga boyib, o‘zgargandan so‘ng, qurtcha tanasiga glikogen miqdori 1,2 dan 5,5 mg-gacha yoki tana vazniga nisbatan 15-25% gacha ko‘payadi. Qurtchalik davrining oxirida borib, bu raqam 30% ni tashkil etadi. Ana shu davrda yog‘ miqdori 0,04 dan 6 mg gacha yoki tana vazniga nisbatan 9-16% ga oshishi aniqlangan. Glyukoza miqdori ham o‘zgaruvchan bo‘lib, xususan g‘umbak oldi davrida to‘qimalarni yemirilishi nitijasida, u gemolimfa tarkibiga o‘tadi. (644-649 b).

Xulosa: Qurtchalarning kislorodga bo‘lgan talabi birinchi kundan boshlab, kunsayin oshib boradi va g‘umbaklik davriga borib, ancha kamayadi. Kislorodga bo‘lgan talab oltinchi kunga borib, eng yuqori darajada bo‘ladi, ya‘ni bir soatda 0,17 ml ni tashkil etadi, pilla to‘qish davrida 0,09 ml miqdorda kamayadi. Lekin pillaga o‘ralayotgan davrda kislorodga bo‘lgan talab, ancha miqdorda oshadi va soatiga 0,13 ml ni tashkil etadi. Asalarini katkchalardan chiqayotgan vaqtda, kislorodga bo‘lgan talabi oshadi va soatiga 0,19 ml ni tashkil etadi.

Qurtchalik davrining hamma bosqichlarida nafas olish koeffitsenti har doim ham 1 ga teng bo‘ladi. g‘umbaklik davrida doimo yopiq pillaga o‘ralganligi uchun, bu koeffitsent 1 dan past bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 16-oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yana rivojlantirish chora-tadbirlari to‘risida”gi PQ-3327-sonli qarori.
2. Gulov A.N., Borodachev A.V., Beryozin A.S. Vozrast trutney i kachestvo trutney. “Pchelovodstvo”, 2015, №4, str. 24-26.



3. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., Xolmatova, M. A. (2022). Asalarilar oilasining yashash tarzi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 666-671.

4. R.Jamolov., O.To‘rayev, D.Xatamova. “Asalarichilik asoslari”, Farg‘ona “Classik”, 2022.

5. Jamolov R., Boboyev B., O‘ktamjonov S. Farg‘ona vodiysida ona asalari yetishtirishning asalarichilikni rivojlantirishdagi va oila mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyati Science and innovation.–2022.–t. 1.–№. d7.–c. 43-49.

6. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M.,Xolmatova, M. A. (2022). Asalarichilik va uning ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 644-649.

7. R.Q.Jamolov, O.T.Avazxonova, M.D. Mirzobiddinova, A.N. Ergasheva. [Asalarizorda asal tortish texnologiyasi](#). Science and innovation 2 (Special Issue 6), 964-967 b.

8. R.Jamolov. [O‘zbekistonda asalari zotlarini tanlash va parvarishlanayotgan asalarilar irqi tarkibi](#). (Science and innovation 2 (Special Issue 8), 630-634 b)

9. Jamolov, R; To‘Raev, O; Abduvaliyev, B Maturation And Changes Of Sperm Depending On The Age Of Male Bees Raised In The Conditions Of Fergana Region Science And Innovation, 2022

10. Давронов, Қахрамонжон; Тешабоев, Нодирбек Микроэлементли Ўғитларни Ўсимликни Барги Орқали Қўллашнинг Ғўзани 1000 Дона Чигит Вазни Ҳамда Бир Қўсакдаги Пахта Вазни Нинг Ўзгаришига Таъсири Science And Innovation, 2023.

11. Рапиқжон Қўшматович; Тешабоев, Нодирбек Икромжонович [фарғона водийсида она асаларини сунъий усулда уруғлантириш учун эркак асалари етиштириш технологияси](#) Academic Research In Educational Sciences, 2022

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA SOYA YETISHTIRISHNING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI

UrDU “Biologiya” kafedrası dotsenti
(PhD) **Raximova Xolisxon Maqsudovna**
209-biologiya guruh talabasi
Qurbonboyeva Sarvinoz Mansur qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Soya o‘simligini kelib chiqishi, dunyo bo‘ylab tarqalishi va o‘zbekiston sharoitida soya yetishtirishning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Glycine max*, soya, urug‘, oqsil, yog‘, tuproq, azot, harorat.

Glycine max oldin Shimoliy Xitoyda taxminan miloddan avvalgi 1100 yilda madaniylashtirilgan va keyinchalik boshqa shu davlatlarga yaqin Osiyo mamlakatlariga tarqalgan. Bu o‘simlik Shimoliy Amerikada odatda soya nomi bilan tanilgan bo‘lib, Soya urug‘ida oqsil va yog‘lar ko‘p bo‘lganligi sababli, ular ko‘plab Osiyoliklarning ovqat ratsionida to‘yimli asosiy mahsulotga aylandi. Soya o‘simligi dastlab dunyoning G‘arbiy qismida soya sousi bilan mashxur bo‘ldi va kerakli oziq-ovqat mahsulotiga aylandi. Bu o‘simlik 1765 yilda birinchi marta Shimoliy Amerika maydonlariga ekla boshlandi. Keyingi 155 yil ichida ular deyarli faqat em-xashak ekini sifatida etishtirildi [2].

Inson o‘z hayot faoliyati davomida tashqi muhit bilan uzluksiz ravishda chambarchas bog‘langan bo‘ladi bu holatda aslida inson to‘z ehtiyojini qondirish uchun harakat qiladi Davitaya F. F. 1958.185 s., Gusev N. A., 1971.- S. 23-36., Juchenko A. A. 1986.- S. 5-17. Inson hayotidagi asosiy qismni tabiiy –iqlim omillari bilan bog‘liqligidir. Tabiiy -iqlim omillari tuproq, suv, harorat va namlikni boshqarish imkoniga egadir. Xorazm viloyati tuproqlarining sho‘rlanishi albatta tabiiy iqlim omillariga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. Yer osti va yer usti suvlarining o‘zgaruvchan xususiyatlari tuproqlarning sho‘rlanishga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi, ammo bunda inson omili katta rol o‘ynaydi.

Sattorov J.S. (1995) ning ma'lumotlariga qarab, antropogen sharoitda tuproq hosildorligi, tuproq unumdorligi, tuproqni muhofaza qilish va undan foydalanish muammolari o‘tgan asrdan boshlab ongli ravishda kishilarni bezovta qilib kelgan.

Suvning sho‘rlanish holati, xajmi va qaysi tuzlardan iborat ekanligi, ekiladigan ekin turi, ularni joylashtirish kabi omillar va olib boriladigan irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari tuproqning sho‘rlanish darajasini belgilaydi.

Tuproq olimlar tomonida juda katta e‘tibor beriladigan omil xisoblanadi, shuning uni o‘rganish dunyo olimlari tomonidan ham tinmay o‘rganiladi, masalan Weicheng Wu et al., R.L. Dehaan & G.R Taylor, A.A. Elanaggar & J.S. Noller, Vorob’ev N.V., Jurba T.P. - 1988. -S.5-12., bizning olimlarimizdan Balnokin Yu.V., Stroganov B.P. - S. 3-33., L. Tursunov, R.Qo‘ziyev, E.Yu.Safarov, M.Sultonovlar tomonidan O‘zbekiston tuproqlarining sho‘rlanishi o‘rganilgan.

Tuproq barcha tirik organizmlar yashab hayot kechiradigan va ko‘payadigan litosferaningustki qatlami bo‘lib tabiiy holatda o‘tmish va bugun kelajak haqida umumiy ma‘lumotlarni o‘zida to‘playdigan barcha iqlim omillarining ta‘siri o‘zida saqlab qoladigan tirik organizm xisoblanadi. Bajariladigan tadqiqot ishida sho‘rlangan tuproqlar va havo haroratining o‘simlikka ontogeneziga ta‘siri, tuproqdagi tuzlarning turlari va turlari haqida ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rganiladi. Tuproq sho‘rlanishini bugungi kunda asosan antropogen omillar ta‘sirida bormoqda deb xisoblashmoqdalar. Tuproq sho‘rlanganmi yoki normal tuproqmi qay holatda bo‘lishidan qat’iy nazar u o‘zida o‘zaro modda va energiya almashinuvini shakllantiridigan biologik qobiq bo‘lib xizmat qiladi.

Soya o‘simligi O‘zbekistonda introduktsiyalangan o‘simliklar turiga kiradi. Ya.D.Momot (1935. 24) ma‘lumotiga ko‘ra, dastlab 1930-1933 yillarda Samarqand viloyatida ekilib o‘stirilgan va uch davomida olib borilgan tajriba natijalariga ko‘ra soya issiq iqlimda o‘smaydi degan xulosa berilgan. Mana shu xulosada ham tashqi omil yoki havo haroratining yuqoriligi tufayli shu davrdagi soya navlari yaxshi hosil bermaganligi O‘zbekiston sharoitida sabab qilib ko‘rsatilgan.

Soya o‘zining ishlatilishidagi universalligiga ko‘ra dehqonchilik tizimidagi barcha o‘simliklar orasida tengsizdir. Chunki, uning doni tarkibida yuqori sifatlik, aminokislotalar bilan ta‘minlanganlik jihatidan go‘sht, sut, tuxum kabi eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan tenglasha oladigan 28-52 foiz oqsil, 18-27 foiz ekologik toza o‘simlik moyi ko‘plab mineral tuzlarni, darmondorilarni saqlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa butun dunyoda oqsil taqchilligi xukm surayotgan bugungi kunda, soya donining oqsilga boyligi, oqsili tarkibida inson uchun o‘rin almashilmaydigan



aminokislotalarning barchasini mavjudligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, soya donining ovqatlilik ahamiyatini yanada oshiradi,

Soyaning lizin, metionin, arginin, leysin va boshqa eng zarur aminokislotalarga boyligi bo'yicha qator oziq-ovqat mahsulotlari bilan tenglasha olishini alohida ta'kidlash zarur.

Hozirgi kunga kelib oziq-ovqat mahsulotlari va chorva uchun yem ishlab chiqarishning jadallashishi soya doni yetishtirishni ko'paytirishni taqozo etmoqda. Soya tarkibida to'la qimmatli nodir oqsil mavjud bo'lib, u oziqlik qimmatini bo'yicha hayvon oqsilidan qolishmaydi. Uning tarkibida noyob biologik faol moddalar, letsitin, xolin, A, V va E vitaminlari, makro va mikroelementlar va boshqa qimmatli moddalar mavjud. Soya yetarlicha yuqori sifatga ega, ya'ni oqsil va moyga boy bo'lsa-da, bugungi kunda O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga keng tadbiriq etilmagan. Uning turli navlarida 57% gacha parhez oqsil, yengil hazm bo'luvchi to'yinmagan moy va 30% gacha uglevodlari (asosan mono- va disaxaridlar) mavjud, ularda biologik faol moddalar va vitaminlar: A, B1, V2, V3, V6, YE, S, D, Q RR va boshqalar, shuningdek Mp, Mo, Mg, V, G'e kabi mikroelementlar mavjud. Ularning barchasi kundalik xayotimiz va chorva ratsioni uchun juda muhimdir. Soya tarkibida laktoza va xolesterin uchramaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, kalloriyasi va asosiy oziqlik va biologik faol moddalar tarkibi bo'yicha ushbu mahsulot muqobil balanslangandir.

Inson iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarida oqsilning yetarli bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, inson bir sutkada iste'mol qiladigan ovqat mahsulotlari kaloriyasining 12 foizini yoki 90-100 grammini oqsil tashkil etishi kerak. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 90-95 grammga, endigina taraqqiy etib kelayotgan mamlakatlarda esa 20-25 grammga to'g'ri keladi. Ayniqsa, o'simlik oqsiliga bo'lgan talab juda katta, yer yuzi bo'yicha o'simlik oqsili ishlab chiqarish talabga nisbatan 4 marta kamdir. O'simliklar qishloq xo'jaligining ajralmas bir qismi bo'lib, xalq xo'jaligida alohida ahamiyat kasb etadi. O'simliklardan insonlar uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlari olinadi. Bu ko'rsatkich orqali mamlakat aholisining farovonligi haqida fikr yuritish mumkin. Bundan tashqari o'simliklar sanoat uchun xomashyo manbai hisoblanadi. O'simliklar, hayvonlar va parrandalar chiqindilari mahalliy o'g'it sifatida yer unumdorligini oshirishda beqiyos o'rin to'tadi. Shu boisdan bu organizmlarni asosiy vazifasi seleksiya mahsulotlarini ko'paytirish evaziga xalqning oziq-ovqat, sanoatni

esa xomashyo bilan taminlashdan iboratdir. Hozirgi kunda yer shari aholisi 7 milliarddan oshdi. Shuncha miqdordagi kishini o‘simlik oqsili bilan ta‘minlash uchun hozirgi paytda ishlab chiqilayotgan oqsilga qaraganda 20 marta ko‘p oqsil tayyorlash kerak. Shuni aytish kerakki, biz hozirgi paytda ham kishilarning oqsilga bo‘lgan talabini to‘liq qondira olmayapmiz. Oqsilga bo‘lgan talab to‘xtovsiz oshishi natijasida jahon bozorida uning bahosi ortib bormoqda. Shuning uchun ham o‘simlik va hayvon oqsili yetishtirish va kishilarni ta‘minlash asosiy masala bo‘lib, oqsil eng muhim strategik mahsulotga aylanib bormoqda. Bu muammoni hal qilishning asosiy yo‘li oqsilga boy o‘simliklarni, shu jumladan, soyani keng maydonlarga ekilishini joriy qilish va almashlab ekish strukturasi kiritish zarur. Hozirgi kunda AQSH da 100 dan ortiq soya navi ekilmoqda. Bu navlar ichida mahsuldorligi yuqori, jumladan, tarkibida 55 foiz oqsil saqlaydiganlari ham bor. Seleksionerlar qurg‘ochilikka chidamli, turli tuproq sharoitlarida o‘sa oladigan, gerbitsid va pestitsidlarga moslashgan, tezpishar va kimyoviy tarkibida oqsil va moy miqdori yuqori bo‘lgan navlar yaratish sohasida ishlamoqdalar. Respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, xususan, o‘simlik moyiga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirish, import hajmini qisqartirish, chorvachilik va parrandachilikning ozuqa bazasini mustahkamlashda soya ekinining ahamiyati katta. Dukkakli o‘simlik hisoblangan soya barcha qishloq xo‘jaligi ekinlari-kuzgi g‘alla, g‘o‘za, makkajo‘xori, sabzavotlar va boshqa ekinlar uchun eng yaxshi o‘tmishdosh ekin hisoblanadi. Soya oqsilga boy, qimmatbaho o‘simlik. Qimmatligi shundan iboratki, soya doni tarkibida 35 foizdan 48 foizgacha oqsil, 22-23% qimmatli yog‘ saqlaydi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, soya yer sharida keng tarqalgan qadimiy ekinlardan hisoblanadi. Soyaning vatani janubiy-sharqiy osiyo mamalakatlaridadir. Soya Xitoyda bundan 6000 yillar muqaddam ham ekingan. Hindiston soyaning Xitoydan keyin keng tarqalgan ikkinchi vatani hisoblanadi. Yer sharining boshqa mamlakatlarida keng maydonlarda soya ekila boshlanganligiga 100-120 yil bo‘ldi. AQSh, RF, Hindiston, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Ukraina, Moldaviya, Gruziya va O‘zbekistonda yetishtiriladi. O‘zbekistonda XX asrning 60yillaridan keng tarqalgan. Oddiy soya turning ildizi yaxshi rivojlangan, o‘q ildiz, sershox, tuproqqa 2 m chuqurlikkacha kirib boradi, asosiy qismi haydalma qatlamda joylashadi. Poyasi dag‘al, silindrsimon, tik o‘suvschan, ammo yotib qoladigan navlari ham bor. Soya unidan sut, tvorog, qandolat, mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi. Somoni,

tuponi, ko‘k poyasi, silosi ozuqa sifatida chorva mollariga beriladi. Soya – dukkakdoshlar oilasiga mansub bir yillik moyli, dukkakli don ekinlar sirasiga kiradi. Soya hozirgi kundagi asosiy masala - oqsil tanqisligini hal etishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Soya oqsili o‘zining kimyoviy tarkibi jihatidan hayvon oqsiliga o‘xshash bo‘lgani uchun ham barcha rivojlangan mamlakatlarda soya yetishtirishga juda katta e‘tibor berilmoqda. Yaponiyada sholi va sabzavot ekinlaridan keyin soya bilan band bo‘lgan yerlar o‘z kattaligi jihatidan uchinchi o‘rinni egallaydi. Yaponiya chet ellardan ham ko‘p miqdorda soya sotib olmoqda. Keltirilgan donlar turli maqsadlar uchun foydalanilmoqda. Hozirgi kunda ipak qurti tutishda soya donidagi oqsildan foydalanilmoqda. Yapon mutaxassislari tomonidan tayyorlangan sun‘iy oziqning 67 foizi soya oqsili, 2 foizi soya yog‘i, limon kislotasi, B guruh vitaminlari va boshqa turli qo‘shimchalardan iborat. Yaponiyada bir yilda besh marta ipak qurti boqiladi va bunda soyadan tayyorlangan sun‘iy oziq katta ro‘l o‘ynaydi. Soya donidan, shuningdek sifatli oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadi. Yaponiyada yaratilgan soya navlari tarkibida oqsil yuqori bo‘lishi bilan boshqa mamlakatlarda yetishtirilgan soya navlaridan ajralib turadi. O‘zbekistonda borgan sari iqtisodiy islohotlar chuqurlashib, bozor munosabatlari asosida yangi mustaqil milliy iqtisodiyotni barpo etish jarayonlari tezlashmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning o‘ziga xos yo‘li tanlandi. Bu yo‘l O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta asosiy tamoyilda o‘z aksini topgan bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning siyosiy va ijtimoiy larzalarsiz, bosqichma-bosqich taraqqiyotni ta‘minlab borishni nazarda tutadi. Bu yo‘l MDH davlatlari orasida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda o‘tishdavrining o‘zidayoq iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlabgina qolmay, mamlakatni iqtisodiy o‘sish sari olib chikdi, kelgusida xalq xo‘jaligining yanada jadalroq rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Dukkakli don ekinlari Respublikamiz iqtisodiyotida muhim o‘rinni egallaydi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘laroq qondirish dukkakli ekinlarning turli xillarini yetishtirishni va ularning hosildorligini oshirishni talab qiladi. Dukkakli ekinlar birgina oziq-ovqat muammosini hal qilib qolmay, tuproq unumdorligini oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ularning ildizida tuganak bakteriyalar rivojlanib, ildiz bilan simbioz holda havodagi erkin azotni o‘zlashtiradi va o‘zlarini o‘sishi, rivojlanishi uchun azotga bo‘lgan ehtiyojini 70-75% qondiradi va mavsumda tuproqqa 60-80 kg biologik azot qoldiradi

Soya iqtisodiyot uchun juda foydali ekin bo‘lib, soya oqsilidan ekologik toza sifatli moy, tarkibida letsitin moddasi saqlaydigan tuxum kukuni, qon plazmalari, ko‘zoynaklar uchun sifatli linzalar olinadi. Bundan tashqari, jun gazlamalar ishlab chiqariladi. Ularni haqiqiy junli matolardan ajratish mushkul. Soya qimmatbaho oziq-ovqat, yem-xashak va texnik maqsadlarda keng ishlatiladigan o‘simlik. Qimmatliligi yana shundan iboratki, soya doni tarkibida ham oqsil (40-48%) ham moy (22%) eng ko‘p bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich boshqa hech bir o‘simlikda qayd qilinmagan. Chorvachilikda soya mahsulotlari eng sifatli va to‘yimli ozuqa hisoblanib, tarkibidagi proteniga ko‘ra, 100 kg soya doni 134,8 ozuqa birligini saqlaydi. Bu ko‘rsatkich boshqa bironta donli yoki dukkakli ekinda uchramaydi. Uning quruq poyasi ham beda pichaniga qaraganda to‘yimliroq. Zavodlarda moyi ajratib olingandan so‘ng qolgan soya shroti tarkibida 14 xil aminokislota mavjud bo‘lib, ushbu moddalar parrandachilikda keng foydalanildi. Soya oqsili ipak qurti uchun ham noyob ozuqa hisoblanadi. Bir yilda besh marta ipak qurti boqiladigan Yaponiyada soya oqsilidan tayyorlangan suyultirilgan pastalardan foydalaniladi. Soyadan ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar - bu soya uni va soya moyidir. Soya uni qandolatchilik mahsulotlari, to‘ldiruvchilar, go‘sht, sut, pishloq o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Moyi esa oziq-ovqatda, mayonez, margarin ishlab chiqarishda ishlatiladi. Ko‘pgina olimlar va ishlab chiqaruvchilar «soya - oziq-ovqat, yem-hashak va kelajak» deyishadi. Soya yordamida to‘la qimmatli o‘simlik oqsili ishlab chiqarish muammosi hal etiladi.

Soya uni: yog‘sizlantirilgan soya uni (izolyati) ni non va non mahsulotlari ishlab chiqarishda qo‘llash, nonlarning sifatini yaxshilash orqali, nonning kunlik sarfini kamaytiradi, soyalik nonlar uzoq vaqt qotmaydigan bo‘ladi, ko‘rinishi chiroyli bo‘rsildoqligi ortadi.

Hattoki, honadonlarimizda tayyorlanadigan nonlarimizning uniga 8-10 foiz soya unidan qo‘shib ishlatish nonlarimizni sutga tayyorlaganni o‘rnini bosadi, tandirdan juda chiroyli bo‘lib chiqadi, 8-10 kungacha bu nonlar qotmaydi. Doimiy shunday non iste‘mol qilishlik xalqimizni birinchi navbatda ayollarimizni, bolalarimizni tanalaridagi oqsilga bo‘lgan taqchillikni ma‘lum darajada kamaytiradi, kamqonlikni oldini oladi, chunki xalqimizning barcha qatlamlarida ham har kuni eng ko‘p ishlatiladigan mahsuloti non bo‘lib hisoblanib soyalik non bilan ma‘lum miqdorda oqsil qabul qilinishiga erishamiz.

Soya uning kaloriyasi bug‘doy uniga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, 100 g soya unida 450 kaloriya, bug‘doy unida 360 kaloriya, mol go‘shida 138 kaloriya, 100g tuximda 162 kaloriya va shuncha sigir sutida 66 kaloriya hosil bo‘ladi. Soya uni lizinga boyligi bo‘yicha quruq hamirturish, quruq sultlardan keyingi uchunchi o‘rinda baholanadi va bu undan barcha oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqariladi, ayniqsa yog‘sizlantirilgan soya uni (soya izolyati) dan ko‘plab oziq ovqatlarga konservalarga, bolalar ozuqasiga qo‘shilsa, ularning sifatini yaxshilaydi, uzoq vaqt saqlanishini ta‘minlaydi.

Soya suti: soya donidan tayyorlanadigan oppoq, qaymoq rang, parxez ichimlik. Bu sutni uy sharoitida tayyorlash uchun 1,0 kg tozalangan soya donini, suvda yuvib, 6-8 soatga sovuq suvda ivitiladi. Bo‘rtgan soya donlarini go‘sh maydalagichdan 2-3 marta o‘tkaziladi, hosil bo‘lgan “qiyma”ni, oldindan tayyorlab qo‘yilgan qaynatilgan 5-6 l suvga aralashtiriladi va bu aralashmani 2 qavatlik dokada suzilib soya suti tayyorlanadi. Uni past olovda qaynatiladi, bu sutdan tvorog-tofu, qatiq, har-xil ovqatlar, muzqaymoq, moyonez va x.k larni tayyorlash mumkin.

Soya donining yana bir muhim mahsuloti-bu ekologik toza o‘simlik moyi bo‘lib, bu moy tarkibida xolesterin, mutlaqo yo‘qligi bilan alohida ahamiyatga ega, soya doni moy ishlab chiqarish sanoat korxonalarini uchun muhim hom-ashyodir va uning moyi nafaqat oziq-ovqatda balki, sovun, lak bo‘yoq, lenoleum, plastmassa va boshqa ko‘plab mahsulotlar ishlab chiqarishda ham muhim o‘rin egallaydi.

Soya o‘simligining oxirgi qoldig‘i hisoblangan soya somoni maydalanib, barcha turdagi chorva mollariga omuxta yem sifatida foydalanishga yaroqlidir, chunki uning 100 kg 38-42 ozuqa birligiga teng bo‘lib, tarkibida o‘rtacha 5,8-6,2 kg gacha hazm bo‘ladigan protein saqlaydi.

Xorazm viloyati xududiy joylashuvi va mintaqalariga ko‘ra o‘ziga xos tuproq va iqlim sharoitiga ega. Shu sababli ham soya ekinini ekilishini rejalashtirilayotganda navlarni joylashtirishga alohida e‘tibor berish kerak. Shu bilan bir qatorda yangi istiqbolli navlar uchun qo‘llaniladigan yangi agrotexnologik tadbirlar majmui shu joyning tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilib, soya ekadigan dehqon fermerlarga tavsiya etilishi kerak.

Soya ekinidan yuqori va sifatli hosil olishning asosiy yana bir garovi bu ekishga yerni sifatli tayyorlash, mintaqaning tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olib nav tanlash, sifatli urug‘lik, ekish muddat va me‘yorlari, sifati hamda soya

nihollarini to‘liq undirib olish hamda o‘z muddatida parvarishlash, zararkunanda, kasallik va begona o‘tlardan o‘z vaqtida ximoya qilishdan iborat [16]

Soya navlarini parvarishlashda eng muhim holat navlarning tashqi ekologik muhitga bo‘lgan chidamligi yoki moslashishidir, ayniqsa bizdagi keskin kontenetal iqlim sharoitida tashqi omillarning ahamiyati juda kattadir. o‘simliklarnig tashqi muhitga ekologik plastikliki yoki moslashishi haqida juda uzoq vaqtlardan beri ilmiy izlanishlar olib boriladi. O‘simliklarnig tashqi stress omillarga ekologik plastikliki yoki muqimligini baholashning bir qancha metodlari mavjuddir. Soya navlarining ekologik plastikliki deganda uning o‘suv davrida tashqi noqulay sharoitlarga moslashib ketishi hamda hosil berishi tushuniladi.

Juchenko, A.A. 2003. S.10–15., 7 Korzun, A.S. 2011 – 140 s., 8 Torikov, V.E. 2008 - S. 60-63., Konstantinova, O.B. 2015 – T.29. –S. 7-9., kabi bir qator olimlarsoya navlarida ekologik plastiklik deganda, ularning biologik xususiyatlariga ko‘ra, tashqi muhitga moslashuvi tushuniladi degan fikrga keladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashour, N. I., A. T. Thalloth, “Effects of soil and foliar application of N during pod development and yield of soybean (*Glycine max.* (L) Merrill) plants, Field Crops Research”, 1983, 261-266.
2. Dorff, E. The soybean, agriculture’s jack-of-all-trades, is gaining ground across Canada. Statistics Canada. 2007
3. Favre R, Myint UK. On analysis of the Myanmar edible oil crops sub-sector Electronic Publishing Policy and Support Branch: Rome Italy, 2009
4. Garcia, L. R., J. J. Hanway, 1976, Foliar fertilization of soybean during the seed filling period, Agron. J., 68, 658-657.
5. Hartman GL, Ellen DW, Theresa KH. Crops that feed the world 2 soybean worldwide production, use, and constraints caused by pathogens and pests. Food Sec 2011; 3:5–17. doi: 10.1007/s12571-010-0108-x
6. IITA, 1980, International Institute of Tropical Agriculture, Soybean Production Training Manual, 10, 308.
7. INTSOY, 1989, International soybean Programme Newsletter/Pamphlet, University of Illinois at Urbana, Champaign, Illinois U.S.A.
8. Kale, F. S., 1985, Soybean, its value in dietetics, cultivation and uses, International Books and Periodicals Supply Services, India, 479 pp.

9. Knipscheer, H. C, P. Ay, 1982, The Potential of Soybeans in Nigeria and the Results of IITA Survey in Two Principal Production Areas (Benue State and Zonkwa-Abuja), Discussion paper N. 1/82, Agric. Economic IITA, Oyo Road, Ibadan, Nigeria 1-46.
10. Kuepper, G., 2003, Foliar Fertilization ATTRA Publication, #CT135, <http://attra.ncat.org-pub/PDF/foliar.pdf>
11. Kondratyuk V. P., Obrabotka pochvi pod posev xlopchatnika v Sredney Azii, T., 1972; Ermatov A., Sug'oriladigan dehqonchilik, T., 1983, Abdurahim Ermatov
12. Mallarino, A. P., 2005, Foliar fertilization of soybean: Is it useful to supplement primary fertilization?
13. In: Integrated Crop Management, IC-494, 15, 125-126, <http://www.ipm.iastate.edu/ipm/icm/2005/6-20/fofert.html>
14. Odeleye F. O¹⁾, O. M. O. Odeleye²⁾, M. O. Animashaun¹⁾, EFFECTS OF NUTRIENT FOLIAR SPRAY ON SOYBEAN GROWTH AND YIELD (*GLYCINE MAX* (L.) MERRILL) IN SOUTH WEST NIGERIA, Not. Bot. Hort. Agrobot. Cluj, 2007 Volume 35, Issue 2 Print ISSN 0255-965X; Electronic ISSN 1842-4309
15. Poole, W. D, G. W. Randall, G. E. Ham, 1983, Foliar fertilization of soybeans, Agron. J., 75, 1, 201-206.
16. Tayo, T. O., 1981, Studies on the effects of foliar spray of nutrients on the performance of cowpea (*Vigna unguiculata* (L.) Walp. J. Agricultural Science, Cambridge, 96, 375-388.

Research Science and Innovation House

SOYA O`SIMLIGINING KELIB CHIQISHI, BOTANIK BELGILARI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

UrDU “Biologiya” kafedrasi dotsenti (PhD) *Raximova Xolisxon Maksudovna*
214-biologiya *Abdirimova Kumushoy Hasanovna*

Annatsiya: Maqolada soya o`simligining kelib chiqishi, botanik belgilari va biologik xususiyatlari bir qator ma`lumotlar keltirilgan bo`lib, barcha ma`lumotlar ilmiy manbalardan olingan va taxlil qilingan.

Kalit so`zlar: *Soya, dukkak, oila, ildiz, azot, simbioz, tugunakli bakteriyalar.*

Soya dukkaklilar oilasiga (fabaceae yoki Leguminosae) tegishli. Ikki pallali gulli o`simliklarning eng yirik oilalaridan biri. Bu oilaning 650 ga yaqin avlodi va 18000 ga yaqin o`simlik turlari butun dunyo xududlari bo`ylab tarqalgan. Dukkaklilarning o`ziga xos xususiyati ularning atmosfera azotini o`zlashtirishga qodir mikroorganizmlar bilan simbiozidir. Bu mikroorganizmlar dukkakli o`simliklarning ildizlarida hosil bo`lgan tugunlarda yashaydi, ular azot saqlovchi mikroorganizmlarni suv va mineral tuzlar bilan ta`minlaydi. Bakteriyalarning hayotiy faoliyati natijasida tugunlarda hosil bo`lgan azotli birikmalarning bir qismi, o`simliklar o`zlarining mineral oziqlanishi uchun foydalanadilar. Bu simbioz dukkakli o`simliklarning nisbatan kambag'al tuproqlarda o`shiga imkon beradi, oxir-oqibat ularni azotli birikmalar bilan boyitadi. Shuning uchun dukkakli ekinlar almashlab ekishda eng yaxshi salaf hisoblanadi. Ko`pgina dukkakli o`simliklar qadim zamonlardan beri yetishtirilib, butun dunyoda keng tarqalgan.

Dukkaklilar to`qimalarida azot fiksatsiya qiluvchi mikroorganizmlar bilan simbioz tufayli oqsil molekularini qurish uchun zarur bo`lgan ko`plab azotli birikmalar to`planadi, shuning uchun deyarli barcha dukkaklilar oqsilga boy. Biologik azot fiksatsiyasi Yerda hayot mavjudligini ta`minlaydigan global jarayondir[6].

Madaniy soya - *Glycine hispida* (Moench) Max.- (*Glycine max* (L.) Merrill) dag'al, ildizpoyali, nisbatan kalta, asosiy ildizi va tuproqda 2 m gacha yetadigan ko`p sonli uzun lateral ildizlari bo`lgan o`tsimon bir yillik o`simlik. Asosiy ildiz uzoqdan faqat yuqori qismida yonbosh ildizlariga qaraganda qalinroq bo`ladi. tuproq yuzasidan 10-15 sm. Yupqa ildizlar ildizlarning taxminan 60% ni tashkil qiladi, bu ildiz tizimining kuchini ko`rsatadi. Ildiz tizimining hajmi, chuqurligi va

tabiati navning xususiyatlariga, qishloq xo‘jaligi texnologiyasiga, tuproq turiga, uning namligi va haroratiga bog‘liq. Ildizlarning asosiy qismi haydaladigan qatlamda yotadi. Uzunlikdagi ildizlarning o‘sishi rivojlanish fazalarida teng bo‘lmagan intensivlik bilan sodir bo‘ladi va soyaning ba‘zi shakllarida u pishib yetguncha deyarli to‘xtamaydi. Soya ildizining ko‘ndalang qismida: epidermis, po‘stloq, endoderma, tomir tolali to‘plamlari, kambiy, birlamchi floema, birlamchi va ikkilamchi ksilema ko‘rinadi. Ko‘chatlarda dastlab ikkita bo‘lakcha bo‘lib, ular urug‘ning unib chiqishi vaqtida tuproq yuzasiga chiqadi, so‘ngra oval, dumaloq, nayzasimon, nayzasimon shakldagi ikkita birlamchi barg hosil bo‘ladi[4].

Barcha o‘simlik-mikrob simbiozlari orasida dukkaklilar va tugunak bakteriyalari hosil qilgan simbiozlar eng yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, ular katta amaliy ahamiyatga ega: bir qator dukkaklilar (soya, beda, no‘xat, yeryong‘oq va boshqalar) asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari qatoriga kiradi. Ekologik toza biologik azotda yetishtirilishi juda dolzarb muammodir [10].

Tugunakli bakteriyalar deyarli barcha tuproq-iqlim zonalarida keng tarqalgan tuproq mikroorganizmlarining juda keng va heterojen guruhi bo‘lib, ular madaniy xo‘jayin o‘simliklari bilan parallel ravishda rivojlangan va simbiotik azot fiksatsiyasi soya hosildorligini oshirishda, tuproqning azot rejimini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi [1].

Dukkakli-rizobium kompleksining eng muhim xususiyati uning ikkala sherik uchun ham fakultativ xususiyati bo‘lib, bu simbiotik o‘simlik genlarini genetik nazorat qilish va ildiz tugunlari bakteriyalari shtammlarini tanlash uchun keng imkoniyatlar ochadi [3].

Soya jahonda tarqalgan qishloq xo‘jalik ekinlarining eng qadimiylaridan hisoblanadi. Soyaning qimmatli dukkakli don ekin bo‘lishiga sabab urug‘ining tarkibida ko‘p miqdorda 35–52 % oqsil, 12–27 % moy va turli vitaminlar A, V, S, D, Ye, qator fermentlar saqlanishidir. Soyaning oqsili yengil eriydigan fraksiyalardan (94 % gacha) iborat bo‘lib, uning tarkibida ko‘p miqdorda almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar saqlanilib, lizin aminokislotasi bug‘doy uniga nisbatan 9 marta, no‘xat, hashaki dukkaklarning doniga nisbatan 2–3 marta, qoramol go‘shiga nisbatan 2 marta ko‘pdir. Soyaning urug‘idan uch xil oqsilli mahsulot tayyorlanadi: tarkibida 70 % oqsili bor konsentratlar, izolyatlar (90 % gacha oqsilli) va go‘shdan tayyorlanadigan mahsulotga o‘xshash tarkibiy shakllangan mahsulotlar. Bu mahsulotlar haqiqiyliklaridan ancha arzon bo‘lib

to'yimliliği va hazm bo'lishi bo'yicha hech qolishmaydi. Soya moyi yoqimli ta'mli va yaxshi kulinar xususiyatlarga ega, u organizm uchun almashtirib bo'lmaydigan fiziologik aktiv to'liq to'yingan moy kislotalaridan iborat .

Soya o'simligi haqqona moyli ekini bo'lib hisoblanadi, har yili jahonda 9 mln tonnadan ko'p moy ishlab chiqiladi. Soya jahonning 62 mamlakatlarida ekiladi va oxirgi 20–25 yilda uning ekin maydoni 2,5 marta, urug'ini ishlab chiqilishi 4 marta oshirilgan. 2004 yilda ekin maydoni dunyoda 91,6 mln. ga, yalpi hosil 206,4 mln, tonnani tashkil etgan. Hamdo'stlik mamlakatlaridan oxirgi yillarga qadar bu ekin asosan Rossiyaning Uzoq Sharqida – Amur viloyati, Xabarovsk va Primorskiy o'lkalarida joylashgan edi. Keyinchalik soya shimoliy Kavkaz, Povolj'e, Ukraina, Moldaviya, O'rta Osiyo mamlakatlari va Kavkaz ortida keng tarqalgan.

Soya Fabasaye oilasiga, Glycine L turkumiga mansub. Oddiy soya – G.soya turiga mansub. Glycine turkumi N.I.Korsakov bo'yicha shakllanish markazlariga qarab uch kenja turkumga bo'linadi:

1. Glycine L kenja turkumining ikki turlari - yoyilib o'sadigan va yavan turi - Sharqiy Afrika markazidan (Sharqiy Afrika, Xindiston, Shri Lanka, Yava oroli) kelib chiqqan.

2. Leptocytus (Benth) F. Herm kenja turkumi oltita turdan iborat: - chirmashuvchi, o'roq shaklli, ko'p urug'li, yorug' (ravshan) tusli, tamaki bargli va jo'nsimon Avstraliya markazida shakllangan (Avstraliya, Janubiy Xitoy, Jano'biy - Sharqiy Osiyo orollari). O'zbekistonda soya 1930 yildan buyon ekiladi. U Xitoydan Uzoq Sharq orqali keltirilgan.

3. Soya (Moench) F Herm kenja turkum – tarkibiga bir tur bo'liboddiy soya G.soya L. Sieb et. Zucc kirgan. Janubiy – sharqiy Osiyo shakllanish markazidan kelib chiqqan (Shimoliy Xitoy va qo'shni orollar) G.soya turiga soyaning ekilib kelinayotgan barcha navlari Shimoliy Xitoy va Uzoq Sharqning yarm yovvoyi va yovvoyi shakllari kiradi. Bu turning tarkibida beshta kenja turi aniqlangan.

1.Ssp soya (Sieb et Zuss) Kors. Boshqacha nomi (sinonim) G ussuriensis Reg and Maack–yovvoyi o'suvchi yoki ussuriyali kenja tur. Poyasi ingichka, chirmashuvchi, kuchli yotib qoluvchan . Barglari kichik, tuxumsimon (oval) shakllaridan to lantset shakligacha. Gullari binafsha rangli, kichik, shingili kalta, dukaklari kichik, pishganda yoriladi. Urug'lari to'q jigar yoki deyarli qora rangli. 1000 tasining vazni 20–30g. Xitoy, Koreya, Yaponiya, Xindiston, Mo'g'uliston, Rossiyaning uzoq Sharqida tarqalgan. Tarkibida to'rtta tur xili mavjud.

2. Ssp. gracilis (Skv) Kors. –madaniy kenja tur. Yovvoyi o‘sadigan soyadan so‘ng uning shakllari sp. G soya ning orasida birmuncha soddaroqdir. Priamure, Manchjuriya va Shimoliy Xitoyda begona o‘t bo‘lib tarqalgan. To‘rtta tur xili mavjud.

3. Ssp indochinensis (Enk) Kors. – xindixitoy kenja turi. O‘rta bo‘yli va o‘ta baland bo‘yli (2m gacha), ko‘p shoxlanuvchan, kechpishar shaklli. Poyasi va shoxlari ingichka bo‘lib chirmashish va yotib kolish kobiliyatiga ega. Yoyilib o‘sadigan shakllari bor. Barglari mayda, barglanishi yuqori. Aksariat shakllarining urug‘i qora to‘sli. Past bo‘yli madaniy shakllarining urug‘i tarkibida ko‘p miqdorda oqsil (39–44,5 %) saqlanadi. Kenja tur tarkibida 28 tur xillari mavjud. Bu kenja tur ko‘p jihatdan odam ta’siri ostida shakllangan. Shu bilan birga ekilib kelinayotgan shakllari orasida o‘ta ko‘p miqdordagi dominant belgilari mavjud.

4 Ssp. Manshurica (Enk). Kors. - Manchjuriya kenja turi. Shakllari o‘rta bo‘yli (60–95 sm), shoxlanishi o‘rtacha yoki balandroq. Poyalari o‘rta yo‘g‘onlikda, qisman ingichka. O‘shish tipi (xili) oraliq. Shingillari kamgulli, kaltadan - o‘rtachagacha. Urug‘lari ham o‘rtacha (1000 tasining vazni 110-260 g), tarkibida 39-42,5 %, oqsil va 23-24 %, moy saqlaydigan donli shakllar ko‘p qismini tashkil qiladi. Kenja tur tarkibida 26 tur xili mavjud. Kenja turning genetik asosli navlari AQSh, Kanada, Balkan yarm oroli, Rossiyaning Uzoq Sharqida va soya ekiladigan hamma hududlarida tarqalgan.

5. Ssp. korajensis (Enk) Kors. - Koreya kenja turi. Ekilib kelinayotgan optimal sharoitida ko‘p asrlar davomida selektsiya jaryonining ta’siri ostida o‘tganligini yakol namayon etadi. Filogenetik jixatidan bu oddiy soyaning eng yosh kenja turi bo‘lib hisoblanadi. Boshqa kenjaturlardan yotib qolmaydigan, qo‘pol poyali, yirik barg va urug‘lari bilan farq qiladi. Uning salbiy xususiyatlariga dukkaklarini yorilishi, o‘ta katta gidrofilligi va urug‘ pardasini (po‘stini) yorilishligi. Kenjatur tarkibida 40 turxili mavjud. Seleksiya va urug‘chilik ishlarida ishlab chiqarishda tarqalgan soya navlarini bir biridan osonlik bilan ajratish uchun B.V.Enken kam o‘zgaruvchan belgilari - dukkakning tuklanishini, urug‘ po‘sti va urug‘ kindigini rangi, bilan ajralib turadigan 27 aprobatsiya guruhlarining tizimini taklif qilgan. VIR ning jahon kolleksiyasining tarkibida 77 aprobatsion guruh mavjud.

Aksariat olimlarning fikricha soyaning vatani Janubiy Sharqiy Osiyo (Xitoyning shimoliy va markaziy qismi). Madaniy soyaning ajdodi bo‘lib Xitoyda

keng tarqalgan yovvoyi holda o‘sadigan soya *G. ussuriensis* hisoblanadi. Bu ekin Xitoyda 6-7 ming muqaddam ekila boshlangan, ammo shu kunlarda ham Xitoyda yovvoyi xollarga yaqin bo‘lgan navlar uchraydi. Shu yerda soyaning ko‘p miqdoridagi shakllarining genetik markazi joylashgan.

Madaniy soya Xitoydan Koreyaga, undan esa Yaponiyaga o‘tib tarqaladi. Yevropada soya to‘g‘risida ma‘lumotlar XVIII asrning boshlarida paydo bo‘ladi. AQShda bu ekin 1940 yilgacha pichan uchun o‘riladigan ekin sifatida foydalanilgan, keyinchalik don uchun ekiladigan soyaning maydonlari keskin kengayib borgan.

Unib chiqish davri. Soya urug‘i tarkibida suv miqdori quruq moddalar vazniga nisbatan 90- 150-% ga yetganda una boshlaydi. Urug‘ bo‘rtishidan so‘ng 2-3 kun o‘tgach murtak ildizcha urug‘ qobig‘ini yoradi va undan ildiz rivojlanadi. Murtak ildiz o‘sa boshlashi bilan unda yon ildizlar va ildiz tukchalari shakllanadi. Ildiz tukchalari juda kichik bo‘lib o‘sish mintaqasida oqsil bo‘ladi. Ildizlar urug‘ shakllana boshlagunga qadar o‘sadi. Ildiz majmuasining o‘shishi tuproqning fizik xossalari, harorat, namlik va ozuqa moddalariga bog‘liq bo‘ladi. Ildiz tizimining o‘shish tezligi – navdorlik belgidir. U odatda tezpishar navlarda yuqori bo‘ladi.

Shoxlanish - odatda 3-5-ta murakkab barg shakllanishi davrida boshlanadi. Ushbu jarayonda gullashgacha o‘simlik poyasi jadal o‘sadi, keyin uning o‘shishi susayadi. Bir vaqtning o‘zida barglarning shakllanishi ham susayadi. Yon shoxlari poyaning pastki qismlaridan rivojlanadi. Ammo kam shoxlanadigan yoki shoxlanmaydigan navlari mavjud.

Shonalash- shoxlanish bilan ketma-ket boshlanadi va bir vaqtda kechadi. Shonalash davrida o‘simlikning eng yuqori barglanishi kuzatiladi. Barglanish darajasi 30-40% ni tashkil qiladi. Ushbu davrda namlikka talabi keskin yuqori hisoblanadi.

Gullash - tez pishar navlarda 5-6 barg hosil bo‘lishi bilan, ya‘ni yon shoxlar rivojlana boshlaganda, kechpishar navlarda esa unib chiqqandan 30- kundan so‘ng boshlanadi. Gullash “cho‘zilgan” bo‘lib, navga bog‘liq ravishda 14-40 kun davom etadi. Gullash o‘simlikning jadal o‘shishi bilan birga boradi, bu esa ushbu davrda o‘simlikni suv va oziq moddalar bilan ta‘minlab turish lozimligini anglatadi. Gullash boshlangandan so‘ng soya tez o‘sadi. O‘shish tezligi yetishtirish sharoitlari va navning xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Dukkak shakllanishi. Gullash boshlangandan 10-15 kun o‘tgach pastki yaruslarda dukkaklar hosil bo‘la boshlaydi va gullash tartibida yuqoriga qarab siljiy

boshlaydi. Gullash va don tulishi jarayonida soya rivojlanishining kritik davri hisoblanadi. Bu davrda suv juda ko‘p talab etiladi.

Yorug‘likka munosabati: soya qisqa kunlik o‘simlik bo‘lib, uning rivojlanishida yorug‘lik hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘simlik kunning uzun-qisqaligiga ayniqsa unib chiqqanidan to to‘la gullaguncha kuchli beriluvchan bo‘ladi va bu davrda quyosh yorug‘ligining kuchli va qisqa to‘lqinlik 380-720 nm (nanometr) bo‘lgan nurlarini ko‘proq qabul qiladi, meva elementlarini shakllanish davrida esa ko‘proq quyoshdan kelayotgan uzun to‘lqinlik nurlar kerak bo‘ladi.

Issiqlikka munosabati: soya issiqsevar o‘simlik. Soyaning o‘stirish mumkin bo‘lgan mintaqalarni o‘sha sharoitdagi issiqlik va yorug‘likni yetarli bo‘lishiga qarab belgilanadi. Soyani o‘stirish rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan foydalik issiqliklar yig‘indisi navlariga bog‘liq ravishda 1600-3000⁰S gachani tashkil qiladi. Ertapishar navlar uchun bu ko‘rsatkich 1700-2200⁰S, qolgan aksariyat navlar uchun 2400-2700⁰S ni tashkil etsa, o‘ta kechpishar navlar uchun 3000-3500⁰S zarur bo‘ladi. soya urug‘ini unishi uchun eng kam issiqlik 6-7⁰S ni tashkil qiladi, lekin bunday haroratda unib chiqishi uzoqqa 25-30 kunga cho‘ziladi. Eng qulay issiqlik 20-22⁰S hisoblanadi va tuproqda namlik yetarli bo‘lganda 4-5 kunda urug‘ unib chiqadi.

Namlikka munosabati. Soya – musson iqlim o‘simligi. U hosil birligiga juda ko‘p suv sarflaydi. Soya – namsevar o‘simlik amal davrida u bir gekardan 3200-5500 m³ suv o‘zlashtiradi. Transpiratsiya koeffitsienti haddan ziyod, nam tumanlarda 400 dan 500 gacha beqaror namlikli tumanlarda esa 500 dan 700 gacha. Ko‘p suv o‘zlashtirishiga qaramay, muayyan namlik taxchiligida ham o‘sa oladi va u loviyaga nisbatan qurg‘oqchilikka yaxshi bardosh beradi.

Tuproqqa talabi: soya tuproqqa kam talabchan u pH 5 dan 6 gacha muhitli tuproqlarda o‘sa oladi. Uning uchun eng qulay tuproq pH-6,5 hisoblanadi. Soya sho‘rxok, nordon va botqoqlangan tuproqlardan tashqari barcha tuproqlardan tashqari barcha tuproqlarda yaxshi o‘sa oladi. Soya tuproq aeratsiyasiga talabchan bo‘lib, g‘ovakligiga yaxshi 20-22 % bo‘lgan tuproqlarda ildizlaridagi tuganaklarni shakllanishi faollashadi va aksincha zichlashgan, ortiqcha namlangan tuproqlarda tuganak bakteriyalar rivojlanmaydi.

Oziqa moddalariga munosabati: soyaning har bir tonna don va shunga yarasha boshqa qismlarini shakllantirishi uchun, o‘simlik tuproqdan 80-90 kg azotni, 36-40 kg fosforni, 60-65 kg kaliyni va 70-80 kg kaltsiyni olib chiqib ketadi. Oziqalarni o‘suv davridagi sarflanishi har xil bo‘lib, unib chiqish gullashgacha azotni 15 %,

fosforni 16 %, kaliyni 26 % o‘zlashtirsa, gullash-dukaklash davrida azot va fosforni 80 %, kaliyni 50% qolgan oziqalar pishish davrida sarflanadi. Soyaning azotga bo‘lgan kritik davri g‘unchalash-gullash davridir, azotga bo‘lgan talabini ma‘lum qismini tuproqda qulay sharoit yaratilganda, tuganak bakteriyalar to‘plagan biologik azot hisobidan ham qoplaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha xarakteristik strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi F-4849 sonli farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 dekabrda “Mamlakatimizning oziq-ovqat havfsizligini yanada ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi PF 5303-sonli farmoni.
3. «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoni.2019 yil 23 oktyabr
4. Альтергот, В.Ф. Физиология адаптации растений к температурным условиям среды. Новосибирск. 1973. - с. 243 - 256.
5. Андрианова Ю.Е., Тарчевский Н.А., Чиков В.И. Содержание хлорофилла в растениях с генетически обусловленной различной длиной стебля //Труды ТАТНИИСХ. Вып.4. Казань. 1974,с.310-315.
6. Андрианова Ю.Е., Тарчевский И.А. Хлорофилл и продуктивность растений - М.: Наука, с. 2000. -135.
7. Андрианова Ю.Е., Тарчевский И.А., Филиппова Е.А. Перераспределение хлорофилла в целом растении пшеницы под влиянием засухи /Устойчивость к неблагоприятным факторам среды и продуктивность растений. Иркутск, 1984а. С.84-85.
8. Балнокин Ю.В., Строганов Б.П. Значение солевого обмена в солеустойчивости растений // Проблемы солеустойчивости растений/ Под ред. акад. А.И. Имамалиева. - Ташкент: Фан, 1989. - С. 3-33.
9. Баранова В.Ф., Лукомца В.М. Соя: биология и технология возделывания. Краснодар, 2005. – 435 с.

10. Баранов В.Ф., Баранова Л.А. Влияние зональных эколого-географических условий репродукции семян скороспелых сортов сои на их посевные качества и продуктивность растений в вологодской области. //ISSN pr. 2412–608X, ISSN on. 2498 Масличные культуры. Вып. 2 (182), 2020 с. 62-69.



Research Science and
Innovation House



MAKTABGA TAYORLOV GURUXIDA BOLALAR IJODIYOTINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Qo‘chqorova Shaxnoza Satvaldievna Andijon davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Maktabga tayorlov guruxida bolalar ijodiyotini shakllantirishning asosiy xususiyatlari bolani ixtirochilikka yo‘naltirishning pedagogik va psixologik shartlari o‘rganiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash rivojlanishiga ta’sir qilish uchun, atrofdagi voqelikning obyektlari va hodisalarini tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishdan tashqari, bolalarga topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatish, ular bilan ishlash tartibini aniqlashtirish xususiyatlariga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabga tayorlov guruhi, elementar matematika, bolalar ijodi, san’at, mehnat, texnologiya, pedagogika va psixologiya.

ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕТСКОГО ТВОРЧЕСТВА В ГРУППЕ ШКОЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

**Кочкарова Шахноза Сатвалдиевна – преподаватель Андijanского
государственного педагогического института.**

Аннотация. В подготовительной группе к школе изучаются педагогические и психологические условия режиссёрской изобретательности, которые являются основными особенностями формирования детского творчества.

В целях воздействия на развитие мышления дошкольников, помимо формирования умений анализировать предметы и события окружающей действительности, разработаны рекомендации по особенностям показа детям последовательности выполнения заданий и уточнения порядка работы с ними. их.

Ключевые слова. Школьная оценочная группа, элементарная математика, детское творчество, искусство, труд, технология, педагогика и психология.



MAIN CHARACTERISTICS OF FORMATION OF CHILDREN'S CREATIVITY IN SCHOOL TRAINING GROUP

**Kochkarova Shakhnoza Satvaldievna – teacher at Andijan State
Pedagogical Institute.**

Abstract. In the preparatory group for school, the pedagogical and psychological conditions of directorial ingenuity are studied, which are the main features of the formation of children's creativity.

In order to influence the development of preschoolers' thinking, in addition to developing the ability to analyze objects and events of the surrounding reality, recommendations have been developed on the specifics of showing children the sequence of completing tasks and clarifying the order of working with them. their.

Key words. School assessment group, elementary mathematics, children's creativity, art, labor, technology, pedagogy and psychology.

Maktabgacha yoshdagi va kichik maktab o'quvchilarining bolalar tasviriy san'atini shakllantirish uchun turli xil sinflar ishlab chiqilgan.

20-asrning 70-yillarida bolalar ijodiyotini shakllantirishga qaratilgan kompleks sinflar ishlab chiqildi. Ular turli xil san'at turlari va faoliyat turlarining bir-biri bilan o'zaro ta'siri asosida qurilgan. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, ijodiy topshiriqlardan foydalangan holda murakkab mashg'ulotlar o'tkazish haqiqatan ham atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni shakllantirish chuqurligiga ta'sir qiladi va bolalarning idrokini, xotirasini va tasavvurini rivojlantiradi. Ammo mualliflar tomonidan belgilangan bu sinflarning o'zni (oyda bir marta) shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ish tizimini shakllantirishga yordam bermaydi.

Bolalar ijodiyotini muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy shartlarini hisobga olgan holda, I.Rejametova turli xil faoliyat va san'at turlarining o'zaro ta'siriga asoslangan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun integratsiyalashgan sinflar tizimini ishlab chiqdi. Xalq amaliy san'atining turli turlarining o'zaro ta'sirini kuchaytirish orqali maktab o'quvchilarining madaniyatini shakllantirish masalalari S.Bulatov tomonidan ishlab chiqilib, xalq amaliy san'atining barcha turlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va shaxs shakllanishiga hissa qo'shishini ta'kidlaydi.

M.Eshonkulova konsepsiyasida integratsiya bolalar faoliyatining turli turlari (o'yin, o'quv, musiqiy, tasviriy, badiiy va nutq) o'zaro bog'liqligini qo'llash orqali



badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi va bu munosabatlarni o‘qitish orqali mustahkamlaydi. "Yestetik, badiiy faoliyat va turli xil san'at turlarining mazmunini birlashtirish ularning bolaga ko‘p qirrali ta’sirini ta’minlaydi, turli xil his-tuyg‘u organlari tomonidan voqelikni idrok yetish va idrok yetilgan tasvirlarni uzatish asosida obyektlar va hodisalarni turli tomonlardan bilishga yordam beradi. yoki u yoki bu faoliyat uchun xos bo‘lgan (musiqiy, tasviriy, badiiy va nutq, teatr va o‘yin) yekspressiv vositalardan foydalangan holda badiiy faoliyatning turli shakllarida bolaning tasavvuri bilan yaratilgan "(5).

Integratsiyaning asosi barcha asosiy kognitiv jarayonlar (idrok, fikrlash, tasavvur, shuningdek xotira, ye’tibor) va "badiiy faoliyatning turli turlarida o‘ziga xos ifoda vositalari bilan o‘ylab topilgan va uzatiladigan" tasvirning o‘zaro bog‘liqligidir (80.3).

Integratsiya mexanizmi - bu turli xil yekspressiv vositalar yordamida turli faoliyatda yaratilgan tasvir. Adabiyotda bunday ifodali vositalar so‘zdir (majoziy ta’riflar, metaforalar, qiyoslar). Tasviriy san’atda - shakl, rang, kompozitsiya, ritm, hajm, plastika va boshqalar. Turli materiallardan hunarmandchilik va tasvirlarni yaratishda - shakli, o‘lchami, hajmi, materiallarning tuzilishi, rangi, nisbati, tarkibi va boshqalar.

Muayyan ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan badiiy va ijodiy qobiliyatlar ijodiy faoliyatning boshqa turini o‘zlashtirish jarayonida shakllanishi mumkin. M.Djumayev ijodkorlikni rivojlantirish uchun integratsiyalashgan sinflardan foydalanishning quyidagi vositalarini ishlab chiqdi:

- bolalarning muayyan faoliyatiga ustuvor e’tibor: o‘yin, vizual, teatrlashtirilgan, konstruktiv, musiqiy, bu optimal tashkil etilgan holda, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi, hissiy farovonlik muhitini yaratadi, uning hayotini to‘ldiradi. qiziqarli tarkibga yega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bola;

o‘qituvchilarning integratsiya asosida qurilgan mazmun va ta’limni tanlashga, shuningdek, bolalar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etishga va bu yo‘nalishdagi ishning turli uslub va uslublaridan foydalanishga ijodiy yondashishi.(7).

Kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun integratsiya imkoniyatlarini ishlab chiquvchi integratsiya jarayonida san’atning o‘zaro ta’sirining xarakterini aniqladi:

- predmetlararo aloqalardan keng foydalanish;
- o‘quv fanlarini sinfdan tashqari ishlar bilan uyg‘unlashtirish;



san'atning ayrim turlarini poliartistik asosda o'qitish (boshqa san'at turlaridan o'xshash va rag'batlantiruvchi vositalarni jalb qilgan holda);

- maktab o'quvchilarining ko'p badiiy ta'limiga kompleks yondashuv (har bir yosh bosqichida darslarning mazmuni va davomiyligi bo'yicha san'atning o'zaro ta'siri).

"Integratsiya umumiy uslubiy yondashuvni, maqsad, vazifalar, tamoyillar birligini va har bir san'at turining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni amalga oshirishning turli usullarini nazarda tutadi" (6).

Ta'lim va ijodkorlik o'rtasidagi munosabatlar muammosini hisobga olgan holda, ko'plab mualliflar maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini shakllantirish uchun ularga ta'sir qilishning yeng samarali usullari va usullarini ishlab chiqadilar.

Bolalarni turli materiallar bilan ishlashga o'rgatishda turli mualliflar namuna, namunali variantlardan foydalanishni, topshiriqni qanday bajarish kerakligini ko'rsatishni, o'qituvchining tushuntirishini va o'yin motivatsiyasini taklif qilishni taklif qildilar. Ammo, bizning fikrimizcha, bolalarning aqliy va ijodiy faolligini oshiradigan usullar, ayniqsa, turli xil materiallar bilan ishlashda, ko'pincha material va tanlangan texnikaga qarab hunarmandchilikni bajarish tartibini rejalashtirishni o'zgartirishni o'z ichiga oladi.

O'qitishning eng samarali usullari va usullarini tanlashda biz ijodiy faoliyatni rivojlantirishning asosiy bosqichlaridan chiqdik:

- tayyorgarlik, shu jumladan qog'oz, gazlama, tabiiy va chiqindi materiallarning xossalari bilan tanishish, ular bilan ishlash ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ushbu texnikada, ma'lum bir tasvirning yekspressivligini yetkazishda mashq qilish;

- hunarmandchilikni yaratishda bolaning o'zining asl yelementlarini yaratishi.

Maktabgacha ta'lim amaliyotida matematika mashg'ulotlarida dastlabki bosqichlarida, asosiy vazifa bolalarda qog'oz, gazlama, tabiiy va chiqindi materiallar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lgan davrda qo'llash yaxshidir.

Turli materiallar bilan ishlashda namunalardan foydalanish, ayniqsa, o'rganishning dastlabki bosqichlarida, bolalar turli materiallar va asboblardan ishlashning asosiy ko'nikmalari va qobiliyatlarini o'zlashtirganda oqlanadi. Ammo

modelga rioya qilish o'qituvchining tushuntirishi, asosiy va ikkinchi darajali tafsilotlarni ajratib ko'rsatish va bolalarni modelni faol tekshirishga jalb qilish bilan birga bo'lishi muhimdir. Bolalarning faol ishtiroki ularga tasvirni yaxshiroq idrok yetish, tahlil qilish, asta-sekin hunarmandchilikni bajarish ketma-ketligini rejalashtirish va uni yuqori sifatli bajarishga o'rgatish imkonini beradi.

G.Rustamova tomonidan Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik ta'limni rivojlantirishda TRIZ texnologiyasi metodlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda o'z-o'zidan savol tug'iladi, TRIZ o'zi nima? Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun zarurmi? Ushbu texnologiyaning qanday afzal tomonlari bor? Matematik tushunchalarni boyitishda yordam beradimi? [9].

TRIZning konseptual asoslari bolalarda yaratuvchanlik, ijodiy tasavvur va dialektik fikrlashni shakllantirish TRIZ texnikasi va metodlaridan samarali foydalanish, bu borada muvaffaqiyatga erishishning asosiy zaruriyati hisoblanadi [6]. TRIZning maqsadi nafaqat bolalarning tasavvurini rivojlantirish, balki ularni doimiy ravishda, davom etayotgan jarayonlarni tushunib, fikrlashga o'rgatish hamdir. Bolalarga ta'lim berishda pedagog (tarbiyachi) uning tabiatidan kelib chiqib yondashish zarur. M.X.Eshonqulova o'z tadqiqotlarida “TRIZ – bu topqirlik, mohirlik va iqtidorlikni rivojlantiruvchi masalalarning nazariyasidir” [12] deya ta'kidlaydi.

Taniqli pedagog L.S.Vigotskiyning nazariy qarashiga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bola o'quv dasturini o'zining yosh xususiyatiga ko'ra tushunishi va shu darajada qabul qilishi kerak [10].

Ushbu texnologiya quyidagi prinsiplarni qamrab oladi:

– tizimlarning rivojlanish qonuniyatlarining obektivligi prinsipi – tizimlarning tuzilishi, ishlashi va o'zgarishi obektiv qonunlariga bo'ysunadi. Demak: kuchli qarorlar – bu obektiv qonuniyatlarga, hodisalarga, ta'sirlarga mos keladigan qarorlar;

– qarama-qarshilik prinsipi – tashqi va ichki omillar ta'sirida qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi, kuchayadi va hal etiladi. Muammo qiyin, chunki, yashirin yoki aniq qarama-qarshiliklar tizimi mavjud. Tizimlar obekti qonuniyatlar, hodisalar va ta'sirlarga asoslangan ziddiyatlarni bartaraf etishda rivojlanadi. Demak: kuchli qarorlar qarama-qarshiliklarni yengib chiqadigan qarorlardir;

– aniqlik prinsipi – tizimlarning har bir guruhi, shuningdek, ushbu guruh doirasidagi alohida vakillar, ma'lum bir tizimni o'zgartirishni osonlashtiradigan

yoki qiyinlashtiradigan xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar resurslar bilan belgilanadi: ichki – tizim qurilgan narsalar va tashqi - tizim joylashgan muhit va vaziyat. Demak: kuchli qarorlar – bu muayyan muammoli vaziyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan qarorlar .

Maktabgacha yoshdagi bolalar materiallar bilan yerkin muloqot qilishadi, ularning xususiyatlarini va tasvirni yaratish xususiyatlarini o‘rganadilar.

Treningning tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchining tushuntirishi muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qanchalik aniq va tushunarli bo‘lsa, ular qanchalik katta natijalarga erishishlari mumkin. Harakat usullarini namoyish qilish bilan birga kelgan so‘z uni yanada ongli qiladi, vazifani bajarish tartibini rejalashtirishga yordam beradi, maktabgacha yoshdagi bolalarning tasvir mavzusi haqidagi yaratuvchanlikka, ijodkorlikka intiluvchi ini aniqlaydi[8].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni turli xil materiallar bilan ishlashga o‘rgatishda ko‘pincha harakat usullarini ko‘rsatishning har xil turlari qo‘llaniladi. Volumetrik hunarmandchilikni yaratishda ko‘pincha "origami" va egri chizikli katlamalar, bosqichma-bosqich displey va o‘qituvchining to‘liq ko‘rinishida tayyorlangan mahsulotlar qo‘llaniladi. Qog‘oz bilan tajribaga yega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘qituvchi yoki bolaning tushuntirishlari bilan bolaning qisman ko‘rinishi va ko‘rinishidan foydalanish yaxshiroqdir. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar o‘rganadigan matematik tushunchalar va so‘zlarning roli juda yuqori bo‘lib qolmoqda, chunki bolalarning harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati. Og‘zaki ko‘rsatmalarni vizual ko‘rsatmasdan qo‘llash faqat hunarmandchilikni ishlab chiqarish oson bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan mumkin.

Bolalarni yangi materiallar bilan tanishtirishda aniq berilgan savollar idrokni faollashtirishga yordam beradi va bolalarda atrofda voqelik obyektlari va hodisalari haqida to‘liqroq tushuncha hosil qiladi. So‘z qog‘oz, mato, tabiiy va chiqindi materiallar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi.

Turli materiallar bilan ishlashni tashkil qilishda shuni yesda tutish kerakki, ulardagi rang ikki shaklda taqdim yetiladi - sun‘iy (qog‘oz, mato va "chiqindi" materialning rangi) va tabiiy (barglar, somon, qayin qobig‘i, konuslarning rangi). Bolalarni yorqin to‘yingan rang o‘ziga jalb qiladi va tabiiy materiallarning go‘zalligi



xiralashgan. Bolalar, birinchi navbatda, tabiiy materiallarning rangi bilan yomon birlashtirilgan yorqin rangli shakllarga jalb qilinadi.

Bolada bilim olish zarurati tushunchasi shakllanmaguncha, o‘qituvchi o‘z faoliyatida boshqa stimullardan - o‘yin va ijobiy his-tuyg‘ulardan foydalanadi.

Ijodiy faoliyatni shakllantirishning ikkinchi bosqichida tasavvur, idrok, fikrlash va xotirani rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi mashqlar katta rol o‘ynaydi. Hunarmandchilikni, tasvir obyektlarini tekshirish jarayonida bolalar obyektlarning shakli, rangi, o‘lchamiga ye‘tibor berishlari, ularni bir-biri bilan taqqoslashlari, umumiy va farqlarni ajratib ko‘rsatishlari kerak. Go‘zalni ajratib ko‘rsatish qobiliyati bolalar ishining sifati va estetikasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. A.I.Savenkovning san‘at yordamida iqtidorni rivojlantirish va tarbiyalashga bag‘ishlangan tadqiqotida haftada bir marta idrok, xotira, fikrlash, tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish taklif qilingan[14].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash rivojlanishiga ta‘sir qilish uchun, atrofdagi voqelikning obyektlari va hodisalarini tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishdan tashqari, bolalarga topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatish, ular bilan ishlash tartibini aniqlashtirish muhimdir. ish va uni qanday bajarish kerakligi.

Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun turli mualliflar turli mashqlar va darslarni o‘tkazish shakllarini taklif qilishadi. Bu bolalar uchun hunarmandchilikni o‘z detallari bilan to‘ldirish, namunaviy variantlardan foydalanish, bolalar bilan suhbatlar va rejaga muvofiq ishni bajarish taklifi.

Bolalar ijodiyotini shakllantirish uchun namuna va bola tomonidan yaratilgan hunarmandchilikni taqqoslash ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday tahlil maktabgacha yoshdagi bolalarga tasvirlarni yanada takomillashtirish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan yaratilgan turli materiallardan tasvirlarning aksariyati amaliy maqsadga ega bo‘lishi mumkinligi sababli, amaliy faoliyatda bolalarning ishini tahlil qilishni, bolalar tomonidan yaratilgan hunarmandchilik sifatini tekshirishni tashkil qilish mumkin.

Turli materiallar bilan ishlashda bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun nafaqat o‘qitish usullari va usullari, balki hunarmandchilikni yaratish bo‘yicha ishlarni tashkil yetish ham muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning birgalikdagi faoliyatida bir qator tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatish mumkin - bolalarning birgalikdagi harakatlariga hissiy

munosabati (ijobiy his-tuyg'ular, qiziqishlar, tajribalar), har bir bolaning ijtimoiy faolligi ("men" ning jamoa manfaatlariga bo'ysunishi, muloqot tajribasini to'plash, jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish, mustaqil faoliyatda tajriba to'plash, shaxsiy xususiyatlar.

Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda turli xil faoliyat va san'atning integratsiyasi muhim rol o'ynaydi.

Tayyorgarlik bosqichida turli materiallar bilan ishlashning asosiy ko'nikmalari ham shakllanadi. Ikkinchi bosqichda (asosiy) maktabgacha yoshdagi bolalar kollektiv kompozitsiyalar yaratadilar. Ular tasvirni yaratish jarayonini rejalashtiradilar, natijada olingan tasvirlarni bajaradilar va baholaydilar. Kompozitsiyani yaratish jarayonida u kattalar yoki bolaning harakat usullarini, murakkab hunarmandchilik va bosqichma-bosqich namoyish qilish, bolalar tajribasi va xotirasini jalb qilish, texnologik xaritalardan foydalanish va ko'rsatish uchun keng qo'llaniladi. bajarilgan ishlarni muhokama qilish. Maktabgacha yoshdagi bolalar birgalikdagi faoliyat ko'nikmalarini egallaydilar.

Uchinchi bosqich (yakuniy) maktabgacha yoshdagi bolalarning tugallangan ish bilan o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan turli materiallar bilan ishlashda vazifalarning bunday qurilishi juda samarali. Bu nafaqat qiziqarli kompozitsiyalarni bajarishga imkon beradi, balki qog'oz, mato, tabiiy va chiqindi materiallardan tasvirlarni yaratishda turli xil texnikalarni tasvirda birlashtirishga imkon beradi. Bolalar hunarmandchiligining sifati, ularning mustaqilligi, bilish faolligi keskin oshib bormoqda.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Hozirgi vaqtda ijodkorlik inson mavjudligining asosi sifatida qaraladi. U bilish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, muhim narsani yaratuvchi va jamiyat taraqqiyotining sifatini, inson mavjudligi va uning rivojlanishining mohiyatini belgilaydigan faoliyat sifatida qaraladi.

2. Ijodiy faoliyatning samaradorligi tashkilotning sharoitlariga, shaxs tomonidan qabul qilingan ma'lumotlarning miqdori, uning hissiy holati, individual xususiyatlari va unga yega bo'lgan bilimlar miqdoriga bog'liq.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy va ijodiy faoliyatni shakllantirish shartlari - bilim faoliyatining ma'lum darajasi, maktabgacha yoshdagi bolalarning idrok etish, xotirasi, fikrlash va tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan

rivojlanayotgan muhitni tashkil etish, turli materiallar bilan ishlash ko‘nikma va qobiliyatlari, ijodkorlikning paydo bo‘lishi va shakllanishi elementlarini rag‘batlantiradigan ma‘lum bir hissiy muhitni yaratish.

4. Turli materiallar bilan ishlash bolalar ijodiyotini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi, agar siz turli xil materiallar va ish usullaridan foydalangan holda qiziqarli, estetik kompozitsiyalar yaratishga imkon beradigan integratsiyalashgan sinflar kabi tashkil etish shakllaridan foydalansangiz.

5. Kollektiv va individual badiiy va ijodiy faoliyatni har tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni shakllantirishga yordam beradi.

6. Turli materiallar bilan ishlashda bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun eng samarali usullar quyidagilardir: - mashg‘ulot boshlanishidan oldin bolalarning material bilan tajriba o‘tkazish; - qog‘ozni o‘zgartirishning yangi usullarini ko‘rsatish orqali sinfda xayrixoh muhit yaratish, mato, tabiiy va chiqindi materiallar - jismoniy mashqlar orqali texnik ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish; - bolalarning mustaqilligi va faolligini rag‘batlantirish; - bolalar hunarmandchiligiga xayrixoh, ammo xolisona baho berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.

2. Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022 yildagi “2022-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **310**-son qaror.

https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/2022-2023_yillarda_eshlarga_oid_davlat_siyosatini_amalga_oshirish_dasturi

3. Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to‘g‘risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

4. Djumayeva M.M. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarga oid ko‘nikmalarni shakllantirish. Zamonaviy boshlang‘ich ta‘lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Tom 1 № 1 (2023):

<http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/812>

5.Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434

6.Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173

7.Djumayev M.I The transformation of the english language's variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607>

8.Djumaev M.I.. Matematika o'qitishda kombinatorika masallarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari Fizika, matematika, informatika jurnali. 2023 yil 2/1 son. 19-27

9.Djumaev M.I. Matematika o'qitishda milliy o'quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o'ziga xos xususiyatlari. MUG'ALLIM HƏM YZLIKSIZ BILIMLENDIRIO'. Ilimiy-metodikaliq jurnal. ISSN 2181-7138 2023 1-san 314-324 Nekis

10.Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5 ISSN: 2754-6705

11.Djumayeva M.M. Ta'limni takomillashtirish mexanizmlari. Pedagogik innovasiyalar va yukori samaradorlikka yetak-lovchi ta'limiy goyalar mavzusidagi Respublika Onlayn ilmiy -amaliy kon-ferensiyasi Surxondaryo viloyat XTKT va ularning MOXM (2020 yil 15 may) 152-154

12.Djumayeva M.M. Milliy ukuv dasturini amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari Innovation in the modem education system march 2021 colletions of scientific works Washington, usa 25th march 2021575-583

13.Djumayeva M.M. Tabiiy fanlarni o'qitishda kreativ yondoshuv masalalari Zamonaviy ta'lim: Yangicha yondashuvlar va dolzarb tadqoqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya 2023 yil 16-17 may 368-372

14.Djumayeva M.M. Tabiiy fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensive o'qitishning psixologik-pedagog jihatlari Respublika ilmiy amaliy anjuman. 2023 yil 2 iyun 494-497



MAKTABGACHA TA'LIMDA TRIZ TEXNOLOGTYASINI JORIY ETISH MASALALARI

Rustamova Gulmira Guliston Davlat universiteti tayanch tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada bolalarning ijodiy qobiliyatini ixtirochilikka yo'naltirish va matematik qobiliyatlarini shakllantirishda TRIZ texnologiyasidan foydalanishning maqsadi, avvalo, moslashuvchanlik, harakatchanlik, izchillik, dialektika kabi fikrlash fazilatlarini, ikkinchi tomondan, izlanuvchanlik istaklarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy tarbiyasida va intellektini rivojlantirishda elementar matematik tushunchalarni shakllantirish xususiyatlari berilgan/

Kalit so'zlar. Ixtirochilik, ijodiy qobiliyat, maktabgacha tarbiya, tayyorlov guruhlari, texnologiya, pedagogika va psixologiya.

ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ ТРИЗ-ТЕХНОЛОГИИ В ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Рустамова Гулмира – докторант Гулистонского государственного университета

Абстрактный. В статье целью использования технологии ТРИЗ в развитии творческих способностей детей и математических навыков является, во-первых, формирование и развитие таких качеств мышления, как гибкость, подвижность, последовательность, диалектика, во-вторых, стремление к любознательность. Особенности формирования элементарных математических представлений в умственном воспитании и интеллектуальном развитии детей дошкольного возраста.

Ключевые слова. Изобретение, творчество, дошкольное образование, подготовительные группы, технология, педагогика и психология.

ISSUES OF IMPLEMENTING TRIZ TECHNOLOGY IN PRE- SCHOOL EDUCATION

Rustamova Gulmira – doctoral student at Guliston State University

Abstract. In the article, the purpose of using TRIZ technology in the development of children's creative abilities and mathematical skills is, firstly, the

formation and development of such qualities of thinking as flexibility, mobility, consistency, dialectics, and secondly, the desire for curiosity. Features of the formation of elementary mathematical concepts in mental education and intellectual development of preschool children.

Key words. Invention, creativity, preschool education, preparatory groups, technology, pedagogy and psychology.

TRIZ (ixtirochilikka yo‘naltirish masallarining nazariy asoslari) texnologiyasi bolalarni tarbiyalashdan ko‘ra ko‘proq ilmiy yaratuvchanlik bilan bog‘liq, shuning uchun bolalarni tarbiyalashda ushbu texnikadan foydalanish juda katta foyda keltiradi. Darhaqiqat, nazariyaning asosiy mazmuni bolani yoki kattalarni hozirgi vaziyatni baholash uchun ma‘lum mantiq va algoritmlarga asoslanib, to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun ixtiro qilishga o‘rgatish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda TRIZ texnologiyasiga asoslangan analitik kompyuter dasturlari ham faol qo‘llanilmoqda, ular inson faoliyatining har qanday sohasi uchun tayyor yechimlarni taqdim etish qobiliyatiga ega.

Maktabgacha ta‘limning muhim vazifalaridan biri tarbiyalanuvchilarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishdir. Ushbu davrda tarbiyalanuvchilarning maxsus bilimiga ega bo‘lishi kerakligini anglatmaydi. 3-7 yoshli bolalarning matematik rivojlanishi, yangi bog‘liqliklarni kashf qilish imkoniyatini berishi kerak. Ushbu turdagi faoliyatda TRIZ texnologiyasi alohida rol o‘ynaydi.

F.Qodirovaning ta‘kidlashicha “O‘yin maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida asosiy faoliyat shakli” [7] hisoblanadi. TRIZ texnologiyasidan foydalangan holda o‘yinlar bolani bilim olamiga olib boradi, tafakkurni, nostandart yechimlarni topish qobiliyatini, zukkolikni sezilarli darajada rivojlantiradi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun guruhlarda quyidagi o‘yinlar keng qo‘llanilishi mumkin:

- “Qaysi raqam yo‘qolgan?”
- “Bu raqamni hayotda qayerda uchratamiz?”
- “Geometrik shakllar qayerda yashiringan?”
- “Pazl o‘yinlari”.

O‘yin materiallaridan foydalangan holda o‘yinlar:

- “Obyektning uzunligini o‘lchash”;



- “Naqshlar chizish”;
- “Obyektlarni topshiriq bo‘yicha qurish”;
- “Obyektlarni kublar soni bo‘yicha taqqoslash”;
- “Obyektlarni qurish”.

Bunday o‘yinlar tufayli bola ranglarni yodlashga, zukkolikni rivojlantirishga, jamoada do‘stona munosabatlar o‘rnatishga o‘rgatiladi. Vazifalarning bosqichma-bosqich murakkablashishi har bir bolaga o‘zining individual yo‘nalishi bo‘yicha oldinga siljish imkonini beradi.

TRIZ texnologiyasiga asoslangan o‘yinlardan foydalanish mantiqiy fikrlashni, fazoviy tasavvurlarni, tafakkurni, kombinatsion qobiliyatlarni, zukkolik, topqirlik, amaliy masalalarni hal qilishda maqsad tomon harakat qilishni shakllantiradi va tarbiyalanuvchilarni maktabga sifatli tayyorlashga imkon beradi. Bolalar o‘yin-kulgi, harakat erkinligi va qoidalarga amal qilish, ijodkorlik va tasavvurni namoyon etish imkoniyati bilan o‘yin-mashg‘ulotlarga jalb qilinadi. Bolalar yuqori darajadagi kognitiv faollik, yaxshi shakllangan nutq, aniq ijodiy qobiliyat, rivojlangan tasavvurga ega bo‘ladi. U qanday qilib o‘rganishni biladi va o‘rganishni xohlaydi[4-5].

TRIZ – bu aniq hisoblash, mantiq va sezgi birlashgan yangi narsalarni yaratishning boshqariladigan jarayoni. “Ijodkorlikka imkon qadar ertaroq o‘rgatishni boshlash kerak...” [10]. Shunday qilib, nazariya asoschisi Geynrix Saulovich Altshuller va uning izdoshlari shunday deb o‘ylashgan. Tarbiyalanuvchilarni matematik jihatdan rivojlantirishda ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi elementlaridan foydalanish pedagogning ish uslubini tubdan o‘zgartiradi, tarbiyalanuvchilarni erkin qo‘yadi, bolalarni fikrlashga, muammolarning yechimini izlashga va topishga o‘rgatadi.

TRIZ – ilgari faqat muhandislar tomonidan foydalanilgan bo‘lsa, endi u bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beryapti. TRIZ bolalarga ijodiy, nostandart fikrlashni o‘rgatadi va zamonaviy dunyoga tez hamda muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradi [9].

1. TRIZ tizimli fikrlashni rivojlantiradi – bu muayyan obyektни bir butun sifatida, ya’ni uning atrof-muhitining boshqa obyektlari bilan bog‘liq holda ko‘rish qobiliyatidir. Demak, bola nafaqat gulni, balki uning o‘sadigan joyini, nimalardan iboratligini, hayoti uchun nimalar zarurligini, tabiatga, insonga nima bera olishini ham ko‘radi. Bu mahorat fikrlashda yanada moslashuvchan bo‘lishga imkon beradi.



2. TRIZ maktabgacha yoshdagi bolalarda natijalar va muvaffaqiyatga qaratilgan fikrlashni shakllantiradi. Klassik pedagogikada ta'lim mazmunining formulasi “men qilgandek qil” yoki “meni aytganimni qil” kabi buyruq shakllarida bo‘lgan bo‘lsa, rivojlantiruvchi pedagogikada biz bolaga muammo qo‘yamiz va u bilan birgalikda yechim izlaymiz.

Biz TRIZ dan bola bilan muloqot mazmuni va ta'lim mazmuni sifatida foydalanishimiz mumkin. Birinchi holda, biz tizimli ta'limni qurmaymiz, shunchaki vazifani har qadamda ko‘rishga intilamiz. Eng oddiy misol: aytaylik bolalar bog‘chasi guruhida barcha bolalarning ko‘rinishi bir xil bo‘lgan stakanlari bor. Vazifa: o‘zingizning stakaningizni qanday eslab qolasiz? Bola solishtirishi kerak, o‘z stakanini qanday ajratishni aniqlashi, o‘ziga xos xususiyatlarni yaratishi kerak.

Ikkinchi variant - trening mazmuni sifatida TRIZ dan foydalanish. Bu holda biz TRIZ da mavjud bo‘lgan vositalarni (qarama-qarshiliklar, ideal yakuniy natija, resurslar va boshqalar) o‘rganamiz va muammolarni hal qilishda ulardan qanday foydalanishni o‘rganamiz. Masalan, qalam singandagi vaziyatni olaylik. Qarama-qarshilik tahlilidan foydalanish: bu yaxshi yoki yomonmi? Bu yomon, chunki hozir u bilan chizib bo‘lmaydi, lekin bundan boshqa yaxshi maqsadda foydalansa bo‘ladimi? Haqiqiy hayotdagi har qanday vaziyat bolalarga vazifa sifatida taqdim etiladi. Shunchaki tayyor javob berish emas, balki buni qanday amalga oshirish mumkinligini birgalikda muhokama qilish, eng yaxshi yechimni topish muhimdir.

Bola tug‘ilgandan boshlab, bolalar ma’lumotni qabul qilib, uni tahlil qilib, dunyoni faol o‘rganadilar, munosabatlar tizimini qurishga harakat qiladilar, davom etayotgan jarayonlarning qonuniyatlarini tushunishadi. Amaliy dialektika, ba’zan TRIZ deb ataladi, pedagog bizga va bolalarga atrofimizdagi dunyoning ko‘p qirraliligini, uning nomuvofiqligini va rivojlanish shakllarini ko‘rishga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Bolalar bilan o‘yin jarayonida TRIZ elementlaridan foydalanish ularni atrofda sodir bo‘layotgan hamma narsani tahlil qilishga, hodisalar va tizimlarni nafaqat tuzilishda, balki vaqtinchalik dinamikada ham ko‘rishga o‘rgatish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ – bu asosiy dasturni o‘zgartirish uchun emas, balki uning samaradorligini oshirish uchun mo‘ljallangan jamoaviy o‘yinlar va tadbirlar tizimi. Shu sababli, bolaning barkamol ijodiy shaxsini rivojlantirishga qiziquvchilar uchun biz TRIZ o‘yinlarini yaqinroq bilishni va ularni o‘ynashni taklif qilamiz, bu nafaqat foydali, balki juda qiziqarli hamdir .



TRIZ texnologiyasi 5-7 yoshdagi bolalarning matematik qobiliyatlarni rivojlantirish vositasidir. “Har bir bola dastlab iste’dodli va hatto a’lo darajada, lekin unga minimal harajat bilan maksimal samaraga erishish uchun zamonaviy dunyoda harakat qilishni o’rgatish kerak” (G.S.Altshuller) [11].

Tarbiyalanuvchilarning matematik qobiliyatlarini shakllantirishda TRIZ texnologiyasidan foydalanishning maqsadi, avvalo, moslashuvchanlik, harakatchanlik, izchillik, dialektika kabi fikrlash fazilatlarini, ikkinchi tomondan, izlanuvchanlik istaklarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy tarbiyasida va intellektini rivojlantirishda elementar matematik tushunchalarni shakllantirish katta rol o’ynaydi. Zamonaviy hayotda bolalarga matematikani o’rgatish muammosi katta ahamiyatga ega. Bu, dastlab, ilmiy-texnikaviy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning turli fan tarmoqlariga kirib borishi bilan tavsiflanadi [6].

Maktabgacha yoshdagi yosh o’ziga xosdir, chunki bolaning shakllanishi bilan uning hayotiy jarayonlari shakllanib boradi. Shuning uchun har bir bolaning ijodiy salohiyatini ochib berish uchun ushbu davrni o’tkazib yubormaslik kerak. Bolalarning ongi “chuqur hayot tarzi” va narsalar qanday bo’lishi kerakligi haqidagi an’anaviy tushunchalar bilan cheklanmaydi. Bu ularga ixtiro qilishga, o’z-o’zidan va oldindan aytib bo’lmaydigan bo’lishga, biz kattalar uzoq vaqt davomida e’tibor bermagan narsalarni payqashga imkon beradi. Ushbu muammoni hal qilishga yordam beradigan istiqbolli texnologiyalardan biri – TRIZ texnologiyasidir.

3-7 yoshli bolalar o’zining yosh xususiyatlariga ko’ra izlovchidir. “Uning e’tibori doimo uni qiziqtirgan narsaga qaratilgan” [8] – deydi A.V.Korzun.

Tarbiyalanuvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini samarali shakllantirish matematik rivojlanishning zamonaviy metodologiyasining o’ziga xos jihati hisoblanadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolani hisoblash, o’lchash va arifmetik muammolarni hal qilishga o’rgatish uchun zarur. Shuningdek, nostandart fikrlash, atrofimizdagi dunyodagi xususiyatlarni, munosabatlarni, bog’liqliklarni kashf qilish, ularni obyektlar, belgilar va so’zlar bilan “loyihalash” qobiliyatini rivojlantirishdir.

Tarbiyalanuvchilarda matematik jihatdan rivojlanish bolaning “dunyo tasviri”ni shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalarda matematikaga qiziqishni shakllantirish tarbiyachilarning muhim vazifalaridan biridir.



TRIZ matematik tushunchalarni shakllantirishga katta hissa qo'shadi, bolalarning fikrlash va matematik qobiliyatlarini o'yin shaklida rivojlantirishga imkon beradi. O'yin ko'plab qiziqarli variantlarni yanada rivojlantirish, o'zgartirish va yaratish uchun boshlang'ich nuqtadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematikani o'rgatishni qiziqarli materiallardan foydalanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ushbu materialning roli bolalarning yosh imkoniyatlarini va har tomonlama rivojlanish va ta'lim vazifalarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Aql-idrok uchun har qanday matematik vazifa, qaysi yoshga mo'ljallangan bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir aqliy yukni ko'taradi, bu ko'pincha qiziqarli syujet bilan yashiringan aqliy vazifa o'yin harakatlari orqali amalga oshiriladi. Bolalar vazifalarni, hazillarni, boshqotirmalarni idrok etishda juda faol. Ular qat'iyat bilan natijaga olib keladigan harakat yo'nalishini izlaydilar. Bolani o'ziga jalb qiladigan yakuniy maqsad qiziqtiradi. Guruhda turli jumboqlardan foydalanish: maktabgacha yoshda Kuizener tayoqchalari, Tangram, Nikitin kvadratlari va boshqa jumboqlar eng maqbuldir. Ularni hal qilish jarayonida bir raqam yoki shakl boshqasiga aylanadi.

Bunday o'yinlarni tashkil qilish bolalarning ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantiradi. U ma'lumot olishni, ma'lumot manbalarida harakat qilishni, obyektlar xususiyatlarining nomlarini (rang, shakl, material) o'zlashtirishni, turli xil savollar berish qobiliyatini, olingan ma'lumotlardan xulosa chiqarishni o'rganadi. Bolalar nostandart ijodiy vazifalarni hal qilishdan alohida zavqlanishadi. Matematika bolaning shaxsiy rivojlanish salohiyatini shakllantiradi, unga hayotda zarur bo'lgan fazilatlarni rivojlantiradi.

Demak, TRIZ texnologiyasiga asoslangan holda yaratilgan o'yinlar nafaqat tarbiyalanuvchilarning fikrlash va tasavvurlarini shakllantirishga, balki, ularda fikrlash tajribalarini o'tkazish va turli xil muammolar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish yurtimiz taraqqiyotining muhim shartidir. Mamlakat rivoji shubhasiz ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq. Shunday qilib:

1. Tarbiyalanuvchilarda elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishga



nisbatan texnologik yondashuvga erishish, ta'lim berishda TRIZ texnologiyasi va ilg'or xorijiy tajribalarni amalda qo'llash dolzarb masala deb belgilandi.

2. Sodda matematik tushunchalarni rivojlantirishning pedagogik va texnik bilimlarni mujassamlashtirgan integrallashgan axborot-metodik ta'minotini yaratish, elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishga oid modul yuzasidan mashg'ulot ishlanmalari, metodik tavsiyalar ishlab chiqish, didaktik va metodik qo'llanmalar yaratish zarurligi aniqlandi.

3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini mantiqiy-matematik va tanqidiy fikrlashga o'rgatadigan metodikani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, elementar matematik tasavvurlarini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi quyidagi masalalarga e'tibor qaratish zaruriyati mavjud deb hisoblaymiz:

- erishilgan ijobiy natijalarni umumlashtirish va rivojlantirish asosida elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishning noodatdiy va qiziqarli muhitini yaratish;

- tarbiyalanuvchilarda elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishning innovatsion ta'lim muhitini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi metodik ta'minotini yaratish dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022 yildagi “2022-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi **310**-son qaror.

2. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

3. Djumayeva M.M. Milliy ukuv dasturini amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari Innovation in the modem education system march 2021 colletions of scientific works Washington, usa 25th march 2021575-583

4. Djumayeva M.M. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarga oid ko'nikmalarni shakllantirish. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Tom 1 № 1 (2023):

<http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/812>

5.Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434

6.Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173

7.Djumayev M.I The transformation of te english language’s variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607>

8.Djumaev M.I. Matematika o‘qitishda milliy o‘quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o‘ziga xos xususiyatlari. MUG‘ALLIM HƏM YZLIKSIZ BILIMLENDIRIO‘. Ilimiy-metodikaliq jurnal. ISSN 2181-7138 2023 1-san 314-324 Nəkis

9.Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5 ISSN: 2754-6705

10.Djumayeva M.M. Ta’limni takomillashtirish mexanizmlari. Pedagogik innovasiyalar va yukori samaradorlikka yetak-lovchi ta’limiy goyalar mavzusidagi Respublika Onlayn ilmiy -amaliy kon-ferensiyasi Surxondaryo viloyat XTKT va ularning MOXM (2020 yil 15 may) 152-154

11.Djumayeva M.M. Tabiiy fanlarni o‘qitishda kreativ yondoshuv masalalari Zamonaviy ta`lim: Yangicha yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya 2023 yil 16-17 may 368-372

Research Science and
Innovation House



O‘QUVCHILARDA TABIIY FANLARGA OID SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

**Djumayeva Moxigul Mamanazarovna Termiz davlat pedagogika
instituti o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarning tabiiy fanlarga oid bilimlarini shakllantirish, uning jamiyatdagi o‘rni, ishlab chiqarish faoliyatidagi majburiyati va vazifalariga hamda individual qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilarning individual xususiyatlari (fikrlashning ilmiy tarkib topganligi, ishga ijodiy yondashishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi va boshqalar) ning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. O‘quvchilarning tabiiy fanlarga oid bilimlarini rivojlantirish va takomillashtirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari qarama-qarshiligini his qilish, ularning yechimini topish usullari qaraladi.

Kalit so‘zlar. O‘quvchilar, tabiiy fanlar, pedagogika, psixologiya, xususiyatlar va omillar, shakllantirish va rivojlantirish, ta’lim va tarbiya.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ

**Джумаева Мохигул Маманазаровна – преподаватель Термезского
государственного педагогического института.**

Аннотация. В статье формирование естественнонаучных знаний студентов зависит от их роли в обществе, их обязанностей и задач в производственной деятельности, их индивидуальных способностей. Он определяется уровнем развития индивидуальных особенностей студентов (научное мышление, творческий подход к работе, стремление реализовать свой потенциал и т. д.). Ощущая конфликтность психолого-педагогических условий развития и совершенствования естественнонаучных знаний студентов, рассматриваются способы поиска их решения.

Ключевые слова. Учащиеся, естественные науки, педагогика, психология, характеристики и факторы, становление и развитие, образование и воспитание.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF STUDENTS' NATURAL SCIENCE LITERACY

**Dzhumaeva Mohigul Mamanazarovna – teacher at Termez State
Pedagogical Institute.**

Abstract. In the article, the formation of students' natural science knowledge depends on their role in society, their responsibilities and tasks in production activities, and their individual abilities. It is determined by the level of development of students' individual characteristics (scientific thinking, creative approach to work, desire to realize their potential, etc.). Feeling the conflict in the psychological and pedagogical conditions for the development and improvement of students' natural science knowledge, ways to find their solution are considered.

Key words. Students, natural sciences, pedagogy, psychology, characteristics and factors, formation and development, education and upbringing.

Tabiiy fanlarning rivojlanishi, yerda hayotning paydo bo'lishi va evolyusion rivojlanish jarayonlari, odamning kelib chiqishi, tabiiy va suniy tanlanish kabi muammolar yechimi tabiatga shuningdek, tabiiy fanlarga oid nazariya bilan bog'liq. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim muassasalarida fanlararo aloqadorlik hamda izchillik tamoyiliga tayangan holda tabiiy fanlarga oid ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi sharoitni yuzaga keltirishni taqozo qiladi.

Insoniyat tarixida tabiiy fanlarga oid fanlarning rivojlanishi, moddiy dunyoni bili shva uni tadqiq qilish yillar osha o'sib bormoqda. Shubhasiz, shved tabiatshunosi K Lineyning o'simlik va hayvonot dunyosiga doir ta'limoti, fransuz tabiatshunosi J.Lamarkning evolyusion paradigmi, AQSH professori V.Lamertaning turlarning sharoitga moslashish to'g'risidagi g'oyalariga suyanadigan bo'lsak, tabiiy fanlarga oid ta'limot olam haqidagi bilim va tasavvurlarni to'plab boradigan ijtimoiy ong shakllaridan biridir. O'quvchilar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy fanlar hamda umumkasbiy fanlarni uzviy aloqada o'rganishlari ularda bevosita kasbiy-iqtisodiy ko'nikma va malakalarining shakllanishida tabiiy fanlarga oid tarbiya muhim omil bo'lib xizmat kiladi. Shu ma'noda, har bir mutaxassislik fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borish jarayonida tabiiy fanlarga oid tushunchalarning o'рни, ularni o'rganish zaruriyati, ketma-ketligi, boshqa tushunchalar bilan aloqadorligi va bu aloqadorlikni reflektiv (refleks, beixtiyor),



simmetrik yoki tranzitivlik (dars jarayonida olingan bilimlar majmuini amalda o‘z o‘rnida qo‘llay olishi) va boshqa xossalarga bo‘ysunishiga qarab, ularning kasbiy ahamiyatini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz[10].

Ma‘lumki, an‘anaviy ta‘limda ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarning har bir o‘quv fani boshqa o‘quv fanlariga bog‘liq holda olib borilishi o‘quvchilarda bilimlarning integrativ tarzda yuzaga kelishiga o‘zining ta‘sirini ko‘rsatib keldi. Bu esa o‘quvchilarda ijodiy fikrlash jarayoni(imkoniyati)ning sustlashishiga sababchi bo‘lishi tajribada kuzatilgan. Bilim maskanlarida o‘qitiladigan barcha fanlar asosan faqat ma‘lumot beruvchi, o‘rgatuvchilik funksiyasi bilan chegaralanib qolmasdan, o‘quvchilarning tabiiy fanlarga oid dunyoqarashini rivojlantiruvchi, integrallashtiruvchi, tarbiyalovchi funksiyalariga ham ega bo‘lmog‘i lozim.

Bundan kirinib turibdiki, har bir fan o‘qituvchisiga o‘quvchilarni nafaqat shu fan tuzilmasida mavjud bo‘lgan ilmiy ma‘lumotlar bilan qurollantirish, balki ular egallagan tabiiy fanlarga oid tushunchalarni rivojlantirish va ularning boshqa tushunchalar bilan integrallashuvini ta‘minlash hamda bo‘lajak kadrlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vazifalari ham qo‘yilgan. Shuning uchun ham har bir pedagog-olim navbatdagi o‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rishida o‘quv materialini yuqorida sanab o‘tilgan talablar va tamoyillarga rioya qilgan holda tanlashi va uni o‘quvchilar e‘tiboriga havola qilishida tegishli parametrlardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Zamonaviy ijodkor mutaxassis amaliy faoliyatning reproduktiv usuli va ijodkorlik yo‘nalishlaridan birini tanlashda nafaqat o‘zligini, balki hayotiy maqsadlarini ham ro‘yobga chiqaradi. U o‘zini sifat jihatidan o‘zgartiradi, psixologik to‘siqlarni yengadi, kasbiy ahamiyatga ega sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi, o‘z faoliyati konsepsiyasi (asosiy fikr, g‘oya)ni ishlab chiqadi. Umuman olganda, birinchidan, innovasion yo‘naltirilganlik, ikkinchidan, o‘ziga yo‘naltirilganlik xususiyatlari ham ko‘rinadi. Ammo M.Jumayevning e‘tirof etishicha, o‘quvchilarning kasbiy qobiliyati butun pedagogik jamoa ishtirokida va butun o‘quv-tarbiya jarayonida, ayniqsa, kasbiy ta‘lim berishning boshlang‘ich paytlaridayoq amalga oshirilish kerak [5, 173-b].

O‘quvchining tabiiy fanlarga oid tarbiyasining o‘ziga xosligini o‘rganishda uning psixologik hamda shaxsiy sifatlariga alohida e‘tibor qaratish lozim. Yetarli



darajada rivojlangan qobiliyatlar, maqsadlar, ehtiyojlar doirasi qanchalik keng bo‘lsa, uning bilim darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

O‘quvchining tabiiy fanlarga oid tarbiyasi– bu o‘quv tarbiyaviy jarayonga o‘zining faol munosabatlarini bildirib, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy–iqtisodiy nuqtai nazardan yondoshib, komil inson sifatlari bilan birga aqliy tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi faoliyatdir. Shuning uchun ham kasbiy ko‘nikma va malakani, tabiiy fanlarga oid savodxonlikni shakllantirishda, albatta, har tomonlama takomillashgan chuqur bilim zarurdir[8].


Kelajakda mutaxassislarda psixologik-pedagogik komponentlardan biri, bu “tabiiy fanlarga oid tushunchalarni esda saqlash” sifatining ma’lum darajada yuqori bo‘lishi taqozo qilinadi. Bundan tashqari, amalga oshirilayotgan ishlar tuzilishiga ko‘ra bir nechta iqtisodiy fanlarga oid bilimlarning integrasiyasi, o‘zaro aloqadorligi va undan foydalanish metodikasini o‘z ichiga oladi.

Har bir o‘quvchi o‘z imkoniyati, asosan bilimga bo‘lgan intilishiga qarab o‘zining bilimlar blokiga ega bo‘ladi. Bu bilimlar strukturasi ko‘ra, texnik va texnologik mazmundagi, psixologik va pedagogik, falsafiy, fizik-matematik, iqtisodiy, amaliy va boshqa ko‘rinishdagi bilimlar to‘plami bo‘lib, o‘quvchi qaysi yo‘nalishga mos bilimlar kerakligiga tayangan holda, shu mazmundagi bilimlarni bankdan ajratadi hamda uni chuqurlashtirib talab qilingan maqsadda foydalanishga sharakat qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarining tabiiy fanlarga oid savodxonligini shakllantirish bir qator omillarga bog‘liq[2].

Demak, o‘quvchilarning tabiiy fanlarga oid savodxonligiga ta’sir kirsatuvchi omillarni kuchaytirmasdan turib ta’limda samarali natijalarga erishib bo‘lmaydi. O‘quvchining tabiiy fanlarga oid tarbiyasi va savodxonligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘zaro bog‘liqligini sxematik tarzda quyidagicha tasvirlash mumkin:

Research Science and Innovation House





-motivatsion omil ta'sirini kuchaytirish uchun o'quvchining o'quv faoliyatlarini amalga oshirishga bo'lgan ichki ehtiyoj rivojlantiriladi. Bunda yetakchi motivlarga tayangan holda o'quvchilarga tabiiy fanlarga oid ta'lim olishning zamonaviy usullari haqida, xususan, elektron adabiyotlar va internet tizimidan oqilona foydalanishga oid bilimlar beriladi, ya'ni ularda ijodkor bo'lish, yangilikka intilish motivlari shakllantiriladi;

-aqliy omil ta'sirini kuchaytirish uchun ta'lim oluvchilar erkin fikrlashga, tizimli va ijodiy tasavvur yuritishga, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, loyihalash, bashorat qilishga, yangi g'oyalarni topishga o'rgatiladi;

-irodaviy omil ta'sirini kuchaytirish uchun o'quvchilar mustaqil izlanishga o'rgatiladi, natijada ularda murakkab tabiiy fanlarga oid hodisalarni modellashtirish



hamda o‘quv vazifalarni mustaqil hal etish, amaliy topshiriqlarni bajarish, mehnat qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi, irodaviy sifatlar shakllantiriladi;

- *shissiy omil* ta‘sirini kuchaytirish uchun o‘quvchilarda izlanuvchanlikka, tabiiy fanlarga oid masalalarni yechishning maqbul usullarini tanlashga xos hissiyotlar rivojlantiriladi, ular o‘quv faoliyatda ijodiy yechimlarni topish yo‘lida ziyrak bo‘lishga o‘rgatiladi; tabiiy fanlarga oid jarayonlarni modellashtirish va iqtisodiyotning amaliy asoslarini o‘rganish orqali o‘quvchida hissiy omillar kuchaytiriladi;

- *amaliy omil* ta‘sirini kuchaytirish maqsadida o‘quvchilarda yangi tabiiy fanlarga oid axborotlar qabul qilish, qayta ishlash, iqtisodiy masalalarning noan‘anaviy yechimini topish, fikrlash, kasbiy faoliyat va iqtisodiy amallar yo‘nalishlarini o‘zgartirishga moyillik ko‘nikmalari shakllantiriladi. Ular biror iqtisodiy masalani yechishda ilmiy manbalardan, internet yangiliklaridan oqilona foydalanishga o‘rgatiladi;

- *mustaqillik omili* – o‘zini ijodkor sifatida anglab yetish, ijtimoiy, o‘quv faoliyatda o‘z o‘rnini topish, o‘zining ijodiy imkoniyatlarini bilish; o‘quv faoliyatini amalga oshirish va fikrlashda mustaqillik hamda erkinlikning namoyon bo‘lishi. Iqtisodiy jarayonlaridagi texnologiyalarini tushunish va ularning afzalligi va qulayligini asoslab berishda o‘quvchining mustaqil fikrlashi, o‘z fikrini himoya qila olishi uning kelgusidagi kasbiy-iqtisodiy faoliyatda o‘z o‘rnini topa olishini ko‘rsatadi;

- *o‘ziga xoslik omili* - o‘z fikrlarini zarur yo‘nalishda boshqara olish, yangi g‘oyalar topish imkonini beruvchi manbalarni izlash, o‘z ijodiy faolligini ta‘minlash uchun mustaqil ravishda sharoit yarata olish. Iqtisodiy topshiriqlarning to‘g‘ri bajarilganligi, yechimlarning maqbul usullarni tanlashi o‘quvchining ijodkorligini, mustaqil ishlay olishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, tabiiy fanlarga oid g‘oyalar tabiiy fanlarga kirib boradi va bugungi kunda tabiiy fanlarga oid bilimlar modellashtirish orqali amalga oshiriladi. Tabiiy fanlarga oid bilimlar inson faoliyatining barcha sohasi uchun zarur va ular fanlarni o‘rganish jarayonida shakllanib chuqurlashadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘quvchining tabiiy fanlarga oid tarbiyasi ko‘rsatgichi inson qobiliyatlari hamda faoliyat talablari o‘rtasidagi tafovut bilan belgilanadi. O‘quvchida o‘z-o‘zini boshqarish, qat‘iylik, jur‘atlilik, qo‘rqmaslik, atrofdagi



insonlarga hurmat va e'tibor, kamchiliklarini his qilgan holda o'z imkoniyatlariga ishonch, faoliyatini baholashda haqqoniylik, kuchli iroda, kuch-quvvatini yo'naltira olish, faoliyat va maqsadni amalga oshirish yo'lida o'z imkoniyatlarini jamlay olish, belgilangan maqsadni amalga oshirishda faoliyatini to'g'ri boshqarib borish, aqliy faollik va o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish, shaxsni harakatga keltiruvchi kuch va ijtimoiy olam bilan o'z imkoniyatlarini qiyoslay olish sifatlariga ega bo'lsagina yuksak bilim darajasiga erisha olishi mumkinligi aniqlangan [2, -64 b].

O'quvchining tabiiy fanlarga oid tarbiyani o'zlashtirishi ularda fikrlash jarayonining samaradorligi, rasionalliligi, zarur bo'lgan xulosalarni chiqara bilishi, o'quv materialini umumlashtira olishi, maqsadiga erishuvchanligi, o'z fikrida qat'iy turishi, o'quv materialining ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni to'ldirishga yordam berishi ham inobatga olinishi zarur. Shuning uchun ilmiy, ta'limiy-didaktik va axloqiy talablarga javob beradigan o'quv materiallarini tanlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ikromova H.Z., Hozirgi zamon tabiiy-ilmiy va aniq fanlarning shakllanish asoslari, Toshkent, OPI, 2011y, 57 bet.

2. Djumayeva M.M. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarga oid ko'nikmalarni shakllantirish. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Tom 1 № 1 (2023):

<http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/812>

3. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434

4. Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173

5. Djumayev M.I The transformation of the english language's variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation



international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn:
2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607>

6.Djumaev M.I.. Matematika o'qitishda kombinatorika masallarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari Fizika, matematika, informatika jurnali. 2023 yil 2/1 son. 19-27

7.Djumaev M.I. Matematika o'qitishda milliy o'quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o'ziga xos xususiyatlari. MUG'ALLIM HƏM YZLIKSIZ BILIMLENDIRIO'. Ilimiy-metodikaliq jurnal. ISSN 2181-7138 2023 1-san 314-324 Nəkis

8.Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5 ISSN: 2754-6705

9.Djumayeva M.M. Ta'limni takomillashtirish mexanizmlari. Pedagogik innovasiyalar va yukori samaradorlikka yetak-lovchi ta'limiy goyalar mavzusidagi Respublika Onlayn ilmiy -amaliy kon-ferensiyasi Surxondaryo viloyat XTKT va ularning MOXM (2020 yil 15 may) 152-154

10.Djumayeva M.M. Milliy ukuv dasturini amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari Innovation in the modem education system march 2021 colletions of scientific works Washington, usa 25th march 2021575-583

11yudjumayeva M.M. Tabiiy fanlarni o'qitishda kreativ yondoshuv masalalari Zamonaviy ta'lim: Yangicha yondashuvlar va dolzarb tadqoqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya 2023 yil 16-17 may 368-372

12.Djumayeva M.M. Tabiiy fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensive o'qitishning psixologik-pedagog jihatlari Respublika ilmiy amaliy anjuman. 2023 yil 2 iyun 494-497

Research Science and
Innovation House



ПЕДАГОГИК ЖАРАЁН ИНТЕГРАЛ ДИНАМИК ТИЗИМ СИФАТИДА

**Тешабоев Акрам Юлдашевич п.ф.н.доцент, Андижон чет тиллар
институти кафедра мудири.**

Аннотация. Мақолада замонавий педагогикада педагогик жараён деганда жамият ва шахснинг ўз талабларини қондиришга қаратилган ўқитиш ва тарбиянинг муайян воситалари ва усулларидан фойдаланган ҳолда таълим мазмунини амалга оширувчи ўқитувчи ва ўқувчиларнинг махсус ташкил этилган ўзаро ҳамкорлиги тушунилади. Педагогик жараёнда шахсни шакллантириш, ривожлантириш, тарбиялаш, ўқитиш, ўз-ўзини тарбиялаш ва ўз-ўзини тарбиялаш жараёнлари уларнинг юзага келишининг барча шароитлари, шакллари ва усуллари билан бирлаштирилади.

Калит сўзлар. Педагогика, психология, диагностика, шахс ва жамият, ўқувчи, ўқитувчи, таълим ва тарбия, жарён, ҳамкорлик.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС КАК ЦЕЛОСТНАЯ ДИНАМИЧЕСКАЯ СИСТЕМА

**Тешабоев Акрам Юлдашевич Кандидат юридических наук, доцент,
заведующий кафедрой Андижанского института иностранных языков**

Абстрактный. В статье под педагогическим процессом в современной педагогике понимается специально организованное взаимное сотрудничество учителей и учащихся, реализующее содержание образования с использованием определенных средств и методов обучения и воспитания, направленное на удовлетворение запросов общества и личности. В педагогическом процессе сочетаются процессы формирования, развития, воспитания, обучения, самообразования и самовоспитания со всеми условиями, формами и способами их протекания.

Ключевые слова. Педагогика, психология, диагностика, личность и общество, ученик, педагог, образование и воспитание, поток, сотрудничество.

THE PEDAGOGICAL PROCESS AS AN INTEGRAL DYNAMIC SYSTEM

**Teshaboev Akram Yuldashevich Candidate of Legal Sciences, Associate
Professor, Head of the Department of the Andijan Institute of Foreign
Languages**

Abstract. In the article, the pedagogical process in modern pedagogy is understood as specially organized mutual cooperation between teachers and students, implementing the content of education using certain means and methods of teaching and upbringing, aimed at meeting the needs of society and the individual. The pedagogical process combines the processes of formation, development, education, training, self-education and self-education with all the conditions, forms and methods of their occurrence.

Key words. Pedagogy, psychology, diagnostics, personality and society, student, teacher, education and upbringing, flow, cooperation.

“Pedagogik jarayon” tushunchasi pedagogika fanining asosiy tushunchasidir. Uni ilmiy leksikaga rus tili o‘qituvchisi P.F. Kapterev (1849-1922). U o‘zining "Pedagogik jarayon" asarida shunday deb yozgan edi: "Pedagogik jarayon ikkita asosiy xarakterli xususiyatni o‘z ichiga oladi: tananing o‘zini o‘zi rivojlantirishga tizimli yordam berish va shaxsni har tomonlama takomillashtirish". Zamonaviy pedagogikada pedagogik jarayon deganda jamiyat va shaxsning o‘zi talablarini qondirishga qaratilgan o‘qitish va tarbiyaning muayyan vositalari va usullaridan foydalangan holda ta’lim mazmunini amalga oshiruvchi o‘qituvchi va o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan o‘zaro hamkorligi tushuniladi. Pedagogik jarayonda shaxsni shakllantirish, rivojlantirish, tarbiyalash, o‘qitish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonlari ularning yuzaga kelishining barcha sharoitlari, shakllari va usullari bilan birlashtiriladi.

Pedagogik jarayon faqat yuqoridagi jarayonlarning mexanik birikmasi emas, balki o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi yuqori sifatli ta’limdir. Uning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni aniqlash mumkin: diqqat, ikki



tomonlamalik va yaxlitlik. Pedagogik jarayon har doim aniq maqsad bilan belgilanadi (ko‘p qirrali va barkamol shaxsni shakllantirish), unga erishish uchun o‘qituvchilar ilmiy asoslangan va nazorat qilinadigan faoliyat doirasida optimal psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratadilar . O‘qituvchi ta’lim sohasida yuzaga keladigan har qanday muammo yoki vaziyatlarni hal qilishda ularning echimini umumiy maqsadga erishishga qaratishi kerak. Ikki tomonlamalik pedagogik jarayonning ikkita subyektining mavjudligini nazarda tutadi : doimiy aloqada bo‘lgan o‘qituvchi va talaba. Ikkala tomonning konstruktiv hamkorlik va sheriklikka intilishi ularning har birining muvaffaqiyati uchun shart bo‘lishi mumkin [2].

Pedagogik jarayonning yaxlitligi uning ishlashi uchun zaruriy shartdir. Shu munosabat bilan V.A. Slasteninning ta’kidlashicha[5], faqat yaxlit pedagogik jarayonda to‘liq barkamol shaxs shakllanishi mumkin. Yaxlitlik - bu pedagogik jarayonning sintetik sifati, uning rivojlanishining eng yuqori darajasini, unda faoliyat yurituvchi subyektlarning ongli harakatlari va faoliyati natijasidir. Bu uning tarkibiy qismlarining ichki birligi va ularning uyg‘un o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Pedagogik jarayonning yaxlitligini shunchaki ta’lim va tarbiya jarayonlarining birligiga, intellektual, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy va boshqa turdagi ta’lim jarayonlarining birligiga qisqartirib bo‘lmaydi. Pedagogik jarayon barcha ko‘rinishlarda bir va bo‘linmas bo‘lib, uning yaxlitligiga qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, doimiy harakat va yangi sifatlarni shakllantirish orqali erishiladi.

Pedagogik jarayonning yaxlitligini aniqroq tushunish uchun ushbu hodisaning asosiy tomonlarini ko‘rib chiqish kerak. [5]V.A. Slastenin ikkita jihatni ajratib turadi: mazmunli va tashkiliy. Mazmuniy jihatdan pedagogik jarayonning yaxlitligi insoniyat tomonidan to‘plangan tajriba: bilim, qobiliyat, ko‘nikma, ijodiy faoliyat tajribasi va hissiy, qadriyat va irodaviy tajribaning ta’lim maqsadi va mazmunida aks etishi bilan ta’minlanadi. atrofimizdagi dunyoga munosabat. Tashkiliy jihatdan pedagogik jarayon yaxlitlik xususiyatiga ega bo‘ladi, agar faqat nisbatan mustaqil tarkibiy jarayonlarning birligi ta’minlansa:

a) ta’lim mazmuni va moddiy-texnik bazasini o‘zlashtirish va loyihalash jarayoni;

b) o‘qituvchilar va talabalarning ta’lim mazmuni bo‘yicha ishbilarmonlik o‘zaro ta’siri jarayoni, ularning o‘zlashtirilishi o‘zaro ta’sirning maqsadi hisoblanadi;

v) o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlar (norasmiy muloqot) darajasidagi o‘zaro munosabatlar jarayoni;

d) o‘quvchilarning bevosita o‘qituvchi ishtirokisiz ta’lim mazmunini o‘zlashtirish jarayoni (o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalash). [4].

Shunday qilib, pedagogik jarayonning harakati uning maqsadlilik, ikki tomonlamalik va yaxlitlik kabi o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Yaxlit pedagogik jarayonning asosiy funksiyalari: o‘qitish, rivojlantirish va tarbiyalash. Ta’lim funksiyasi an’anaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. Rivojlanish funksiyasi aqliy jarayonlarni, nutqni, hissiy, hissiy va vosita sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta’lim funksiyasi oldingi ikkitasiga qaraganda kengroqdir. Bu shaxsning, uning ongi, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarining uyg‘un rivojlanishiga qaratilgan. Ta’lim funksiyasi pedagogik jarayonning etakchi va tuzatuvchi funksiyasidir. Har bir funksiya o‘z maqsadi va tegishli mazmuniga ega bo‘lib, boshqalar bilan chambarchas bog‘liq. Ular bir-biriga kirib, pedagogik jarayonda yagona yaxlitlikni tashkil qiladi va pedagogik tizimning umumiy maqsadiga erishish uchun birgalikda harakat qiladi. [7]

O.A. Aleksandrova ta’kidlaganidek, afsuski, haqiqiy pedagogik amaliyotda o‘qituvchilar ko‘pincha o‘qitish funksiyasini amalga oshirish bilan cheklanadi. Buning sababi o‘qituvchining o‘z funksional majburiyatlariga nisbatan past kasbiy malakasi va rasmiy munosabatidir. Shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish va uning individual xususiyatlarini e’tiborsiz qoldirish pedagogik jarayonning dinamik va faoliyatga asoslangan tizim sifatida yo‘q qilinishiga olib keladi.[10-12] .

Pedagogik jarayonning harakatlantiruvchi kuchlari, har qanday rivojlanayotgan hodisa kabi, qarama-qarshiliklardir. Qarama-qarshiliklarni talqin qilishda mahalliy tadqiqotchilar orasida yagona yondashuv mavjud emas. Masalan, V.A. Slastenin pedagogik jarayonning harakatini belgilovchi obyektiv va subyektiv qarama-qarshiliklarni tahlil qiladi. Obyektiv xarakterdagi eng ko‘p uchraydigan ichki qarama-qarshilik - bu ta’lim olayotganlarning real imkoniyatlari va jamiyat, maktab va o‘qituvchilar tomonidan ularga qo‘yiladigan talablar o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir.

Ammo talablar juda yuqori yoki juda past bo'lsa, ular o'quvchining, demak, butun pedagogik tizimning ko'zlangan maqsad sari harakatlanish manbai bo'lib qolmaydi. Faqat rivojlanish istiqboliga yo'naltirilgan vazifalar qiziqish va ularni hal qilish zaruriyatini uyg'otadi. Bu jamoa va individual o'quvchilar uchun yaqin, o'rta va uzoq istiqbollarni loyihalash, ularni aniqlashtirish va bolalarning o'zlari tomonidan qabul qilinishini ta'minlash zarurligi haqida gapiradi. Bu borada L.S.Vygotskiyning nazariyasi shaxsning rivojlanish zonalari haqida: o'qituvchi o'z faoliyatida e'tibor qaratishi kerak bo'lgan hozirgi va proksimal rivojlanish zonalariga qaratilgan..

Ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish bolalik davridagi pedagogik jarayon va shaxs rivojlanishining asosiy ichki qarama-qarshiligini ochib berdi. Bu bolaning faol tabiati va uning hayotining ijtimoiy-pedagogik sharoitlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Asosiy qarama-qarshilik bir qator alohida qarama-qarshiliklar bilan aniqlangan: jamoat manfaatlari va shaxs manfaatlari o'rtasidagi; jamoa va shaxs o'rtasida; ijtimoiy hayotning murakkab hodisalari va ularni tushunish uchun bolalik tajribasining etishmasligi o'rtasida; tez o'sib borayotgan axborot oqimi va ta'lim jarayonining imkoniyatlari o'rtasida.

Subyektivlar orasida V.A. Slastenin quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqlaydi: shaxsning yaxlitligi va uning shakllanishiga funksional yondashish, pedagogik jarayonning biryoqlamaligi; shaxs shakllanishining individual ijodiy jarayoni va pedagogik jarayonni tashkil etishning ommaviy reproduktiv xarakteri o'rtasida; shaxsni rivojlantirishda faoliyatning hal qiluvchi ahamiyati va birinchi navbatda og'zaki ta'limga bo'lgan munosabat o'rtasida; shaxsning fuqarolik kamolotida gumanitar fanlarning ortib borayotgan roli va pedagogik jarayonni texnokratlashtirish tendensiyasi o'rtasida.[5]

A.P.Anoshkin pedagogik jarayonning rivojlanishiga turtki beruvchi qarama-qarshiliklarning uchta guruhini ajratib ko'rsatadi: o'quvchining rivojlanishiga turtki bo'lgan qarama-qarshiliklar; o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni murakkablashtiradigan qarama-qarshiliklar; o'qituvchining faoliyati jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar.

1- guruhga bolaning ongi va xatti-harakati, ongi va his-tuyg'ulari o'rtasidagi ziddiyatlar kiradi; burch va xulq o'rtasida; intilish va real imkoniyatlar o'rtasida; kattalarga bo'lgan ishtiyoq va mustaqillikka intilish o'rtasida; odat va talablar



o‘rtasida va hokazo. O‘qituvchi bu qarama-qarshiliklar haqida bilishi va o‘z o‘quvchilariga ularni konstruktiv tarzda engishga yordam berishi kerak.

2- guruh o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan vazifalar va o‘quvchilarning ularga erishish uchun haqiqiy istagi o‘rtasidagi ziddiyatlarni o‘z ichiga oladi; o‘qituvchi va talaba tomonidan ta‘lim mazmunini tanlash o‘rtasida; o‘qituvchi tomonidan tanlangan pedagogik o‘zaro ta‘sir vositalari, shakllari, usullari va ularni talabalar tomonidan qabul qilinishi o‘rtasida; baholash va o‘zini o‘zi qadrlash o‘rtasidagi va hokazo. O‘qituvchi va talabaning ushbu qarama-qarshiliklarni tushunishi va ularni konstruktiv hal qilish istagi pedagogik jarayonda yanada samarali o‘zaro ta‘sirga yordam beradi.

Qarama-qarshiliklarning 3- guruhi o‘qituvchi faoliyatining tuzilishi bilan bog‘liq. Bu faoliyatning maqsadi va mazmuni o‘rtasidagi nomuvofiqlik tufayli uni tashkil etishdagi qiyinchiliklar; aniq maqsadlar va ularga erishish vositalari; faoliyat mazmuni va tashkil etish shakllari va boshqalar. Bu qarama-qarshiliklarni bilish va ularni bartaraf etish qobiliyati bevosita pedagogik faoliyat sifatiga ta‘sir qiladi.[2]

Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, pedagogik jarayon ko‘p komponentli tizim bo‘lib, o‘zida ko‘plab qarama-qarshiliklarni (tashqi, ichki, obyektiv va subyektiv) o‘z ichiga oladi. Aynan ana shu qarama-qarshiliklarning mavjudligi pedagogik jarayonni dinamik tizim sifatida tavsiflaydi. Ularni hal qilishning doimiy ehtiyoji tizimning harakatini, uning rivojlanishini, o‘zini-o‘zi takomillashtirishni va uni aniq, ilmiy boshqarishni tashkil qilishni belgilaydi.

Pedagogik jarayon dinamik va faoliyatga asoslangan tizim sifatida uzluksiz faoliyat yuritadi va rivojlanadi. Agar uning aniq, ilmiy tashkil etilishi mavjud bo‘lsa, u doimiy ravishda o‘zini-o‘zi takomillashtirishga qodir, uni boshqarish yo‘q yoki rasmiylashtirilmasa, u tanazzulga va turg‘unlikka moyil bo‘ladi. Pedagogik jarayonning asosiy birligi pedagogik vazifadir. Haqiqiy o‘qituvchilik faoliyatida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ta‘siri natijasida turli vaziyatlar yuzaga keladi. O‘qituvchi bu vaziyatlardan ta‘lim sifatida foydalanishi kerak. Faoliyat maqsadi va uni amalga oshirish shartlari bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik vaziyat pedagogik vazifadir. Har qanday pedagogik tizim doirasidagi pedagogik faoliyat vazifa tuzilmasiga ega, ya‘ni uni turli darajadagi murakkablikdagi son-sanoqsiz masalalarni yechishning o‘zaro

bogʻlangan ketma-ketligi sifatida koʻrsatish mumkin. Bir muammoni hal qilishdan ikkinchisiga oʻtishda pedagogik jarayonning harakatini koʻrish mumkin.

Shuni taʼkidlash kerakki, bu vazifalar ijtimoiy boshqaruvning vazifalari hisoblanadi. Ularning barchasi bir-biriga bogʻlangan toʻrt bosqichdan oʻtishni oʻz ichiga olgan sxematik diagrammaga muvofiq hal qilinadi:

- 1) vaziyatni tahlil qilish va pedagogik vazifani shakllantirish;
- 2) yechim variantlarini loyihalash va berilgan shartlar uchun maqbulini tanlash;
- 3) amaliyotda muammoni hal qilish rejasini amalga oshirish, shu jumladan oʻzaro taʼsirni tashkil etish, pedagogik jarayon oqimini tartibga solish va sozlash;
- 4) qaror natijalarini tahlil qilish.

Pedagogik vazifa haqida gapirganda, u ham pedagogik jarayon bilan bir xil tarkibiy qismlarga ega boʻlgan oʻziga xos turdagi tizim ekanligini unutmasligimiz kerak: oʻqituvchilar, talabalar, mazmun va vositalar.

Har bir tizim maʼlum qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Pedagogik jarayonning asosiy qonuni sifatida V.A. Slastenin yosh avlodlar tomonidan katta avlodlarning ijtimoiy tajribasini majburiy ravishda oʻzlashtirishni belgilaydi. Pedagogik jarayon qonuniyatlariga kelsak, bu masala boʻyicha taʼlim nazariyotchilari oʻrtasida umumiy fikr mavjud emas. V.A. Slastenin shunday pedagogik qonuniyatlarni belgilaydi: pedagogik faoliyat mazmuni, shakllari va usullarining jamiyatning iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasiga bogʻliqligi; taʼlim natijalarining atrof-muhit taʼsiriga va oʻquvchi ishtirok etayotgan faoliyatning tabiatiga bogʻliqligi; pedagogik jarayon mazmuni, shakl va usullarining oʻquvchilarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlariga muvofiq.[5-9].

Ushbu roʻyxatni T.A StefanovskaY. tomonidan taklif qilingan naqshlar bilan toʻldirish mumkin. . Uning taʼkidlashicha, shaxsni shakllantirish jarayoni uning faol faoliyatisiz mumkin emas; shaxs kamolotining real jarayonida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari yagona va yaxlit jarayonni tashkil etar ekan, turli kombinatsiyalarda namoyon boʻladi.

Pedagogik jarayonning tamoyillari orasida quyidagilarni ajratib koʻrsatish mumkin: pedagogik jarayonning insonparvarlik yoʻnalishi, uning hayot va amaliyot bilan bogʻliqligi, ilmiy xarakteri, aniqligi, tabiiy muvofiqligi, pedagogik boshqaruvning



tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirish bilan uygʻunligi . oʻquvchilar, bolaning ongi va faolligi, uning ijobiy fazilatlariga tayanishi, bolaga hurmat va oqilona talabchanlik.

Demak, pedagogik jarayon murakkab, ochiq va dinamik tizim boʻlib, oʻziga xos xususiyatlar, vazifalari, harakatlantiruvchi kuchlari, tarkibiy qismlari, qonuniyatlari, qonuniyatlari va tamoyillariga ega. Tizimli yondashuv ushbu murakkab hodisani samarali va samarali boshqarish imkonini beradi. Uning harakatini yoʻnaltirish, yordam berish, aniq rejalashtirish, butun jarayonni tashkil etish va nazorat qilish asosida tuzatish.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022 yildagi “2022-2023 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 310-son qaror.

2.Александрова О. А. Образование: доступность или качество — последствия выбора // Знание. Понимание. Умение. — 2005. — № 2. — С. 83—93.

3.Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе. - М.: Просвещение, 2005. - 208с.

4.Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения / ИРПО. -М., 2005.-336 с.

5.Сластенин В.А. и др. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина -- М.: Издательский центр "Академия", 2002. - 576 с.

—6. Djumayeva M.M. Milliy ukuv dasturini amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari Innovation in the modem education system march 2021 colletions of scientific works Washington, usa 25th march 2021575-583

7.Djumayeva M.M. Boshlangʻich sinflarda tabbiy fanlarga oid koʻnikmalarni shakllantirish. Zamonaviy boshlangʻich taʼlim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.Tom 1 № 1 (2023):<http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/812>

8.Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434

9.Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173

10.Djumayev M.I The transformation of te english language’s variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607>

11.Djumaev M.I. Matematika o‘qitishda milliy o‘quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o‘ziga xos xususiyatlari. MUG‘ALLIM HƏM YZLIKSIZ BILIMLENDIRIO‘. Ilimiy-metodikaliq jurnal. ISSN 2181-7138 2023 1-san 314-324 Nəkis

12.Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5 ISSN: 2754-6705

Research Science and Innovation House

Omon Matjon ijodida arxaizmlarning qo‘llanilishi

Ilhombayeva Mahliyo

UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti:

o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 223-guruh talabasi

ilhombayevamahliyo@gmail.com

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, eskirgan so‘zlar, arxaizmlar, istorizmlar, she`riyat tili.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Omon Matjon she`rlarida qo‘llanuvchi eskirgan so‘zlardan arxaizmga xos bo‘lgan so‘z hamda birikmalar o‘rganilgan. Arxaizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritilib, davr voqeliklari yoritib berilgan.

Ключевые слова: лингвопоэтика, устаревшие слова, архаизмы, историзмы, поэтический язык.

Аннотация: В данной статье изучаются архаичные слова и сочетания устаревших слов, использованные в стихотворениях Амона Матджона. Обсуждаются специфические характеристики архаизмов и освещаются реалии того времени.

Key words: linguopoetics, obsolete words, archaisms, historicisms, poetic language.

Abstract: In this article, archaic words and combinations of obsolete words used in Amon Matjon's poems are studied. The specific characteristics of archaisms are discussed and the realities of the period are highlighted.

Biror matn tilshunoslik fani nuqtai nazaridan tekshirilar ekan, biror adabiy til kategoriyalari – leksik, fonetik, morfologik va sintaktik birliklardan qaydarajada foydalanganliklari nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Shuning uchun ushbu maqolada Omon Matjon she`riyati tilining leksik birliklari ichida o‘ziga xos o‘rin egallovchi arxaizmlar haqida so‘z yuritimiz.

Arxaizm yunoncha so‘z bo‘lib, archaios – qadimgi demakdir. Zamon o‘tishi, sharoit o‘zgarishi bilan ba`zi narsalar yo‘qoladi. Va shu bilan bir qatorda ularni ifodalaydigan so‘zlar ham iste`moldan chiqib qoladi. Shuning natijasid ba`zi so‘zlar eskiradi. Ayrim vaqtlar narsalar muomalada bo‘lgan holda, ular yangi nom oladi.

Bunday qoʻllanmay qolgan soʻzlar ham eskirgan hisoblanadi. Tilda soʻzlarning eskirib qolishi shunga koʻra ikki xil: arxaizm hamda istorizm shaklida boʻladi.

Arxaizmlar – bunda soʻzlar orqali ifodalanadigan predmetlar mavjud boʻladi, biroq u predmetlar avvalgi nomlari bilan emas, balki yangi soʻzlar, yaʼni ekvivalentlari bilan ifodalanadi.¹

Bilamizki har qanday adib asarning leksik qatlamini bayon etishda, qalamga olinayotgan davrni ham inobatga oladi. Yaʼni tarixiy mavzularga bagʻishlangan asarlarda yangi paydo boʻlgan soʻzlar(neologizmlar)ni qoʻllab boʻlmagani kabi zamonaviy mavzudagi asarlarda ham eskirgan soʻzlarni qoʻllash uslubiy jihatdan xatolik sanaladi. Masalan, Omon Matjonning Ogohiy gʻazaliga javoban yozilgan “Muloqot”ida qoʻllangan soʻzlar davr nuqtai nazaridan toʻgʻri tanlangan.

“Ey pir, dedim, yodlar bugun **ashʻorlaringni** Xorazm...”

“Qoʻygʻil, dedi, faxriyangni, dardimi topgil chorasin,
Yon, oshiq oʻl, hech bosmasin davron changi koʻz qorasin,
Qilgʻil tamosho qomati zebosi birlan orazin,

Gar koʻrmasang gul boʻlganin payvand shamshod ustina!”²

Misralardagi ashʻor soʻziga eʼtibor qaratsak, *ashʻor* arabcha soʻz boʻlib *sheʻr* soʻzining koʻplik shakli hisoblanadi. Agarda shu misrada ashʻor soʻzi oʻrniga *sheʻr* soʻzini qoʻllaganda uslubiy jihatdan gʻalizlik kelib chiqqan boʻlar edi. Chunki bilamizki Ogohiyning yashagan davri bilan *sheʻr* soʻzining qoʻllanilish vaqtida maʼlum chegara bor.

Davr ruhini berish uchun badiiy asarlarda arxaizmlardan foydalaniladi. Navbatdagi “Miriya oʻxshatma” nomli qoʻshigʻida ham shunday soʻzdan mohirona foydalangan:

Ey, husnda birinchim,

Ey tishlari dur-**injum**,

Yolgʻiz sening oʻzingsan

Bu dunyoda ilinjim,

Sen unda dogʻ boʻlding,

Men munda dogʻ qoldim.³

¹ Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

² O. Matjon. Turkiy adabiyot durdonalar. Oʻzbekiston. – Т.: 2022.

³O. Matjon. Turkiy adabiyot durdonalar. Oʻzbekiston. – Т.: 2022.



She`ming ikkinchi misrasidagi *inju* so`ziga e`tibor qaratadigan bo`lsak, *inju* izohli lug`atlarda marvarid⁴ deb beriladi. Bu she`rda esa ushbu so`z *inju* so`zi bilan qo`llanib emotsionallikni yanada oshirgan.

Yozuvchi takrordan qochish, ta`sirchanlikni oshirish, ma`no bo`yoqdorligini ta`minlash maqsadida arxaizmning hozirgi davrdagi muqobili bilan birga qo`llaydi. Bunday ko`rinishni Omon Matjonning Ogohiyning g`azaliga qilgan “Muloqot”idan olingan parchada ko`rishimiz mumkin:

“Obod *zamon*, tenglik, dedim, turmush go`zal, qushdek ko`ngil...”

“O`g`lon, dedi, bu larzakor *ochunga* keng nazzora qil,

Olam bilan bo`y o`lchashib ko`rmay havo ettingmi, bil,

Xoki taning barbod o`lur oxir jahonda necha yil,

Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina!”⁵

She`rda qo`llangan *ochun* so`zi arxaizm bo`lib, hozirgi kunda bu so`z tamoman iste`moldan chiqqan va uni o`rnida dunyo, jahon so`zlari qo`llanadi. Vaholanki, undan oldingi baytda *zamon* so`zi qo`llangani uchun yana takror qo`llamaslik hamda badiiy bo`yoqdorlikni oshirish uchun *ochun* so`zini qo`llaydi.

Arxaiklashish hodisasi tilning grammatik birliklarida, xususan, affiksial morfemalarda va shu morfemalar ishtirokida shakllangan grammatik formalarda ham uchraydi. Masalan, fe`l tarkibida qo`llanuvchi birliklar arxaik shakli bilan qo`llanib matnda ta`kid, kuchaytirish kabi ma`nolarni ham ifodalashi mumkin. So`zimizning isbotini quyidagi misralardan ham bilishimiz mumkin:⁶

“Ming yor demak birlan, dedim, jomi visol bir *to`lmog`oy*,

Haqdin karam yo`q, u bizim orzulara *qotilmog`oy*!”

Lutfimga ul zot aytdi: “Qo`y, dardim sanga esh *o`lmog`oy*,

Boshimga yoqqan g`am toshin mingdin biricha *bo`lmog`oy*

Gardun agar ming besutun yog`dirsa Farhod ustina!”⁷

Leksik arxaizmlarning yuzaga kelishida sinonim so`zlar orasidagi uslubiy munosabatlar muhim rol o`ynaydi. Birining faollashuvi ikkinchisining passivlashuviga, arxaiklashuviga olib keladi. Istorizmlarda esa bunday bo`lmaydi.

⁴ Savodxon Izohli lug`ati. Savodxon@gmail.com. 2014.

⁵ O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot. – T.: 2021.

⁶ H. Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Talqin. – T.: 2005.

⁷ O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot. – T.: 2021.



Voqelikning yo‘qolishi shu voqelik nomi bo‘lgan so‘z (leksema) ning lug‘atdan butunlay tushib qolishiga sabab bo‘ladi.⁸

Ayrim arxaizmlar zamonaviy ma‘nodoshiga qaraganda ma‘noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi. Masalan, yo‘qsil – kambag‘al arxaik va zamonaviy so‘zlar juftligiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, “hech narsaga ega emaslik” ma‘nosi yo‘qsil leksemasida kambag‘al leksemasiga qaraganda ancha ortiq, chunki mazkur so‘zlar tarkibi tarixiy-etimologik tahlil etilganda anglanadigan yo‘q va kam so‘zlari qiyoslansa, birinchisida ayni so‘zning nol darajada ekanligi seziladi. Arxaik so‘zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham lingvopoetik vosita sifatida ishlatiladi. She‘riyatda nutqqa ko‘tarinki ruh bag‘ishlash maqsadida ishlatiladi.

Omon Matjon ijodida sayyod va sayd arxaizmlari ko‘p ishlatiladi.

Sen agar *sayyod* bo‘lib

Yoy agar bo‘lganda man.⁹

Sayyod so‘zi arabcha “ov”, “shikor”, “ov qilish” kabi ma‘nolarni anglatadi. Eski o‘zbek tilida *sayd aylamak* “ov qilmoq”, “ilintirmoq”; *sayd qilmoq* “ovlamoq” ma‘nolarini anglatadi. *Sayyod* so‘zi ham *sayd* asosida kelib chiqqan bo‘lib “ovchi” ma‘nosini bildiradi. Yuqorida misradagi *sayyod* so‘zi o‘z ma‘nosida qo‘llangan.

Umuman, Omon Matjon she‘riyati tilida uchraydigan adabiy til nuqtai nazaridan arxaik hisoblangan bir qator leksik vositalar hozirgi kunda mavjud tushunchalarni ifodalashi bilan birga, davr ruhini aks ettirishi, ko‘tarinkilik, ulug‘vorlikni ta‘minlash kabi maqsadlarda ijodkor tomonidan poetik aktivlashtirilgan til birliklaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.
2. O. Matjon. Turkiy adabiyot durdonalar. O‘zbekiston. – Т.: 2022.
3. Savodxon Izohli lug‘ati. Savodxon@gmail.com. 2014.
4. O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot. – Т.: 2021.
5. H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Talqin. – Т.: 2005.

⁸ H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Talqin. – Т.: 2005.

⁹ O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot. – Т.: 2021.



Sayyora Samandar ijodiy faoliyati haqida

Ihombayeva Mahliyo

UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti:

o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 223-guruh talabasi

ilhombayevamahliyo@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Sayyora Samandarning hayot yo‘li, ijodiy faoliyati hamda she‘rlarining badiiyati tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: estetik joziba, o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a.

Абстрактный. В статье анализируются жизненный путь Сайёры Самандар, ее творческая деятельность и артистизм ее стихов.

Ключевые слова: эстетическая привлекательность, сравнение, квалификация, преувеличение.

Abstract. The life path of Sayyora Samandar, her creative activity and the artistry of her poems are analyzed in the article.

Key words: aesthetic appeal, simile, qualification, exaggeration.

Har bir ijodkorning ijodini tahlil qilish orqali biz uning o‘y-fikrini, taassurotarini tushunamiz, his qilamiz. Asar yozilish davomida unga ijodkor tomonidan bor mehr va e’tibor qaratiladi. Buni O‘tkir Hoshimov so‘zi bilan aytganda "Haqiqiy asar shunchaki yozilmaydi, balki farzand kabi tug‘iladi".

Bugun mashhur shoiramiz, iste’dodli ijodkorimiz Sayyora Samandar ijodini o‘rganar ekanmiz u bilan birga yashaymiz, u tuygan hissiyotlarni his qilamiz. Iste’dodli shoira, o‘tkir qalam sohibi Sayyora Samandar mashhur yozuvchi va shoirimiz Erkin Samandarning farzandi, davomchisi hisoblanadi. Adiba 1968-yil 6-yanvarda Toshkent shahrida tavallud topgan. Ijodiy faoliyatini boshlash oldidan 1988-yil Xorazm davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tugatadi.

Shoiraning ilk to‘plami "Sizga aytolmagan so‘zlarim" nomi ostida G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida chop etilgan. U ijodining dastlabki davridanoq davrning og‘riqli nuqtalarini qalamga oldi. Sayyora Samandarning aksariyat she‘rlari Vatan, ona tuproq, yurtga sadoqat, muhabbat, ona mavzusida bo‘lib, ularning 30 dan ziyod she‘rlari san‘atkorlar tomonidan ijro etilgan.

Shoiraning " Tog‘lar yorning xo‘rsiniqlari" she‘rini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda ajoyib tabiat tasviri ortiga yashiringan dard, alam, sog‘inch kabi tuyg‘ularni



ko‘rishimiz mumkin:

Tog‘lar-yorning xo‘rsiniqlari,

Ag‘yor bergan iztiroblari.

Dardlar aro otilib chiqqan,

Yuragining inqiliblari.

Viqor bilan boqqan tog‘larda,

Yorning dardli so‘zlarin ko‘rdim.

Va qo‘ysa-da joni-jahoni,

Kulib turgan ko‘zlarin ko‘rdim¹

Yuqoridagi misralarda tasvirlanayotgan tog‘ timsoli shoiraning aslida anglatmoqchi bo‘lgan timsolini ko‘rinmas parda bilan berkitadi. Tog‘ bu- mustahkam iroda, sabr-qanoat, bardosh timsoli. Shoiramiz ham she‘riy misralarida uni jonlantiradi, ya‘ni yorini qanchalik xo‘rsinayotganini, dard bilan to‘lgan yuragini otilib chiqayotganini bilsa-da, o‘zini viqorli, ichi yonsa-da, kulib turganini go‘zal tasvirlaydi. Shoiraning aksariyat she‘rlari Vatan, ota-ona, farzand, tabiat, muhabbat, iztirob, dard mavzularida yozilgan. Bundan tashqari, tarixiy mavzularda "Navoiy g‘azaliga muxammas", "Nodira g‘azaliga muxammas"lar ham bitgan. Ammo kengroq qismini abadiy mavzular tashkil etadi.

Navbatdagi "Shoiralar" she‘rida esa go‘zal o‘xshatishlar, mubolag‘ali so‘zlar va sifatlashlardan ham o‘rinli foydalangan.

Aldamaydi sokin boqqan qarog‘lari,

Dildan o‘zga bo‘lmagaydir so‘rog‘lari.

So‘zdan bo‘lak yo‘qdir boshqa yarog‘lar

Dili yig‘lab, ko‘zi kulgan shoiralar.

Dard cheksa-da bemorlig‘ni xush ko‘rgaydir,

Qirq jonini ming bir ranjga esh ko‘rgaydir.

Halovatni, oromlarni tush ko‘rgaydir,

Dili yig‘lab, ko‘zi kulgan shoiralar.

Shoiralarning ta‘rifini, ularning his-tuyg‘ularini ifodalagan ushbu misralar ham yetuk badiiy mahorat bilan yaratilgan. Undagi har bir so‘z, har bir jumla alohida

¹ Sayyora Samandar. Tog‘lar yorning xo‘rsiniqlari she‘ri

did va mahorat bilan tanlangan va bu unsurlarning har biri alohida mazmun ifodalaydi. Masalan, she'r ichidagi sifatlashlarga nazar tashlasak. Birinchi misradagi sokin boqqan, keyingilarida qirq jon, ming bir ranj birikmalari sifatlash bo'lib kelgan. Bu birikmalar she'rga ajoyib estetik joziba bergan.

Sifatlash-predmetning sifatini ta'sirli, obrazli ifodalash uchun ishlatiladigan so'z. Til nuqtai nazaridan qaralsa, sifatlash hamisha aniqlovchi vazifasida keladi, lekin oddiy aniqlovchidan farqli ravishda, badiiy funksiyani o'taydi²

She'riyatdagi sifatlashlar ifodaning yorqin, tasvirning jonli bo'lishiga xizmat qilib, estetik ta'sir kuchini oshirgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Sayyora Samandar ijodini o'rganish orqali uning she'rlaridagi mazmun, mohiyat va estetik joziba hech bir kishini o'ziga jalb etmay qo'ymaydi. Uning so'z qo'llashdagi mahorati qalblarning tub-tubigacha yetib boradi. Asarlarini o'qigan kishi uning dardi, iztirobi, alam, quvonch, shodligi bilan yashaydi. Qolaversa, adibaning badiiyati, uning uslubi hech bir shaxsda takrorlanmagan holda yashaydi. Kichgina bir tuyg'ularni ham yurakka joylab, o'z o'rniga ega qiladi, bu esa ajoyib bir qobiliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayyora Samandar. Tog'lar yorning xo'rsiniqlari she'ri
2. Hojiyev. A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. B.91

Research Science and Innovation House

². Hojiyev. A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. B.91



Abdulla Oripov ijodida sinonimlarning qo‘llanilishi

Polvannazarova Dilnoza

UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti:

o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 223-guruh talabasi

polvannazarovadilnoza@gmail.com

Kalit so‘zlar: kommunikatsiya, poetik, sinonim, kontekstual sinonim, ketma-ket sinonim, uslubiy va leksik sinonim.

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Oripov she’riyatida sinonim va uning turlarini qo‘llanilishi tahlilga tortilgan.

Ключевые слова: общение, поэтический синоним, контекстуальный синоним, секвенциальный синоним, стилистический и лексический синоним.

Аннотация: В статье анализируется употребление синонимов и их видов в поэзии Абдуллы Орипова.

Key words: communication, poetic synonym, contextual synonym, sequential synonym, stylistic and lexical synonym.

Abstract: The article analyzes the use of synonyms and its types in Abdulla Oripov's poetry.

Til nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki estetik hodisa sifatida ham o‘rganilib kelinmoqda. Tilning estetik-stilistik xususiyatlari badiiy matnda namoyon bo‘ladi. Badiiy matnlarni poetik jihatdan tadqiq etish, estetik qimmatini belgilashda til vositalaridan sinonimlarning o‘rni beqiyos. Shu tufayli tildagi sinonimlarni yaxshi egallash, ulardan to‘g‘ri foydalanish, kishi nutqi uchun kata imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida ular o‘z fikr va idealarining eng nozikholatlarini, o‘z nutqlarining hamma ma’no jilolarini tushunarli va ravshan, ravon va jozibador, shirali va ta’sirchan qilib ifodalash sharafiga muyassar bo‘ladilar.¹

Sinonimlar-talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi bir xil (umumiy) bo‘lgan, qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Ana shunday umumiy (birlashtiruvchi) ma’no bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar gruppasi sinonimik qatorni tashkil etadi. Sinonomik qator ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin:

¹ Abdurahmonov X, Mahmudov N. So‘z estetikasi. – T.: 1981, 6-bet.

gul, chechak; boplamoq, qoyil qilmoq, qoyillatmoq, o‘xshatmoq, o‘rinlatmoq, do‘ndirmoq kabi.²

Abdulla Oripov she’rlarida ko‘zga tashlanib turadigan muhim xususiyatlardan biri shoirning har bir so‘zni qadrlagani, uni o‘z va ko‘chma ma’nolarini topib o‘z o‘rnida qo‘llay olganidir. Shoir sinonimlarni juda mahorat bilan qo‘llay olgan ijodkordir.

Abdulla Oripov she’riyatida grammatik hamda semantik sinonimlar qo‘llangan. Shoir she’riyatida bir sinonimik qatordagi so‘zlarning qo‘llanilishi ko‘p uchraydigan holat holat hisoblanadi. Buni shoirning mashhur “Munojot” deb nomlangan she’ridan olingan parcha orqali isbotlaymiz:

Qani, ayt maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan *bag‘rimni ohang*.
Nechun kerak bo‘ldi senga *ko‘z yoshim*,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha *g‘am*.
Eshilib, to‘lg‘onib, ingranadi kuy,
Qaylardan tug‘ulmish bu *ohu-faryod*
Kim u *yig‘layotgan* Navoiymikin,
Va yo may *kuychisi* Hayyommikin *dod*.
Yetar, ey *cholg‘uvchi*, bas qil *sozingni*,
Bas, yetar *ko‘ksimga* urmagin xanjar.³

Ushbu parchada bir necha uslubiy va leksik sinonimlar mavjud. Xususan, *bag‘rim-* *ko‘ksim*; *ohang-kuy-soz*; *ko‘z yoshi*, *g‘am*, *eshilmoq ingramoq*, *to‘lg‘anmoq*, *yig‘lamoq*, *ohu-faryod*, *dod*, *kuychi*, *cholg‘uvchi* kabi so‘zlar misralarda badiiy bo‘yoqdorlikni oshirish uchun alohida xizmat qilgan.

She’r tarkibida bu kabi sinonim so‘zlarning qo‘llanilishi she’r ma’no kengayishiga, fikrning rang-barangligini ko‘rsatishga, ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Yuzaga chiqarilishi lozim bo‘lgan fikrning ta’sirli, o‘rinli va ma’noli so‘zlarning o‘rni bor.

Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida o‘zaro sinonim bo‘lmagan leksemalarning ma’lum kontekst doirsida (demak nutq) ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi.⁴

² A. Xojiyev. O‘zbek tili sinonimlari izohli lug‘ati. O‘qituvchi. – T.: 1974.

³ A. Oripov. Shoir yuragi. Ma’naviyat. – T.: 2003.

⁴ Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

Lugʻaviy sinonimlarga uzuallik xos boʻlsa, kontekstual sinonimlarda okkozionallik mavjud. Kontekstual sinonimlar ijodkorning ijodiy imkoniyatlari samarasi boʻlib, maʼnolari har xil soʻzlar matn tarkibidagina umumiy semaga ega boʻlib, matndan tashqarida maʼnolari turlichadir. Shu sababdan adabiyotlarda ideografik, stilistik, kontekstual hamda individual – muallif sinonimlari tarzida nomlanadi.⁵ Kontekstual sinonimga misol qilib Omon Matjonning “Xolat” sheʼridan olingan quyidagi parchani koʻrishimiz mumkin:

Bir tum dengizga ham boqqil betuygʻu,
Dema, oʻylarimday u *teran, tengsiz*.
Bir zum baliqlarga vatan boʻlsin u,
Bir zum dengiz boʻlib guvlasin dengiz.⁶

Misradagi *teran, tengsiz* soʻzlari matndan tashqarida alohida-alohida soʻz hisoblanib, sheʼrning ichida esa oʻzaro sinonim holatida kelgan.

Sinonimlarni sheʼrning stiliga xos ruh va ohang bilan tiza borish oʻquvchi diqqatini shu asar voqeasiga musiqiy yoʻl bilan butunlay jalb qiladi. Sinonimning bunday birin-ketin ishlatilishi sheʼrda ifodalanayotgan mazmuni har xil shaklda va turli maʼno nozikligida taʼsirli qilib berishga xizmat qiladi.⁷

Abdulla Oripovning “Quyosh shahri” sheʼrida ham yuqoridagi gapimizning isbotini koʻrishimiz mumkin:

Eng teran chashmadek *tinib, sizilib*,
Asrlar qaʼridan keladi xabar:
Ikki ming yil burun chayla buzilib,
Qoʻrgʻon *barpo boʻldi, yaraldi* shahar.⁸

Ushbu misrada ketma-ket qoʻllangan *tinib, sizilib* hamda *barpo boʻldi, yaraldi* soʻzlari oʻquvchini oʻziga qaratish uchun musiqiylikni taʼminlagan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning maʼnodosh soʻzlar hosil qilishdagi oʻziga xosligi tilimizda, nutqimizda leksemalarni faollashtirishda koʻrinadi. Shuningdek, shoir sheʼrlarida sinonimlar muhim oʻringa ega boʻlib, ular sheʼr uslubi va tilining serqirra, boy va rang-barang boʻlishiga, bir xillik va qaytariqlarning oldini olishga, matnda boshqa soʻzlar bilan mutanosib qoʻllanib, sheʼrning ohangdorligi,

⁵ Muhammadjonova. G. 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlari oʻzbek sheʼriyatining lingvopoetik tadqiqoti. ND. – Andijon, 2003, 38-bet.

⁶ A. Oripov. Tanlangan asarlar. Gʻofur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. – T.: 2000.

⁷ X. Doniyorov, B. Yoʻldoshev. Adabiy til va badiiy stil. Fan. – T.: 1988, 143-bet.

⁸ A. Oripov. Tanlangan asarlar. Gʻofur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. – T.: 2000.

musiqiyiligini ta`minlashga, ma`nodosh so`zlar yonma-yon qo`llanib, belgining kuchayib, ortib borishiga xizmat qilgan. Kontekstual sinonimlar esa shoirning lisoniy imkoniyatlarini, favqulodda yangi poetik oxorga ega badiiy tasvir yaratib, ijodiy kredosini aks ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So`z estetikasi. – T.: 1981
2. A. Xojiyev. O`zbek tili sinonimlari izohli lug`ati. O`qituvchi. – T.: 1974
3. A. Oripov. Shoir yuragi. Ma`naviyat. – T.: 2003
4. Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – T.: 1969.
5. Muhammadjonova. G. 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlari o`zbek she`riyatining lingvopoetik tadqiqoti. ND. – Andijon, 2003.
6. A. Oripov. Tanlangan asarlar. G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. – T.: 2000.
7. X. Doniyorov, B. Yo`ldoshev. Adabiy til va badiiy stil. Fan. – T.: 1988.

Research Science and
Innovation House



IQTISODIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH METOD VA SHAKLLARI

*Yusupov Ulug‘bek Kamalovich Chirchik shahar kasb-hunar maktabi
direktori*

Annotatsiya. Iqtisodiy ta‘lim kasb-hunar maktablarida ham kasbiy, ham umumta‘limiy va ishlab chiqarish fanlari bilan birgalikda tanlangan kasb bo‘yicha amaliy faoliyat uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakaning shakllanishini ta‘min etadi. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifati fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotining hozirgi zamon bosqichi sharoitida ishlab chiqarish mehnatiga kirishgan yosh kichik mutaxassislarning iqtisodiy-kasbiy tayyorgarliga bog‘liq. Bu kasb-hunar maktablari o‘quvchilarida zaruriy kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi iqtisodiy ta‘lim asoslarini chuqur o‘zlashtirishga e‘tiborni kuchaytirishni talab etadi.

Kalit so‘zlar. Iqtisodiy madaniyat, savodxonlik, ta‘lim va tarbiya, kasb hunar maktabi, korxonalar, ishlab chiqarish, foyda va zarar, daromad va buromad.

МЕТОДЫ И ФОРМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ

**Юсупов Улугбек Камалович – директор Чирчикского городского
профессионального училища.**

Абстрактный. Экономическое образование в профессиональных училищах вместе с профессиональным, общеобразовательным и производственно-научным обеспечивает формирование необходимых знаний, умений и компетенций для практической деятельности по избранной профессии. Качество выпускаемой на предприятиях продукции зависит от экономической и профессиональной подготовки молодых специалистов, вступивших в производственную работу в условиях современного этапа развития науки, техники и техники. Это требует повышенного внимания к углубленному освоению основ экономического образования, формирующего у учащихся профессиональных учебных заведений необходимые профессиональные навыки и компетенции.

Ключевые слова. Экономическая культура, грамотность, образование и обучение, профессиональное училище, предпринимательство, производство, прибыли и убытки, доходы и прибыль.

METHODS AND FORMS OF DEVELOPING ECONOMIC LITERACY

Yusupov Ulugbek Kamalovich – director of the Chirchik city vocational school.

Abstract. Economic education in vocational schools, together with vocational, general education and production-scientific education, ensures the formation of the necessary knowledge, skills and competencies for practical activities in the chosen profession. The quality of products manufactured at enterprises depends on the economic and professional training of young specialists who entered production work in the conditions of the current stage of development of science, technology and technology. This requires increased attention to the in-depth development of the fundamentals of economic education, which develops the necessary professional skills and competencies in students of vocational educational institutions.

Key words. Economic culture, literacy, education and training, vocational school, entrepreneurship, manufacturing, profit and loss, income and profit.

Uzluksiz ta'lim tizimini joriy etishning alohida xususiyatlaridan biri ta'limning mustaqil turi sifatida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining kiritilishi hisoblanadi. Bu bozor iqtisodi sharoitida faoliyat ko'rsatadigan malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgandir.

Kasb-hunar ta'limida umumkasbiy bilim asoslarini chuqur o'rgatish orqali o'quvchilarni iqtisodiy faoliyatga tayyorlash va ularda amaliy malakalarni shakllantirish kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi.

Xalq xo'jaligiga raqobatbardosh mutaxassislar yetishtiruvchi kasb-hunar ta'limi muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni, ya'ni bevosita iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan ijodkor kichik mutaxassis (tadbirkor, tijoratchi, texnik-arxitektor, kompyuter-dizayneri, plakatchi-rassom va ratsionalizator-ixtirochi)larni kasbiy tayyorlashda iqtisodiy ta'lim muhim o'rin tutadi.

Zotan, zamonamizning buyuk iqtisodchilari ham o'quvchilik yillarida maktab partasida o'tirib, kasbiy-iqtisodiy faoliyatlarini boshlaganlar.

Mamlakat iqtisodiyotidagi tub o'zgarishlar, uning xom ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarishga o'tayotganligi kasb-hunar ta'limiga butunlay yangi vazifalarni qo'yimoqdaki, ular endi malakali ishchilargina emas, balki har biri bir necha kasbni egallagan iqtisodiy savodxon xodimlarni ham yetkazib berishlari kerak. Iqtisodchi xodim ishlab chiqarish xarakteriga tez



moslashuvchi mutaxassis bo‘lib, u davlat va nodavlat korxonalarida faoliyat ko‘rsatib keta olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Chunonchi yuqori malakali raqobotbardosh iqtisodchi xodimlar tayyorlashda iqtisodiy savodxonlik kursining o‘z o‘rni, ahamiyati bor va va alohida xususiyatlarga ega.

Iqtisodiy ta‘lim kasb-hunar maktablarida ham kasbiy, ham umumta‘limiy ahamiyatga ega. U ishlab chiqarish fanlari bilan birgalikda tanlangan kasb bo‘yicha amaliy faoliyat uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakaning shakllanishini ta‘min etadi. Zero, korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifati fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotining hozirgi zamon bosqichi sharoitida ishlab chiqarish mehnatiga kirishgan yosh kichik mutaxassislarning iqtisodiy-kasbiy tayyorgarliga bog‘liq. Bu kasb-hunar maktablari o‘quvchilarida zaruriy kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi iqtisodiy ta‘lim asoslarini chuqur o‘zlashtirishga e‘tiborni kuchaytirishni talab etadi.

Biz noqitiosodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar maktablari o‘quvchilarining iqtisodiy savodxonligini shakllantirish maqsadida fakultativ mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan maxsus «Iqtisodiy savodxonlik» kursi va uning dasturini ishlab chiqdik. Ushbu dastur umumta‘lim maktablarida o‘qitiladigan «Iqtisodiy bilim asoslari» hamda kasb-hunar maktablari uchun nashr etilgan «Iqtisodiy bilim asoslari» va «Iqtisodiyot asoslari» qo‘llanma va darsliklarining bevosita mantiqiy davomi hisoblanadi.

«Iqsodiy savodxonlik» kursi bo‘yicha bir necha dastur variantlari ishlab chiqilishi mumkin. O‘qituvchi o‘z ta‘lim muassasasida predmet (kurs)ni o‘qitishning aniq shart-sharoitlarini: o‘quv soatlarini, o‘z malakasi darajasini, o‘quvchilarning tayyorgarligi darajasini, ta‘lim muassasasining texnik ta‘minotini, tegishli o‘quv materiallarining mavjudligi va mavjud emasligini hisobga olgan holda dastur variantlaridan birini tanlashi mumkin.

Mavzular bo‘yicha o‘quv vaqtini taqsimlashning taklif etilgan varanti yo‘naltiruvchi xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi dasturning u yoki bu bo‘limiga ko‘proq etibor qaratishi mumkin. Bunda o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qizishi va tayyorgarlik darajasini hisobga oladi. O‘qituvchi o‘z dasturini ishlab chiqishida «Iqtisodiy savodxonlik» kursi mazmunida aks etuvchi asosiy iqtisodiy konsepsiyalar ro‘yxatidan foydalanadi. Iqtisodiy tushunchalarni o‘rganish oddiydan murakkab sari boradi.



«Iqtisodiy savodxonlik» dasturi mashg‘ulot o‘tkazishning faol shakllaridan keng foydalanishga asoslanilgan. Pedagogik tajribalar ko‘rsatadiki, ulardan keng foydalanish o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtiradi. O‘quvchilar olgan iqtisodiy bilimlarini amalda qo‘llash bo‘yicha amaliy malakaga ega bo‘ladilar, boshqa predmetlarni oson o‘zlashtiradi.

O‘quv mashg‘ulotlarida ish o‘yinlari va kompyuter o‘yinlari qoidasini tushuntirish vaqt talab etadi, chunki u olingan natijalarni tahlil etish va talqin qilishda alohida ahamiyatga ega. Dasturga adabiyotlar ro‘yxati ilova qilinadi va ular o‘qituvchilar uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga dastur bo‘yicha ishlash biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq jarayonlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘ladi. Boshqa iqtisodiy fanlar (bank ishi, marketing, menejment, qimmatli qog‘ozlar bilan amallar) ni o‘rganish o‘quv amaliyoti bilan uzviy bog‘liq.

Quyida «Iqtisodiy savodxonlik» kursi o‘quv dasturini keltirib o‘tamiz

«Iqtisodiy savodxonlik» kursi o‘quv dasturi

1-jadval

Mavzular	Mustaqil o‘qish		
	a’ruza	A maliy mashg‘ulot	Mustaqil o‘qish
Iqtisodiy savodxonlik» kursining predmeti va vazifalari			Takrorlash
Iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy va ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati			Takrorlash
Iqtisodiy savodxonlikning tarixiy ildizlari			Iqtisod tarixini o‘rganish
Mustaqillikdan keyin iqtisodiy savodxonlik tushunchasining ma’no va mazmuni, uning shakllanishi va rivojlanishi			A. I. Karimov asarlaridagi iqtisodiy tushunchalar tahlili

	Kasb-hunar ta'limi tizimida iqtisodiy ta'lim-tarbiya va iqtisodiy savodxonlik muammosi			Kasb-hunar maktablari uchun nashr etilgan iqtisodga oid qo'llanmalar bilan tanishish
	Kasbiy-iqtisodiy faoliyat-iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish omili		2	Iqtisodiy faoliyat turlarini o'rganish
	Iqtisodiy tushunchalarni tasniflash bo'yicha intellektual trening		2	Lug'atlarni o'rganish
	Iqtisod va amaliyot» mavzuida bayon yozish, tayanch ma'ruza matnini yoki ish daftarini tayyorlash		2	Uslubiy adabiyotlarni o'rganish
	Iqtisodiy masalalarni yechishda axborot texnologiyalaridan foydalanish		2	Axborot texnologiyalariga oid materiallarni o'rganish
	«Iqtisodiy savodxonlik» intellektual treningi		4	Takrorlash, amaliyotni o'rganish
	«Iqtisod mamlakatiga sayyohat» didaktik o'yini		4	Iqtisodiy bilimlarni takrorlash
	«O'quv firmasi» didaktik o'yini		4	Iqtisodiy bilimlarni takrorlash
	Jami: 44	4	0	2

«Iqtisodiy savodxonlik» kursining yuqorida keltirib o'tilgan dasturi O'zbekiston Respublikasining milliy o'quv dasturi hamda Davlat ta'lim standartlari



bo'yicha malakali kichik mutaxassislar tayyorlash talablariddan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda «Iqtisodiy savodxonlik» kursini o'qitishda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

-bitiruvchilarda real iqtisodiy hayot haqida tassavur hosil qilish.

-jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda iqtisodiyot faninining ahamiyatini tushuntirish, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik, milliy istiqlol g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalash; iqtisodiyotimizning tarixiy-milliy ildizlari bilan tanishtirish;

-o'quvchilarning real iqtisodiy dalillar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, iqtisod fanining metodlari, jahon iqtisodiyoti tizimi, iqtisodiy modellar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;

-o'quvchilarni iqtisodiy savodxonlik tushunchasi, uning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati bilan tanishtirish;

-bo'lajak kichik mutaxassislarni mustaqil iqtisodiy ta'lim olish va mushohada yuritish usullari bilan qurollantirish;

-iqtisodiy munosabatlar, kasbiy-iqtisodiy faoliyat bo'yicha, iqtisodiy qonun va qarorlarni hayotda qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

-o'quvchilarni iqtisodiy tushunchalar, qonun-qoidalar, iqtisodiy hodisa va voqealar mazmunini tahlil qilishga o'rgatish;

-real hayotdagi iqtisodiy hodisalarni kuzatish va ularning sabablarini tushuntirish, shuningdek, darslik va qo'llanmalardan tashqari, yana qo'shimcha iqtisodiy adabiyotlar, davriy nashrlar, ma'lumotnomalar, lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

-matematik-hisob kitob ishlariga, iqtisodiy masalalarni yechishga o'rgatish, kasbiy-iqtisodiy faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini rivojlantirish;

-o'quvchilarning iqtisodiy fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, iqtisod fanini o'qitishni amaliyot bilan, yangi demokratik jamiyat qurish bilan uzviy bog'lash o'quvchilarni ongli ravishda kasbiy o'z-o'zini belgilashga o'rgatish va o'quv motivlarini shakllantirish;

-o'quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish.

«Iqtisodiy savodxonlik» o'quv kursi bo'yicha o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablar dasturga kiritilgan har bir mavzu bo'yicha mustaqil fikr

yuritish va amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi. Bo‘lajak kichik mutaxassislar darslik va o‘quv qo‘llanmalarni va

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va quyida keltirib o‘tiladigan uslubiy xarta iqtisodiy savodxonlik mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonini, mashg‘ulotlarda o‘qituvchi va o‘quvchi ishining ketma-ketligini, iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish bo‘yicha amalda qo‘llanilayotgan metodlar va o‘qitish vositalarining mohiyatini ochib beradi.

Albatta, noiqsodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar maktablari o‘quvchilarining iqtisodiy savodxonligini shakllantirish maqsadida «Iqtisodiy savodxonlik» kursini o‘rganishning uslubiy xaritasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq (jadvallarga qarang).

«Iqtisodiy savodxonlik» kursini o‘rganishning uslubiy xaritasi (noiqsodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar maktablari o‘quvchilarining iqtisodiy savodxonligini shakllantirish misolida)

2-jadval

O‘rganiladigan mavzular	Ta’lim maqsadi	Motivatsion asos	O‘qitish metodlari
2. «Iqtisodiy savodxonlik» kursining maqsad va vazifalari	O‘quvchilarga «Iqtisodiy savodxonlik» kursining maqsad va vazifalari haqida tushuncha berish, iqtisodiy savodxonlikning ahamiyatini tushuntirish	Ilgari o‘zlashtirilgan iqtisodiy tushunchalar mustahkamlanadi, o‘quvchilarda iqtisodiy savodxonlik oshiriladi	Suhbat, hikoya, ma’ruza bayon yozish, raqamlarni daftarga yozib, tahlil etish
2. Iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy va	Iqtisodiy savodxonlikning jamiyat taraqqiyoti va mamlakatning rivojlanishidagi	O‘quvchilarning iqtisodiy tasavvurlari va dunyoqarashi	Plakatlar, ko‘rgazmali materiallar, videolavhalar,

ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati	ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini tushuntirish	kengayadi, iqtisodiy tafakkuri rivojlanadi	suhbat, munozara ma'ruza
2. Iqtisodiy savodxonlikning tarixiy ildizlari	Iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning tarixiy ildizlari, buyuk allomalarimizning iqtisodiy qarashlari bilan tanishtirish, savdo-sotiq, tijorat, buyuk ipak yo'li, islomda iqtisodiy tarbiya tushunchalarini tarixiy nuqtai nazardan tushuntirish	Iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga oid tarixiy meroslar, iqtisodiy voqea va jarayonlar, ular orasidagi bog'liqliklar, iqtisodiy qarashlar o'rganiladi, o'rganilgan iqtisodiy tushunchalar yanada mustahkamlanadi	Muammol i suhbat, hikoya, tarixiy manbalar bilan tanishish
2. Mustaqillikdan keyin iqtisodiy savodxonlik tushunchasining ma'no va mazmuni, uning shakllanishi va rivojlanishi	O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning tarixiy shart-sharoitlari va bosqichlarini o'rganish – iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish omili	Iqtisodiy tizimlarni taqqoslash metodi o'rganilayotgan o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirish va tushunishga, o'zlashtirishni osonlashtirish va xotirada saqlab qolishga imkon beradi	Videolavhalar ko'rsatish va muhokama etish, suhbat, tushuntirish, tahlil
2. Kasb-hunar ta'limi tizimida iqtisodiy ta'lim-tarbiya va iqtisodiy savodxonlik muammosi	Kasbiy faoliyatda iqtisodiy savodxonlikning ahamiyatini tushuntirish,	Kasbiy-iqtisodiy ta'lim haqida tushuncha beriladi, o'quvchilarga o'z ijodiy qobiliyatini	Muammol i suhbat, doska, plakatlar-namoyishli usul



	o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish	namoyon etishga, mustaqil fikrlashga, xulosalar chiqarishga imkon beriladi.	
6. Kasbiy-iqtisodiy faoliyat–iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish omili	Kasbiy-iqtisodiy faoliyatning nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish, bo‘lajak kichik mutaxassisning kelgusidagi kasbiy faoliyatdagi iqtisodiy amallar va vaziyatlarni o‘rganish	O‘quvchilar kasbiy-iqtisodiy, amaliy faoliyatga o‘rgatiladi	Ish uyinlari, rolli o‘yinlar, amaliyot
7. Iqtisodiy tushunchalarni tasniflash bo‘yicha intellektual trening	Iqtisodiy tushunchalarni ixtisoslik bo‘yicha guruhlariga ajratish, tasniflash, ularning amaliy ahamiyatini tushuntirish	O‘quvchilarning ilgari o‘zlashtirgan iqtisodiy bilimi va tushunchalari mustahkamlanadi	Topshiriqlar, mashqlar, amaliyot
8. «Iqtisod va amaliyot» mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya	Ma’ruza matnlarini mustaqil yozishga, adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish, mustaqil bilim olishga o‘rgatish	O‘quvchilarda mustaqil bilim olish bo‘yicha ko‘nikma va malakalar shakllanadi	Mustaqil ta’lim olish, ma’ruza, bayon yozish, tayanch ma’ruza matnini yoki ish daftarini tayyorlash



<p>9. Iqtisodiy masalalarni yechishda axborot texnologiyalaridan foydalanish</p>	<p>Iqtisodiy bilim olishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish – iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish omil ekanini tushuntirish</p>	<p>Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, iqtisodiy bilim olish bo'yicha amaliy malaka shakllanadi</p>	<p>Kompyuterdan foydalanib iqtisodiy masalalar yechiladi, iqtisodiy mashq va topshiriqlar bajariladi</p>
<p>10. «Iqtisodiy savodxonlik» intellektual treningi</p>	<p>O'quvchilarning iqtisodiy jarayonlar va bu jarayonlarda kuzatiladigan o'zaro bog'liqliklar, iqtisodiy tushunchalar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish</p>	<p>O'quvchining fanga bo'lgan qiziqishi ortadi, iqtisodiy savodxonligi rivojlanadi, u muammoni oldindan ko'ra bilishga va uni hal etish uchun mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadi, unda amaliy-kasbiy ko'nikmalar rivojlanadi.</p>	<p>Intellektual trening, amaliyot</p>
<p>11. «Iqtisod mamlakatiga sayyohat» didaktik o'yini</p>	<p>O'quvchilarning bank ishi, tadbirkorlik, boshqaruv faoliyati mavzularini o'rganish natijasida olgan bilimlarini tizimlashtirish va umumlashtirish.</p>	<p>O'quvchilarning iqtisodiy bilimlari ortadi, ular kasbiy-amaliy kunikmalar shakllanadi</p>	<p>Ish o'yini, rolli o'yin, amaliyot</p>



<p>12. «O‘quv firmasi» didaktik o‘yini</p>	<p>Real tijorat firmasi faoliyatiga taqlid qilgan holda ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarni ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash, ularda shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish</p>	<p>Kasbiy sifatlar (muloqotga kirishuvchanlik, komandada ishlash uquvi, ish vaqtini rejalashtirish, ishni tashkil eta bilish, axborotlardan foydalana olish, ziddiyatli vaziyatlardan chiqib keta bilish) va shaxsiy sifatlar (mas’uliyat, moslashuvchanlik, mulohazakorlik, bag‘ri kenglik, dadillik) shakllanadi, kasbiy faoliyatga tayyorlanadi.</p>	<p>O‘quv amaliyoti mashg‘uloti</p>
--	---	---	------------------------------------

«Iqtisodiy savodxonlikning tarixiy ildizlari» mavzuida

yoza ravishda amalga oshiriladigan savol-javob mashg‘ulotining texnologik xaritasi

3-jadval

<p>Ishning bosqichlari va mazmuni</p>	<p>Faoliyat</p>	
	<p>Ta’lim beruvchiliki</p>	<p>Ta’lim oluvchiliki</p>



<p>I-bosqich. Tayyorgarlik.</p>	<p>O‘quv mashg‘ulotining maqsad va natijalarini shakllantiradi, uni baholash mezonlarini belgilaydi.</p> <p>Kerakli o‘quv materiallarini tayyorlaydi. Guruhlar tarkibi belgilaydi.</p> <p>Mashg‘ulot boshlanishidan oldin, stollar guruhlarining ishlashi uchun qulay tarzda o‘rnatilishini ta‘minlaydi.</p>	<p>Guruhlarda ishlash uchun auditoriyani tayyorlaydilar.</p>
<p>II-bosqich. Kirish.</p>	<p>O‘quv mashg‘ulotini o‘tkazish qoidalari, ishning maqsadlari va baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Ta‘lim oluvchilarni 2-3 ta guruhga bo‘ladi. Auditoriya bo‘ylab savollar yozilgan konvertlarni tarqatish tartibini belgilaydi va ko‘rsatadi. Konvertlarni tarqatish bo‘yicha mashq ishlarini amalga oshiradi. Javoblarni tayyorlash va yozish uchun vaqtni belgilaydi.</p> <p>Ta‘lim oluvchilar vazifani tushunganliklariga iqror bo‘lish uchun, mavzuni o‘rganish paytida, ular qaysi savollarga javob olmaganlari to‘g‘risida so‘raydi.</p> <p>Har bir qatnashchidan o‘zi uchun eng muhim bo‘lgan bitta savolni ifoda qilishni taklif qiladi.</p>	<p>Ishni bajarishga kirishishadi.</p>
<p>III-bosqich. Ishni bajarish</p>	<p>Ta‘lim oluvchilar vazifani tushunganliklariga iqror bo‘lish uchun, mavzuni o‘rganish paytida, ular qaysi savollarga javob olmaganlari to‘g‘risida so‘raydi.</p> <p>Har bir qatnashchidan o‘zi uchun eng muhim bo‘lgan bitta savolni ifoda qilishni taklif qiladi.</p>	<p>Ta‘lim oluvchilar savollar beradilar va ularga javob beradilar.</p>



<p>IV-bosqich. Ishni bajarish.</p>	<p>Bironta ta'lim oluvchidan, o'zining ana shu savolini aytishni, boshqalardan esa, unga javob berishni taklif qiladi. Bir nechta javoblarni eshitganidan so'ng, zarurati bo'lsa, savol va javoblarni to'ldiradi. Ta'lim oluvchilar vazifani tushunganliklariga ishonch hosil qilgandan so'ng, ishni boshlashga ruxsat beradi.</p> <p>Ishni koordinatsiya qiladi, fikr–mulohazalar bildiradi, sharhlaydi. Tahliliy xarakterdagi savollarni beradi.</p> <p>Savollarga javob beradi. Bahslarni boshqaradi. Zarurati bo'lganda ta'lim oluvchilarga yoki butun guruhga yordam beradi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Konvertlarda o'zlarining belgisini chizadi; • savollarni yozadilar; • konvertni chap tomondagi qo'shnisiga uzatadi; • o'ng tomondagi qo'shnisidan konvertni oladi, javobni varaqqa yozadi, uni konvertga solib, chap tomondagi qo'shnisiga uzatadi.
<p>V-bosqich. Ishni tugallash.</p>	<p>Hamma qatnashchilar ichida javoblar yozilgan o'zining konvertini olganidan so'ng, ishni tugatishlarini so'raydi. Konvertni</p>	<p>Javoblar bilan tanishadilar. +o'yilgan savollarga berilgan</p>



<p>Guruhlarda ishga yakun yasash, tahlil qilish, baholash.</p> <p>VI-bosqich. Natijalarni tahlil qilish, baholash, yakun yasash.</p>	<p>ochib, ichidagi javoblar bilan tanishishni so‘raydi.</p> <p>Guruhning umumiy ishini baholaydi. Ta’lim oluvchilar tomonidan qanday savollar berilganini tahlil qiladi va o‘zi uchun, ushbu mavzuni o‘qitish texnologiyasiga qanday o‘zgartirishlar kiritilishi lozimligi to‘g‘risida xulosalar chiqaradi.</p> <p>O‘quvchilar bilimini «mashg‘ulotda faol ishtirok etdi, savollarga to‘g‘ri javob berdi» yoki mashg‘ulotda faol ishtirok etmadi, savollarga to‘g‘ri javob bermadi» mezoni asosida baholaydi</p>	<p>javoblar ularni qanchalik qoniqtirganligi aniqlaydilar. Guruh oldida o‘z savollarini o‘qiydilar, unga o‘rtoqlari taklif qilgan variantlardan umumlashtirilgan javob beradilar.</p> <p>Guruhlar vakillari savollar va javoblarni yig‘ib oladilar, umumlashtiradilar. Umumlashtirilgan xulosani barchaga e‘lon qiladilar.</p>
--	--	--

«Iqtisodiy savodxonlik» dasturini ishlab chiqish sabablarini quyidagicha asoslash mumkin:

Endi quyida «Iqtisodiy savodxonlik» kursi mavzularidan birini o‘rganishning texnologik xaritasini keltirib o‘tamiz. Mavzu yozma ravishda savol-javob asosida o‘tkaziladi.

1. Dasturni ishlab chiqish uchun kasb-hunar maktablari uchun yaratilgan zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalardan, shuningdek xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan adabiyotlardan foydalaniladi.



2. Dastur bo'yicha ishlash hozirgi zamon statistik ma'lumotlar va iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanishni, joriy iqtisodiy voqea va hodisalarni tahlil etishni taqozo qiladi.

3. Dastur bo'yicha ishlash zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, proyektorlar va videotexnikalar, telekommunikatsiyaning yangi vositalari, Internet tarmog'i, multimedia dasturlari va maxsus dasturiy vositalar) dan foydalanishni nazarda tutadi.

4. O'qitishning zamonaviy metodlari (rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, kompyuterda modellashtirish va boshqalar) va bilimlar monitoringining zamonaviy metodlari (berilgan topshiriqlarni bajarish natijasini test orqali tekshirib ko'rish va natijalarni kompyuterda qayta ishlash, iqtisodiy diktantlar, iqtisodiy masalalar yechish, referatlar yozish, esse, o'yin jarayonida mustaqil qabul qilingan boshqaruv qarorlarini baholash va boshqalar) dan keng foydalanilgan holda dastur bilan ishlash katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.

2.2021-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Янги Ўзбекистон strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil Farmoni.

3. Matematika soxasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

4. Boboqulov S. Iqtisod: ta'lim, savodxonlik, shaxs. // J. Kasb-hunar ta'limi. - 2004. -№6. -B. 24.

5. Boboqulov S. O'qitishda iyun texnologiyalaridan foydalanish. //J. Kasb-hunar ta'limi. -2002. №3. -B. 14-15.

6. Boboqulov S. «Iqtisodiy savodxonlik» treningi. //J. «Kasb-hunar ta'limi» jurn. -2006. -№3. -B. 15-16.

7. Boboqulov S. Iqtisodiyot darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish. //J. «Kasb-hunar ta'limi» jurn. -2006. -№4. -B. 7-8.



8.Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5 ISSN: 2754-6705

9..Djumayeva M.M. Ta’limni takomillashtirish mexanizmlari. Pedagogik innovasiyalar va yukori samaradorlikka yetak-lovchi ta’limiy goyalar mavzusidagi Respublika Onlayn ilmiy -amaliy kon-ferensiyasi Surxondaryo viloyat XTKT va ularning MOXM (2020 yil 15 may) 152-154



Research Science and
Innovation House



**O‘QUV IJODIY FAOLIYAT JARAYONIDA KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI
IMKONIYATLARI**

Teshabayev A.G. Andijon davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda, birinchidan, o‘ziga xos gumanitar informatika fanining jadal rivojlanishi haqida gapirish mumkin; filologik, psixologik, pedagogik, tarixiy va boshqalar; ikkinchidan, umumiy informatika rivojlanishini ikki yo‘nalishga ajratish haqida: texnik, kompyuter texnologiyalari rivojlanishi bilan bog‘liq va gumanitar, inson va kompyuterning o‘zaro ta’siri muammolarini o‘rganish, axborot texnologiyalarini insoniyat jamiyati hayotiga kiritish va ularning gumanitar sohada qo‘llanilishi.

Kalit so‘zlar: kompyuter, axborot, texnologiya, filolgiya, til va jamiyat, gumanitar yshnalishlar, mohiyat va mazmun, amaliyot.

**ВОЗМОЖНОСТИ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ УЧЕБНОЙ
ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**Тешабаев А.Г. Преподаватель Андижанского государственного института
иностраннных языков**

Аннотасия. В настоящее время, во-первых, можно говорить о бурном развитии своеобразной гуманитарной информатики; филологические, психологические, педагогические, исторические и др.; во-вторых, о разделении развития общей информатики на два направления: техническое, связанное с развитием компьютерных технологий, и гуманитарное, изучающее проблемы взаимодействия человека и компьютера, внедрения информационных технологий в жизнь человеческого общества и применения их в гуманитарной сфере.

Ключевые слова: компьютер, информатика, технологии, филология, язык и общество, гуманитарные науки, сущность и содержание, практика.

**POSSIBILITIES OF THE THEORETICAL BASIS OF USING COMPUTER
TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL CREATIVE
ACTIVITY**

Teshabayev A.G. Teacher of Andijan State Institute of Foreign Languages

Annotation: At present, firstly, one can talk about the rapid development of a kind of humanitarian informatics science; philological, psychological, pedagogical,

historical, etc.; secondly, about dividing the development of general informatics into two directions: technical, related to the development of computer technologies, and humanitarian, studying the problems of human-computer interaction, introducing information technologies into the life of human society and their application in the humanitarian sphere.

Key words: computer, information, technology, philology, language and society, humanities, essence and content, practice.

Ta'lim texnologiyasining juda muhim didaktik elementi o'quvchilar o'quv faoliyatining qurollaridir. Ularning asosiy funksiyalari o'quvchilar ishining samaradorligini oshirish va ular qobiliyatlarining darajasidagi farqlar ta'sirini pasaytirishdir.

Ta'lim texnologiyalarini tavsiflashning turli tizimlari mavjud. Xronologik jihatdan ularning birinchisi V.P.Bespalkoga oiddir. Tasniflash uchun asos sifatida bilish faoliyatini tashkil etilishi va boshqarish tipi qabul qilingan. Bu muammo texnologiyalarning sakkiz turini ko'rsatgan:

- 1) an'anaviy ma'ruzali o'qitish (boshqaruv – yoyilgan, orasi ochiq, individual, verbal);
- 2) audio-vizual texnik vositalar yordamida o'qitish (yoyilgan, individual, verbal);
- 3) “maslahatli” tizimi (yoyilgan, individual, verbal);
- 4) o'quv kitobi yordamida o'qitish (yoyilgan, individual, o'quv vositalari yordamida);
- 5) “kichik guruhlar tizimi (siklik, frontal, verbal) – guruhli, tabaqalangan (differensiallangan) o'qitish usullari;
- 6) kompyuterli o'qitish (siklik, frontal, avtomatlashtirilgan);
- 7) “repetitor” tizimi (siklik, individual, verbal) – individual o'qitish;
- 8) “dasturli o'qitish” (siklik, individual, avtomatlashtirilgan), buning uchun oldindan tuzilgan dastur mavjud bo'ladi.

Bu tizim pedagogikada shaxsiyatli-oriyentirlangan ta'lim paradigmasi hali yo'q bo'lgan vaqtda yaratilganligi tufayli hozirgi vaqtda V.V.Guzeyev fikricha bu nazariyada fanlararo tizimlilik belgilari yetishmaydi.

Ta'lim texnologiyalari sohasidagi ulkan hajmli axborotni G.K.Selevko tizimlashtirdi va umumlashtirdi. U hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini

tasniflash uchun bir qator asslarni taklif etdi. U quyidagi sinflarni ajratdi:

- *qo‘llanish darajasi bo‘yicha* – umumpedagogik, xususiy-metodik va lokal (modulli) texnologiyalar;
- *falsafiy asosi bo‘yicha* – materialistik va idealistik, dialektik va metafizik, ilmiy va diniy, gumanistik va antigumanistik, antroposof va teosof, pragmatik va ekzistensialistik, erkin tarbiyalash va majburlash va h.k. texnologiyalar;
- *psixik rivojlanishning yetakchi omili bo‘yicha* – biogen, sosiogen, psixogen va idealistik texnologiyalar;
- *tajribani o‘zlashtirish ilmiy konsepsiyasi bo‘yicha* – assosiativ-reflektorli, bixevioristik texnologiyalar, geshtalt texnologiyalar, interiorizator, rivojlantiruvchi texnologiyalar;
- *shaxsiyat strukturalariga oriyentasiya bo‘yicha* – axborot texnologiyalari (xotira aqliy malakalari – XAM ni shakllantirish), operasion (aqliy amallar usullarini – AMUni shakllantirish), emosional-badiiy va emosional-ma’naviy (shaxsning estetik va ma’naviy sferalari – EMS ni shakllantirish) texnologiyalar, o‘zini o‘zi rivojlantirish, evristik va amaliy (harakatli-amaliy sferani shakllantirish) texnologiyalar;
- *mazmuni va strukturasining xarakteri bo‘yicha* – o‘qituvchi va tarbiyalovchi, dunyoviy va diniy, umumta’limiy va kasbiy-yo‘naltirilgan, gumanitar va texnokratik, xususiy predmetli texnologiyalar, turli tarmoqlar texnologiyalari, va, shuningdek, kompleks (politeknologiyalar) va monotexnologiyalar va singdiruvchi texnologiyalar.
- *bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish tipi bo‘yicha*. Bu haqda yuqorida bayon qilindi;
- *bolaga yondoshuv bo‘yicha* – avtoritar, didaktomarkazlashgan, shaxsiyatli oriyentirlangan, gumanistik-shaxsiyatli texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari, erkin tarbiya texnologiyalari, ezoterik texnologiyalar;
- *o‘qitish usullari, metodlari va vositalari bo‘yicha* – dogmatik, reproduktiv, tushuntirishli-iilyustrasiyalı texnologiyalar, dasturli o‘qitish, rivojlantiruvchi o‘qitish, o‘zini-o‘zi o‘qitadigan, dialogik, kommunikativ, o‘yinli, ijodiy va h.k. texnologiyalar;
- *o‘qiydiganlar kategoriyalari bo‘yicha* – ommaviy maktab doirasida o‘rtachalashtirilgan o‘quvchiga mo‘ljallangan ommaviy maktab texnologiyasi,



tezlashtirilgan daraja texnologiyalari, kompensasiyalovchi o‘qitish texnologiyalari, turli viktimologik texnologiyalar, qiyin va iqtidorli bolalar bilan ishlash texnologiyalari;

· *modernizasiyalar va modifikasiyalar darajalari bo‘yicha* – pedagogik munosabatlarni gumanitarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi, o‘quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish asosidagi, o‘quv materialini metodik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosida texnologiyalar, tabiatga moslangan texnologiyalar, alternativ, kompleks politexnologiyalar.

O‘.Tolipov samarali pedagogik texnologiyalarning uch guruhini ajratadi: tadqiqot texnologiyalari, konstruksiyalash texnologiyalari va o‘zaro ta’sirlashuv texnologiyalari.

Tadqiqot texnologiyalari pedagogning o‘z o‘quvchilari haqida, ularning motivlari, qobiliyatlari, munosabatlari tizimi haqidagi bilimlarining to‘planishiga (axborot jamg‘armasi) yordam beradi. Konstruksiyalash texnologiyalari o‘quv jarayonini, o‘quv predmetini, o‘quv axborotining konstruksiyanishini o‘z ichiga oladi. O‘zarota’sirlashuv texnologiyalari o‘qituvchilar va o‘quvchilar orasida pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni o‘rnatish, faol va samarali bilish faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan.

J.Tolipova o‘zining ta’lim texnologiyalari tizimini yarata boshladi. Uning asarida didaktikaning odatiy atamalar apparati va ta’lim texnologiyasining tili orasida moslik o‘rnatishga harakat qilingan.

Metodologik, pedagogik, ilmiy-metodik va psixologik adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, ijodiy natijalarning juda katta qismi ushbu to‘rtta bosh g‘oya asosidagi texnologiyalardan foydalanilib hosil qilingan.

1. Didaktik birliklarni yiriklashtirish. Uning asosida yaxlit-blokli va modulli texnologiyalar ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

2. O‘qitish natijalarini rejalashtirish. Bu g‘oya asosida maqsadlarni qo‘yish va tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyalari ishlab chiqiladi.

3. Ta’lim jarayonini psixologiklashtirish, ya’ni o‘quv jarayonini psixologik o‘zlashtirish nazariyalari asosida qurish.

4. Kompyuterlashtirish – u o‘qitish va ta’lim jarayonini boshqarishni kompyuterli qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Ta'lim jarayoniga texnologiyalarni qo'llash darajasini ko'plab mualliflar turlicha: aniq fanni o'qitish samaradorligini oshirishdan tortib murakkablashib borayotgan ta'lim tizimini tarbiyalashgacha, uni standartlash va unifikasiyalashgacha bo'lgan darajalarda ko'rishadi .

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashga undovchi bir qator sabablar mavjud. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pedagogikaga tizimli-pedagogik yondoshuv joriy etish, maktabda va oliy o'quv yurtida o'qitish usullarini tizimlashtirish zaruratining yetilib pishganligi;
- ta'lim tiizimining barcha bo'g'inlarida shaxsiyatli-oriyentirlangan o'qitishni amalga oshirish ehtiyoji, bilimlarni kam samarali verbal uzatish usulini almashtirish;
- o'quvchilar va o'qituvchilar o'zarota'sirlashuvining o'qitishda kafolatlangan natijalarni ta'minlovchi ... va past malakali o'qituvchi ishining negativ oqibatlarini pasaytiruvchi proseduralari, metodlari, tashkiliy shakllarining texnologik zanjirini ekspertli loyihalash imkoniyati .

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limida o'quvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi o'quv jarayoni bosqichidagi komponenti ta'lim standartida ko'rsatilgan .

Pedagogik mehnatning subyektiv tomoni o'qituvchining kasbiy vazifalarni bajarishi uchun zarur bo'ladigan faoliyatli-rolli xarakteristikalar va subyektiv-faoliyat sifatlarida o'z ifodasini topadi. Bu, eng avvalo, quyidagilardan iborat:

– kasbiy bilimlar – pedagog mehnatining hamma tomonlari haqidagi obyektiv zaruriy va amaliyot tomondan talab etiladigan umumiy va kasbiy komponentlarning qo'shilishidan hosil bo'ladigan ma'lumotlardir. Ular pedagogik mehnat natijalariga erishishning tanlangan modeli, algoritmi va texnologiyasini amalga oshirish bilan kasbiy uquv, malakalar, o'ziga xos psixologik sifatlar, kasbiy pozisiyalarni tarbiyalash uchun asos bo'ladi;

– kasbiy uquv va malakalar – pedagogning ta'limiy jarayonda o'z majburiyatlari va vazifalarini amalga oshirish uchun qo'llaydigan ishlari va uslublari. Ular pedagogik mehnat texnologiyasi yaxlit tizimining va boshlang'ich elementlari bo'ladi;

– o'ziga xos pedagogik xususiyatlar (sifatlar) o'qituvchi psixikasining barcha komponentlari – jarayonlar, xossalar, tuzilmalar, holatlar shakllanganligini ifodalaydi;



– pedagogning kasbiy pozisiyasi – bu uning turg‘un ustanovka va yo‘nalishi; ichki va atrofdagi tajribaning, reallik va istiqbolning munosabatlari, baholari, shuningdek, kasbiy faoliyatda amalga oshiriladigan (amalga oshirilmaydigan, qisman amalga oshiriladigan) xususiy intilishlaridir. Ular o‘z ichiga umumijtimoiy va kasbiy aspektlarni oladi.

Pedagog mehnatining bu ko‘rsatib o‘tilgan xarakteristikallari kollej o‘quvchilari fanlardan egallashi lozim bo‘lgan bilimga oid davlat standartlari qo‘yadigan talab bilan to‘ldiriladi.

Kasb-hunar kollejlarda amalga oshiriladigan amaliyot, o‘quv dasturlari, birinchi navbatda, talabalarda kasbiy muhim uquvlar, malakalar va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga emas, balki ularni psixologo-pedagogik bilimlar majmui bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan texnologiya bilan nazariy tayyorgarlikning yetarlicha (yaxshi) darajasiga ega bo‘lgan, biroq olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashda ancha qiyinchililarga duch keladigan kichik mutaxassislariga ega bo‘ladilar.

Mustaqil tayyorgarlik va dars tayyorlash mazmuniga o‘quv va kasbiy faoliyatni psixologik va didaktik asoslangan yaqinlashtirish o‘quvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasiga ta’sir ko‘rsatadi, bunda nazariy bilimlar mutaxassis uchun dolzarb amaliy masalalar va ishlarni hal qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat ta’lim standarti (DTS), dastur va adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, kasb-hunar kolleji o‘quvchilari ijodiy faolligini oshirish mazmunidan ushbu komponentlar o‘rin olishi lozim: o‘qitish maqsadlari va vazifalarini qo‘yish, o‘quv materialini mazmunini tanlash, o‘qitish vositalari, metodlari va shakllaridan foydalanishni loyihalash, metodik talabning didaktik o‘zaro ta’siri, oraliq va oxirgi teskari aloqa uquv va malakalarni o‘qitish shuningdek, o‘z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya uquvlariga o‘rgatish o‘quvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari o‘qitish texnologiyasiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchini bir holatdan boshqa holatga o‘tkazish lozim bo‘lganda har doim yuzaga keladigan ko‘plab pedagogik masalalarni hal etish jarayoni sifatida qaraladi: uni ma’lum bilimga jalb qilish, uquv va malakalar tizimini boshqa tizimga o‘tkazish. Bu ko‘plab yechimlarni talab etadi va kerakli natijaga erishishning afzalroq usulini topishni talab qiladi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi mazmunini o‘quv faoliyatiga



qiziqishlari va tashkil etishlarini uyg‘otish uchun bu vazifalarni ma’lum ketma-ketlikdagi masalalar tizimi tiliga o‘tkazishdan iborat.

Bularning hammasi o‘quvchilarning xususiy bilimlari va uquvlarini integrasiyalashni talab etadi. Jumladan, o‘quv mashg‘ulotini loyihalash va o‘tkazish uchun faqat fanning mazmunini bilishgina emas, balki bilimlarni tashkil etishning turli usullarini egallaganlik, ularni hal etilayotgan o‘quv vazifasiga muvofiq shaklini tanlay bilish, o‘quvchilarning bilish faolliklarini uyg‘otish va ushlab turish, mashg‘ulotlarning borishini tahlil qilish va ular natijalarini baholashni bilish lozim. Har bir mashg‘ulotni o‘tkazish pedagogning fanga doir, pedagogik, psixologik, umummadaniy, fiziologik bilim va uquvlarini integrasiyalashuvini (sintezlashni) talab etadi. Ta’lim mazmunini fanga oid strukturalashda afsuski, ko‘pincha, kerakli integrasiyalashuv ro‘y bermaydi.

Bu vazifa o‘quvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirish texnologiyasi pedagogik amaliyotni o‘tish jarayonida ham bo‘sh hal etiladi. O‘quvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi ishlab chiqarish amaliyotini o‘tganlaridan so‘ng ular qiziqishi bo‘yicha bo‘yicha o‘tkazilgan psixologik test yoki anketa so‘rovining ko‘rsatishicha, ijodiy faoliyatni yuqori (ijodiy) darajada amalga oshirishga qodirdirlar; o‘quvchilarning yarmidan ko‘pi bu faoliyatni o‘rtachadan past darajada (tanqidiy) o‘tkazishga erishadi.

Ishlab chiqarish amaliyotining tashkil etilishi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quvchilar faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi vazifalari va uning faoliyat turlari ochib berilmaydi, o‘qitish va tarbiyalash jarayoni jadal harakatini ta’minlaydigan didaktik qarorlarning meyoriy xarakteristikalari belgilanmaydi.

O‘quvchilarning jodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi fan dasturlarida e’tiborni nazariy tayyorlashdan amaliy tayyorgarlikka ko‘chirilishida ko‘rish mumkin. Kollej davridayoq nazariy bilimlarni jiddiy amaliy faoliyat bilan mustahkamlash zarur.

Ikkinchi tomondan, o‘quvchilarda nazariy bilimlar, uquvlarni, aniq masalalarni hal etish vositasi sifatida qo‘llash tajribasi yo‘qligi ularning tayyorgarlik sifatlarining pasayishiga, o‘z faoliyatidan qoniqmaslikka, o‘zini takomillashtirish, o‘qishni rivojlantirishga intilishning bo‘lmasligiga olib keladi. Natijada oliy o‘quv yurti faoliyatga tayyorlangan emas, balki uni o‘zlashtirishdagina tayyorlangan bitiruvchiga ega bo‘ladi.



Demak, o‘qituvchi amaliy faoliyat tajribasi, o‘quvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning psixologik texnologiyasini bilishlari va uquvlarni integrasiyalash usuli bilan egallashi, bilimdon va ijodiy ishlaydigan, mavjud sharoitlarni, har tomonlama baholashni nazarda tutadigan qarorlar qabul qilishga o‘rgatish, ilmiy bilimlarni translyasiyalash va pedagogik metodlar tizimiga kiritish uchun tahlil qilish, shuningdek, o‘quvchilarni bilan kommunikasiya usullariga o‘rgatish chog‘ida o‘zlashtirilishi lozim. Aytilgan fikrlarga asosan, ko‘rsatilgan vazifani hal etish uchun o‘qitish texnologiyasiga tayyorlash uchun uni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu xulosa shu bilan asoslanadiki, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladigan kasbiy-faoliyatning shakllari, metodlari va vositalari, fanga oid va ijtimoiy mazmunining butun tizimini izchil modellashtirishda, ya’ni o‘quv faoliyatidan kasbiy faoliyatga o‘tishda yuqoridagi kamchiliklar bartaraf etiladi. Birinchi navbatda, kolleжда yaxlit ta’lim jarayonini loyihalash, konstruksiyalash va amalga oshirish uquv va malakalarni talablari yaratiladigan va amaliyotda yoki bitiruv malaka ishini bajarish doirasida tarbiyalashni nazarda tutmog‘i lozim.

O‘quvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning didaktik sharoitlari va texnologiyasi strukturaviy komponentlarini, uni shakllantirish mexanizmlarini ajratish va asoslash, uzviy o‘zaro ta’sirda bo‘ladi va yaxlit modeli dinamik tizimini tashkil etadi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shu narsa kelib chiqadiki, bilish jarayonining samaradorligini ta’minlovchi zaruriy omil nazariy (psixologo-pedagogik) asoslar va ularning amaliy ro‘yobga chiqarilishini o‘quvchilarning faol va samarali bilish faoliyatini, ularning intellektual, kasbiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirilishini ta’minlovchi o‘qitish metodlari va shakllarining birligi kabi tushuniladigan o‘qitish texnologiyasidan foydalanishdir. Yangi texnologiyaning nazariy assi bo‘lib bilimlarni o‘zlashtirish psixologik nazariyasi hozirgi zamon yutuqlarining qoidalari, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish psixologiyasi xizmat qilishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abramova I.G. O‘yin texnikasi - Sankt-Peterburg; 1992. - 43 b.
2. Kompyuter fanining inglizcha-ruscha lug‘ati. - M.; 1990.-800 b.
3. Anikeyeva N.P. O‘yin holatining o‘ziga xos xususiyatlari // O‘yin pedagogikasi va psixologiyasi. Novosibirsk, 1985- - S. 28-49.
4. Anisimov O.S. O‘quv o‘yinlari va o‘yin texnologiyasi. Novgorod, 1989. -178 b.
5. Belavina I. Bolalar o‘yinini kompyuterlashtirishning psixologik oqibatlarini // Informatika va ta’lim. 1991 yil. 3-4-sonlar.
6. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434
7. Djumayev M.I. Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173
8. Djumayev M.I. The transformation of the English language’s variants in contemporary Great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607>
9. Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics In Uzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. *J Mathe & Comp Appli*, 2023 Volume 2(2): 1-5 ISSN: 2754-6705
10. Джумаев М.И. Перспективы совершенствования преподавания математики в школе, колледже и вузе Республики Узбекистан. Ямало-Нанеск Россия «Профессиональное образование арктических регионов» № 6(147). 2023. 3-6 ст <https://arctic-journal.ru/index.php/prof>
11. Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics In Uzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. Received: March 28, 2023; Accepted: April 03, 2023, Published: April 22, 2023 ISSN: 2754-6705 1-5
12. Djumaev M.I. Формирование элементарных математических представлений у детей в дошкольном возрасте с использованием и без наглядных материалов. Глобальный научный потенциал» , ИД ТМБпринт,

СПб.№ 6 (147) 2023 г. <http://globaljournals.ru/>

13. Djumaev M.I. Methodological principles of the student's independent work form under the supervising of the teacher in process of modern education Musaeva Nargiza Khashimjanovna Master's student of Tashkent state pedagogical university's student of Tashkent state pedagogical university <https://doi.org/10.5281/zenodo.7772930>

14. Махмутов М.И., Ибрагимов Г.И. Фикрлашни ривожлантиришнинг pedagogik texnologiyalari. - Qozon, 1993 yil.

15. Frolov M.I. Kompyuter amakining ertaklari. - M.: PK Oltoy, 1993. -64 b.



Research Science and
Innovation House

MUNDARIJA

1.	MODERNIZATSIYA DAVRIDA MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI Mallayeva Zeboxon Soibnazarovna	6-12
2.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirishda ilm-fan va tabiat markazining ahamiyati Avezova Mastura, Ahmedova Gulnoza	13-15
3.	AYOL XONANDALIGI IJODIDA “TANOVOR” ASARINING TARIXIY NEGIZLARI Imyaminjon Qirg'izov, Dildora Mamajonova	16-23
4.	DUNYO MUSIQA SAN'ATI RIVOJIDA AYOL XONANDALIGINING TARIXIY ILDIZLARI Imyamin Qirg'izov, Dildora Mamajonova Abduraxmonovna	24-32
5.	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish Shermetova Nargiza	33-36
6.	Ta'limiy o'yinlar vositasida boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning fonetik-grammatik tushunchalarini shakllantirish Baxtiyorova Mahliyo	37-44
7.	ТРАНСПОРТДАН ЙЎЛ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА ЖАРОҲАТЛАНИШ ВА ЎЛИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ Жуманиёзов К.Й., Олимова М.М, Самандарова Б.С, Бахтиерова А.М.	45-55
8.	XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYODA JADIDCHILIK HARAKATI VA IJTIMOIIY- FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTINING NAZARIY- METODOLOGIK MASALALARI Qosnazarova Palzada Quanshbaevna	56-60



9.	ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО Пайгамова З.Х	61-64
10.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlikni oshirish G.R.Karimberganova	65-67
11.	Turk tili va o‘zbek tili grammatikasining farqli va o‘xshash jihatlari Akramov Shohruxbek Olimjon o‘g‘li	68-73
12.	Global issues, impacts and proposed solutions for them Qodirova Ozoda Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi	74-78
13.	РАЗВИТИЕ КРОСС-КУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В СФЕРЕ ГОСТЕПРИИМСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ НАВЫКИ И ЭФФЕКТИВНОЕ ОБСЛУЖИВАНИЕ Атоева Махлиё Джалолитдиновна	79-98
14.	Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanida yetishtirilgan Glicina hispida L va Linum usitatissimum o‘simlik poyalaridagi aminokislotalari va elementar tarkibi D.R.Tojiboyev,N.SH.Azimov, M.Yu.Isaqov	99-109
15.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA RUS TILINI O‘RGATISHNING NOANANAVIY METODLARI Abdusamadova Kamola Farhodovna	110-114
16.	KASBIY TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI Z.L.Botirov, X.IIhomov	115-118
17.	Komil Xorazmiy g‘azallarida ishq vasfi Bo‘tayeva Nigora Abdumannonovna	119-124
18.	Jadidchilik harakatining asoschilari va ularning tarixiy tafakkuri Yusupova Laylo Umidbek qizi	125-129

19.	Фарғона водийсида учровчи ўргимчакларнинг айрим доминант турлари ҳаётий цикли ва динамикаси Бахромова Барно	130-137
20.	TABIY BIRIKMALARNING KUMUSH METALI IONIGA BIOSORBENT SIFATIDA QO‘LLANILISHI Mirsiddiqov Umidjon Baxodir o‘g‘li Egamberdiyev Xayrulla Komiljonovich Abduraxmanova Ugilay Koxxorovna Boboqulova Muxlisa Baxrom qizi	138-142
21.	REFORMS AND DEVELOPMENT PROSPECTS IN THE PUBLIC FINANCIAL SYSTEM IN UZBEKISTAN Amirova Dilshoda Hasan qizi Ochildiyeva Naima Mengziya qizi Eshmirzayeva Qurbonoy Bahromovna Mamaraimova Hilola Abduqahhor qizi	143-146
22.	Qiziqarli geografiyani bilasizmi... Mirzayeva Xilola Rajabbayevna	147-152
23.	ЎРТА ОСИЁДА МУСИҚА ИЛМИ РИВОЖЛАНИШИДА БАХШИЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ Jamoldin Muysinov	153-162
24.	Влияние масло гранатовых косточек на тимус при почечной недостаточности Хикматова Мадина Фуркатовна	163-171
25.	ОБ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА В СМЕШАННОЙ ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ, КОГДА УГЛОВОЙ КОЭФФИЦИЕНТ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОПЕРАТОРА ПЕРВОГО ПОРЯДКА БОЛЬШЕ ЕДИНИЦЫ М.Мамажонов, Х.М.Шерматова	172-178

26.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ LEKSIKASINING RIVOJLANISHI G.R.Karimberganova	179-181
27.	Onkologik kasalliklarning ilmiy manbalarda o‘rganilishi Togonova Shohida Alisher qizi	182-187
28.	Connection of translation with different fields Hamidova Feruza Komiljon qizi, Astanova Dilafruz Murodovna	188-190
29.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KREATIVLIGINI OSHIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING O‘RNI CHORIYEVA DURDONA KADIROVA SHAHNOZA	191-196
30.	TIL O‘RGANISHDA O‘RTA BOSQICHNING KO‘RIB ESHITISH KO‘NIKMASINING TAKOMILLASHUVIDA VIDEO MATERIALLARNI QO‘LLASH Abdurayimova Aziza	197-201
31.	YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI – YANGI O‘ZBEKISTONNING USTUVOR MAQSADI Kamoliddinov Shavkat	202-205
32.	ПЕРЕВОД НЕКОТОРЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ Рахат Рустамовна Аллярова Замира Атаназаровна Ибрагимова	206-210
33.	Katta guruh bolalarida ijodiy qobilyatlarni shakllantirishda musiqaning ahamiyati Ortiqboyeva Shodiya	211-215
34.	ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ И ОБЩИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СЕЙСМОСТОЙКОСТИ КОНСТРУКЦИЙ СТАНЦИЙ МЕТРОПОЛИТЕНА МЕЛКОГО ЗАЛОЖЕНИЯ Нормуродов Шахбоз Улугбекович	216-223

35.	SUT EMISH DAVRIDA YARIM OCHLIKNING, KALAMUSHLARNING O‘SISHI, RIVOJLANISHI, INGICHKA ICHAKDA SO‘RILISHI Niyozova Ra’no Maxmudovna	224-227
36.	THE IMPORTANCE OF COGNITIVE FEATURES IN TEACHING MEDIA TEXTS TO B2 LEVEL STUDENTS Firuza Yakhshibayeva	228-232
37.	MUAMMOLI VAZIYATLARNING O‘QUVCHILAR TARBIYASIGA TA‘SIRI G‘afforova Zarnigor Abdumo‘min qizi	233-240
38.	ABU RAYHON BERUNIY – BUYUK SERQIRRA OLIM Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi	241-246
39.	ASTRAGALUS DASYANTHUS L O‘SIMLIGINING TARKIBI VA XALQ TABOBATIDA QO‘LLANILISHI Muxtorova Shaxzodaxon Madaminjon qizi Xo‘jayev Vaxobjon Umarovich	247-249
40.	KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BANDLIKNI TA‘MINLASH Shirinova Shaxnoza Abdinabiyevna	250-254
41.	SHAMOLLASH TIZIMLARDA ENERGIYA TEJOVCHI USKUNALAR Avezova Nafisa Feruz qizi	255-257
42.	SINF DAN TASHQARI O‘QISH DARSLARI YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI INNOVATSION HAMDA INTEGRATSION TASHKIL QILISH METODLARI Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi	258-261
43.	ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ MASALALARI Шарифов Акмал Мамадаминович Риксибаев Хусниддин Сидикжанович	262-276
44.	Некоторые вопросы преодоления возможных ошибок студентов каракалпаков в обучении иностранного	



	<p>языка. Составления правильных предложении с немецким глаголом «hören»</p> <p>Я. Курбанов</p>	277-281
45.	<p>ASALARINING HARAKATLANUVCHI A'ZOLARI</p> <p>R.Jamolov, H. Raximov, A.Tojaliyev</p>	282-287
46.	<p>O'zbekistonda asalari zaxri yetishtirish–bu usulni xalq xo'jaligidagi ahamiyati va istiqbollari</p> <p>Jamolov Rapiqjon Qo'shmatovich, Raximov Xikmatillo, Tojaliyev Abduhalim</p>	288-293
47.	<p>Asalarilarning g'umbak oldi va g'umbaklik davri</p> <p>Jamolov Rapiqjon Qo'shmatovich, Raximov Hikmatillo, Tojaliyev Abduxalim</p>	294-298
48.	<p>O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOYA YETISHTIRISHNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI</p> <p>Raximova Xolisxon Maqsudovna Qurbonboyeva Sarvinoz Mansur qizi</p>	299-307
49.	<p>SOYA O'SIMLIGINING KELIB CHIQISHI, BOTANIK BELGILARI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI</p> <p>Raximova Xolisxon Maksudovna Abdirimova Kumushoy Hasanovna</p>	308-315
50.	<p>MAKTABGA TAYORLOV GURUXIDA BOLALAR IJODIYOTINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI</p> <p>Qo'chqorova Shaxnoza Satvaldievna</p>	316-325
51.	<p>MAKTABGACHA TA'LIMDA TRIZ TEXNOLOGTYASINI JORIY ETISH MASALALARI</p> <p>Rustamova Gulmira</p>	326-333
52.	<p>O'QUVCHILARDA TABIIY FANLARGA OID SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI</p> <p>Djumayeva Moxigul Mamanazarovna</p>	334-341



53.	ПЕДАГОГИК ЖАРАЁН ИНТЕГРАЛ ДИНАМИК ТИЗИМ СИФАТИДА Тешабоев Акрам Юлдашевич	342-350
54.	Omon Matjon ijodida arxaizmlarning qo'llanilishi Ihhombayeva Mahliyo	351-354
55.	Sayyora Samandar ijodiy faoliyati haqida Ihhombayeva Mahliyo	355-357
56.	Abdulla Oripov ijodida sinonimlarning qo'llanilishi Polvannazarova Dilnoza	358-361
57.	IQTISODIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH METOD VA SHAKLLARI Yusupov Ulug'bek Kamalovich	362-377
58.	O'QUV IJODIY FAOLIYAT JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI IMKONIYATLARI Teshabayev A.G.	378-387
59.	MUNDARIJA	388-394

Research Science and
Innovation House

